

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ORIENTAL UNIVERSITETI

M.F.Dadaxodjayeva, K. Murotmusayev, F.Abdullayeva

YOSH PSIXOLOGIYASI

*Oliy o‘quv yurtlarining 60110500 – boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishitalabarlari uchun*

DARSLIK



“Pages print” nashriyoti
Toshkent – 2024

UO‘K: 373.3.016:159.9(075.8)

KBK: 74.200ya73

D 15

Dadaxodjayeva, M.F., Murotmusayev K., Abdullayeva F.

Yosh psixologiyasi [Matn]: darslik / M.F.Dadaxodjayeva, K.Murotmusayev, F.Abdullayeva. – Toshkent: “Pages print” nashriyoti, 2024. – 336 b.

Mas’ul muharrir:

M.Axmedov – *Oriental universiteti rektori.*

Taqrizchilar:

A.Choriyev – *O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Harbiy vatanparvarlik ma’naviy marifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrası dotsenti.*

M.Toshov – *Oriental universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi (PhD).*

Ushbu darslik 60110500 – boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda yosh psixologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, prinsiplari, ta’lim metodlarining tasnifi, mazkur fanni o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

Darslik Oriental universiteti Ilmiy kengashining 2023-yil 1-noyabrdagi 2-son yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9094-4-3

© “Pages Print” nashriyoti, 2024



KIRISH

Mustaqillikka erishgunga qadar ko‘p yillar mobaynida insonning haq–huquqlarini cheklashga asoslangan ijtimoiy tarbiya – xalqqa robot sifatida munosabatda bo‘lishga, uni buyruqni so‘zsiz bajarish va itoatkorlikka odatlantirishga qaratilgani uchun haqiqiy etnopsixologik, umumpsixologik, ijtimoiy-psixologik va psixogerontologik qonuniyatlarni fuqarolardan mutlaqo sir tutgan.

Ozodlik boy ma’naviyat va ruhiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo qilmoqda. Hozirga qadar yosh davrlar (ontogenez) psixologiyasining sohalari – chaqaloqlik, go‘daklik, ilk bolalik, maktabgacha, kichik maktab, o‘smirlik, o‘spirinlik, yoshlik, yetuklik, keksayish, keksalik davrlari bo‘yicha bebaho ilmiy–amaliy ma’lumotlar to‘plangan. Endigi, ya’ni XXI asrdagi asosiy vazifa ana shu ma’lumotlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qo‘llashdan iborat. Odamga chaqaloqligidan keksalik davrigacha (ontogenezda) uning ichki imkoniyati, mayli, iqtidori, iste’dodi, qobiliyati, aql–zakovati, qiziqishi, irodasi, his–tuyg‘usi, diqqati va bilish (kognitid) jarayonlarining xususiyatlariga binoan individual munosabatda bo‘lish yosh davrlar psixologiyasining insonparvarlik g‘oyalaridan biridir. Uning muhim xususiyati har bir davrdagi rivojlanishning o‘ziga xos qulay (senzitiv) holatidan unumli foydalanishdir va faqat ana shundagina o‘shisdan orqada qolishning oldini olish mumkin.

Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish insonda o‘z vaqtida o‘zini o‘zi anglashni vujudga keltiradi. Bolada o‘zini o‘zi anglash tuyg‘usi



qancha erta uyg'onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o'z huquqini o'zi his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi. Xuddi shu asnoda injiqlik, o'jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishiga ruhiy to'siq vujudga keladi. Shaxslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, ziddiyat, inqirozni rivojlanish qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir. Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining o'zgarishi – nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda e'tiqod, dunyoqarash, ideal, muomala, muloqot, mustaqil xulq-atvorni samarali shakllantirish ko'proq yuqoridagi omillarga bog'liqdir. Kishidagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilishni, iroda sifatlarini aniqlash va ularga yosh (ontogenez) psixologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak o'qituvchilar, shuningdek, barcha fuqarolar uchun mazkur kurs bo'yicha olinadigan bilimlar juda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'qituvchi va shaxslar ijtimoiy hayotda o'ziga yuklangan turli vazifa va rollarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yosh psixologiyasi ma'lumotlarini qo'llashi shart.





1-MAVZU: YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI FANINING VAZIFALARI VA AHAMIYATI

Reja:

1. *Yosh psixologiyasi fanining tamoiyllari.*
2. *Yosh psixologiyasi fanining psixologiya sohasida alohida predmet sifatida vujudga kelishi.*
3. *Yosh psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqish sabablari.*
4. *Yosh psixologiyasi fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligi.*

Tayanch tushunchalar: *ontogenez, psixik rivojlanish, ong, senzitiv, psixika, biogenetik, sotsiogenetik, bixevioristik, psixoanalitik, psixonevrologik dispanser, yuridik psixologiya, psixoterapiya, , professiogramma, psixika, dialektika, metod, kuzatish va eksperiment metodlari, modellashtirish, grafologiya, kibernetik modellashtirish, empirik, longityud, psixofiziologiya, tibbiyot psixologiyasi, diagnos.*

Yosh psixologiyasi fanining mavzu bahsi turli yoshdagi odamlarning (bolalar, o'quvchilar, kattalar, erkaklar, ayollarning) (ontogenezda) tug'ilganidan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Yosh psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol va hokazolar) rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning har xil faoliyatini (o'yin, o'qish, mehnat kabilar), er va ayolning jinsiy tafovutlarini, shuningdek, inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.



Inson psixikasining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu sohadagi ma'lumotlarni to'plash ham mazkur psixologiyaning mavzu bahsiga kiradi. Bolaning tug'ilishidan to'voyaga yetguniga qadar har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lgunicha ulg'ayishi va shaxsining tarkib topishi muammolarini, bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharhlash yosh psixologiyasi sohasining muhim jihatidir.

Bola jamiyatning a'zosi, mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi rivojlanadi. Ana shu rivojlanish natijasida uning psixikasi, ongi go'dakning dastlabki oddiy aks ettirish (in'ikos) tarzidagi sodda ongidan balog'atga yetgan insonlarga xos tevarak-atrofnii, borliqni, odamlarni aniq, yaqqol, to'la va anglab aks ettirish darajasigacha taraqqiy etadi.

Inson zotining turli jihatlarini o'rganish bilan bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiyena, pedagogika, etnografiya kabi fanlar shug'ullangani kabi uning kamol topishidagi qonuniyatlarni, subyekt psixikasini, ongining mantiqiy mexanizmlarini, umuman, odam zotining tug'ilganidan to'voyaga yetguniga qadar psixik rivojlanishini psixologiya fanlari sistemasining alohida sohasi – bolalar psixologiyasi fani o'rganadi va tadqiq qiladi.

Bolaning psixik rivojlanishini kuzatgan psixologlar (L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.Vallon, J.Piaje va boshqalar)ning aniqlashicha, mazkur kamol topishning o'ziga xos xususiyatlarga asoslangan (senzitiv – qulay) davrlari mavjud bo'lib, ular individning o'zi yashab turgan muhitda (bog'cha, oila) tutgan o'rni, bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari, holatlari, shaxsi va ongining o'sishi darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqotchilarning uqtirishiga ko'ra, tabiat va jamiyat qonunlari singari kamol topayotgan bola shaxsi rivojlanishining ham o'z qonuniyat bor. Bu qonunlar psixologiya fanining maxsus tarmog'i – bolalar psixologiyasining predmetiga kiradi. Yosh psixologiyasi sohasi





inson psixikasi faqat miqdor jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham rivojlanishi, takomillashib borishi va o'zgarishi haqidagi metodologik hamda fenomenologik qoidaga amal qiladi.

Har bir fanning o'z predmeti borligi singari bolalar psixologiyasining ham o'zi tekshiradigan sohasi hamda tadqiqot metodlari bor.

Umumiy psixologiya psixika va uning zohir bo'lishi, rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan bo'lsa, yosh davri yoki yosh psixologiyasi turli yoshdagi insonlarning (jinslarning) psixik taraqqiyoti, psixik xususiyatlari va ularning o'ziga xos omillari, mezonlari hamda mexanizmlari haqidagi fandır. Shuningdek, u muayyan yoshdagi insonlarning faqat o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi. Shuning uchun ijtimoiy hayotda, ta'lim va tarbiyada, guruhlar hamda jamoalarda, ishlab chiqarishda, oilaviy munosabatlarda yosh psixologiyasi alohida o'rin tutadi. Inson shaxsining tarkib topishi va bilish jarayonlarining rivojlanishi muammosini shaxs psixikasining taraqqiyoti qonunlarini hisobga olmay oqilona hal qilib bo'lmaydi. Shuning uchun XXI asrga kelib «inson omili» masalasi dolzarb mavzuga aylandi.

Yosh psixologiyasi – inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda shu taraqqiyotning bosqichlari to'g'risidagi fandır.

Yosh davrlar psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart–sharoitlarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Yosh psixologiyasi ana shu vazifani hal etish bilan birgalikda amaliy maqsadlarni ham ro'yobga chiqaradi: ta'lim–tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni to'g'ri yo'naltirishga, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratishga, uzoq umr ko'rish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga, ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, kamolotning



turli davrlarini insonning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, yuqoridagi vazifalarni hal qilib bo‘lmaydi.

Mazkur psixologiya fanining sohasi alohida predmet sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizi qadimgi yunon madaniyatiga borib taqaladi. Uning predmeti va qonuniyatlari to‘g‘risida jahon psixologiyasi olamida turli qarashlar, nazariyalar mavjud. Ularning juda keng tarqalganlari biogenetik (I.Shtern), sotsiogenetik (K.Levin), bixevioristik (E.Torndayk), psixoanalitik (3.Freyd) nazariyalaridir. Shuningdek, ilmiy metodlarga asoslanib tadqiqotlar olib borgan olimlar ham juda ko‘p. Ular to‘g‘risida keyingi sahifalarda batafsil to‘xtalgan.

Ilmiy psixologik adabiyotlar, empirik ma‘lumotlarga tayangan holda yosh davrlar psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qator omillar va holatlar sabab bo‘lgan, degan xulosaga keldik. Quyida ana shularni bayon qilamiz:

- barcha fanlar negiziga kirib borgan evolyutsiya g‘oyasining (Ch.Darvin) inson psixikasining rivojlanishi jarayonida o‘rganish zarurligi;

- umuminsoniy, umumpsixik qonuniyatlar turli yoshdagi odamlar xatti–harakatini, psixik xususiyatlarini va bolalarning o‘shiga biror faoliyatning ta‘sirini aniqlash uchun yetarli emasligini e‘tirof etish;

- yosh psixologiyasi insonning (tug‘ilganidan umrining oxirigacha) kamoloti uchun metodologik va nazariy ahamiyatga ega ekanligi tan olingan;

- turli yoshdagi odamlar (maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab o‘quvchilari, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining talabalari, ishchilar, xodimlar, qariyalar har xil psixologik xususiyatlarga ega ekanligi sababli tarbiya, ishlab chiqarish, ijtimoiy–ta‘minot muassasalari, mehribonlik uylari, koloniyalar, yordamchi maktablar, internatlar, psixonevrologik dispanserlar, qariyalar uylari, shifoxonalar va boshqalar)ning xodimlarida ehtiyojlar ortib borayotgani;





– tibbiyot fani va uning tarmoqlari rivojlanishi, psixiatriya, psixonevrologiya, psixogigiya, sangigiya, bolalar va kattalar patologiyasi, neyroxirurgiya, genetika, oliy nerv faoliyati va hokazolar bo‘yicha kompleks tadqiqotlarning vujudga kelishi, psixologiya, biologiya, meditsina, sotsiologiya fanlarining hamkorligida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi, ya’ni integratsiyaning amalga oshishi;

– yuridik (huquqshunoslik) psixologiyasi va uning sohalarini ijtimoiy hayotimizda sezilarli o‘rin egallayotgani hamda yoshlar o‘rtasida qonunbuzarlikning davom etayotgani (sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitensiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi; voyaga yetmagan qonunbuzarlar muammosi va jinoyatning oldini olish masalalari);

– amaliy psixologiyaning ijtimoiy–siyosiy tus olayotgani va turmushning har bir jabhasiga kirib borishi, shuningdek, o‘z o‘rnini topayotgani (psixologik konsultatsiyalar, maslahatlar, avto va sotsial treninglar, ishbilarmonlik o‘yinlari, art va psixoterapiya, professiogramma, psixodiagnostika va hokazolarga talab ortishi);

– psixologiya fani sohalarining inson yosh davridagi o‘zgarishlarga doir, bilimlarga ehtiyoji va talabi ortayotgani (harbiy, sport, savdo, mehnat, kosmik, muhandislik, ijod, aviatsiya, reklama, menejment psixologiyalariga aniq materiallar zarurligi);

– ekologiya muammolari, zoopsixologiya va etologiya vazifalari, millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, insonparvarlik g‘oyalari turmush tarziga olib kirish masalalarining dolzarbligi (ekologiya va inson, qiyosiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, etnik psixologiya va hokazolar);

– moddiy ishlab chiqarishni ko‘paytirish, sanoatda va qishloq xo‘jaligida kishilarning haqiqiy xo‘jayinlik tuyg‘usini uyg‘otish, aqliy va jismoniy imkoniyatlarni qidirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson – inson, inson – texnika, yer – inson, inson – iqlim munosabatlarini izchil o‘rganish zarurligi;



– oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ajralishlarning oldini olish, inoq oila yaratish, yoshlarni turmushga tayyorlash, o‘z joniga qasd qilish hollarini bartaraf etish, oilada teng huquqlilikni qaror toptirish va bolalar tarbiyasini takomillashtirish vazifalari;

– inson uzoq umr ko‘rishining sirlarini – gerantopsixologik qonuniyatlarni ochish va targ‘ib qilish, davlat muassasalarida, nodavlat tashkilotlarida, psixologik bilimlardan o‘z o‘rnida foydalanish, uzoq umr ko‘rishga zamin tayyorlash, qariyalar pansionatlarida ularning ruhiyatiga mos munosabatda, odilona muloqotda bo‘lish kerakligi yosh davrlar psixologiyasi fanini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Turli yosh va har xil jinsdagi insonlar psixikasining rivojlanishi, o‘zgarishi, vatanimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning axloqiy, jismoniy kamol topishiga ijobiy ta’sir qiladigan omillar hamda shart–sharoitlarni bilish va ulardan unumli foydalanish hozirgi davrda nihoyatda zarur masala bo‘lib qoldi. Xalq ta’limi xodimlari, ishlab chiqarish va ilmiy–tadqiqot muassasalarining, qishloq xo‘jalik jamoalarining, fan, adabiyot va madaniy–oqartuv tashkilotlarining rahbarlari insonni har tomonlama kamol topgan, ma’lumotli, mahoratli, aql–zakovatli, ijodiy izlanishga moyil shaxs sifatida kamol topish jarayoni qanday sodir bo‘lishini, keksayishning xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlarini bilishga qiziqmoqdalar. Shunday ekan, tarbiya tizimida va ishlab chiqarishda psixologiya bo‘yicha bilimsizlik, chalasavodlilikni yo‘qotish uchun bolalar ruhiyatidan qariyalar ma’naviyatigacha nazariy hamda amaliy bilimlarni egallash hozirgi davrimizning muhim talabidir.

Endilikda insonni aks ettirish faoliyatining rivojlanishi qonuniyatlarini, odamning bosh miya yarim sharlari po‘stidan haqiqiy jism, obraz (timsol) sifatida ro‘yobga chiqishini, nima sababdan mazkur obraz o‘zgarishini va bu o‘zgarish kishining ruhiyatiga ta’sir qilishini tushuntirish uchun dialektik materializmning psixika tashqi dunyoni in’ikos ettiradi, degan ta’rifning o‘zi yetarli emas. Mazkur



hodisaning chuqurligini – aks ettirish jarayonini genetik metod bilan o‘rganish orqaligina asoslab berish mumkin. Psixikaga nisbatan biosfera va neosfera nuqtayi nazaridan yondashish ijobiy natija sari yetaklaydi.

Ma’lumki, go‘daklik davridagi oddiy sezishdan boshlab, mantiqiy fikr yuritishgacha o‘tadigan davr nisbatan uzundur. Endigina tug‘ilgan chaqaloq ham dastlabki soatlardan boshlab sezgi organlari yordamida atrof–muhitni aks ettirishga kirishadi. Biroq uning tafakkuri bir necha oylar, hatto, yillar davomida shakllanadi, nutq bilan tafakkurning birligi mazkur rivojlanishni amalga oshiradi. Bunday holat o‘ta murakkab hissiy bilishdan mantiqiy tafakkurga o‘tish jarayoni bosqichini tadqiq etish imkonini beradi.

Hozirgi psixologiya fani individual ong o‘shining turli bosqichlarida amaliyot bilan hissiy bilish o‘rtasidagi, amaliyot va mavhum tafakkur orasidagi juda murakkab, o‘zgaruvchan ichki munosabatlar hamda mexanizmlarni ifodalay oladi. Inson psixikasining vujudga kelishi va rivojlanishini, uning turli qirralarini o‘rganish odamning psixik o‘shisi, uning obyektiv va subyektiv sabablari, omillari, shart–sharoitlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash imkonini bera oladi.

Mazkur muammoga ilmiy yondashish insonning hayot sharoitlari, shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, sifatleri, qiziqish ko‘lami, irodaviy fazilatleri, muayyan his–tuyg‘ularining mazmuni, to‘laligi va hokazolarni yoritish demakdir. Ilmiy ishlar olib borayotgan tadqiqotchilari katta yoshdagi odamlardan hayot sharoitining tayyor mahsulini o‘rganadi, lekin bu bilan sinaluvchining psixikasi qanday vujudga kelgani, kechishi, aks ettirish xususiyatlarini tushuntira olmaydi. Ana shu murakkab jarayonni bilish uchun bolaning psixikasi turmush hodisalari hamda sharoitlari bilan bog‘liqligini aniqlab olinmasa, tajriba o‘tkazuvchi o‘zi o‘rganayotgan nazariy masalalarni ishonarli darajada isbot qila olmaydi.



Inson psixikasining rivojlanishidagi sabab–oqibat va ularning variantlari, invariantlari, modifikatsiyalari, munosabatlarini bilish bola tarbiyasida eng qulay shart–sharoitlarni vujudga keltirish uchun nihoyatda zarur.

Shunday qilib yosh davrlari psixologiyasi fanini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. U ham boshqa fanlar qatorida rivojlandi, bunda eksperimental biologiya va genetika, meditsina, sotsiologiya kabi fanlarning xizmati ham kattadir. Yosh davrlar va differensial psixologiya fani dialektikaning prinsiplariga, oliy nerv faoliyati qonunlariga, differensial psixofiziologiya qonuniyatlariga, to‘plangan materiallarga tayanib, psixologlar inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o‘zgarishi yuzasidan bahs yuritadilar. Ijtimoiy turmushning barcha jabhalaridagi amaliy masalalarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Nazorat savollari:

1. *Yosh davrlar psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan qanday ilmiy tadqiqotlarni bilasiz?*
2. *Yosh taraqqiyoti dinamikasini o‘rganish metodlarini tushuntiring?*
3. *Yosh davrlar psixologiyasining asosiy metodlari haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Tadqiqotning metodologik prinsiplari nimalardan iborat?*



2-MAVZU: YOSH PSIXOLOGIYASINING ILMIY TADQIQOT METODLARI.

Reja:

1. *Yosh psixologiyasida psixologik qonuniyatlarni tekshirish bosqichlari.*
2. *Yosh psixologiyasining maxsus metodlari.*
3. *B.G.Ananevning psixikani o'rganish bo'yicha tashkiliy, empirik, natijalarni qayta ishlash yoki statistik, natijalarni sharhlash metodlar.*
4. *Sharhlash va genetic metodlari.*
5. *Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.*

Tayanch tushunchalar: *psixoanalitik, psixonevrologik dispanser, yuridik psixologiya, psixoterapiya, , professiogramma, psixika, dialektika, metod, kuzatish va eksperiment metodlari, modellashtirish, grafologiya, kibernetik modellashtirish, empirik, longityud, psixofiziologiya, tibbiyot psixologiyasi, diagnos.*

Mazkur fan sohasi o'zining predmeti hamda vazifasini umumiy psixologiyaning asosiy prinsiplari va qoidalariga tayangan holda belgilaydi. Yosh psixologiyasi quyidagi prinsiplarga rioya qiladi.

1. Ilmiy dialektika ta'limotiga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va yoki miyaning mahsulidir. Odatda, psixika tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, nutq, xayol kabi bilish jarayonlarida, shuningdek, shaxsning xususiyatlari va holatlarida, diqqati, his–



tuyg‘usi va xarakter xislatlarida, qiziqishi va ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

2. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyat yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta‘sirning natijasida hosil bo‘ladi. Bosh miya po‘stlog‘ida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari I.P.Pavlovning nerv jarayonlarining irradiatsiyasi, konsentratsiyasi hamda induksiyasi qonunlari zahirida ro‘y beradi. Bu qonunlar turli yo‘sindagi muvaqqat bog‘lanishlar, assotsiatsiyalar qanday yuz berayotganini, qanday shart–sharoitda tormozlanishini (qo‘zg‘alishini), muvaqqat bog‘lanishlarning yo‘qolayotgani yoki paydo bo‘layotganini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog‘lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta‘sirida hosil bo‘ladi. Yuqoridagi ta‘limotga ko‘ra, har ikkala mexanizm hayvonlarning tashqi olamga munosabatini aks ettiradi. Shuning uchun psixik faoliyat voqelikni aks ettirishdan, oliy nerv faoliyatining tashqi olamni timsollar sifatida ifodalashdan iboratdir.

3. Psixikani tadqiq etish insonning butun (ontogenezidagi) ongli faoliyatini – uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o‘rganishdir. Odam zotining ongliligi uning turli–tuman faoliyatida (o‘yin, mehnat, o‘qishda), xatti–harakatlarida namoyon bo‘ladi. Inson shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo‘lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topa boradi. Bunda muhit, irsiy belgilar, shaxslararo munosabatlar, tarbiya asosiy omillar hisoblanadi.

Inson o‘zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy–siyosiy muhit ta‘siri ostida bilimlarni o‘zlashtirib boradi, ijtimoiylashadi, tarixan o‘zgaradi. Ontogenezda uning his–tuyg‘ulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, iste‘dodi, tafakkuri, ehtiyojlari,



e'tiqodlari, uni faollikka da'vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilaklari, xohishlari, pozitsiyasi ham asta-sekin o'zgarib boradi.

4. Insonning bilish faoliyati (jarayonlari) rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to'g'riroq, to'laroq va aniqroq aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo'sindagi o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o'ziga munosabati vujudga keladi.

5. Inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot ta'limoticha, insonning moddiy turmushi, u hayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosigina emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzi, umuminsoniy qiyofalari, e'tiqodlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy voqelikka munosabatlari, intilishlari, faoliyatlari, ijod mahsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir.

6. Insonning borliqni (voqelikni) aks ettirishi – faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanishi obyektiv borliqqa (voqelikka) va o'ziga faol ta'sir ko'rsatishida sodir bo'ladi. Bolaning katta yoshdagi kishilar tashkil qiladigan amaliy faoliyati, masalan, o'yini, kuzatishi, mehnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi hamda qiziqishining barqarorlashuvi, iqtidorining takomillashishiga boshqalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Bola tomonidan nutqni egallashi uning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur va xayolini) hamda amaliy faoliyatini (o'qish, o'yin va mehnatini) keskin o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar, ayniqsa, ilk bolalik davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Nutqning vujudga kelishi bola shaxsining rivojini tezlashtiradi, shaxslararo muloqotni, munosabatlarni yuqori darajaga ko'taradi.

Rivojlanish, taraqqiyot, kamolot inson shaxsining tarkib topishi jarayonidir. Rivojlanish o'zaro uzviy bog'liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Bola aql-zakovatining ko'rsatkichi, sifati, xarakteri uning



atrofdagi odamlar bilan kundalik munosabatlari va amaliy faoliyatida vujudga keladi, o‘zaro ta’sir (savol–javob) natijasida unda aqlning ijodiy mahsuldorligi, teranligi, tezligi orta boradi. Hozirgi davrda insonning rivojlanishi yanada jadallashtiruvchi vositalar mavjud va uning aqliy o‘shish darajasini test (sinov)lar bilan aniqlash mumkin. Yosh psixologiyasi predmeti talim rivojlanishni o‘z ketidan ergashtirib boradi (L.S.Vigotskiyniki), degan qoidaga amal qiladi. Bizningcha, XXI asrda bu talqinni o‘zgacha tarzda ifodalash maqsadga muvofiq: taraqqiyot ta’limni o‘z ortidan yetaklaydi (E.G‘oziyevniki).

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda va insonning ontogenezida psixik rivojlanishini mukammal bo‘lmasa–da, ochib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan umumiy, nazariy qoidalar, ya’ni prinsiplar mavjud. Ana shu prinsiplar asosida turli yosh va jinsdagi odamlarda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida metodologik va metodik xatolarga kamroq yo‘l qo‘yiladi. Shunday ishlarda inson tug‘ilganidan umrining oxiriga qadar qanday o‘zgarib borishi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash mumkin.

Umuman, psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Shular to‘g‘risida umumiy psixologiya kursida keng ma’lumotlar berilgan. Yosh davrlar va differensial psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa sohalari singari o‘ziga xos ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Quyida sobiq ittifoq psixologi B.G.Ananevni tavsiya qilgan klassifikatsiyasiga asoslangan holda mazkur metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan.

B.G.Ananev psixikani o‘rganish metodlarini to‘rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik natijalarni sharhlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o‘zining maqsad va vazifasi bo‘yicha yana bir nechta toifa hamda turlarga bo‘linadi. Quyida mazkur metodlarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsifi berildi.

Tadqiqot metodlarining birinchisi, ya’ni tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb



atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o‘zaro taqqoslash), tibbiyot psixologiyasi (sog‘lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash), sport psixologiyasi (sportchilarning holati, uquvliligi va ishchanligini o‘zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalaniladi.

Yosh davrlar psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o‘zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o‘ziga xosligi kabilarni o‘rganishda qo‘llanadi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smironov, B.G.Ananayev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go‘daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o‘smirlik, o‘spirinlik yosh davrlarni o‘zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan. Keyingi yillarda xalq ta’limi tizimi va ishlab chiqarishda «inson omili» muammosining ko‘tarilishi, vaqt taqchilligi, ishchanlik imkoniyati, psixologik moslik masalalarining alohida ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng qo‘llashni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, tajribada olingan ma’lumotlarning ishonchliligini oshirishda ham qiyoslash metodi qo‘llanadi. Ayniqsa, sinaluvchilardagi o‘zgarishlarni ajratib olib qarash, tadqiqotning bosqichlarini alohida-alohida tahlil qilish, masalan, tajribaning birinchi bosqichi turli yoshdagi va jinsdagi odamlarga qanday ta’sir etganini aniqlash va hokazolar mazkur metodga diqqat-e’tibor ortib borayotganidan dalolatdir.

Yosh davrlar psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir davrda longityud (uzluksiz) metodi ham qo‘llanadi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o‘n yillab tekshirilishidir. Longityud metodidan psixologlardan nemis V.Shtern, fransuz R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytis, V.S.Muxina va boshqalar ko‘p yillardan beri foydalanmoqdalar.



Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan–Husan, Fotima–Zuhra) yoki aralash jinsli (Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) egizaklar kuzatilgan. Shuning uchun qator tadqiqotlarning “ona kundaligi” (N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina) deb nomlanishi bejiz emas. Uzoq vaqt bir shaxsni (kichik guruhni) kuzatish unda paydo bo‘layotgan yangi fazilatlarining rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni (xatti-harakat) va ularning oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlari, ichki bog‘lanish qonuniyati, mexanizmi to‘g‘risida mukammal, ishonchli, barqaror ma‘lumotlar to‘plash imkonini yaratadi.

Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o‘ziga xosligini, obyektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta’siri o‘rganiladi. Chunonchi, egizaklarning o‘xshashligi va tafovuti, ta’sirlanishi, his–tuyg‘usining o‘zgarishi, kishilar o‘rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazolar) bo‘yicha ma‘lumotlar olish longityud metodi bilan amalga oshadi.

Hozirgi davrda fan va texnika taraqqiyoti psixologik tekshirishlarning ilmiylikini yanada oshirish uchun (subyektiv omillarning ta’sirini kamaytirish maqsadida) yaxlit dastur asosida boshqa fanlar (tibbiyot, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, falsafa, mantiq va hokazolar) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Amaliy yo‘sindagi ilmiy–tadqiqot ana shu ko‘p qirrali (kompleks) yondashishni talab qiladi. Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos, tibbiyot psixologiyasi, muhandislik yoki aviatsiya psixologiyasida tadqiqot obyektiga tizimli yondashish tamoyili amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o‘rganilayotgan obyektidagi o‘zgarishlar turli nuqtayi nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o‘zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo‘lsa, kompleks yondashish ta’sirida ana shu o‘zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik



xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o‘rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyatga molik bo‘lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining ikkinchi guruhi empirik metodlardan iborat bo‘lib, bu guruhga kuzatish (o‘zini o‘zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, so‘rov, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tahlil qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnoma, hujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz (aniqlash) va prognoz (oldindan belgilash) vazifalarini bajaradi. Insonda tug‘ilganidan umrining oxirigacha sodir bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlarni chuqurroq va obyektivroq tadqiq etish uchun empirik metodlardan navbati bilan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo‘linadi. Psixologik–pedagogik tadqiqotlarda, ko‘pincha, quyidagi statistik metodlardan foydalaniladi.

To‘plangan miqdorlarni ishlab chiqishda mana bu formulalarni qo‘llash mumkin:

1) $M = v/n$ formulasi o‘rtacha arifmetik qiymatni topish uchun ishlatiladi.

M – yig‘indi, v – variatsion miqdor, n – sinaluvchilar yoki obyektlarning sanog‘ini bildiradi.

2) $\sigma = \sqrt{c/n - 1}$ formulasi son qatoridagi o‘rta kvadrat og‘ishni hisoblashda yoki standart og‘ishni aniqlashda ishlatiladi. σ – kvadratik og‘ish, c – dispersiya, n – miqdor.

3) $S = \Sigma (v - M)^2$ – son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash formulasi. U ba‘zan “S” – dispersiya deb ham ataladi.



4) psixologik tajribalarda olingan miqdorning, qoʻllangan metodikaning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Styudent mezonidan foydalanish mumkin:

$$t = (X - \bar{X}) / \sigma$$

Bunda t – ishonchlilik belgisi, X – son qatoridagi yuqori ball, \bar{X} – oʻrtacha arifmetik miqdor, σ – kvadratik ogʻish alomati.

Psixologik tajribalarda Myordokning koʻchish foizlarini aniqlovchi formula:

$$(\varepsilon - S) / (\varepsilon - S) \cdot 100;$$

bunda, ε – sinaluvchilarning toʻgʻri va notoʻgʻri javoblarini hisoblashga xizmat qiladi. Ikkala miqdorning nisbati birining ikkinchisidan qay darajada yuqori ekanini koʻrsatadi. Bunda “S” – nazorat, tajriba guruhni anglatadi.

Tafakkurning soʻz–mantiq tejamkorligi xususiyatini aniqlashda quyidagi formula qoʻllanadi (3.I.Kalmikova tadqiqotlarida):

$$TST = \varepsilon R1 / \varepsilon R2 ;$$

$\varepsilon R1$ – sinaluvchilar topshiriqni bajargani uchun olgan ballar yigʻindisi; $\varepsilon R2$ – sinaluvchilar maksimal darajada ballar toʻplashi mumkin boʻlgan imkoniyatlar. Topshiriq yechimi uch balli shkala bilan oʻlchanadi. Toʻgʻri yechgani uchun “2” ball, notoʻgʻri yechgani, yechishga intilgani uchun “1” ball va nihoyat, mutlaqo yechmagani uchun “0” ball qoʻyiladi.

Yuqoridagi statistik metodlar tajribalarda olingan qiymatlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday metodlar haddan tashqari koʻp va biz ularning eng soddalariga toʻxtab oʻtdik, xolos.

Toʻplangan materiallarni psixologik tahlil qilish metodi mazkur fan uchun alohida ahamiyatga ega. Unda aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi), tekshiruvchi tajribalarda olingan har xil shakldagi maʼlumotlar turli prinsip, pozitsiya, koʻp qirrali (kompleks) va yaxlit (sistemali) yondashishga asoslanib mantiq yordamida psixologik tahlil qilinadi. Barcha fikr va mulohazalar ishonchli omillar orqali



isbotlab beriladi, psixologik qonuniyat, qonun, xususiyat, xossa, holat va kamolotning o‘ziga xosligi asoslanadi. Material alohida guruhlar va sinflarga ajratiladi, psixologik voqelikning boshqa jihatlari bilan uzviy sababiy bog‘liqligi, ichki murakkab munosabati bayon qilinadi, sinaluvchilar muayyan toifalarga kiritiladi va tadqiqotdan yakuniy xulosa chiqariladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining to‘rtinchisi – sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir. **Genetik metod** bilan tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar yaxlit holda maqsadga muvofiq yo‘sinda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi – sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonlarining o‘zgarishiga tajriba natijasiga suyangan holda ta’rif hamda tavsif berishdir. Shuningdek, bunda, mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo‘lish davri, bosqichi hamda ba’zi mashaqqatli daqiqalarga, paytlarga qo‘shimcha sharhlar berish imkoniyati tug‘iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o‘zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog‘liqligining ildizi aniqlanadi. Tanlash metodi bilan tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o‘zgarishlar, o‘ziga xoslik, o‘zaro aloqa, o‘zaro ta’sir va uyg‘unlikning o‘zaro bog‘lanishlari o‘rganiladi. Jumladan, inson nutqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda birgalikda qatnashishi bunga yorqin misoldir. Bunda, har bir bilish jarayonining ulushi ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta’kidlanadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab beriladi.

Lekin tajribada to‘plangan ma’lumotlarni sharhlash uchun yuqoridagi metodlarning o‘zi yetarli emas. Buning uchun uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun yig‘ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharhlanadi. Tadqiqotning birinchi – tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun yoki qonuniyat to‘g‘risidagi taxmin, faraz tahlil qilinadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o‘tkazish prinsipi, sharoiti, obyektiv va subyektiv omillar bo‘yicha mulohaza



yuritiladi. Uchinchi bosqichda esa olingan miqdoriy natijalar qayta ishlanadi va bu ham, o‘z navbatida, to‘rt pog‘onaga bo‘linadi:

a) empirik materialni birlamchi tahlil qilish: alohida olingan yoki topilgan omil, alomat, ko‘rsatkich, mexanizm, xususiyat sharhlanadi;

b) tahlil qilingan miqdoriy materiallar bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharhlanadi;

d) ikkilamchi tahlil; barqaror, ustun dalillar ajratiladi;

g) ikkilamchi sintez: psixologik qonun, qonuniyat, topilgan dalil omil bilan tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosa chiqariladi.

To‘rtinchi bosqich – sharhlashda har bir fakt, alomat, ko‘rsatkich, mexanizm xossa, psixologik jihatdan so‘z– mantiq orqali tahlil qilinadi. Barcha ilmiy–amaliy mulohazalar isbotlanadi, buning natijasida hech bir shubhaga, e‘tirozlarga o‘rin qolmaydi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi, o‘rganilishi zarur muammoning ahamiyati va istiqboli to‘g‘risida mulohaza qilinadi.

Endi tajribada eng ko‘p qo‘llanadigan empirik metodlar haqida kengroq ma‘lumot beramiz.

Kuzatish metodi. Yosh davrlar psixologiyasida bu metodning obyektiv (tashqi) va subyektiv (o‘zini o‘zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni har xil vaziyatlarda kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatiladigan obyekt tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi; 4) tadqiqot o‘tkazish vaqti rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha vaqt davom etishi qat‘iylashtiriladi; 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o‘yin, o‘qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o‘tkazilishi) tayinlanadi; 8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon, kinokamera, mobil telefon va boshqalar) taxt qilinadi.



Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his–tuyg‘ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo–ishoralari, sezgirligi, xulq–atvori, nutq faoliyati va hokazolari o‘rganiladi. Ammo o‘ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql–zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan, go‘dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o‘yinchoqlarga munosabati, his–tuyg‘usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O‘quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo‘zg‘atuvchi bilan ta’sirlanishi, temperamenti, xatti–harakatining sur‘ati, emotsional kechinmasining o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plashga imkoniyati tug‘iladi. O‘spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his–tuyg‘usining o‘zgarish xususiyatlari, g‘alabaga intilishi, o‘zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig‘ish mumkin. Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o‘z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o‘zini tutishi, imo–ishoralari, tashqi qo‘zg‘atuvchidan ta’sirlanish darajasi haqida keng ma’lumotlar yig‘iladi. Keksalarning muloqot jarayonini kuzatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his–tuyg‘usi, ekstravertivligi yoki introvertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyatlarini aniqlash demakdir.

Tashqi kuzatishda ba‘zan tafakkur bo‘yicha ham ma’lumotlar olish: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan obyektga yo‘naltirilganini, tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko‘zdagi g‘ayritabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o‘zgarishni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo‘lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar bo‘yicha ma’lumot beradi.

Psixologiya fanida o‘zini o‘zi kuzatishdan (introspeksiyadan) ham foydalaniladi. Ko‘pincha, tajribali psixolog yoki o‘rta, maxsus o‘rta va oliy ta’lim tizimidagi yuqori malakali mohir o‘qituvchi



o‘zini o‘zi kuzatish orqali ilmiy xulosa chiqara biladi. Masalan, o‘z tafakkurini kuzatib o‘zidagi emotsional o‘zgarish haqida, shuningdek, tafakkurning ichki mexanizmlari vujudga kelishi va kechishi haqida ma’lumot oladi. Fikrlash faoliyati zaiflashganini sezadi. Natijada, tafakkurning sifati, mazmuni, mohiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda ro‘y berishini kuzatadi.

Uzoq va yaqin chet el psixologiyasida o‘zini o‘zi kuzatishning inson ruhiyatini o‘rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy–amaliy materiallar to‘plangan. Introspeksiya yo‘nalishining yirik namoyandalari o‘zlarini o‘zlari kuzatganlar va to‘plagan materiallarini tahlil qilib umumiy psixologik qonuniyatlarni yaratishga harakat qilganlar. Lekin inson turli vaziyatlarda o‘zini bir xil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati unchali katta emas, lekin hozirgi zamon elektron apparatlari mazkur jarayonni kuchaytirish imkoniyatiga ega.

Shunday qilib, kuzatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Shu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanib tadqiq qilinadi.

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o‘rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obykti va su‘byekti tanlanadi, mavzusi, o‘tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o‘tkazish rejalashtiriladi, o‘rganilayotgan narsa bilan uzviy bog‘liq savol–javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql–zakovati, xulq–atvori, qiziqishi, tiyrakligi, bilim saviyasi, e‘tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to‘g‘risida ma’lumotlar olinadi, Suhbat chog‘ida o‘zaro izchil bog‘langan savollar beriladi:

– Xotira deb nimaga aytiladi?

– Xotira idrok qilingan narsa va hodisalarni esda qoldirish, mustahkamlash hamda zarur vaqtda esga tushirishdan iborat psixik jarayondir.



- Xotiraning nerv–fiziologik asoslari nimalardan iborat?
- Xotiraning nerv fiziogik asoslari bosh miya katta yarim sharlari qobig‘ida muvaqqat nerv bog‘lanishlarining hosil bo‘lishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvidir.
- Xotiraning samaradorligi nimalarga bog‘liq?
- Esda olib qolishda harakatning tugallanmaganligiga, shaxsning qiziqishi va mayllariga, faoliyatga munosabati, kayfiyati va irodaviy zo‘r berishiga, xarakterologik sifatlariga bog‘liq.
- Xotiraning qanday turlari mavjud?
- Harakat, obrazli, so‘z– mantiq, emotsional, qisqa va uzoq muddatli, operativ, ixtiyorsiz, ixtiyoriy, produktiv, reproduktiv, faol va sust xotira turlari bor.

Suhbat paytida fikrlar mantiqiy izchillikka ega bo‘lishi shart. Biroq mashg‘ulot sinaluvchilarni toliqtirib qo‘ymasligi, ularning yoshiga, saviyasiga, mutaxassisligiga mutlaqo mos bo‘lishi zarur.

Dialog shaklidagi suhbatlar ham o‘z ko‘lami, mohiyati, mazmuni, shakli, xususiyati, sur‘ati, mavzusi, obyektga yo‘nalganligi bilan bir-biridan farqlanadi. Suhbatning yana bir turiga misol:

- Opajon, eson–omon yuribsizmi? Uydagilaringiz yaxshimi?
- Opang qoqindiq, ming qatla shukur, tinch yuribmiz.
- Nechuk, qanday shamol uchirdi?
- Ko‘zimdan o‘taverding, o‘taverding, keyin yo‘lga otlandim.
- Qiynalmasdan yetib keldingizmi?
- Aytarli qiynalmadim. Avval avtobusga, so‘ng tramvayga o‘tirdim, lekin metroga tushgim kelmadi.

Suhbat metodining yuqorida ta’kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytariq so‘zlar, «g‘aliz» iboralar, nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘ladi. Shuningdek, savol–javobning bir xil shaklda emasligi, sinaluvchida o‘ziga xos ishlash uslubi, oshkoralik yetishmasligi, iymonish, uyalish atroflicha ma’lumotlar



olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu – metod yosh davrlar psixologiyasida keng qo‘llanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o‘yinchoqlar, modellar, yozgan she‘rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to‘plash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o‘rtasida muloqot o‘rnatish uchun shaxsning psixikasi to‘g‘risida sirdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy kashtachilik, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, ilmiy ma‘ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko‘rsatmali qurollar, loyiha, magistrlik, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va hokazolar kiradi. Bular turli yoshdagi va jinsdagi odamlar, har xil kasb egalari tomonidan yaratilgan bo‘lishi va shunga ko‘ra shakli, mazmuni, sifati, originalligi, katta–kichikligi, xususiyati, mazmun-mohiyati bilan bir–biridan keskin farqlanishi mumkin.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o‘quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar, keksa yoshdagi qariyalar psixik xususiyatlari, mahorati, salohiyati, ijodiyoti to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plash mumkin. Lekin insondagi psixik o‘zgarishlar, kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig‘ish uchun mazkur metodning o‘zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o‘rganish maqsadida boshqa usullardan ham foydalangan ma‘qul.

Test metodi. Test – inglizcha so‘z bo‘lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o‘rishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llanadigan qisqa standart



masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi. Test, ayniqsa, odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi. Test metodining qimmatli tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir.

1905-yildan, ya'ni fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi T.Simon insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi.

Chet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar. Biroq test tekshirilayotgan hodisalarning psixologik mezoni hisoblanmaydi. Malumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilan amalga oshiriladi. Chet el testologlari tadqiqot obyektlarini o'zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog'liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar. Psixologlar K.M.Gurevich, V.A.Krutetskiy va boshqalar qo'llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsip asosida tuzilgan. Ular testlarning tafakkur ko'rsatkichi (indikator) bo'lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga erishdilar. Shuningdek, tafakkur jarayonining sifat xususiyatlarini bilmay turib, qobiliyatning mohiyatini yoritib bo'lmaydi, degan qoidaga amal qilgan holda testlardan foydalanmoqdalar.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan G.Rorshax, S.Rozensveyg, R.Kettel, D.Veksler, G.Meyli, G.Ayzenk, A.Anastazi, Dj.Raven, G.Myurrey, R.Amtxaer, M.Rokich, Dj.Rotter, M.Lyusher, Dj.Gilford va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini



baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs "loyihasi" (proyektid) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs xususiyatining "loyihasi" ishlab chiqiladi) kiradi.

Bizningcha, testlarni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

– natijaga erishuv testlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar aniqlanadi; ular harakat, yozma va og'zaki testlarga bo'linadi);

– intellekt testlari;

– kreativlik (ijodiyot) testlari;

– kriterial-oriyentir testlari (mezoniy mo'ljalga yo'naltirilgan);

– shaxs testlari;

– iste'dod (qobiliyat) testlari;

– projektiv testlar (syujetli testlar, rasm testlari, chizilgan va chizish talab qilinadigan testlar);

– kognitiv testlar.

– Psixologiya fanida testlashtirish mana bu ijtimoiy tuzilmalarga yo'naltiriladi:

a) uzluksiz ta'lim tizimiga;

b) kasbiy tayyorlash va saralashga;

d) keng ko'lamlı psixologik maslahatga.

Tajriba (eksperiment) metodi. Ushbu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o'spirin, balog'atga yetgan va qarilar) ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o'sishi, favquloddagi holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning



uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, obyektiv tarzda har xil holat va vaziyatlarni yaratishi, bunda, sinaluvchining yoshi, aql–idroki, xarakter, xususiyati, his–tuyg‘usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko‘nikma va malakalariga e‘tibor berishi lozim.

Tajriba metodi, o‘z navbatida, tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik–pedagogik masalalarni hal qilishda qo‘llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 – yilda A.F.Lazurskiy ta‘riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a‘zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o‘qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o‘zgarishlari, o‘zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o‘rganishda sinaluvchilar (bog‘cha bolalari, maktab o‘quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar)ning o‘zlari bexabar bo‘lishi, ta‘lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Laboratoriya (klinika) metodi, ko‘pincha, individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblardan, yo‘l–yo‘riqlar, tavsiyalar, ko‘rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o‘zgarishlarni aniqlaydigan asboblardan, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama va jihozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o‘lchashda qo‘llanadi. Ko‘pincha, detektorlar, elektron va radio o‘lchagichlar, sekundomer, reflaksometr, xronoreflaksometr, luksmetr, anomaloskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.



Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari emotsional hamda irodaviy va aqliy zo‘riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko‘pincha, laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko‘tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko‘rsatishi bo‘yicha o‘zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsional–irodaviy, asabiy zo‘riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo‘layotganini ifodalovchi ma’lumotlar olinadi.

Tajriba aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi) va tekshirish (nazorat) qismlariga bo‘linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat o‘yin, mehnat, o‘qish kabi faoliyatlarda tadqiq qilinadi. Tadqiqot obyektining aynan shu paytdagi holati, imkoniyati aniqlanadi, lekin tekshiruvchi sinaluvchiga subyektiv ta’sir o‘tkazmaydi. Shu pallada sinaluvchiga, hatto yo‘llovchi savollar bilan ham yordam bermaslik tajribaning prinsipi hisoblanadi.

Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish, shuningdek, ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani, yo‘l–yo‘riq va usulni o‘rgatish rejalashtiriladi. Tajriba yakka, guruh va jamoa tarzida o‘tkazilishi mumkin. Buning uchun tajriba materialining hajmi, ko‘lami, qancha vaqtga mo‘ljallanganligi, nimalar o‘rgatilishi, sinaluvchilarni psixologik jihatdan tayyorlash oldindan belgilab qo‘yilishi shart.

Tekshirish (nazorat) tajribasida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo‘l–yo‘riq, ko‘nikma, malaka va shaxs fazilatlarining darajasini, barqarorligini aniqlash, ta’sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o‘lchanadi. Mazkur tajribada ham tekshiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berishi mumkin emas, aks holda tadqiqot o‘tkazish prinsipi buziladi.



Aniqllovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi tajribalarda yig'ilgan ma'lumotlar, miqdor-statistik metodlardan foydalangan holda ishlab chiqiladi, shuningdek, miqdor tahlili o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi. Statistik metodlar yordamida insonning bilish jarayonlari bilan uning individual-tipologik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi va ta'siri (korrelyatsiyasi) bilish jarayonlarining his-tuyg'u bilan boshqarilishi, aql-zakovat omillarini tahlil qilish amalga oshiriladi. So'ngra miqdorning hamda qo'llanilgan metodikaning ishonchlilik, aniqlik darajasi ko'rib chiqiladi. Ungacha ham matematik statistikaning sodda metodlaridan foydalanib ayrim hisoblashlar, masalan, o'rtacha arifmetik qiymat, miqdorlarni tartibga solish va medianani hisoblash, kvadrat chetga og'ishni topish va boshqalar amalga oshiriladi.

Hozir injener (muhandis) psixologlar matematiklar bilan hamkorlikda inson psixikasining modelini yaratish ustida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar, shuningdek, mediklar, fiziologlar, kibernetiklar psixikani programmalashtirishni nihoyasiga yetkazmoqdalar. Ishlab chiqarishdagi "sun'iy intellektlar", robotlar, EHMLar ana shu izlanishlarning dastlabki samarasi hisoblanadi.

Biografiya (tarjimayi hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimayi holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgaralar ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgaralar tomonidan to'plangan tarjimayi hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tasniflar, baholar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, mobil telefon tasvirlari va hokazolar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimayi hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar; she'riyat,



musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o'ziga xosligini, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Inson ongining xossasi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atoqli odamlar bildirgan mulohazalarda o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rif-u tavsiflari orqali avlodan-avlodga o'tadi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Yosh davrlar psixologiyasida bolalarning tarjimai holi asosidagi ilmiy tadqiqotlar, masalan, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinaning kuzatishlari "Ona kundaligi" nomi bilan mashhurdir. Shunday tadqiqotlar chet el psixologiyasida ham keng tarqalgan.

Badiiy adabiyotda yaratilgan talay asarlar, masalan, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, S.Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa qator adiblarning esdaliklari tarjimai hol shaklida bo'lib, ular bilan tanishish natijasida mualliflarning his-tuyg'usi, temperamenti, xarakteri, qobiliyati, iste'dodi, qiziqishi, intilishi, mayli, layoqati, dunyoqarashi, e'tiqodi, nafosati, axloq va odobi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

Anketa metodi. Yosh davrlar psixologiyasida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi.

Anketa, odatda, uch shaklda tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchisida esa har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va



qobiliyatlarini, o‘ziga, tengdoshlariga, katta-kichikka munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig‘ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so‘ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo‘sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o‘rganish uchun boy material to‘plash imkonini beradi. Lekin unda olinadigan ma‘lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo‘lavermaydi. Bu kamchilikka yo‘l qo‘ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sotsiometrik metod. Mazkur metod kichik guruh a‘zolari o‘rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o‘rganish va ularning darajasini o‘lchashda qo‘llanadi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Ushbu metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a‘zoning o‘zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so‘raladi. Olingan ma‘lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko‘rsatkichlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlar to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma‘lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko‘rinishini aks ettiradi, xolos. Shuning uchun hozir Ya.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o‘zgartirilgan turlari ishlab chiqilgan. Bular shaxslarning bir–birini tanlashi motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, sotsiometriyaning Ya.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o‘zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to‘laroq axborot beradi.

Odatda, o‘quvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: “Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?”, “Sessiyaga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?”, “Kim bilan qo‘shni bo‘lib yashashni yoqtirasan?”

Har bir savol sotsiometrik mezon (o‘lchod) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olingan. Sinaluvchi har bir savolning uchta



javobidan bittasini “eng ma’qul” deb tanlashi lozim. Unga, “avval, hammadan ko‘ra ko‘proq kim bilan birga bo‘lishni xohlasang, o‘shaning familiyasini yoz”, “agar sen istagan shaxs to‘g‘ri kelmasa, yana kim bilan birga bo‘lishni istasang, shuning familiyasini yoz”, “aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz” deb uqtirish lozim.

Guruhiy tabaqalanishni ko‘rsatish uchun sotsiogramma to‘rtta “maydon”ga ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o‘g‘il bolalar esa uchburchaklar yordamida belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a‘zolarining o‘zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog‘langanida o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatga ega bo‘lgan sinaluvchi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruh a‘zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. Shaxslar bilan aloqa o‘rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi “maydon”larga o‘rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. Tekshirishda, birinchidan, shaxslararo munosabatning darajasi va ko‘lami aniqlanadi, ikkinchidan, qizlar bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Ko‘rsatkichlarga qarab guruhdagi munosabatlar yoki qizlar bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi munosabatlar va ularning o‘ziga xosligi, psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi. Shu bilan birga nazariy ahamiyatga molik g‘oyalar olg‘a suriladi, amaliy ko‘rsatmalar beriladi, tavsiyalar bildiriladi.

Yosh davrlar psixologiyasida tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatni o‘lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma–ket javob qaytarish orqali guruh a‘zolarini o‘zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktab sinflari, o‘quvchilar munosabatlari, dam olish manzillari, oliy maktablar, mehnat jamoalari va turli muassasalarning xodimlari o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sababi



shu metod yordamida o‘rganiladi. Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib hamda qoidaga binoan muvofiqlashtiriladi, tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy–psixologik hamda umumpsixologik ildizlari to‘g‘risida ma’lumotlar olinadi. Shu bilan birga guruhlardagi shaxslarning yaqqol, aniq nuqtayi nazari, guruhbozlik, og‘machilik, qarama–qarshilik, his–tuyg‘uning zo‘riqishi, guruhiy jipslik, moslik, munosabatning motivlari, qurilishi, jinslar o‘rtasidagi muloqotlarning zamini hamda sehri mana shu kalit yordamida ochiladi.

Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Nazorat savollari:

1. *Yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan qanday ilmiy tadqiqotlarni bilasiz?*
2. *Yosh taraqqiyoti dinamikasini o‘rganish metodlarini tushuntiring?*
3. *Yosh davrlar psixologiyasining asosiy metodlari haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Tadqiqotning metodologik prinsiplari nimalardan iborat?*



3-MAVZU: YOSH PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Reja:

1. *Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi.*
2. *Shaxsning psixik taraqqiyoti masalasi.*
3. *Psixik rivojlanishning shart-sharoitlari.*
4. *Psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.*
5. *Taraqqiyot nazariyalari.*
6. *Psixik taraqqiyot va ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabat.*

Tayanch tushunchalar: *shaxs, psixika, individ, evolyutsiya, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, rol, person, psixoanaliz, "Men", xarakter.*

Shaxs tushunchasi “yuz”, “soxta qiyofa” so‘zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida “soxta qiyofa” so‘zi «rol», ya‘ni odam boshqalar bilan muloqotda bo‘lganida kiyib oladigan biron-bir ijtimoiy niqob ma‘nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha “**persone**” so‘zi ham shu ma‘noni anglatadi. *Personare – niqob ortidan so‘zlashish.* Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida aktyor sahnaga u yoki bu – yovuz, laganbardor, payg‘ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqardi. Niqobning bo‘yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning axloqiy belgilariga ishora edi.

Qadimgi Yunonistonda “shaxs” tushunchasiga mos keluvchi atama ishlab chiqilmagan edi. O‘zining betakror taqdiriga ega bo‘lgan shaxs haqida Aflotun bilmas edi, bilishni ham xohlamasdi. Uning



o‘rnini ruh egallagan edi. Arastuning “Jon haqida” asari hozirgi zamon psixologiyasiga yo‘l ochib berdi. Qadimgi Rim oldinga qadam tashladi. Rim huquq ilmida yunoncha boshning yuz qismini, tashqi ko‘rinish, bundan tashqari, tragediyada ishtirok etuvchi ijrochini belgilovchi prosopon o‘rniga, lotincha persona so‘zi qo‘llanildi, bu so‘z avvaliga yunoncha so‘zga o‘xshab, tragediyadagi aktyorning roli va niqobini anglatar edi. Lekin keyinchalik alohida individning nomi sifatida saqlanib qoldi. Rim fuqarosi huquqiy va diniy zot, avlodlar ism-sharifi va mulk egasi sifatida ta’riflanadi.

Sharqda umuman boshqacha holat edi. Induizm va buddizmda shaxs inkor etilib, faqatgina “o‘zlik” e’tirozsiz tan olinadi.

K. Yungning psixoanaliz nazariyasiga asosan «shaxs» tushunchasi odamning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq. Hayoti jarayonida u ijtimoiy talablarga mos ravishda o‘zini tutishni o‘rganadi. Har bir kasb uchun, masalan, jamiyat a’zosi taqib yuradigan ma’lum niqob xosdir. Shaxs xarakterini tashkil etuvchi bo‘lib hisoblanmaydi, lekin u bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ichki “men”ning himoyasi sifatida faoliyat yuritadi.

Ko‘p tillarda mavjud bo‘lgan “o‘zlikni yo‘qotish” iborasi o‘zining egallab turgan o‘rnini va darajasini yo‘qotishni bildiradi.

Sharq tillarida (xitoy, yapon) shaxs tushunchasi odamning yuzi bilan emas, balki butun tanasi bilan bog‘lanadi. Yevropa an’analari yuz tana bilan birgalikda o‘rganiladi, chunki inson chehrasi ruhining timsolidir, xitoyliklar tafakkurida esa «hayotchanlik» tushunchasiga individning ham ma’naviy, ham vujudiy sifatleri kiradi. Shu asosda, avval boshidan “shaxs” tushunchasiga ma’lum hayotiy rollarni ijro etganda o‘ziga xoslikka ega bo‘ladigan tashqi, yuzaki ijtimoiy obraz qandaydir “shaxs”, atrofdagilarga qaratilgan ijtimoiy yuz ifodasi kiritilgan edi. Pedagogika, psixologiya va falsafada shaxsga o‘xshash ko‘plab qarama–qarshi ta’riflari keltirilgan ilmiy tushunchani uchratish amri mahol.



Mashhur ruhshunos V.Zinchenko fikriga ko‘ra: “Inson” tushunchasi bilan faqat «shaxs» tushunchasi raqobatlashishi mumkin».

Olim D.B.Elkonin adabiyotlarda shaxsning yigirmaga yaqin ta’rifini ko‘rib chiqqanidan so‘ng uning o‘zi shaxs emasligini xulosa qildi. Narx tushunchasini tilla tanga yoki qimmatli qog‘ozning fizik–kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bilan tushuntirish qiyinchilik tug‘dirgani kabi faylasuf E.V.Ilenkovning yozishi bo‘yicha, shaxs sir–sinoatini inson miyasi xususiyatlariga tenglashtirib bo‘lmaydi. Shaxs miya tuzilishi bilan emas, balki insonning insonga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanadi. Voqea shaxs o‘zini “umumiy natijalar” nomini olgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarni yaratishda anglaydi. Aflotun va Spinoza, Betxoven va Napoleon, Tolstoy va Mikelandjelo – bu kabi, odatiy holatlarni sindiradigan ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar mujassam bo‘lgan shaxslarni boshqalar bilan adashtirib yuborish mumkin emas. Shaxslar ko‘lami, E.A.Ilenkovning odilona fikriga ko‘ra, faqat ularnigina emas, boshqalarni ham qiziqtiradigan o‘zlarining faoliyatlari ko‘lami bilan o‘lchanadi.

Yana bir mashhur faylasuf M.K.Mamardashvili tasdiqlashicha: “Shaxs – bu turmush tarzi, uning shakli, hayotning alohida holati, evolyutsiyasining noyob topilmasi. Shaxs – bu “tabiatning yirik mushohadasi”. Shunday ta’rif bergan bo‘lardim. Uning ifodalanishlarga moyilligi barcha narsalarni bilishga yoki boshqa yuksak belgilarga bog‘liq emas. Tushunsangiz-chi, axir insonning eng muhim ehtirosi – bu ro‘yobga chiqmoq, amalga oshmoq, sodir bo‘lmoq”.

Psixologlar individning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shaxsning asosiy belgilari, deb hisoblaydilar. B.G.Ananov “shaxs”ga “jamiyatning insonga uning ma’lum tarixiy rivojlanishi davrida ko‘rsatadigan ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa ta’sirlari obyektini” sifatida ta’rif beradi. A.N.Leontev fikriga ko‘ra, “shaxs insonning ijtimoiy-tarixiy va ontogenezdagi taraqqiyotining nisbatan kechki mahsulotidir. Shaxs o‘zlashtirib olingan rollar tizimidir



(“rol” – bu biror-bir ijtimoiy guruh tuzilishida ma’lum o’rinni egallagan insonning kutilgan xulq-atvoriga javob beradigan dastur; bu insonning jamiyat hayotidagi ishtirokining tuzilishga ega bo’lgan usulidir)”. Shaxs taraqqiyoti individning ijtimoiylashuvi va tarbiya topishi sharoitlarida amalga oshiriladi. Umumiy psixologiyada ko’pchilik hollarda shaxs sifatida qandaydir yadro, mag‘iz, individning turli ruhiy jarayonlarini birlashtiruvchi va uning faoliyatiga zaruriy ketma-ketlik va barqarorlik bag‘ishlovchi yig‘indi va amodal boshlang‘ich modda tushuniladi.

L.S.Vigotskiy ijtimoiy tajribasiz, uning ichki ishlanmasiz, so‘ngra uni yana qayta ishlangan shaklda ichkaridan ishlab chiqarmasdan turib, shaxsning taraqqiy etishi mumkin emasligi (interiorizatsiya va eksteriorizatsiya qonunlari) haqida yozgan edi. Bu xususida psixologlarga tarix fanining ba’zi bir namoyondalari ham qo‘shiladilar. G.S.Knabening ta’kidlashiga ko‘ra, ““shaxs” insonning jamiyat hayotidagi ishtiroki va hayotda tutgan o‘rni nuqtayi nazaridan insonga xos xususiyatdir”. V.A.Shkuratov quyidagi definitsiyani keltiradi: “Shaxs jamiyat a’zosi va faoliyatdagi mavjudotning ifodalanishini ijtimoiy turlarga ajratish...

Shaxsni uning ijtimoiy va madaniy doirasi, kelib chiqishi, kasbi, o‘z tipi va xususiyatlaridan yig‘ib olish mumkin”.

Hozirgi kunda psixologiya shaxsni insonning jamiyatdagi hayotida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik hosila sifatida tushuntiradi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishganida va bu munosabatlar uning shaxsini shakllantiruvchi hal qiluvchi omilga aylanganida, u yangi sifatlariga ega bo‘ladi.

Chet el psixologiyasida inson shaxsi sifatida barqaror belgilar majmuasini tashkil etuvchi temperament, sezgirlik, motivlar, layoqatlar, mayllar, turli hayotiy vaziyatlarga moslashayotganida aynan shu insonga xos bo‘lgan fikrlar oqimi va xulq-atvorini belgilab beradigan ma’naviyat tushuniladi. J.Godfruaning fikricha, shaxs umumiy holda ham irsiy, ham ijtimoiy–madaniy ta’sirlar



bilan belgilanadi. “Shaxs” tushunchasi o‘z ichiga tabiiy xossalar (jins, temperament) asosida ijtimoiy muhit (oilalar, maktab, “boshqa ahamiyatlilar”) va faoliyat (o‘yin, bilish, mehnat) bilan faol o‘zaro ta’sirlar jarayonida hosil bo‘lgan individga xos bo‘lgan ijtimoiy sifatlar yig‘indisini birlashtiradi.

Inson shaxsi, keng tarqalgan tasavvurlarga qarshi o‘laroq, 30 yoshga yetgunicha o‘zgarishdan qolmaydi. Misol keltiradigan bo‘lsak, Kaliforniya universitetining bir guruh olimlari 130 mingdan ortiq odamlarning “Katta Beshlik” (vijdonlilik, murosaga kelish layoqati, nevrozizm va ekstravertlik) nomi bilan ma’lum shaxsiy sifatlarini tahlil qilganlar. Bu sifatlar kayfiyatga bog‘liq emas, shuning uchun yetarlicha ishonchli tarzda namoyon bo‘ladi. Odamlar yosh o‘tishi bilan hayotiy ixtiloflarni tezda bartaraf etishga o‘rganadilar, xususan, shafqatliroq va mehribonroq bo‘lishga intiladilar. Aniqlanishicha, ayollarda erkaklardan farqli o‘laroq, yosh o‘tishi bilan nevroz holatlari kamayadi. Ikki jins vakillarida samimiylilik bir oz kamayadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, 20–30 yoshlilarda murakkab vazifalarni bajarishda va tashkilotlar tuzishda ko‘mak beradigan vijdonlilikning kuchayishi kuzatiladi. Murosaga kelishga moyillik, aksincha, ko‘pchilik holatlarda 30 yoshdan so‘ng yorqin namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar va psixologlarda “shaxs” tushunchasining turlicha talqinlari mavjud. Bizlar esa, yuqorida ko‘rsatganimizdek, R.S.Nemov tomonidan berilgan shaxsning, fikrimizcha, yanada aniq va to‘liq psixologik ta’rifidan foydalanamiz.

O‘tgan buyuk ajdodlarimiz ontogenez psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo‘nalishda, ma’lum konsepsiya asosida o‘rganmagan bo‘lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur holatlarning aks etishi, namoyon bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular to‘rt xil manbada uchraydi. Ularning biri – xalq ijodiyoti: rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; ikkinchisi – maxsus ijodkor kishilar (hatto





hukmdorlar) muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan o'git–nasihat va hikoyatlar; uchinchi – qomusiy, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari; to'rtinchi – turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya'ni badiiy asarlardir.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi axloqiy–falsafiy mushohadalari “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Jism va aksidensiyalarning shakllariga qarab bo'linishi”, “Sharhlardan”, “Hikmat ma'nolari”, “Aql ma'nolari to'g'risida” kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'zining “O'tmish yodgorliklari” kitobida inson hayotiga doir xilma-xil ma'lumotlarni keltiradi. Shu jumladan, olim kishilarning jismoniy tuzilishi, umrlarining uzun-qisqaligi to'g'risida bildirgan mulohazalar diqqatga sazovordir. Beruniy odam uzoq vaqt yashashining sababini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. Bu jihatdan uning “Hindiston”, “Mineralogiya” asarlari, ibn Sino bilan yozishmalari alohida ahamiyatga ega.

Ibn Sinoning 5 tomlik “Tib qonunlari” asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yo'llari fiziologik jarayonlar bilan bog'liq psixik jarayonlar haqida ancha muhim ma'lumotlar bor. Uning “Odob haqida” risolasi ham inson shaxsini shakllantirish to'g'risidagi jiddiy asardir. Ibn Sinoning fan oldida eng muhim hissasi psixoterapiyani ilmiy-amaliy jihatdan boyitgandir. Muallif pedagogik psixologiya, ontogenez psixologiya, umumiy, ijtimoiy psixologiyaga munosib hissa qo'shgan olimdir. Shuni faxr bilan ta'kidlash joizki, ibn Sino neyropsixologiya fanining asoschisidir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda o'z prinsiplarini bayon etadi. A.Jomiyning “Bahoriston”, “Xiradnomai Iskandariy”, “Tuhfabul ahror”, “Silsilab uz zahob” boshqa asarlarida ilm–ma'rifat, ta'lim–tarbiya, kasb–hunar o'rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlari ifodalangan.



Davoniy o‘zining “Axloqi Jaloliy” nomli asarida insoniy fazilatlarini to‘rtga bo‘ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir. Shoir, ayniqsa, donolik fazilatini chuqur tahlil qiladi. Uningcha, inson o‘zining aqliy qobiliyati va aqliy iste’dodini shakllantirish uchun zukko, zehni, fahm-farosatli bo‘lishi va bilimlarni tez egallashi lozim.

A.Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma’naviyati, odamlarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida otanonaning roli, ayollarning iffatliligi, insonlarning kamtarligi masalalari, alohida o‘rin egallaydi. Navoiy “Hamsa”sining har bir dostonida bukilmaz iroda, irodaviy sifatlar, qat’iyatlilik, shijoat, insonparvarlik tuyg‘ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. A.Navoiy tasavvufning yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan. Alloma aqlning 28 tarkibini tahlil, talqin, tavsif qilgan. Yuqoridagilardan tashqari, Bobur, Farog‘iy, Majlisiiy, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Hamza, Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, axloq-odob, fe‘l-atvor, oilaviy hayot masalalariga, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ham turli janrlardagi asarlarda ravon va ixcham bayon qilib berilgan.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G‘arb madaniyati ta’sirida inson ruhiyati bilan bog‘liq qator og‘zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo‘la boshladi. Dastlabki pedagogik–psixologik mazmundagi asarlar XVII XVIII asrlarda diniy-axloqiy negizda yozilgan edi. XVIII asrdan boshlab bolalar psixologiyasi bo‘yicha muayyan tartibga, yo‘nalishga va uslubga ega bo‘lgan ilmiy fikrlar vujudga keldi. Rus tarixchisi V.N.Tatishchev (1686–1750)ning “Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to‘g‘risida suhbat” kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarni egallash zarurligi, tilning xosiyati, yozuvning ahamiyati, yosh davrlarining xususiyati





nuqtayi nazardan bayon qilingan. N.I.Novikov (1744–1818) bashariyat farovonligini ko‘zlab yoshlar va bolalar o‘rtasida foydali bilimlarni keng yoyish uchun ularni o‘ziga xos yo‘sinda tarbiyalash kerakligi g‘oyasini ilgari suradi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axloq, his–tuyg‘u va taqlidchanlik alohida ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. A.N.Radishchevning (1748–1802) “Peterburgdan Moskvaga sayohat” kitobi ham aslida pedagogik–psixologik asar, deyish mumkin. Rus ma’rifatparvarlari A.N.Gersen, N.G.Chernishevskiy, I.A.Dobrolyubov, V.G.Belinskiylarning inson kamoloti to‘g‘risidagi qarashlari psixologiyani jonlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda K.D.Ushinskiy, N.F.Kapterev, I.A.Sikorskiy, A.P.Nechayev, A.F.Lazurskiy, P.F.Lesgaft kabi olimlar katta hissa qo‘shdilar. K.D.Ushinskiyning “Inson tarbiya predmet”, N.F.Kapterevning “Pedagogik psixologiya”, I.A.Sikorskiyning “Bola ruhi”, A.P.Nechayevning “Hozirgi zamon eksperimental psixologiyasi va uning maktab ta’limiga munosabati”, A.F.Lazurskiyning “Maktab o‘quvchisining tavsifi”, P.F.Lesgaftning “Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati”, K.Elniskiyning “Qizlar tavsifi” asarlari psixologik ilmiy tadqiqotni jadallashtirishga xizmat qildi.

Rossiyada G.I.Rossolinoning “Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi” laboratoriyasi ishga tushdi. “Tarbiya xabarlar”, “Rus maktabi”, “Erkin tarbiya”, “Kundaliklar” kabi jurnallar chop etila boshlandi. Ana shuning zamirida “Oila tarbiyasi qomusi” dunyo yuzini ko‘rdi. Bularning barchasi shaxs psixologiyasi va differensial psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga keng imkoniyat yaratdi.

Yuqorida aytilgan asarlarda har xil qarashlarga xayrixohlik, ijtimoiy muhitning ahamiyatiga e’tiborsizlik ko‘zga tashlanadi. Ularda insonning ijtimoiy mavjudotligi tan olinib, unga ilmiy–nazariy nuqtayi nazardan yondashilsa–da, lekin insondagi psixologik, fiziologik va biologik jihatlar, tarkibiy qismlar tabaqalanmaydi, tashqi muhit bosh omil deb tushuntiriladi.



Rus fiziologi I.M.Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib, shuningdek, bilish jarayoni, inson his-tuyg‘usi, o‘zini o‘zi (o‘zini) anglashining fiziologik mexanizmini tushuntirishi fan olamida keskin o‘zgarish yasadi. I.P.Pavlov kashf etgan qator qonuniyatlar, xossalar, ikkinchi signallar sistemasi eksperimental ishlarni olib borishga puxta zamin hozirladi.

I.M.Sechenov, P.P.Pavlov g‘oyalariga asoslangan P.O.Efrusi, N.E.Ribakov, K.N.Kornilov, P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy va boshqa olimlar ontogenez psixologiyasi bo‘yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilar va yangidan–yangi qonuniyatlarni yaratdilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda ontogenez psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan qator asarlar paydo bo‘ldi. Amerikalik psixolog U.Djems “O‘qituvchilar bilan psixologiya to‘g‘risida suhbat” (1902) asarida yosh davrining xususiyatlari haqidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni chuqur tahlil qildi. K.Byuler xonim (1879–1963) o‘zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat hamda uning rivojlanish bosqichlari (instinkt, intellekt)ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izchil o‘rgandi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvchi g‘oyalar, nazariyalar yuzaga keldi. Masalan, amerikalik psixolog S.Xoll (1844–1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita ko‘chiradi. Uning fikricha, “irsiyat” filogenezni ontogenezda takrorlaydi, xolos. Shveysariyalik psixolog E.Klapared (1873–1940) S.Xolldan farqli o‘laroq, ontogenez va filogenezda psixik funksiyaning o‘rishini o‘rganish uchun quyidagi holatlarga e‘tibor beradi:

- a) organizm ehtiyojini qondirish;
- b) reflektor harakat to‘siqqa duch kelsa, ongli harakat vujudga keladi;
- d) unga nisbatan ehtiyoj sezsa, u holda ma‘lum faoliyat turiga yo‘naltiriladi. E.Klapared “Bola psixologiyasi va eksperimental



pedagogika” kitobida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, ularda dastlabki umumlashtirishning sinkretligi (aralash holatdaligi), o‘xshashlik va farqlanishning bola ongida aks etishi to‘g‘risida mulohaza yuritadi.

Psixologiya fanida ontogenezni davrlarga tabaqalash bo‘yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtayi nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin.

Quyida mazkur nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari ifodalagan yosh davrlarini tabaqalash prinsiplarini ko‘rib chiqamiz.

Biogenetik nazariyada insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo‘lib, ana shu omil bilan o‘zaro bog‘liqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy–psixologik xususiyatlar kelib chiqadi. Rivojlanish jarayonining o‘zi, dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkel kashf qilgan. Biogenetik qonun tana a‘zolarining rivojlanishi nazariyasini tashviq qilishda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o‘ynagan. Biroq unda tana a‘zolarining individual va tarixiy rivojlanishi munosabatlarini tushuntirishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, biogenetik qonunga ko‘ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug‘ilgan bola) hali odam hisoblanmaydi, balki faqat sut emizuvchi hayvondir; olti oylikdan oshgach, u psixik rivoji jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam holiga keladi, besh



yoshlarida ibtidoiy gala holidagi odamlar darajasiga yetadi, maktabga kirganidan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi oʻrta asr kishilari darajasiga, nihoyat, yetuklik davri (16–18 yoshlari) dagina hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi.

S.Xoll “Rekapitulyatsiya qonuni”ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) psixologik oʻsishning bosh qonuni, deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenez filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, goʻdaklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalik esa asosiy mashgʻuloti ovchilik va baliqchilik boʻlgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8–12 yoshlardagi oʻsish davri yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolotga tengdir. Oʻspirinlik esa jinsiy yetilishdan (12–13 yoshdan) boshlanib, yetuklik davrigacha (22–25 yoshgacha) davom etib, romantizmga barobardir. S.Xollning talqinicha, bu davrlar “boʻron va tazyiqlar”, ichki va tashqi nizolar (ziddiyatlar)dan iborat boʻlib, odamda “individuallik tuygʻusi” vujudga keladi. Yosh davrlarini tabaqalashning bu turi, oʻz navbatida, tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini oʻtaydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis “konstitutsion psixologiyasi” (insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan oʻsishining xususiyati oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud, deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: sikloid (tez qoʻzgʻaluvchi, his-tuygʻusi oʻta beqaror) va shizoid (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuygʻusi cheklangan)larga ajratadi. Bu taxminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, oʻsmirlar sikloid xususiyatli, oʻspirinlar esa shizoid xususiyatligini taʼkidlaydi. Lekin insonning kamol topishida



biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o‘ynay olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll rivojlanishning biologik modeliga tayanib ish ko‘radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o‘zaro almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko‘rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o‘z ifodasini topgan. Uning ta’limotiga binoan shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi, birinchi navbatda, jinsiy (seksual) maylga bog‘liqdir. Bunday biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko‘rinishi sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko‘ra, inson biologik tur sifatida tug‘ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta’siri ostida shaxsga aylanadi.

G‘arbning eng muhim nazariyalaridan biri – rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko‘ra jamiyat o‘zining har bir a’zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo‘lgan maxsus rollar uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda individual tajriba va bilimlarni o‘zlashtirish (ko‘nikish) nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va voqelikka munosabati, ko‘nikmalarni egallashi va bilimlarni o‘zlashtirishi qo‘zg‘atuvchining barqarorligiga bog‘liqdir.



K.Levin tavsiya qilgan “fazoviy zarurat maydoni” nazariyasi o‘z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K.Levin nazariyasiga ko‘ra, shaxsning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o‘tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat) bilan boshqarilib turadi, bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko‘lamida tayanch nuqtasiga yo‘nalgan bo‘ladilar.

Yuqorida ifodalangan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o‘zgaralar uchun yopiq yoki maxfiy muhitning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bunda u odam xohishi yoki xohlamasligidan qat’i nazar, mazkur sharoitga moslashmog‘i (ko‘nikmog‘i) zarur, degan qoidaga amal qiladi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e‘tiborga olinmagan.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo‘lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Mazkur yondashishni uchta mustaqil yo‘nalishga ajratib tahlil qilish mumkin va ular o‘z mohiyati, kechishi, mahsuli jihatidan keskin farqlanadi.

Konvergensiya (*lot. convergo – yaqinlashaman, o‘xshayman*) (biologiyada) –turli ajdodlardan kelib chiqqan organizmlarda bir xil tashqi muhit ta’sirida o‘xshash belgilarning paydo bo‘lishi. Konvergensiya natijasida vujudga keladigan belgilarning o‘xshashligi analogiya deyiladi. “Konvergensiya” terminini Ch.Darvin fanga kiritgan. Konvergensiya har qanday organlar tuzilishiga tegishli bo‘lishi mumkin. Tez suzuvchi tog‘ayli va suyakli baliqlarga dengiz sutemizuvchi hayvonlari – delfinlar tanasining o‘xshashligi; qushlar qanoti bilan sutemizuvchilar – ko‘rshapalaqlar qanotining o‘xshashligi; barcha sakrovchi sutemizuvchilar gavda shaklining o‘zaro o‘xshashligi bunga misol bo‘ladi. Geografik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan hududlarning o‘xshash yashash joylarida qator konvergent turlarni o‘z ichiga oluvchi butun biosenozlar



konvergent tarzda rivojlanishi mumkin. Masalan: Avstraliyada xaltali sut emizuvchilarning evolyutsiyasi dunyoning boshqa materiklarida yashovchi yo‘ldoshli sut emizuvchilarga konvergent bo‘lgan ko‘pgina turlarning shakllanishiga olib kelgan (bo‘ri – xaltali bo‘ri, ayiq-xaltali ayiq, sichqon – xaltali sichqon va boshqalar).

Konvergensiya nazariyasi – bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go‘yo asta–sekin bartaraf etiladi, degan go‘ya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt (1908), Ya.Tinbergen (1903).

Psixika (*yunoncha: psychikos – ruhiy*), ruhiyat – yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya)ning voqelikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati. Asosan, sezgi, tasavvur, tafakkur, irodaviy xatti–harakat va boshqa subyektiv obrazlarda aks etadi.

Bu psixikaning mavjudlik usuli (psixika miya xususiyati)da va uning mazmuni (psixika – obyektiv olamning subyektiv obrazi)da ko‘rinadi. Psixika materiya taraqqiyotining muayyan bosqichida – tirik organizmlarda sezuvchanlikning alohida shakli yoki his qilish qobiliyati paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Tirik mavjudotning morfologik-fiziologik tuzilishi murakkablashuvi, unda nerv sistemasining vujudga kelishi va taraqqiy etishi, bosh miya, uning katta yarim sharlarining shakllanishi va takomillashishi jarayonida rivojlangan. Psixikaning o‘ziga xos organi insonda va oliy darajada rivojlangan hayvonlarda bosh miyadir. Psixika – subyektivlik bilan obyektivlikning birligidir.


Psixik faoliyat doimo muayyan subyektga xos bo‘lib, uning individual xususiyatlari bilan bog‘langandir. Ayni vaqtda psixika obyektiv olamning muayyan manzarasini yaratuvchi miya in’ikos faoliyatining real jarayoni sifatida obyektivdir. Psixika – psixik jarayonlar, holatlar va insonning psixik xususiyatlarining zohiriy birligidir. Psixika rivojining oliy shakli – inson psixikasidir. Uning paydo bo‘lishi va rivojlanishida insonga xos bo‘lgan atrofda olam bilan o‘zaro munosabatga kirishish usuli – mehnat hal qiluvchi rol



o‘ynagan. Inson psixikasi faqat biologik taraqqiyotning emas, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning ham mahsulidir. Inson psixikasining eng muhim xususiyati – ishlar, hodisalar va boshqalarni oldindan ko‘ra bilish va o‘zi nima qilishini rejalashtirishdan iborat. Inson obyektiv voqelikdagi predmetlar va hodisalarni tajribaga asoslanib idrok qiladi. Insonning psixik faoliyati asosida birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro ta’siri yotadi.

Psixikaning muhim tomoni uning reflektorlik tabiati, ya’ni reflekslar hosil bo‘lishi, bu jarayonning to‘xtovsiz va qat’iy kechishidir. Real psixika faoliyat ko‘rinishida mavjud. Faoliyatda u shakllanadi, namoyon bo‘ladi va bilib olinadi. Inson psixikasining shakllanishida ta’lim va tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim va mehnat jarayonida har bir shaxs psixikasining individual rivojlanishi yuz beradi, bu insoniyat to‘plagan moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirishdan iboratdir. psixikani psixologiya o‘rganadi. Jamiki materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to organik materiyaning yuksak hamda murakkab shakli – inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyatiga, ya’ni turli ta’sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. Jonsiz tabiatda harakat jism yoki moddalarning o‘zaro mexanik, fizik va kimyoviy munosabatlari tarzida namoyon bo‘lishi mumkin. Materiyaning aks ettirish shaklini quyidagicha ifodalash mumkin:


MATERIYANI AKS ETTIRISH SXEMASI





Voqelikdagi ta'sirni aks etish qobiliyati – materiyaning umumiy xususiyatidir. Lekin olamda tirik va o'lik tabiatni aks etishi turlichadir. Tirik materiyaning tashqaridan ta'sir etayotgan moddalar almashinuviga javob berishi ta'sirlanuvchanlik deb ataladi. Oddiy ta'sirlanuvchanlik barcha o'simliklarga xos. Evolyutsiya jarayonida organizmlar tashqi muhit bilan munosabatlarining umumiy turining o'zgarishi natijasida ta'sirlanuvchanlikning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi sezuvchanlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. A.N.Leontevning faraziga asosan sezuvchanlik “genetik shunday ta'sirlanuvchanlikki tashqi muhit ta'siriga organizmni yo'naltiradi va buning natijasida organizm tashqi muhitida signal vazifasini bajaradi.

Demak, sezuvchanlik shunday ta'sirlanuvchanlikki, uning natijasida hayot uchun zarur ta'sirlar signallashadi. Sezuvchanlikning namoyon bo'lishi, psixikaning paydo bo'lishiga obyektiv biologik belgi sifatida xizmat qiladi. Psixik ta'sirlanuvchanlikning o'ziga xos yuqori sifat o'zgarishi – sezuvchanlik – psixik aks ettirishning oddiy turi yuzaga kelganida boshlanadi. Hayvonlar evolyutsiyasi jarayonidagi psixikaning sifat o'zgarishlarini A.N.Leontev o'zi ifodalagan psixik rivojlanish bosqichlariga asos qilib oldi. A.N.Leontev bo'yicha psixika rivojlanish bosqichlarining jadval ko'rinishi va ularning sxematik ifodalanishi:





1. Elementar (sodda) sensor psixika bosqichi – A.N.Leontev ta’rificha, tashqi muhit obyektning u yoki bu sifatiga qarab javob beraveradi. Bu oddiy sezish bosqichidir. K.E.Fabri fikricha, oddiy sensor psixikaning ikki – past va yuqori darajasiga ajratiladi. Ko’pgina bir hujayralilar hamda ayrim ko’p hujayralilarda psixik rivojlanishning past darajasi kuzatiladi. Bunda, psixik faollikning oddiy turlari namoyon bo’ladi. Elementar psixikaning yuqori bosqichida ko’p hujayrali umurtqasizlarda namoyon bo’ladi. Bu hayvonot evolyutsiyasining zarur davridir. Nerv tizimi diffuz, to’rsimon ganglioz yoki zanjirsimon bo’lib, ular alohida predmetlarning sifatlarinigina aks eta oladilar. Hayvonlar uchun ushbu bosqichda predmet olami mavjud bo’lmaydi, ular obyektни idrok eta olmaydilar. Ular psixik aks ettirishi oddiy sezgi tarzida bo’ladi.

2. Perseptiv bosqich bo’lib, u tashqi, obyektiv voqelikni yaxlit aks etishi bilan xarakterlanib, alohida oddiy sezish turi emas. K.E.Fabrining fikricha, perseptiv psixikani ham ikki darajasi mavjud. Past darajaga yuqori darajali umurtqasizlar kiradi. Perseptiv psixikaning quyi bosqichida mavjud bo’lgan hayvonlar uchun ijobiy ta’sir etuvchilarni faol izlash xususiyati xosdir.

Predmetni idrok etish – perseptiv psixikaning yuqori darajasidir. Ushbu daraja rivojlangan nerv tizimiga ega umurtqalilarga xosdir.

3. Intellektual bosqich – yuksak darajada rivojlangan nerv tizimiga ega bo’lganlar, ya’ni odamsimon maymunlarga xosdir.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug’ilishidan to umrining oxirigacha bo’lgan davrni, ya’ni ontogenezni o’rganadigan psixologiya sohasi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo’lib, u fan va texnika taraqqiyoti, jamiyat talabiga binoan bolalar psixologiyasi taraqqiyotida qo’llanilgan.

Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o’smirlik va o’spirinlik psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. U insonning ontogenezda rivojlanish



jarayonida psixik holatlarning kechishi, psixik funksiyalarning roli, ularning o'zgarishi, harakatlantiruvchi kuchlar, mexanizmlar, ta'sir o'tkazuvchi obyektiv va subyektiv faktorlar, taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Yosh psixologiyasi umr o'tishi bilan psixologik farq, individual–psixologik xususiyatlar o'zgarishini o'rganadi, tadqiqotlarda madaniy, ijtimoiy–tarixiy, milliy ta'sirni hisobga oladi. Shuning uchun yosh psixologiyasining obyektlari o'ta murakkab bo'lib, taraqqiyotlar taraqqiyotini tekshirishni taqozo qiladi. Jahon psixologiyasida to'plangan barcha nazariy materiallarga, shu jumladan, genetik modellashtirish (L.S.Vigotskiy) metodlariga, egizaklar metodiga va shunga o'xshash o'ta murakkab jarayonlarning longityud (uzluksiz) uslubi yordamida tekshirishga asoslanadi. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri – bolani psixik rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko'rsatish chora–tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Yosh psixologiyasi pedagogik psixologiyaning ilmiy, amaliy, tajribaviy asosi bo'lib hisoblanadi, lekin boshqa sohalari bilan ham uzviy alohida faoliyat ko'rsatadi, inson kamolotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ijtimoiy ahamiyatga molik materiallar to'playdi.

Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishida taraqqiyot qanday qilib yuzaga keladi? degan savolni hal qilish muhim masaladir.

O'sish – miqdoriy jihatdan ulg'ayish, demakdir. Taraqqiyot – sifat jihatdan o'zgarish demakdir. Bolaning psixik taraqqiyoti ham qarama–qarshiliklar kurashi asosida yuz beradi. Bu qarama-qarshiliklar:

Bolaning shu paytgacha erishgan darajasi, imkoniyatlari bilan yangi ehtiyojlar o'rtasida tug'iladigan qarama-qarshiliklar. Ya'ni bolalarning ehtiyojlari tez ortib boradi. Lekin ularni qondirish imkoniyatlari juda sekinlik bilan yuzaga keladi. Bolaning eski xulq-atvori formalari bilan yangi xatti-harakatlari, yangi tashabbuslari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Masalan: yosh bolaning asosiy



faoliyati kattalarga taqlid qilishdir. Taqlidiy harakatlarda mustaqillik, tashabbuskorlik bo‘lmaydi. Bola o‘sib ulg‘aygan sari uning tajribasi, mustaqilligi, tashabbusi orta boradi. Masalan: mustaqil yurish, ba‘zi ishlarni bajarish.

Bola hayotining mazmuni bilan uning formasi o‘rtasida vujudga keladigan qarama-qarshiliklar. Odatda, hayotning mazmuni uning formasidan biroz oldinroq vujudga keladi. Masalan: bola bog‘chaga qatnay boshlashdan oldin oiladagi hayotga o‘rganib qoladi. Bog‘chada esa yangicha hayotning boshqacha talablari va qoidalarga duch keladi. Demak, bolaning psixik taraqqiyoti juda murakkab jarayondir. Lekin bu taraqqiyot qanchalik murakkab bo‘lmasin uning qonuniyatlari fanga ayondir. Bolaning psixik taraqqiyoti ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan aniq shart-sharoitning ta‘siri tufayli yuz beradi. Bola yashaydigan muhit o‘zgarmas narsa emas, balki u kishilarning faol faoliyati natijasida o‘zgara boradi. Har bir inson va bolaning ongi o‘zgarib boruvchi muhit ta‘siri ostida o‘sadi. Ammo muhit bolaning o‘sishi uchun qulay va noqulay bo‘lishi mumkin. Qulay muhit kishining «mudroq» qobiliyatlarini ulg‘aytiradi. Noqulay ijtimoiy muhitda tug‘ma qobiliyatlar «mudroq» bosgan holda qolaveradi. Bunday muhit, hatto tasodifan namoyon bo‘lgan iste‘dod va qobiliyatlarni ham nobud qiladi. Masalan, 1920-yillarda doktor Sang Hindistonda Kalkuttaning janubi – g‘arbidan 2 qizni bo‘rilar orasidan topadi. Qizlardan biri Amola 2 yosh – 1 oydan keyin vafot etgan, ikkinchisi Kamola 7-8 yosh – 17 yoshgacha yashagan, 45 ta so‘zni o‘rgangan. Organizmning o‘sishi, nerv sistemasining shakllanishi psixik hayotning shakl va mazmuni uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Bu imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishi kishining ijtimoiy muhitda yashashi va taraqqiy etib borishiga bog‘liqdir. Demak, inson biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida taraqqiy etadi.

Demak, insonni inson qiladigan uning butun fazilatlarini yuzaga keltiradigan omil tashqi ijtimoiy muhitning ta‘siridir. Bolalar psixologiyasi bolaning har tomonlama rivojlanishida ta‘lim-tarbiyani



asosiy harakatlantiruvchi kuch deb ta'kidlaydi, chunki jamiyatning bolalar ongiga anglangan tarzda ta'sir etishi ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Yosh psixologiyasida psixik taraqqiyot bilan ta'lim-tarbiya o'rtasidagi munosabat masalasi muhimdir. Ushbu olimlar turli nazariyalar bo'yicha talqin qiladilar:

– Birinchi nazariya tarafdorlari ijtimoiy ta'lim–tarbiya bilan bola psixik taraqqiyoti o'rtasida hech qanday munosabat yo'q, psixik taraqqiyot o'z yo'liga, ijtimoiy ta'lim–tarbiya o'z yo'liga bo'ladi, degan fikrni olg'a suradi.

– Ikkinchi xil nazariya namoyandalari psixik taraqqiyot bilan ijtimoiy ta'lim–tarbiya orasida hech qanday farq yo'q, degan fikrni bildiradilar.

– Uchinchi xil nazariya namoyandalari ta'lim–tarbiya va psixik taraqqiyot boshqa–boshqa jarayonlar bo'lsa ham, bir–biriga mos keladigan, ya'ni bir–biriga ta'sir o'tkazadigan jarayonlardir, degan fikrni ilgari suradilar.

Psixologlar, jumladan, L.S.Vigotskiyning fikricha ta'lim jarayoni taraqqiyotga mos kelmaydi, ta'lim jarayoni taraqqiyotdan ilgarilab ketadi va bolalar psixikasining rivoj topishini o'z orqasidan ergashtirib boradi. Unga eng yaqin istiqbol ochib beradi, deb ko'rsatadi. Vigotskiyning fikricha taraqqiyotning 2 bosqichi bo'lib, birinchisi – faol taraqqiyot bosqichi (katta yoshli kishilar yordamisiz mustaqil harakat qila olish), ikkinchisi, eng yaqin taraqqiyot zonasi bosqichi (bolalarning katta yoshli kishilar yordami bilan qiladigan xatti-harakatlari). Vigotskiy bolalarning psixik shakllanishi, ayniqsa, shu taraqqiyot jarayonida jadal kechadi deb ko'rsatadi.

Taraqqiyotning bu ikki bosqichi bolaning hozirgi vaqtda qanday ekanligini, ya'ni qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga, xarakter – sifatlarga ega ekanligini, kelajakda bolaning qanday bilim, ko'nikmalarga, xarakter hamda sifatlarga ega bo'la olishini hisobga olish imkonini beradi.



Shaxs taraqqiyotidagi ichki ziddiyatlar psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Asosiy ziddiyatlardan biri shaxsda paydo bo‘ladigan yangi ehtiyojlar va ularni qondirish uchun zarur vositalarning yetishmasligidir. Shaxsning taraqqiyot darajasi, hayot tarzi va uning ijtimoiy munosabatlar sistemasida tutgan o‘rni o‘rtasidagi ziddiyat ham muhim tafovutlardan biridir. Shaxs yangi sharoitga moslashishga intiladi (bog‘chada, maktabda). Ta’lim va tarbiya jarayoni ham shaxs oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi, faoliyatning yangi motivlarini hosil qiladi. Shaxs ma’lum ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllangan ijtimoiy mavjudotdir. Har bir tarixiy davrda shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari shu davrning ijtimoiy – iqtisodiy tipi va tarbiya tizimiga bog‘liq holda tashkil opadi, shakllanadi.

XX asrga kelib yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada psixik taraqqiyot omillarini talqin etuvchi 2 ta yo‘nalish yuzaga keldi.

Psixik taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tish bosqichlarida yosh krizislari yuz beradi. Krizislar ikki yosh davri oralig‘ida yuz berganligi sababli bir yosh davrining tugashi va ikkinchi yosh davrining boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Barcha yosh krizislari ba’zi umumiy belgilarga ega. Bolalar krizislar davrida qaysar, asabiy bo‘lib qoladilar, kattalar bilan nizolar paydo bo‘ladi, avvalo, ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishdan bosh tortadilar. Krizislar davrida paydo bo‘ladigan yangi ehtiyojlari qondirilmaydigan bolalar shunday reaksiya namoyon qiladilar.

Shaxsning ontogenezidagi ijtimoiy rivojlanish 2 yo‘nalishda: ijtimoiylashuv va individuallashuv ko‘rinishida bo‘lib turli yosh davrlaridagi krizislar ham mos ravishda turli xarakterga ega. Bola avval ma’lum darajaga yetib, keyin tarbiyalanmaydi, balki ta’lim va tarbiya jarayonida psixik rivojlanadi. Bunda psixologlar Vigotskiy tomonidan aniqlangan qoidaga, ya’ni ta’lim berish bola qo‘lga kiritib bo‘lgan rivojlanish darajasini ko‘zlamasdan, bir muncha olg‘a ketish, bolaning tafakkurida uning mavjud imkoniyatlarini bir muncha oshiradigan talablar qo‘yishi u erishgan va yaxshi o‘zlashtirib olgan



analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilish kerak degan qoidaga asoslanadilar.

L.S.Vigotskiy ta'limining aqliy rivojlanishdagi yetakchi rolini ta'kidlar ekan, ta'lim bolaning rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim deb hisoblangan edi. Ta'lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo, hali unga tarkib topmagan narsalarga tayanmog'i kerak.

Vigotskiy bola bugun kattalar, o'qituvchi yordamida bajarayotgan narsani ertaga mustaqil ravishda o'zi bajaradi, eng yaqin rivojlanish zonasiga kirgan narsalar, ta'lim jarayonida aktual rivojlanish jarayoniga o'tadi deb ta'kidlagan edi. Har qanday psixik funktsiya inson hayoti davomida 2 marotaba namoyon bo'ladi: avval ijtimoiy, so'ngra psixologik xarakterda, avvaliga psixik funktsiya odamlar orasida interpsixik ko'rinishda bo'lsa, so'ngra bola uchun intrapsixik ko'rinishdadir. Bu qonuniyat barcha psixik funktsiyalar, ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira tushunchalarining, irodaning rivojlanishiga tegishlidir. Har qanday funktsiya avval boshqa odamlarga qaratilgan bo'lib, so'ngra shaxsning ichki funktsiyasiga aylanadi. Ontogenezda psixik bir bosqichdan sifat jihatdan boshqa bosqichga qadamma-qadam o'tishdir. Har bir yosh davrlarda tashqi ta'sirga psixikaning sezuvchanlik xususiyati turlicha bo'lib, u yoki bu psixik funktsiya rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Bunday davrni – shu psixik funktsiyaning senzitiv davri deyiladi.

Nazorat savollari:

1. *Psixik taraqqiyot qonuniyatlari va shaxs shakllanishi haqida ma'lumot bering?*
2. *Ontogenez psixologiyasida yosh muammosi deganda nima tushunasiz?*
3. *Psixologiyada taraqqiyot nazariyalarini tushuntirib bering?*



4-MAVZU: YOSH DAVRLARNI TABAQALASH VA YOSH INQIROZLARI

Reja:

1. *Yosh davrlarni tabaqalashning nazariy masalalari.*
2. *Yosh davrlarini tabaqalash nazariyalari.*
3. *Amaliy va nazariy muammolarning hal qilishda ontogenrtik qonuniyatlar.*
4. *Bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishida akseleratsiya hodisasi.*
5. *Balog'atga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi.*

Tayanch tushunchalar: *shaxs, psixika, individ, evolyutsiya, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, rol, person, psixoanaliz, "Men", xarakter.*

Psixik taraqqiyotning bosqichliligi.

E.Shpranger, K.Byuler, A.Maslou va boshqalar personologik nazariyaning yirik namoyandalari hisoblanadilar.

Kognitivistik yo'nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari (vazifalari) hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy funksiyalari (vazifalari) uyushqoqlik va moslashish, ko'nikishdan iborat bo'lib, aql-idrokning funksional invariantligi deb yuritiladi. Muallif intellektni (aqlni) quyidagi rivojlanish davrlariga ajratadi:

- 1) sensomotor (hissiy-harakat) intellekti (tug'ilishdan 2 yoshgacha);



2) operatsiyalardan (fikriy harakatlardan) ilgari tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha);

3) yaqqol xatti-harakat davri (7–8 yoshdan 11–12 yoshgacha);

4) rasmiy sa’y-harakatlar davri.

J.Piajening g‘oyalari davom ettirgan psixologlarning bir guruhini kognitiv-genetik nazariyachilarga qo‘shish mumkin. Bu yo‘nalishning namoyandalari L.Kolberg, D.Bromley, Dj.Birrer, A. Vallon, G.Grimm va boshqalardan iboratdir.

A.Vallon (Fransiya) nuqtayi nazaricha, yosh davrlari quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

1) homilaning ona qornidagi davri;

2) impulsiv harakat davri – tug‘ilgandan 6 oylikkacha;


3) emotsional (his-tuyg‘u) davri – 6 oylikdan 1 yoshgacha;

4) sensomotor (idrok bilan harakatning uyg‘unlashuvi) davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha;

5) personologizm (shaxsga aylanish) davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha;

6) farqlash davri – 6 yoshdan 11 yoshgacha;

7) jinsiy yetilish va o‘spirinlik davri – 12 yoshdan 18 yoshgacha.





Tug‘ilishdan oldingi rivojlanish bosqichlari.

a–urug‘langandan bir necha soat o‘tgach sodir bo‘ladigan hujayralar bo‘linishi;

b–terminal davr;

v–21 kunlik embrionda orqa miya shakllanishi;

g–to‘rt haftalik embrionda bosh, tana va dumning shakllanishi.

Bu davrda yurak hamda asab tizimi o‘z faoliyatini boshlab yuboradi;

d–besh haftalik embrionda qo‘l va oyoqning shakllanishi. ;

e–to‘qqiz haftalik embrionda kindik bilan yo‘dosh birlashishining namoyon bo‘ladi.

j–olti haftalik embrionda barcha ichki a‘zolar shakllanib bo‘lgan bo‘lsa ham, biroq ularning hammasi ham o‘z faoliyatini bajara olmaydi.

z–yigirma haftalik embrionda aksariyat ichki a‘zolar o‘z faoliyatini boshlaydi. Embriion harakatlanishi, yuz ifodasini o‘zgartira olishi mumkin.

Yana bir fransiyalik yirik psixolog R.Zazzo o‘z vatanidagi ta‘lim va tarbiya tizimining prinsiplaridan kelib chiqqan holda mazkur muammoga boshqacharoq yondashib va uni boshqacha talqin etib, insonning ulg‘ayib borishini quyidagi bosqichlarga ajratishni tavsiya qiladi:

1. Birinchi bosqich – bolaning tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davri.

2. Ikkinchi bosqich – 3 yoshdan 6 yoshgacha.

3. Uchinchi bosqich – 6 yoshdan 9 yoshgacha.

4. To‘rtinchi bosqich – 9 yoshdan 12 yoshgacha.

5. Beshinchi bosqich – 12 yoshdan 15 yoshgacha.

6. Oltinchi bosqich – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Yosh davrlariga ajratishidan ko‘rinadiki, R.Zazzo inson rivojlanishining bosqichlariga shaxs sifatida tarkib topish, takomillashuv nazariyasidan kelib chiqib yondashgani shaxs shakllanishi pallasining yuqori nuqtasi, ya‘ni ijtimoiylashuvi bilan



cheklanishga olib kelgan. Shuning uchun uning ta'limoti insonning tug'ilganidan umrining oxirigacha psixologik takomillashuvi, o'zgarishi, rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini bermaydi.

Fransuz psixologi E.Dyurkgeym (1858–1917) o'sish – kishilarning his-tuyg'usini o'zlashtirish ekanini, shu boisdan idrok qilingan tashqi fikrlar va emotsiyalar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi. E.Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug'iladi.

Fransuz psixologi P.Jane (1857–1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug'ullandi. Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi insonning o'sishini belgilaydi. U aloqa deganda, xatti-harakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof – muhitga shaxsi munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi. P.Jane o'z tadqiqotlarida psixikaning to'rt darajasi:

- a) harakat reaksiyasining o'sishi;
- b) idrok qilish harakatining o'sishi;
- d) shaxsiy–ijtimoiy harakatning o'sishi (o'zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish);
- g) aqliy sodda xatti–harakatning o'sishi (nutq va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanligini asoslagan.

Shvetsariyalik psixolog J.Piaje (1896 - 1980) insonning kamol topishini bir necha davrlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Bola – tashqi muhit – ma'lumotlarni qayta ishlash.
2. Tafakkur: a) ijtimoiy davrgacha; b) ijtimoiy davr.



3. Intellekt (aql): a) sensomotor – 2 yoshgacha; b) operatsional davrgacha – 2 – 7 (8); d) yaqqol operatsiya davri – 7 (8) –11 (12) yoshgacha; g) rasman (formal) operatsiya davri –11 (12) –15 yoshgacha.

AQSHlik psixolog Dj.Bruner (1915) shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida ikkiyoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtiradi.

Shu tariqa ontogenez psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O'rta Osiyo allomalari, yaqin va uzoq chet ellar psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy ma'lumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

L.S.Vigotskiyning shogirdi L.I.Bojovich insonning kamol topishini yosh davrlariga bo'lishda motivlarni asos qilib oldi, shuning uchun bu bo'lishni motivatsion yondashish, deb atash mumkin. L.I.Bojovichning mulohazasiga ko'ra yosh davrlari quyidagi bosqichlardan iborat:

- * birinchi bosqich – chaqaloqlik; tug'ilgandan 1 yoshgacha;
- * ikkinchi bosqich – motivatsion tasavvur: 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- * uchinchi bosqich – “Men”ni anglash davri: 3 yoshdan 7 yoshgacha;
- * to'rtinchi bosqich – ijtimoiy jonzotlikni anglash davri; 7 yoshdan 11 yoshgacha;
- * beshinchi bosqich – a) o'zini o'zi anglash davri: 12 yoshdan 14 yoshgacha; b) o'z o'rnini belgilash (topish) davri: 15 yoshdan 17 yoshgacha.

L.I.Bojovich har bir bosqichni psixologik tavsiflashda unda namoyon bo'ladigan o'zgarishlarni, bu o'zgarishlarning sabablari, omillari, manbalari, turtkilari, mexanizmlarini ham bayon qiladi.



XXI asr psixologiyasining yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga sotsial–psixologik nuqtayi nazardan yondashib, yosh davrlarining o‘ziga xos tasnifini yaratdi. A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o‘rgangan bo‘lsalar, u shaxs shakllanishining prososial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham bo‘lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat qiladi: shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib, birinchisi – bolalik davriga to‘g‘ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish, ko‘nikish (adaptatsiya) ro‘y berishini; ikkinchisi – o‘smirlarga xos individuallashish; uchinchisi – o‘spirinlikda, ya‘ni yetuklikka intilish davrida o‘ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari paydo bo‘lishini bayon qiladi, shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta’kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) – tug‘ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bog‘cha davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11 yoshgacha.
4. O‘rta maktab yoshi (o‘smirlik) davri – 11 yoshdan to 15 yoshgacha.
5. Yuqori sinf o‘quvchisi (ilk o‘spirinlik) davri – 15 yoshdan 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo‘lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o‘shish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksilijtimoiymi, baribir har ikki yo‘nalishning ham oraliq jabhalari bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Lekin bu g‘oyani chuqur ifodalab berish joiz.

D.I.Feldshteyn tasnifi ham shaxsga ijtimoiy yondashuvga asoslangan bo‘lsa-da, A.V.Petrovskiy tasnifidan keskin farq qiladi. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanishda ikkita katta bosqichdan o‘tadi, ulardan biri – “Men jamiyat bilan” nuqtayi nazardan iborat bo‘lib, quyidagi yosh pallalarini qamrab oladi:



- 1) ilk bolalik – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 2) kichik maktab yoshi davri – 6 yoshdan 9 yoshgacha;
- 3) katta maktab yoshi davri – 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Shaxs kamolotidagi ikkinchi nuqtayi nazar – “Men va jamiyat” deb nomlanib, quyidagi yosh bosqichlaridan iborat:

- 1) go‘daklik – tug‘ilganidan 1 yoshgacha;
- 2) maktabgacha davr – 3 yoshdan 6 yoshgacha;
- 3) o‘smirlik – 10 yoshdan 15 yoshgacha.

D.I.Feldshteyn boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda o‘smirlik davrini uch bosqichga ajratadi:

– Birinchi bosqich (10–11 yosh) o‘ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo‘lib, o‘zini shaxs sifatida his qilish va qat’iy qarorga kelish bilan yakunlanadi.

– Ikkinchi bosqich (12–13 yosh) bir tomondan o‘zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan o‘ziga salbiy munosabatda bo‘lishdir.

– Uchinchi bosqich (14–15 yosh) tezkorlik, o‘zini o‘zi baholashga moyillik bilan farqlanadi.

Bolalarda “Men jamiyat bilan” nuqtayi nazari ilk bolalik, kichik maktab yoshi, katta maktab yoshi davrlarida faol va keng tus oladi, faoliyatning amaliy–predmetli jihatlari jadal o‘shish jarayonida bo‘ladi. Ularda “Men va jamiyat” nuqtayi nazari vujudga kelishi maktabgacha va o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri kelib, ularning ijtimoiy xatti–harakat majburiyatlarini, qoidalarini o‘zlashtirishlari va boshqa shaxslar bilan munosabat o‘rnatishlari, o‘zaro muloqotga kirishishlari bilan ifodalanadi. Ana shu murakkab ijtimoiy–psixologik harakatlarga asoslangan D.I.Feldshteyn bolaning ijtimoiy o‘shishdagi jamiyatga munosabatini asosiy (bosh) va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchi davrga o‘tish orqali amalga oshadi. Asosiy (bosh) munosabat – insonning kamol topishida keskin siljish nuqtalari paydo bo‘lishi, ichki sifat o‘zgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir.



Shuni alohida ta’kidlash kerakki, D.I.Feldshteynning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarni ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u ta’lim-tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko’rsatishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman, psixologlar tomonidan ontogenezni davrlarga tabaqalashtirishning puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo’lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa bo’lib qo’shildi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda keng qo’llanmoqda. Ammo hozir ontogenezni to’la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyani yaratish zarurati tug’ildi.

L.S.Vigotskiy (1896–1934) eng mashhur rus psixologi va faylasuflaridan biridir. Olim o’z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko’plab g’oyalar bevosita bolalarning psixik rivojlanishiga bog’liq. L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta’limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S.Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya’ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo’lmashligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko’rsatdi. Aynan L.S.Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo’lib xizmat qiladi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalarning rivojlanish manbaidir. Muhitning rivojlanishdagi roli yosh o’tishi bilan o’zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvorning tug’ma shakllari mavjud bo’lmaydi. Odanning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o’zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofiziologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun



sharoit sifatida xizmat qiladi. Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – ta’limdir.

L.F.Obuxovanning fikricha, L.S.Vigotskiyning katta xizmati shundaki, u bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kiritgan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, psixik hodisalar harakatdagi narsa sifatida o‘rganilishi lozim.

Madaniy tarixiy konsepsiya L.S.Vigotskiy tomonidan XX asrning 20–30 yillarida ishlab chiqilgan inson psixik taraqqiyoti haqidagi nazariyadir. Konsepsiyaning asosiy mazmuni quyidagilardan tashkil topadi, mehnat qurollarini ishlatishi tufayli odam tabiatdan ajralib chiqqan. Tabiatga ishlov berish uchun u mazkur qurollardan foydalansa, o‘z psixikasiga ta’sir ko‘rsatish uchun psixologik qurollarni qo‘llaydi. Psixologik qurollar belgilardan iboratdir. Ushbu qurollar ixtiyoriy psixik funksiyalar – ixtiyoriy diqqat va xotira, mantiqiy fikrlash, irodaviy harakatlar va hokazolarning asosini tashkil etadi. Ixtiyorsiz psixik funksiyalarni L.S.Vigotskiy tabiiy funksiyalar, deb atagan. Ixtiyoriy psixik funksiyalar ijtimoiy kelib chiqishga ega, belgilar bilan vositalangan, odam tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan funksiyalardir. Har bir funktsiya avval boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish shakli sifatida paydo bo‘ladi, so‘ngra individuallashib boradi. Psixologik qurol – belgilarni egallash interiorizatsiya jarayonida amalga oshadi.

Interiorizatsiya tufayli interpsixologik munosabatlar intrapsixologik turdagi munosabatlarga aylanib boradi. Bu jarayon katta odamning tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan madaniy belgilar vositalar yordamida ta’sir ko‘rsatishi bilan boshlanadi. Keyinchalik bola atrof olamga (o‘yinchoqlarga, hayvonlarga, bolalarga, kattalarga) ushbu belgilar orqali ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Shundan keyingina, unda o‘z–o‘ziga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati shakllanadi. Bolaning quloqsizlik qilishi yoki qo‘rquv faoliyatida orqada qolishi psixologik qurollarni o‘zlashtirmaganlik natijasidir. Masalan, bola kiyim kiyishda ketma–ketlikni buzish xotirasidagi zaifligidan emas,



balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik qurollarni egallamaganligi tufaylidir. Shunday qurol sifatida, bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketma–ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin.

Madaniy–tarixiy konsepsiyaning muhim g‘oyalaridan biri rivojlanishning eng yaqin zonasi haqidagi nazariy qarashdan iborat. Rivojlanishning eng yaqin zonasi – bola rivojlanishining ayni vaqtidagi darajasi bilan kelajakda erishish mumkin bo‘lgan taxminiy darajasi o‘rtasidagi vaqtinchalik masofadan iborat. Bu zonaga yetilmagan, ammo yetilish jarayonida bo‘lgan funksiyalar kiradi. Bolaning aktual rivojlanish darajasi uning bugungi kundagi rivojlanish jarayonida darajasini, bola rivojlanishining eng yaqin zonasi ertangi kunda bola o‘z taraqqiyotida erishishi mumkin bo‘lgan taraqqiyot darajasini ifodalaydi. Rivojlanishning eng yaqin zonasini bola katta odam yordami bilan bajara oladigan vazifalar darajasi belgilaydi. Agar bola o‘zi uchun qiyin bo‘lgan vazifani katta odam yordami bilan bajara olsa, bu vazifa bola rivojlanishining eng yaqin zonasida joylashgan bo‘ladi.

L.S.Vigotskiy bolaning rivojlanish davrlari

L.S.Vigotskiyning fikricha, psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ta‘limdir. Ta‘lim psixik taraqqiyotni o‘z ortidan tortadi va uni tezlashtiradi. U kutilgan natijani berishi uchun taraqqiyotdan oldin bo‘lishi, ya‘ni rivojlanishning eng yaqin zonasiga mo‘ljall olishi lozim.

L.S.Vigotskiy o‘z konsepsiyasida bola psixik taraqqiyotining 4 asosiy qonunini ta‘riflab berdi. Bu qonunlar quyidagilardan iborat:

1. Bolaning rivojlanish ritmlarining farqlanish. Bu qonunga ko‘ra bolaning rivojlanishi o‘z sur‘atlariga ega, bu sur‘atlar vaqt ritmiga to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun chaqaloqlikdagi hayotning bir yili o‘smirlikdagi bir yilga teng bo‘lmaydi.

2. Bola rivojlanishidagi metamorfoza qonuni. Unga ko‘ra rivojlanish sifat o‘zgarishlarining zanjiridan iborat. Bola kamroq



biladigan, qo‘lidan kamroq narsa keladigan odam emas, balki psixikasi sifat jihatidan kattalar psixikasidan farqlanuvchi mavjudotdir.

3. Bola rivojlanishining notekislik qonuni. Bu qonunga ko‘ra, bola psixikasining har bir tomoni o‘z taraqqiyotining optimal davriga ega bo‘ladi, har xil psixik funksiyalar notekis, noproporsional rivojlanadi.

4. Oliy psixik funksiyalarning shakllanish qonuni. Ushbu qonunga ko‘ra, har qanday oliy psixik funksiya avval bolaning atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi, keyinchalik u individual sohaga ko‘chadi. Shuningdek, L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, bola taraqqiyotida barqaror davrlar inqirozli davrlar bilan almashinadi. Inqirozlar ikki yosh davri tutashgan joyda, bola psixikasi va xulq-atvoridagi eski xususiyatlarning yo‘qolib, yangilari shakllanishi davrida ro‘y beradi.

Demak, L.S.Vigotskiy psixologiyada madaniy–tarixiy yondashuvga asos solgan. Mazkur yondashuv bolalar psixologiyasidagi nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda ham katta ahamiyatga egadir.

XX asrning 20–30-yillarida Vigotskiy va uning maktabi (A.N.Leontev, Luriya va boshqalar) tomonidan ruhiy rivojlanish va shaxsiyat rivojlanishining madaniy va tarixiy nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvda L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhitni omillardan biri sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanishning asosiy manbai sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Bolaning rivojlanishida, deydi u, ikkita o‘zaro bog‘langan chiziqlar bor. Birinchisi tabiiy rivojlanish, ikkinchisi madaniyatni, xulq–atvor va fikrlash usullarining o‘zlashtirishidan iborat. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, fikrlash va boshqa aqliy vazifalarning rivojlanishi, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali emas, balki bolaning “psixologik vositalar” dan foydalanib, til, yozuv, hisob – kitob tizimi kabi belgilar tizimini o‘zlashtirib oladi. Fikrlash, his qilish, xotira va boshqa ruhiy funksiyalarni rivojlantirish madaniy vositalar orqali amalga oshiriladi va aqliy vazifalar tashqi, interpsixik tarzda harakat qiladi.



Jarayon ishlab chiqilgach, aqliy vazifalarning faoliyati intervalgacha, aylantiriladi, tashqi rejadan ichki holatga o'tadi, intropsixik bo'ladi.

Ularning rivojlanishi jarayonida aqliy vazifalar avtomatlashtirilgan, mulohazali va erkin tarzda bilan amalga oshiriladi. Fikrlash va boshqa aqliy jarayonlarda qiyinchilik mavjud bo'lsa, har doim eksteriorizatsiya qilish mumkin.

Bolalarning aqliy rivojlanish qonunlari talqini (L.S. Vigotskiy)

Bolalarning rivojlanishi murakkab bir tartibga ega: vaqtning ritmiga to'g'ri kelmaydigan ritmi va hayotning turli yillarida o'zgarib turadigan o'z ritmi, shuning uchun go'daklik davridagi hayot o'smirlik davridagi hayotga teng kelmaydi.

Bola rivojlanishidagi metamorfoz qonuni: rivojlanish sifatli o'zgarishlarning zanjiri. Bola shunchaki kam narsani biladigan yoki kam biladigan kichkina emas, balki sifat jihatidan a'lo darajada aqliy qobiliyatga ega bo'lgan mavjudotdir.

Bolalarning rivojlanishi qonuni: bola psixikasida har bir tomon o'ziga xos rivojlanish davriga ega.

Yuqori ruhiy funksiyalarning shakllanish qonuni: har qanday yuqori xatti-harakatlar uning rivojlanishida ikki marotaba paydo bo'ladi – birinchi navbatda xulq-atvorning jamoaviy shakli sifatida, psixologik funktsiya sifatida, so'ngra ma'lum bo'lgan xatti-harakatlar uslubi sifatida intrapsixologik funktsiya sifatida.

Odatda, tashqi faoliyatning ushbu birinchi bosqichida bolaning qilgan ishlari kattalar bilan birgalikda hamkorlikda amalga oshiriladi. Vigotskiy yozganidek, har bir ruhiy funktsiya sahnada ikki marta avvalo, jamoaviy, ijtimoiy faoliyat, keyin esa bolaning ichki fikrlash usuli sifatida paydo bo'ladi. Bola shaxsini rivojlantirishning asosiy manbai – boshqa odamlar bilan hamkorlik va ongning eng muhim xususiyati dialogdir. Bu jarayon ongli muloqot orqali rivojlanadi.



Hatto ichki aqliy jarayonlarga aylantirilsa ham, yuqori aqliy vazifalar ijtimoiy xususiyatini saqlab qoladi. Mazmunli soʻz inson ongining mikrokosmidir deb taʼriflaydi.

L.S.Vigotskiy eng yaqin rivojlanish konusepsiyasini taqdim etadi, bu – bolaning oʻzi bajara olmaydigan, ammo kattalar bilan va ular orqali amalga oshiradigan harakatlar maydoni. Vigotskiy inson ijtimoiy tushunchadir, unda madaniyat mavjud.

L.S.Vigotskiy nazariyasining yana bir jihati rivojlanish gʻoyasi bosqichma-bosqich emas, balki yangi imkoniyatlarni toʻplash davrlari inqiroz bosqichlari bilan almashtiriladigan qadamli jarayon sifatida tadqiq qilgan. Vigotskiy uchun inqiroz eski holatni buzish (yoki qayta koʻrib chiqish) va yangi turmush tarzini shakllantirishning dramatik bosqichidir. Inqirozlar ogʻriqli, biroq Vigotskiyning fikriga koʻra, ular albatta, bosib oʻtilishu shart bosqichdir. Boshqa tomondan, inqiroz davrida bolaning muammosi muntazamlik emas, balki faqat ota-onalar va bolani tarbiyalagan kattalarning savodsiz xatti-harakati natijasidir.

Odatda, bolaga kattalar faoliyatiga taʼsir koʻrsatadigan obyekt sifatida qaraladi. L.S.Vigotskiy oʻz tadqiqotlarida faoliyat atamasidan foydalangan. Yuqoridagi hukmlarda u inson va hayvonlar oʻrtasidagi psixologik farqning nazariy jadvalini yaratadi. L.S.Vigotskiyning fikriga koʻra, shaxsiy faoliyat jamoaviy faoliyatdan olingan. Bir turdagi faoliyatdan ikkinchisiga oʻtish interiorizatsiya jarayonidir. Shunday qilib u aqliy vazifalar avval jamoada bolalar munosabatlari shaklida shakllanib, keyin shaxsning aqliy vazifalariga aylanadi, deb taʼkidlagan. Uning umumiy aqliy rivojlanish genetik qonuni quyidagicha shakllantirilgan: “Bolaning rivojlanishidagi har qanday yuqori ruhiy funktsiya birinchi navbatda jamoaviy, ijtimoiy faoliyat sifatida sahnada ikki marta paydo boʻladi – ikkinchi marta shaxsiy faoliyat sifatida”...

L.S.Vigotskiyning psixologiyasiga kiritilgan eng yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi maʼlum darajada shaxs faoliyatining kelib chiqish jarayonini jamoaviy faoliyat orqali tushuntiradi. L.S.Vigotskiy uchun



psixolog sifatida inson jamiyatining tarixida mehnat, qurol-yarog‘ (ya’ni amaliy) faoliyati va odamlar o‘rtasidagi muloqot bir vaqtning o‘zida aqliy jarayonlarning maxsus tuzilishining paydo bo‘lishini anglatardi. Vigotskiy va uning shogirdlari unga tegishli psixologik tushunchalarni ishlab chiqish uchun faoliyatning tarixiy-ijtimoiy konsepsiyasidan foydalanishgan. Bundan tashqari, L.S.Vigotskiy belgilar va og‘zaki ma’nolarni (ya’ni ongning aloqasi) amaliy harakatlar bilan bog‘lashning murakkab muammosini hal qila boshladi, u bu harakatlarning irsiy ildizlarini va amaliy harakatlarga, obyektiv tasnifga kiritilgan nutqning ildizlarini ochib berdi. Bu L.S.Vigotskiyning konsepsiyaning psixologik konsepsiyasini aniqlashtirish va rivojlantirishda ikkinchi muhim qadam edi, chunki u va uning xodimlari uchun tegishli atama hali qo‘llanilmagan (bu qadam madaniy va tarixiy nazariyani yaratishning dastlabki davrida amalga oshirilgan).

Hech bir xorijiy konsepsiya bu savolga ijobiy javob berolmadi. Bixevioristlar faqat xulq-atvorni obyektiv o‘rganish mumkinligini ta’kidlashdi. Psixoanaliz psixologlarni behushlikning tubiga tushirdi. Geshtalt psixologiyasining vakillari, izomorfizm tamoyilini ilgari surgan holda, ongni fiziologik jarayonlarning ajoyib “soyasi” deb hisoblashgan, ya’ni ongning o‘ziga xos qonunlarini ko‘rmagan.

L.S.Vigotskiy ongni o‘zi obyektiv o‘rganish imkoniyati haqida gapirgan birinchi shaxslardan biri edi, chunki u ongni (va umuman olganda psixikani) faqat tajribaga ega bo‘lgan mavzuga berilgan hodisalar bilan aniqlamadi. L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, ruh, albatta, mavzuga tegishli, chunki u dunyoda uning yo‘nalishi uchun zarurdir va bu ma’noda subyektivdir, biroq ayni paytda obyektiv dunyodagi obyekt xususiyatlariga ega bo‘lgan (juda aniq tarzda) aks ettirilgan. Shunday qilib, psixologik fan mavzuni atrofidagi dunyo bilan bog‘laydigan aloqalar, munosabatlar, jarayonlarni ko‘rib chiqishi kerak.

Ushbu g‘oyani yanada rivojlantirish uchun A.N.Leontev mavzuning faoliyatini obyekt va mavzuning o‘ziga xos aloqasi



sifatida o'rganish zarurligini, uning namoyon bo'lish shakllaridan biri psixikani o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, bolaning ongi o'z-o'zidan shakllanmaydi, lekin ma'lum ma'noda psixikaning "sun'iy shakli" ni ifodalaydi. Xotirani "tarbiyalash" usullari masalasi o'sha davrdagi ko'plab psixologlar va o'qituvchilardan farqli ravishda hal qilindi. Ular mexanik mashqlar orqali xotirani rivojlantirish imkoniyati haqida fikr yuritdilar; bu fikr, shu bilan birga, ommaviy ongda keng tarqalgan.

L.S.Vigotskiy bo'yicha, yodlash samaradorligini oshirish insonda vositachilik qilish usullarini shakllantirish orqali ta'minlanadi. Ushbu topilma, ayniqsa, kechikish yoki aqliy rivojlanish nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan shug'ullanadigan defektologlar uchun juda muhim edi. Nihoyat, yodlash usullarini qo'llashda, birinchi navbatda, bolalarning faoliyati hisobga olinishi kerak, shuning uchun avvalo, o'quv materialini o'zlashtirishda taqdim etiladigan shart-sharoitlarni yaratish kerak. Faoliyatni ta'minlash, o'z navbatida, yodlash harakatlarini bolaning mazmunli faoliyatiga kiritganda (masalan, o'quv dasturlarini haqiqiy atrofda bola bilan bog'liq bo'lgan material bilan to'ldirish va shu bilan unga ma'no beradigan) bo'lishi mumkin.

Psixikaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan boshqa) tarkibiy qismlari: emotsiya, mayl yordamida shaxsning xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika, deyiladi. Ushbu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U insonning umrini o'ziga xos betakror xususiyatlarga molik 8 ta davrga ajratadi.

Birinchi davr – go'daklikda tashqi dunyoga ongsiz "ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda ishonchning negizi paydo bo'lmay, borliqqa ishonchsizlik hissi tug'ilsa, voyaga yetgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik paydo bo'lishi shubhasizdir.

Ikkinchi davr – ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadrimmat tuyg'usi shakllanadi yoki, aksincha, ularning teskarisi – uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi unga o'z



tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, bo‘lg‘usi shaxs xususiyatlaridan tartib va intizom, mas’uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ulari tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr – o‘yin yoshi deb ataladi va unga 5–7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg‘usi, qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi xohish-istakni ro‘yobga chiqarish yo‘li to‘siq qo‘yilsa, buning uchun u o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda davra, ya’ni guruh o‘yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bola turli rollar bajarib ko‘rishiga, uning xayoloti o‘shishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

To‘rtinchi davr – maktab yoshi boladagi asosiy o‘zgarishlar: ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Bu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham bo‘lib, ular ijobiy xislatlari yetarli bo‘lmasligi, ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni hal qilishda aql–zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o‘zlashtirishdagi qoloqlik va hokazolardir. Xuddi shu davrda shaxsning mehnatga munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr – o‘spirinlik betakror xislati, o‘ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o‘spirinlik shaxs sifatida noaniqligi muayyan rolni uddalamaslik, qat’iyatsizlik singari salbiy sifatlarga ham egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati “rolini kechiktirish”ning o‘zgarishi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko‘lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, shuningdek, rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o‘spirinlarda o‘zini o‘zi anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish,



psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) jarayonlarni va ularning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini bayon qiladi.

Oltinchi davr – yoshlik boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Bunda ayniqsa, jinsiy mayl alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholikni yoqtirish va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyat bilan ham farqlanadi.

Yettinchi davr – yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g‘amxo‘rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg‘usi uzluksiz hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarida turg‘unlik tuyg‘usi salbiy xususiyat sifatida hukm surishi ham mumkin.

Sakkizinchi davr, ya‘ni qarilik inson sifatida o‘z burchini uddalay olganligidan, turmushning keng qamrovliligidan qanoatlanish tuyg‘ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyatidan noumidlilik, ko‘ngil sovish singari tuyg‘ularni aytish mumkin. Donolik, sofflik, gunohlardan forig‘ bo‘lish har bir holatga shaxsiy va umumiy nuqtayi nazardan qarash bu yoshdagi odamlarga xos eng muhim jihatlardir.

D.B.Elkoninning tasnifi yetakchi faoliyat (A.N.Leonted) nazariyasiga, ya‘ni har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

1) go‘daklik davri – tug‘ilgandan 1 yoshgacha: asosiy faoliyat – bevosita emotsional muloqot;

2) ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha: asosiy faoliyat – jism bilan nozik harakatlar qilish;



3) maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha: asosiy faoliyat – rolli o‘yinlar;

4) kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 10 yoshgacha: asosiy faoliyat – o‘qish;

5) kichik o‘smirlik davri – 10 yoshdan 15 yoshgacha: asosiy faoliyat – shaxsning intim muloqoti;

6) katta o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik davri – 16 yoshdan 17 yoshgacha: asosiy faoliyat – o‘qish, kasb tanlash.

D.B.Elkonin tasnifini ko‘pchilik psixologlar ma’qullashiga qaramay, unda ayrim munozarali jihatlar ham bor. Umuman olganda esa, D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa, ontogenez psixologiyasida muhim o‘rin tutadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasi A.A.Lyublinskaya inson kamolotini yosh davrlariga ajratishda pedagogik psixologiya, faoliyat nuqtayi nazaridan unga yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi:

1. Chaqaloqlik davri – tug‘ilganidan bir oylikkacha.
2. Kichik maktabgacha davr – 1 oylikdan 1 yoshgacha.
3. Maktabgacha tarbiyadan oldingi davr – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
4. Maktabgacha tarbiya davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
5. Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11 (12) yoshgacha.
6. O‘rta maktab yoshi davri (o‘smirlik) – 13 yoshdan 15 yoshgacha.
7. Katta maktab yoshi davri – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyandasi V.A.Kruteskiy insonning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta’kidlaydi:

1. Chaqaloqlik (tug‘ilganidan 10 kunlikkacha).
2. Go‘daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha).
3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha).
4. Bog‘chagacha yoshi (3 yoshdan 5 yoshgacha).
5. Bog‘cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha).
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha).



7. O‘smirlik (11 yoshdan to 15 yoshgacha).

8. Ilk o‘spirinlik yoki katta maktab yoshi (15–18 yosh).

Har ikkala tasnif ham puxtaligidan, ularga qanday nuqtayi nazardan yondashilganidan qat’i nazar inson kamolotini to‘la ifodalab berishga ojizlik qiladi. Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko‘proq ma’lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, yetuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to‘g‘risida nazariy va amaliy ma’lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay, ular o‘rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. *E.Eriksonning umrini o‘ziga xos betakror xususiyatlarga molik nechta davrga ajratadi?*
2. *Ontogenez psixologiyasida yosh muammosi deganda nima tushunasiz?*
3. *Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyandasi haqida ayting.*



5-MAVZU: CHAQALOQLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Bolaning ona qornidagi o‘shish davri.*
2. *Tug‘ilish jarayoni chaqaloq organizimini kuchli larzaga keltiruvchi mo‘jiza ekanligi.*
3. *Chaqaloqlik (tug‘ilgandan bir oylikkacha) davrining psixologiyasi xususiyatlari.*
4. *Chaqaloqlik davrida inson hayotidagi organik ehtiyojlarni qondirishga nisbatan yo‘naltirilgan xatti-harakatlarning tug‘ma va instinktiv shakllarini sof holda kuzatilishi.*

Tayanch tushunchalar: *Chaqaloq, tug‘ilish, individ, evolyutsiya, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, rol, person, psixoanaliz.*

Bolaning ona qornidagi o‘shish davri onaning organizmiga uzviy bog‘liq holda kechadi. Chaqaloqning barcha hayotiy funktsiyalari – ovqatlanish, nafas olish, nafas chiqarish, havo haroratining o‘zgarishiga va atmosferadagi moddalar almashinuviga moslashish va hokazolar onaning organizmi orqali amalga ishadi. Chaqaloqning tug‘ilishi sifat o‘zgarish daqiqasni ijtimoiy rivojlanishning yangi ko‘rinishi boshlanadigan nuqta ekanligi bilan muhim ahamiyatga etadir. Shuning uchun tug‘ilish tabiatning Chaqaloq organizmini kuchli larzaga keltiruvchi mo‘hijzasidir. Bunda ona qornidagi barqaror muhitda yashagan jonzot favqo‘lodda yangi sharoitga, son-sanoqsiz xossa va xususiyatlarga ega bo‘lgan qo‘zg‘ovchilar doirasiga tushadi. Avval Chaqaloq organizmining ona organizmidan ajralishi sodir bo‘lib, ijtimoiy–tabiiy sharoitlarga moslashuvi boshlanadi. Uning murrak



organizmida tub o'zgarishlar ro'y beradi, uning yangi sharoitlarga ko'nikish davri kurashlar ostida o'tadi. Chaqaloq organizmi miqdor va sifat o'zgarishlariga, tashqi olamning qarshiligiga, ta'siriga, tazyiqiga duch keladi; fazo, vaqt va harakat muammolari mutlaqo boshqacha tarzda uning bosh miya katta yarim sharlari po'stida aks eta boshlaydi.

Chaqaloqda ona organizmi bilan anatomik, morfologik va konstitutsiyaviy bog'liqlik davri tugagan bo'lsa-da, biroq u dastlabki daqiqalardan boshlaboq mustaqil ayta olmaydi, onaga fiziologik jihatdan tobeligacha qolaveradi. Chaqaloq uchun organizmi talab qiladigan ovqat, oqsillar mazkur o'sish pallasida ona suti orqali borib turadi. Bola onaning qornida mo'tadil haroratda, oziq yetarli darajadagi sharoitda, hatto, organizmning funktsional holati ham ona organizmiga bevosita bog'liq holda yashagan bo'lsa, tug'ilishi bilanoq birdaniga yangi, murakkab, qiyin sharoitga tushib qoladi.

Tug'ilgan chaqaloq havo bo'shlig'i va havoning bosimiga duch kelishi sababli tabiiy talabga ko'ra uning nafas olishi va nafas chiqarishi o'zgaradi. Salqin havo oqimiga tushishi bilan haroratning ta'siriga moslashish uchun harakat qiladi. Unda ovqatlanish usuli va vositasi ham o'zgaradi, ya'ni plantsentar oziqlanish (ona organizmidan bevosita qonga moddalar so'rilishi)dan oziqlanish (ovqat og'iz bo'shlig'i orqali meda-ichakka borishi)ga o'tadi.

Chaqaloq hayvonlarning bolalariga qaraganda himoyaga muhtojroq, nochorroq bo'lib tug'iladi. Tug'ilish arafasida unda nasliy yo'l bilan mustahkamlangan ayrim mexanizmlar, shartsiz reflekslar paydo bo'ladiki, bular yangi hayot sharoitiga moslashishni birmuncha engillashtiradi.

Chaqaloq tug'ilganda uning ovqatlanish reflekslari ma'lum darajada shakllangan asosan, so'rish, emish reflekslari o'z vazifasini ado etishga tayyor bo'ladi. Chaqaloqning labiga va tilining shilimshiq pardasiga biror qo'zg'atuvchi tegishi bilan unda ixtiyorsiz ravishda so'lak ajrala boshlaydi. Ona ko'ragini emishda uning boshqa har qanday harakatlari sekinlashadi yoki mutlaqo to'xtaydi. Psixologlar



M.P.Denisova va N.L.Figurinlar chaqaloqlardagi mazkur jarayonni chuqurlashtirib ovqatga yoʻnalish reaksiyasi deb atadilar. I.P.Pavlov takbiricha, bunda shartsiz reflekslar vujudga kelib, u idrok qilinadigan narsaga idrok qiluvchi organni qoʻzgʻatuvchi eng qulay yoʻnalishida aks etadi. Natijada emish mexanizmining taʼsiridagi xatti–harakatlar qisman, yoki butunlay tormozlanadi. Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini taminlovchi asosiy omil tugʻilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir. U tashqi sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan, nisbatan etilgan nerv sistemasi bilan tugʻiladi. Tugʻilganidan boshlab mazkur reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olish hamda nafas chiqarishni tahminlaydi.

Birinchi kundanoq kuchli qoʻzgatuvchilarga nisbatan koʻzni qisish, pirpratish, uning qorachigʻini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslarni himoya reflekslari deyiladi.

Chaqaloqda himoya reflekslaridan tashqari, qoʻzgʻatuvchilar bilan aloqa oʻrnatishga xizmat qiladigan reflekslar ham boʻladi. Bularni orientir reflekslari deb ataladi. Chaqaloqlarni kuzatishlarda ikki–uch kunlik bola xonaga quyoshnuri tushishi bilan boshini yorugʻlik tomonga burishi, chakaloq xonaga asta kirib kelayotgan nur manbaini ham sezishi yaqqol koʻrindi.

Yuqorida aytilgan reflekslardan tashqari, bolada bir nechta tugʻma tabiiy reflekslar ham uchraydi: emish refleksi orziga tushgan narsani soʻrishda oʻz ifodasini topsa, qoʻl kaftiga biror narsaning tegishi ushlash, chang solish reaksiyasini vujudga keltiradi, oʻzidan narsani itarish, uzoqlashtirish refleksi mavjudligini koʻrsatadi va bu hol tovonga qandaydir jism tegishi bilan uni oʻzidan uzoqlashtirishda namoyon boʻladi.

Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqalokda tugʻilishiga qadar ham shartsiz reflekslar boʻlishi, unga homilalik paytidayoq oʻz qoʻlini soʻrish imkonini yaratadi.



Sharq allomalarining fikricha, chaqaloqda tug‘ma reaksiyalarning boshqa guruhi ham mavjud bo‘lib, beshik tebratilganda chaqaloqning yig‘idan to‘xtashi ixtiyorsiz harakati, sekinlishuvi shundan dalolat beradi. Qadim zamonlardan beri beshik, so‘rg‘ich va hokazolarda chaqaloqni yupatishning, uning ixtiyorsiz harakatini to‘xtatishning, diqqatini ovqatga va favqo‘lodda holatga to‘plashning muhim vositasi sifatida foydalaniladi. Qator tug‘ma-tabii reaksiyalar chaqaloq hayoti uchun juda muhimdir. Ana shu shartsiz reflekslar tufayli u yangi, ung‘aysiz sharoitga ko‘nikib boradi va o‘xshash tarzini mavjud yo‘nalishga uyg‘unlashtiradi. Uning yangi muhitda ovqatlanishi va nafas olishi ana shu reflekslarning bevosita funktsiyasi hisoblanadi. Bola tug‘ilgunicha undagi barcha jarayonlar, onaning organizmi orqali amalga oshgan bo‘lsa, tug‘ilganidan keyin mutlaqo boshqacha tarzda amalga osha boshlaydi. Masalan, o‘pka bilan nafas olish, og‘iz (og‘iz, ichak, oshqozon kabi biologik organlar orqali) ovqatlanish vujudga keladi. Buni psixologiyada reflektor moslashish deb ataladi.

Muskul tuzilmasining ishtirokida nafas olishning ritmli-harakatlari amalga oshadi. Bu jarayon ovqatlanish, emish (so‘rish) reflekslari yordamida vujudga keladi. Chaqaloqning tug‘ma reflekslari dastlabki paytlarda nomutanosib ishlashi sababli u tez-tez qalqib ketadi, jismonan darrov toliqadi (tez uyquga ketadi yoki uyg‘onadi). Chaqaloqning butun faoliyati, faolligi organizmni oziq bilan taminlashga, to‘yishga yo‘nalgan bo‘ladi. Organizmning termo regulatsiyasi ham alohida ahamiyat kasb etib, bolani o‘zgaruvchan mikromuhitga tobora moslashtirib boradi.

Chaqaloqlik davri insonning kamol topishida xulq-atvorning tug‘ma-instinktiv ko‘rinishlari: nafas olish, ovqatlanish, haroratdan ta‘sirilanish va hokazolar sof holda namoyon bo‘lishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur organik (moddiy) ehtiyojlar chaqaloq uchun psixik o‘shishning negizi vazifasini o‘tay olmaydi, ammo ular birgalikda individining yashashini taminlaydi.



Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qator tug'ma reflekslar bolaning o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmasa ham, uning tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ishtirok qiladi. Bularga ativistik tirmashish, sudralish, emaklash kabi nasliy reflekslar kiradi va ayrim reflekslar (tirmashish, chang solish) borgan sari susayib boradi. Chaqaloqda ushlar, o'zini to'tish reflekslarining paydo bo'lishi unga fazoda to'g'ri harakat qilishga imkon yaratadi. Tom ma'nodagi sudralish – bolaning narsalarga qo'l cho'zishidan boshlab, oldinga intilishida ko'rinadi. Bu jarayon keyinroq yanada taraqqiy eta boshlaydi.

Tug'ilishga yaqin chaqalokda quloq va ko'z mexanizmlari o'z vazifasini o'tashga tayyor bo'ladi. Bundan tashqari, unda qator himoya va orientir reflekslari (o'ta yorug'likka qarash natijasida ko'zni pirpiratish, boshini olib qochish, burish, kuchli tovushdan cho'chish kabilar) ham mavjud bo'ladi. Ammo chaqalokda ko'rish va yeshitish apparatlari orqali o'z diqqatini biror obyektga to'plash imkoni bo'lmaydi, chunki obyektни tanish, tovushni ajratish, sezish imkoniyati bolada keyinchalik vujudga keladi.

Chaqaloq uchun tug'ma, mexanizmlar yangi sharoitga moslashish (ko'nikish) uchun kifoya qilmaydi. Shu boisdan uni tarbiyalashda qo'shimcha tarbiyaviy tadbirlar qo'llanmasa, chaqaloq o'sishdan orqada qolishi mumkin.

Chaqaloq ona qornidagi yashash sharoitidan atmosferada hayot kechirishga o'tgan dastlabki paytlarda uning uyqu va uyqusizlik holatlari o'rtasida keskin chegara bo'lmaydi.

Tug'ilgan chaqaloqning vazni tez kamaya boradi. Buning sababi undan suyuqlik moddasining chiqib ketishi, vaznsizlik holatidan atmosfera bosimiga, quyoshnuriga, turli xususiyatli moddalar ta'siriga, o'zgaruvchan havo haroratiga moslashish davrida ko'p kuch-quvvat sarflanishidir. Bu davrning kechishida chaqaloqlarning ham individual, ham jismoniy tafovutlari ko'zga tashlanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay chaqaloq vaznining kamayishi tabiiy ravishda to'xtaydi



va uning yangi muhitga moslashishi boshlanadi. Kindik tushish davri organizmda keskin o'zgarishlar yo'zberish pallasi hisoblanib, murg'ak organing mustaqil yashayotganidan dalolat beradi. Chaqaloqning oldingi vazniga yetish davri hayotining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi.

Chaqaloq organizmining anatomik-fiziologik, morfologik tuzilishi bo'yicha boshqa yoshdagi odamlarnikidan farqi kam rivojlangani, zaifligi, ish qobiliyatining kuchsizligidir. Uning suyak tuzilmasi, pay-muskullari va tog'ay to'qimalarining o'sishi katta yoshdagi kishilarnikidan ham suxbat, ham sifat jihatidan farqlanadi. Chaqaloqdagi muskullarning takomillashishi harakat negizini vujudga keltiradi, shu bilan, birga har bir biologik organing mustaqil harakati va faoliyatini taminlashga xizmat qiladi. Bolada bo'yin muskullarining o'sishi bo'ynini to'tishga olib kelsa, tana muskullarining rivojlanishi kattalar yordamida ag'anash imkonini, qo'l va oyoq muskullarining yetilishi esa jismoniy harakat qilishi, jismlarga qo'l cho'zish uchun sharoit yaratadi.

Chaqaloqning anatomik-fiziologik tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak tuzilmasida ohak moddasi va har xil tuzlar etishmasligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli suyak funktsiyasini ko'proq tog'ay to'qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolaning ikki oyligida o'zaro qo'shilib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepa qismlari o'rtasida liqildoq deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo'ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo'lmaydi.

Chaqaloq nerv tuzilmasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko'rinishi bilan katta odamnikiga aynan o'xshasa ham, aslida uydan ko'p farq kiladi. Odamlarni o'zaro qiyoslasak ajoyib manzarani ko'ramiz: miyaning og'irligi chaqaloq tanasining sakkizdan bir va katta odamlarda esa qirqdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko'rinsa-da, u hali juda bo'sh, mukammallashmagan bo'ladi.



Ularning organizmi jadal sur'at bilan o'sish davridan o'tadi. Bu davrda chaqaloqning og'irligi 3–5 kg bo'lishiga qaramay, miyasining og'irligi 300–350 grammni tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi hujayralarining miqdori, ariksialarning yaqqol ko'zga tashlanmasligi, nerv hujayralari tarmog'i jihatdan katta odamlarning miyasidan farq qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni isbotlashga harakat qilgan psixolog E.A.Arkinning takidlashicha, bola tug'ilishga harakat qilayotgan paytda uning miyasini bir xil kulrang massa tashkil etadi, uning nerv tolalarida melin qobig'i bo'lmaydi.

Chaqaloqda nerv tolalari bir–biridan ajralmagani sababli, tashqaridan kelgan qo'zgatuvchilar muayyan qismga yo'nalgan bo'lsada, boshqa markazlarga ham ta'sir qilaveradi. Shu sababdan bo'lsa kerak o'zining bosh miya yarim sharlari kobig'ida aniq, barqaror qo'zg'alish o'choqlari vujudga kelmaydi.

Chaqaloq tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga ixtiyoriy ravishda qo'l-oyoqlari esa boshini tartibsiz harakatlantirish bilan javob beradi. Katta yoshli kishilarning bilish jarayonlari, his-tuyg'ular, psixik holatlarni va o'ziga xos tipologik xususiyatlarini idora qilishda nerv tuzilmasining yuksak darajada rivojlangan qismlari yetakchi ro'l o'ynasa, chaqaloqning hayotiy faoliyatida bu vazifani bosh miya qobig'ining ostki markazlari bajaradi. Bosh miya yarim sharlarining durustroq rivojlangan bo'limlar chaqaloq uchun eng zarur jarayonlar: nafas olish va nafas chiqarish, emish, yutinish, qon aylanish, siydik chiqarish va hokazolarni boshqarib turadi. Mazkur nerv tolalari chaqaloqning, yashashi uchun yetarli miqdorda melin qobig'iga o'ralgan bo'ladi.

Chaqaloq boshqa yosh davrlidagi odamlarga qaraganda kuchsiz, zaif, ojiz ko'rinsada, ba'zi jihatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. E.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi. U har oyda ikki sm dan o'sadi, uning og'irligi har kuni 1,6 – 2 grammdan ortib boradi.



Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individiing vegetativ nerv tuzilmasi, ichki sekretiya (buqoq, qalqon bezi va ustki) bezlarining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuni alohida takidlash kerakki, ichki sekretiya bezlari ishlab chiqargan maxsus gormonlar qonga so'rilib, organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning g'oyat jadal sur'at bilan o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof havo, quyoshnuri, nafas olish, parlanish va hokazolardir.

Odatda chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli refleklar ta'sirida vujudga keladi. Shartsiz, tug'ma refleklar bolaning tug'ilishi arafasida yetarli darajada yetilishi sababli unda qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, siydik chiqarish singari eng muhim vegetativ funktsiyalar amalga oshadi. Masalan, qorni och chaqaloqning labiga biror narsa tegishi bilan unda emish harakati vujudga kelib, so'laklari oqa boshlaydi. Bu ovqatlanishning shartsiz refleksi deyiladi.

Chaqaloq tug'ilishi arafasida uning bosh miya katta yarim sharlarining og'irligi, hajmi va funktsional jihati yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa ham, u mavjud shartsiz refleklar negizida atrof-muhit va boshqalar bilan munosabatga kirishish imkoniyatini beradigan oddiy shartli refleklar hosil qila oladi. Masalan, hid, yorug'lik, harakat qo'zg'atuvchilarining tasiri natijasida oddiy shartli refleklar vujudga kelishi mumkin.

Chaqaloq hayotining dastlabki kunlaridan boshlab, tashqi muhit bilan munosabatga kirishish, aloqa bog'lash jarayonida unga mustaqil hayot kechirish imkoniyatlari tug'iladi. Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, chaqaloq hayotining ilk davrida undagi refleklar kuchsiz, zaif va beqaror bo'ladi. Chunki kuchli tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sirida refleklar tez izdan chiqadi va qayta tiklanish imkoniyati tobora kamayadi.

Chaqaloqning asosiy xususiyatlaridan biri uning inson zotiga xos barcha xulq-atvor shakllarini va avlodlarning tajribalarini o'zlashtirish imkoniyatiga egaligidir. Tug'ma refleklar chaqaloq



hayotidagi yetakchlik rolini asta-sekin yo‘qota boradi. Kundalik tartib va tarbiyaning o‘ziga xos sharoitida ehtiyojning boshqa ko‘rinishlari, jumladan, taassurot olish, ta’sirlanish, harakat, muloqot kabi shakllari vujudga keladi. Mohiyati va maqsadi jihatidan yangi ehtiyojlar zamirida psixik rivojlanish amalga oshadi.

Bolada taassurot olish ehtiyoji paydo bo‘lishi bilanoq, orientir refleksi bilan aloqa, o‘rnatadi, hissiy bilish organlarining tayyorlik darajasiga muvofiq mavjud ma’lumotlarni qabul qiladi va shu jarayonda o‘zi ham rivojlanadi. Chaqaloqning ko‘ruv va eshituv apparati dastlabki kundanoq ishga tushsa ham, ular hali yetilmagan bo‘ladi. Shu sababli ko‘rish sezgisini yorug‘liq, yeshitish sezgisini esa qattiq tovush vujudga keltiradi. Bola harakatdagi jismlarni kuzatishga intilsa ham, aslida qimirlamay turgan narsalarga ko‘proq diqqatini to‘playdi. Uning ruhiy dunyosida ko‘ruv va eshituv apparatlariga, mos ravishda diqqatning muayyan obyektga to‘planishi jarayoni asti-sekin vujudga keladi.

Chaqaloqning sezgi organlari uning harakatiga qaraganda durustroq rivojlangan bo‘ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issiqni sovuqdan, xo‘lni quruqdan farqlay oladi. Uning hid bilish organlari juda zaif bo‘lishiga qaramay, burniga yoqimsiz hidli modda yaqinlashtirilsa, bezovtalanadi. Boladagi teri tuyush, haroratni his qilish, sezish, og‘irlikni fahmlash, tam bilish sezgilari ham yetarli darajada rivojlangan bo‘ladi.

Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof-muhitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo‘lmaydi. Chunki idrok qilish insonning boshqa psixik jarayonlari (xotira, tasavvur, tafakkur), ruhiy holatlari (his-tuyg‘u, o‘ng‘aysizlanish) va o‘ziga xos tipologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshadi. Shuning uchun chaqalokda mazkur imkoniyat o‘ta cheklangan bo‘lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega.

Yangi tug‘ilgan bolada kuchli yorug‘likni aks ettirish imkoni bo‘ladi va u yorug‘likdan turli darajada va shaklda ta’sirlanadi, hatto,



ko‘zlarini yumib oladi. Ko‘rish mexanizmlari hali o‘shib ulgurmagani sababli tinch holatdagi yoki harakatdagi jismni idrok qila olmaydi. Goho o‘n kunlik Chaqaloq harakatdagi jismga nigoh tashlagandek ko‘rinsa-da, aslida unga bir necha sekund terilishdan nari o‘tmaydi.

Chaqaloqda yeshitish sezgisi zaif rivojlangan bo‘lsa ham, u hali to‘liq yeshitishga moslashmagan kuchli qo‘zg‘atuvchilarni (tovush, qichqiriqni) aks ettira oladi, biroq tovush kelayotgan obyektning aniq topa olmaydi. Ko‘rish va yeshitish organlarining muayyan obyektga yo‘nalishi oyoq–qo‘l va boshning harakatida, bolaning yig‘lashdan to‘xtashida ko‘rinadi. Chaqaloqdagi muhim xususiyatlardan yana biri ko‘rish va yeshitish tananing harakatlanishidan ildamroq rivojlanishidir. Chaqaloqni ko‘rish va yeshitish apparatlari faoliyatining o‘shishi tashqi qo‘zgatuvchilardan ta’sirlanishining takomillashuvida va bosh miyaning rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Chaqaloq miyasining og‘irligi kattalar miyasining chorak qismiga tengdir. Chaqaloqning nerv hujayralari kattalardagi hujayralarga o‘xshasa ham, zaifligi bilan ulardan farqlanadi. Shunga qaramay, bola organizmining tayyorlik darajasi shartli reflekslar paydo bo‘lishi uchun mutlaqo yetarli bo‘ladi.

Chaqaloq tashqi olam bilan aloqada, bo‘lishning markazi rolini bosh miya katta yarim sharlarining yuksak darajada rivojlangan qismlari bajaradi. Miya tobora takomillashuvining o‘zi Chaqaloqdagi hissi bilish organlarining rivojlanishini taminlay olmaydi. Bu organlar bola olayotgan taassurotlar natijasida rivojlanadi. Aslida taassurotlarsiz miyaning o‘zi o‘shishi mumkin emas. Miyaning rivojlanishida tashqi olamdan keladigan qo‘zg‘atuvchilar va signallarni qabul qiluvchi hissiy bilish organlari analizatorlarining ko‘p ishlashi muhim ro‘l o‘ynaydi. Ilmiy manbalarda ifodalanganidek Chaqaloq sensor to‘siqqa tushib qolsa, tashqi taassurotlarning yetishmasligi sababli o‘shishdan vaqtincha orqada qoladi. Aksincha taassurotlarning miyaga ko‘proq kelib tushishi orientir reflekslarining rivojini tezlashtiradi. Ko‘ruv va eshituv apparatini obyektlarga yo‘naltirish vujudga keladi, natijada insoniy sifatlar, jarayonlar shakllanadi. Ko‘ruv va eshituv organlari



orqali to‘planadigan taassurotlar manbai hamda nerv tuzilmasining muntazam o‘shini taminlash vazifasini katta yoshdagi odamlar bajaradi.

N.L.Figurin va M.T.Denisovning takidlashicha-bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati (uyg‘oqligi) ko‘rish va yeshitishga yo‘nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi, tovush ta‘siriga berilish 2–3 haftalikda vujudga keladi. Shuning uchun bola surnay sadosiga quloq soladi va yig‘idan yoki harakatdan to‘xtaydi. Bir oylik bo‘lgach unda orientir refleksi namoyon bo‘ladi (I. P. Pavlov). Shu sababdan Chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz xatti-harakatdan o‘zini tiyib turadi.

Bola obyekt ni ko‘rish va tovushni yeshitish uchun diqqatini to‘playdigan bo‘lgach harakatining faollashuvida ancha o‘zgarishlar ro‘y beradi. Odatda uning harakati ixtiyorsiz va tartibsiz ravishda amalga oshib, jimslarga ko‘z yugurtirish, boshini burish bilan tugasa ham, harakat hodisasi vazifasini bajaradi: o‘zida xulqning sodda ko‘rinishini ifodalab, bola voqeligini tashqi olam bilan uzviy bog‘laydi.

D.B.Elkonin fikricha, Chaqaloq hayotining uchinchi haftasida onaning emizishdagi holatiga moslashish bilan bog‘liq birinchi tabiiy shartli refleks vujudga keladi. Keyinchalik esa ba‘zi qo‘zg‘atuvchilarga javob tariqasidagi alohida sharrtli reflekslar ham paydo bo‘ladi.

D.B.Elkonin va uning shogirdlari takidlaganidek, hali Chaqaloq psixik hayotining mazmuni muammosi uzil-kesil hal qilinmagan va Chaqaloqning psixik dunyosiga chinakam haqiqatga yaqin, ilmiy-obyektiv qarashlar I.M.Sechenov asarlaridagina uchraydi. Psixologiya fani rivojining undan keyingi davrida shu muammoga taalluqli ancha tadqiqotlar olib borilgan, qator psixologik qonuniyatlar va mexanizmlar ishlab chiqilganki, bular to‘g‘risida yoshpsixologiyasi va pedagogik psixologiya hoestomatnyasida boy Material berilgan.

Chaqaloqning hayoti qichqiriq sadosi bilan boshlanadi va bu ko‘pincha shartsiz reflektor xususiyatidan kelyab chiqadi. Dastlabki



qichqiriq tovush chiqarish oraliq'i qisilishining bevosita ma'suli sifatida, organizmning tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Qisilish avval nafas olish refleksini ham boshqaradi. Shunga qaramay, mutaxassis olimlarning fikricha, birinchi qichqiriq – noxush his-tuyg'uning namoyon bo'lishidir. Qisilish tanglik (zo'riqish) tuyg'usini vujudga kelishidir. Shuning uchun Chaqaloqdagi muskul reaksiyasi bilan emotsional munosabatni farqlash ancha qiyin. Qichqiriq noxush kechinma va sezgilarga javob tariqasida vujudga kelib, issiqqa, ochlikka va namlikka qarshilik vazifasini bajaradi. Chaqaloqni to'g'ri tarbiyalash jarayonida qichqiriq emotsional kechinmalarining yana bir turi yig'lashga aylanadi. Yig'lash bola jismoniy og'riqni, ruhiy qayg'uni, ietirobni tabiiy, aks ettirishining manbai bo'ladi, tashqi olam bilan aloqa o'rnatishning zng zarur vositasi sifatida Chaqaloqning hayot faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. U noxush his-tuyg'ularnigina aks ettirib qolmay, tabiiy ehtiyojlarni qondirish mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bola bir oyga to'lgach o'zini parvarish qilayotgan odamga intiladigan, talpinadigan bo'ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasidan o'z kishisini tanishi va ajratishini aytish mumkin.

Mazkur psixologik holatni N.L.Figurin va M.P.Denisovalar "jonlanish" deb ataganlar. Bu davrda bolaning psixik dunyosida tetiklik, his-tuyg'usida esa atrof-muhitdan ta'sirlanish o'z aksini topadi. Ularning fikricha, bolaning katta yoshdagi odamlarga o'z munosabatini bildirishi ularning bundan keyingi o'sishini belgilovchi bosqich vazifasini o'taydi.

Jonlanish bolaning kattalar bilan o'ziga xos ravishda munosabatga kirishining yangi shakli sifatida vujudga keladi. Lekin tashqi qo'zg'atuvchining qitqlashiga javob tariqasida namoyon bo'ladigan jonlanishning tabiati hali ochilgani yo'q. Ehtimol, bu holat bolaning kattalar bilan muloqotining maxsus ko'rinishi va ovqatlanish refleksining mustahkamlanishi bilan bog'liqdir, u balki bolada ijobiy his-tuyg'ularni qo'zg'atish omilidir. Ba'zan bolada o'zini parvarish





qiluvchi shaxsning muomalasi tufayli emotsional harakatlar vujudga keladi, natijada uning qo‘l va oyoqlari harakati ildam va tez amalga oshadi. Bu jarayon intilish, iltijo, talpinish kabi tashqi ifodaga ega bo‘lgan ichki psixik kechinmalarda o‘z aksini topadi.

Psixolog E.K.Kaverina bolaning tashqi ta’sirga javob bildirishini tadqiq qilib, unda odamlar va jismlarga munosabat bir xilligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonning aft-angoriga qarab ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘onishi keyinchalik vujudga keladi, ta’sirga beri lish va ta’sirlanishning mazkur shakli bola bilan kattalar o‘rtasidagi aloqaning boshlang‘ich ko‘rinishi hisoblanadi. Shaxslararo aloqaning bu shakli Chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlanishidan dalolat beradi.

Chaqaloqda paydo bo‘ladigan ijobiy his-tuyg‘ularning oddiy tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan hech qanday bog‘liqligi yo‘q. Chunki psixik dunyodagi o‘zgarishlarni o‘rgangan M.Yu. Kistiyakovskayaning uqtirishicha, uyqusizlikdan qiynalish va ochlik uyg‘otuvchi qo‘zg‘atuvchilarni bartaraf qilish salbiy kechinma va his-tuyg‘uni pasaytiradi. Bolaning kattalar bilan ijobiy munosabatda bo‘lishi zamirida tabassum, kulgi, ilham harakat, tovush chiqarish bo‘lsa ham, bularning tabiiy-organik ehtiyojlarni qondirish bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Aksincha, ijobiy emotsional holat yangi ijtimoiy ehtiyojning ko‘rsatkichi bo‘lib, bola katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishining motivi va imkoniyati rolini bajaradi.

Psixolog M.I.Lisina va uning shogirdlari ta’kidlaganidek, mazkur yosh davrida bola ko‘z qarashlari, ixtiyorsiz harakatlari, sharpaga javobi, tamshanishi orqali kattalar bilan aloqa bog‘laydi. Ko‘p marta takrorlanish natijasida shartli refleks shaklida vujudga kelgan ana shu jarayonlar muloqotga aylanadi. Chaqaloqning yangi sharoit va muhitga moslashishidan kelib chiquvchi bu holat ko‘nikish ko‘rinishida muloqot vazifasini o‘tay boshlaydi. Biroq bu muloqot noverbal ravishda (so‘zlar, ishlatilmay) amalga oshadi, sodda shakldagi, tor ko‘lamli shaxslararo munosabatni aks ettiradi.



Katta yoshdagi odamlarning chaqaloq bilan muloqotda bo‘lishi unga o‘yinchoq ko‘rsatishi, termilishi, erkalashi unda tashqi ta’sirga javob reflekslarini faollashtiradi.

Psixolog D.B.Elkonin nazariyasiga ko‘ra chaqaloqlik davridan ilk bolalik, Go‘daklik davriga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bular:

1. Ko‘z va quloq yordamida diqqatni muayyan obyektga qaratish (to‘plash)ning paydo bo‘lishi bola harakat faoliyatining qayta qo‘g‘ilishi boshlangani, alohida namoyon bo‘luvchi harakatning xulq hodisasiga aylanishi.

2. Sirdan idrok qilinuvchi barcha obyekt larga (subyektlarga) yo‘nalgan alohida qo‘zg‘atuvchiga nisbatan shartli reflekslar hosil bo‘lishi.

3. Katta yoshdagi odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsional reaksiyalar (his-tuyg‘ular, kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo‘lishining ko‘rsatkichi ekanligi.

4. Bola (chaqaloq)ning kattalar bilan muloqotda bo‘lish ehtiyoji uning keyingi psixik o‘sishi negizini tashkil etishi va hokazolar.

Nazorat savollari:

1. *Chaqaloqlik davri.*
2. *Chaqaloqlik davrining umumiy fiziologik xususiyatlari.*
3. *Chaqaloqlik davrining psixologik xarakteristikasi.*
4. *Chaqaloqlik davri inqirozi.*
5. *Jonlanish kompleksi tushunchasi*



6-MAVZU: GO‘DAKLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari.*
2. *Go‘daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyoji.*
3. *Go‘dakning nutq faoliyatini takomillashishi.*
4. *Go‘dakning o‘shini ta‘minlovchi obyektiv va subyektiv sharoitlar.*

Tayanch tushunchalar: *Go‘dak tug‘ilish, individ, evolyutsiya, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, rol, person, psixoanaliz.*

Go‘dakning hayotiy faoliyati va taqdiri uni qurshagan, parlar ishlaydigan katta yoshdagilarga bevosita bog‘liq bo‘lib, uning barcha ehtiyoj va talablari faqat shular tomonidan qondiriladi: Psixologik iboralar bilan aytsak, kattalar bolaning fazodagi o‘rnini uzluksiz o‘zgartirishi, almashtirishi natijasida unda ko‘rish, eshitish, teri tuyush, haroratni sezish, Tam bilish kabi sezgilar rivojlanadi (takomillashadi). Kattalar go‘dak uchun yaratgan obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar uning o‘shini belgilovchi muhim turki vazifasini o‘taydi. Atrof-muhitning xususiyat va xossalarini kattalar go‘dakning psixik dunyosiga singdiradilar. Shiqildoilar shakli, rangi har xil o‘yinchoqlar va hokazolarni bolaning diqqatiga havola qilish unda jismlar to‘g‘risida tasavvur obrazlarini yaratadi, go‘dakning hissiy bilish organlari esa ularni aks ettiradi. O‘zaro muloqot jarayonida, jismlarni ushlashga o‘rgatish, mashqlar natijasida go‘dak tanish jismlarga talpinadigan, ularga qo‘l cho‘zadigan bo‘la boshlaydi, unda rang va shaklni farqlash imkoniyati tug‘iladi.



Ta'sir o'tkazishning keyingi murakkabroq bosqichida bola kattalar yordami bilan o'tirish, o'rinda dumalash, tik turish, ovqatlanish qurollaridan to'g'ri foydalanishni, uzluksiz va mazmunli harakatlarni amalga oshirishni o'rganadi. Shuning uchun aks ettirish qaysi bosqichdaligidan qat'iy nazar, bevosita yo'l bilan amalga oshadi. Umuman, go'daklik davrining dastlabki bosqichida olam, barcha ashyolar, jismlar to'g'risidagi ma'lumotlar, tasavvurlar, timsollar va hokazolar bolaning kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyati mas'uli sifatida ma'naviy boylikka aylanib, shuning bosh miya yarim sharlari po'stlog'i ostida o'z izlarini qoldiradi. Mazkur davrning aksariyat bosqichlarida go'dakda bilim va tajribalarni egallash, o'quv, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirish imkoni bo'lmaydi.

Go'daklik davrining xususiyatlarini o'rgangan L.S.Vigotskiy «Go'daklik davri» nomli asarida bolaning voqelikka munosabati dastlab ijtimoiy munosabatdek tuyulishini, ana shu jihatdan uni ijtimoiy jonzot deyish mumkinligini uqtirdi.

D.B.Elkoninning fikricha, katta yoshdagi odamlar go'dakni qurshagan voqelikning markaziy siymosi, muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning har qanday ehtiyojini qondirish bilan bog'liq muammolar uchun tayanch nuqtasi vazifasini bajaradilar. Go'dak tabiiy–biologik jihatdan onadan ajralgan bo'lsa ham, aslida u bilan ijtimoiy bog'likligicha qoladi. Go'dakning bir yoshgacha davridagi psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.Yu.Kistiyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir.

S.Fayans tajribasida go'dakka chiroyli va jozibador o'yinchoqlar 9 sm masofadan ko'rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo'lganida bolaning intilishi, qo'l cho'zishi sustlashgan va nihoyat, ular 100 sm dan ko'rsatilganda bolada intilishi, cho'zilishi, ixtiyorsiz harakati mutlaqo so'ngan. U o'yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa



qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi tajriba Material lari asosida, shunday xulosa chiqarish mumkin: kattalar go‘dak qatnashayotgan faoliyatni jonlantiradilar. Go‘dakni qurshab turgan jismlar borgan sari uning nigohini o‘ziga tortib, maftun qilib, qo‘zg‘atuvchi vazifasini bajarib, bolaning qidirish, mo‘ljal olish, chamalash faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.V.Yarmolenko yarim yoshlik go‘daklarda jozibali narsalarning o‘zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma‘lumotlarga qaraganda, go‘dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. Shu bilan birga harakatsiz ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga diqqatni to‘plash 26 sekunddan 37 sekundgacha, harakat qilmayotgan odamga bolaning tiqilishi 34 sekunddan 111 sekundgacha, harakatdagi ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga qarashi, 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e‘tibor berishi 49 sekunddan 186 sekundgacha ortgan. Tajribada go‘dakning harakatlanayotgan odamga diqqatni to‘plab turishi to‘rt marotaba ortgani aniqlangan.

Bizningcha, go‘dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqarorroq qaratishi uning kattalarga munosabati o‘zgarganidan emas, balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o‘rnini faolroq retseptor egallaganidandir. Go‘dakda fazoviy tasavvurning boyishida jismlarni idrok qilishdagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita hisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi, mashqlar natijasida jismlarning alomat va belgilarini farqlash uquvi paydo bo‘ladi.

Fransuz psixologi Anri Vallon go‘dakda ijtimoiy ta’sirlanish ortib borishini atroflicha tadqiq qilgan olimdir. Uning ta’kidlashicha, yarim yoshli bolada boshqa odamlardan farqli ravishda javob reaksiyasi (ta’siri) o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tariladi. Bola olti oyligida boshqa kishilarning imo-ishorasiz ta’siriga javob berishi (ta’sirlanishi) 50 foizni tashkil etadi, yetti oyligida esa aynan shu reaksiya 20 foizga



kamayadi, ammo imo-ishora orqali muloqot 41 foizga ortadi, yetti-sakkiz oylikda boshqa kishilarga talpinish, tabassum, qilish birinchi yarim yillikdagidan to‘rt marta ko‘pdir.

M.Yu.Kistyakovskaya bir yoshgacha bolalarda kattalar bilan muloqotga kirishishning murakkablashib borishini o‘rganib, bolalar psixologiyasi fani uchun eng zarur Material lar to‘plagan va ularni atroflicha izohlagan. Olimaning fikricha, 3 oylikdan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar, bilan tanlab munosabatda bo‘lish vujudga keladi. Uch oylik go‘dak begonalar orasidagi tusdan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay biladi. M.Yu.Kistyakovskayaning ma’lumotiga ko‘ra, 3–4 oylik go‘dak unga yuzlangan, erkalatgan, muloqotga kirishgan har qanday odamga tabassum qiladi yoki erkalanadi, 5–6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o‘giradi, hatto, qo‘rqib yig‘lab yuboradi. Bolada o‘zini parvarish qilayotgan, bohayotgan yaqin kishilarga bog‘lanib qolish sodir bo‘ladi. Ana shu sababli onasi yoki enagasini ko‘rsayoq qiyqirib qarshilaydi, talpinadi, qo‘l-oyog‘ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to‘lganida atrofidagi yaqin kishilar qatori qarindosh-urug‘lariga, hatto, qo‘ni-qo‘shnilarga ham bog‘lanib (o‘rganib), ko‘nikib qoladi. Taxminan 8–9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o‘yin faoliyatini boshlaydi.

O‘yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik tuyg‘ulari avval faqat kattalar ishtirokida namoyon bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan o‘yinning o‘zi bolaga quvonch bag‘ishlaydi. Go‘dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning hatti-harakatlarini izchil kuzatishdan tashqari, unda asta-sekin ularning faoliyatida ishtirok etish tuyg‘usi, istagi paydo bo‘ladi, keyinchalik ularga ko‘mak berish ishtiyoki tug‘iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o‘ta boshlaydi. Ma’lumki, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi.



Tadqiqotchilardan N.L.Figurin va M.P.Denisova go‘dakning bir yoshgacha davridagi psixik o‘shini o‘rganganlar. Olingan ma’lumotlaridan kelib chiqib bir yoshgacha kulgi inson chehrasi va tovushidan ta’sirlanish asosida vujudga kelishini ta’kidlaganlar. Bolaning boshini burib qarashi asosan insonning tovushiga javob reaksiyasi tarzida namoyon bo‘lsa-da, u keyinchalik boshqa tovushlardan ta’sirlanishda ham ko‘rinadi.

Bolada qo‘rquv hissi kishilarni tanish va notanishga, qarindosh va begonaga ajratish, niqobni farqlash jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun ijtimoiy tajriba va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda biror holatni yaqqol aks ettirishda go‘dak kattalarga taqlid qiladi. Taqlidchanlik bolaning ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi va uni faoliyatining yanada takomillashuviga turtki bo‘ladi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikr–mulohazalarini umumlashtirsak qimmatli umumpsixologik fikrlarni muayyan tartibda, izchil joylashtirish mumkin bo‘ladi. Birinchidan, mazkur yosh davrida bola bilan uni parvarish qilayotgan kattalar o‘rtasida, yaqin va nisbatan barqaror aloqa o‘rnatiladi. Ikkinchidan, go‘dak qatnashadigan har qanday favqulodda odiy holat va muammoli vaziyatda kattalar markaziy siymoga aylanadilar. Uchinchidan, go‘daklik–davrining oxirida hamkorlikdagi o‘yin faoliyati individual o‘yin faoliyatiga aylanadi.

Shunday qilib, go‘daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyoji tug‘iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o‘ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o‘shida muhim ro‘l o‘ynaydi, Bir yoshgacha davrda paydo bo‘lgan ehtiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha muloqot cheklanganligining nomutanosibligi inqiroz keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan qarama–qarshilik o‘z yechimini nutq orqali muloqot davrida topadi va bola o‘shning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o‘tayotganini ifodalaydi. Go‘dakning nutq faoliyati takomillashgan sayin muloqotning mazmuni boyib, ko‘lami kengayib boradi. Natijada haqiqiy ma’nodagi shaxslararo



munosabat vujudga keladi, go‘dakning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur davrda go‘dakning o‘shini tahminlovchi obyektiv va subyektiv sharoitlar yaratilishi bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo‘ladi.

L.I.Bojovich olib borgan tadqiqotning natijasi tug‘ilish davriga kelganda bolaning miya pustlog‘i faoliyat ko‘rsata boshlasada, aslida u na anatomik va na funktsional jihatdan rivojlangan bo‘lishini ko‘rsatdi. Vaholanki, uning psixik dunyosida vujudga keladigan ehtiyojlarning kuchi, davomiyligi, barqarorligi ana shu rivojlanishga bog‘liqdir. Shunday ekan, organlarning rivojlanishi go‘dakning funktsional holatiga aloqadorligi sababli bosh miyaning rivojlanishi ham unga yangi qo‘zg‘atuvchilarning ta‘sir qilishiga va bu ta‘sirning bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ida faoliyat uyg‘otishiga bog‘liqdir. Bosh miya markazlari esa jadallashgan orientirovka faoliyatining kuchliligi tufayli funktsional jihatdan rivojlanadi.

Mohir tadqiqotchi N.M.Askarinning fikricha, katta yoshdagi odamning tabassumi yoki yoqimli ovoizidan boshqa hech qanday qo‘zg‘atuvchi go‘dakda shunchalik quvonch va shodlik his-tuyg‘usini vujudga keltira olmaydi. Shu sababli quvonch tuyg‘usini uyg‘otish va mustahkamlash uchun tarbiyachilar go‘dak bilan tez-tez muloqotda bo‘lishi, yoqimli ohangda, samimiy suhbatlashib turishi lozim.

Harakatning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini qator tajribalar asosida o‘rgangan olimlardan D.B.Elkoninning ishonch bilan ta’kidlashicha 2-3 haftalik go‘dakda ko‘z konvergentsiyasi vujudga kelsa ham, o‘z nigohini turli jismlarga qaratib turish jarayoni juda qiyin kechadi, hayotining 3-5-haftalarida esa uning nigohi oz fursat bo‘lsa-da, muayyan obyekt ga talpina boshlaydi. 4-5 haftalik go‘dakda 1-1,5 metr naridagi jismlarni kuzatish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Ikki oylik bola 2-4 metr uzoqlikdagi narsani kuzatishni o‘rganadi, u uch oyligida 4-7 metr oraliqdagi jismlarni ham payqay oladi, nihoyat, 6-10 haftalik go‘dak hatto, aylanayotgan predmetlarning harakatini idrok qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keyinchalik hissiy organlarining



ko‘z bilan turli funktsional aloqalar o‘rnatishi qaror topadi. Go‘dak to‘rt oyligida uning jismga tiqilish va uni tomosha qilishi nisbatan barqaror bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay, mazkur yoshdagi bolalarda qo‘l harakati hali beixtiyor xususiyatga ega bo‘lib, jismlarni maqsadga muvofiq harakatlantirishdan ancha uzoqdir. Go‘dak 4 oyligidan boshlab narsaga qo‘lini yo‘naltiradi, asta-sekin unda paypaslash uquvi namoyon bo‘la boshlaydi, 5-6 oyligida predmetni ushlab va uni o‘ziga tortib olish (qo‘ldan yulib olish) ko‘nikmalari shakllanadi. Harakat va teri tuyush organlari sifatida qo‘sh vazifani o‘tovchi ko‘rish qobiliyati bir maromda rivojlanishdan birmuncha kechikadi. Bola 6 oyligida unda o‘tirish, turish, emaklash, yurish, gapirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Yuqoridagi hollarning moddiy asosini o‘rgangan N.M.Shchelovanov 2 oylik bolada bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘i o‘z funksiyasini boshqarishi, bu hol barcha idrok qilish organlarida, jumladan, eshituv, ko‘ruv apparatlarida shartli reflekslar paydo bo‘lganidan dalolat berishini uqtiradi. Olimning fikricha, eshitish, ko‘rishning yuksak analizatorlari, hattoki, bolada harakat va harakat hodisasi rivojlanadi.

D.B.Elkonin o‘z tadqiqotlaridan ko‘zning rivojlanishi 4 oylik go‘dakda ayrim harakatlarni va harakatlanuvchi obyekt larni kuzatish imkonini yaratadi, degan xulosa chiqaradi. Mazkur yosh davrlida predmetning harakati ko‘z harakatini vujudga keltiradi. Uning rivojlanishi qo‘l bilan paypaslash harakati paydo bo‘lishi bilan boshlanadi.

Go‘dakning harakati o‘z qo‘lini silash va ushlab ko‘rishdan boshlanib, choyshab va ko‘rpachalarni paypaslashga borib etadi. Odatda, bola qo‘lini uzoq vaqt ko‘rpacha va choyshab ustida harakatlantiradi. Tashqi ta‘sirga javob sifatida paydo bo‘lgan psixik jarayonning mazmuni qo‘lning predmet ketidan emas, balki predmet bo‘ylab harakat qilishidan iboratdir.



D.B.Elkonin va V.S.Muxinalarning fikricha, bolada 5 oylikdan jismlarni ushlab harakati boshlanadi: unda predmetni paypaslash uchun qo‘lini uzatish va uzatilgan qo‘llarini ko‘zdan kechirish yoki tekshirish vujudga keladi. Bunda ushlab olish sodir bo‘lmasa-da, ushlashga intilish bo‘ladi vaholanki, go‘dakning qo‘l-barmoqlari narsani ushlab turish imkoniga ega bo‘lmaydi.

Go‘dak bir necha marta natijasiz harakat oqibatida kaft va barmoqlarini yaqinlashtirib, shunday qulay holat yaratadiki, qo‘lining uchi jismga tegishi bilanoq uni ushlab oladi. Qo‘l ushlab harakatining vujudga kelishi ham Go‘daklik davrining muhim rivojlanish pallasi hisoblanadi. Chunki qo‘l bilan ushlab harakati birinchidan ko‘rish harakatini muvofiqlashtirsa, ikkinchidan mazkur psixologik holat birinchi yo‘naltirilgan harakatni ifodalaydi, uchinchidan jismlarni ushlabga intilishning o‘zi predmet bilan turli harakatlarni bajarish (manipulyatsiya)ning eng qulay shartidir.

Ko‘pgina psixologlarning fikricha, olti oylik go‘dak yotgan joyidan turib o‘tirishga harakat qiladi. Chunki bunda predmetni tutib turgan qo‘lining harakatini kuzatish imkoni tug‘iladi, o‘tirganda qo‘l harakatlari bilan ko‘ruv idrok maydoni o‘zaro mutanosiblashadi. 7 oylikdan bolada predmetni idrok qilish va ushlab olish harakati o‘rtasida uzviy aloqa vujudga keladi. Masalan, bola o‘yinchoqni ko‘rishi bilanoq uni olish uchun qo‘lini cho‘zadi.

N.L.Figurin va M.P.Denisovalarning fikricha, yarim yoshgacha davrida go‘dakda jismlarga takroriy intilishning paydo bo‘lishi harakatning rivojini yangi bosqichga ko‘taradi. Mualliflar mazkur holatni chuqurroq o‘rganish maqsadida sinaluvchilar har xil rangli va hajmli kub, tsilindr, prizma kabi geometrik jismlarni ko‘rsatishgan. Har qaysi jism bolada faol orientir (chamalash, mo‘ljal) refleksini vujudga keltirgan: bola avval jismni ko‘zdan kechirgan, keyin uni qo‘liga olgan, u bilan mashg‘ul bo‘lgan, so‘ngra unga uzoq termulgan, qaytadan ushlab ko‘rgan, u qo‘lidan bu qo‘liga bir necha marta olib o‘ynagan. Jism 15-25 daqiqa go‘dakning qo‘lida turgan, olingan va



undan farqli yana bitta jism bilan qo‘shib, go‘dakning oldiga qo‘yilgan. Tajribada bola tanish jismga mutlaqo e‘tibor qilmay, faqat yangisiga talpinavergan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, yangilik alomatn bola uchun muhim ahamiyat kasb yetgani sababli unda orientir refleksi borgan sari faollashib borgan. Shuning uchun yangilik alomatnning qo‘zg‘atuvchilik xususiyati bolaning faoliyatida uchraydigan takroriy va uzluksiz harakat mexanizmlarini tushunishga, idrok qilinayotgan narsalarga faol ko‘z yugurtirish va predmet bilan turli harakatlarni bajarishning psixologik mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Keyinchalik, ya’ni go‘dak ikkita jismdan foydalanishi, ular bilan mashg‘ul bo‘lishi natijasida unda mazkur predmetlar bilan funktsional harakatlarni amalga oshirish sodir bo‘ladi. Predmet bilan funktsional harakatni amalga oshirishda, birinchidan shu harakatlar predmet bilan munosabat o‘rnatishni talab qiladi, ikkinchidan mazkur harakatdan foydalanish jarayonida go‘dakning qo‘l ishlari ko‘lami kengayadi.

R.Ya.Abramovich–Lextman go‘dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan harakat qilishini o‘rganib, ularning oltita rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini aytadi. Bular: a) faol sergaqlik (tetiklik) – 2 haftalikdan 4 – 5 haftalikkacha; b) sensor faollik – 1,5 oylikdan 2,5 – 3 oylikkacha; v) harakat oldi – 2,5 – 3 oylikdan 4 – 4,5 oylikkacha; g) sodda serma’sul harakat – 4 oylikdan 7 oylikkacha; d) o‘zaro bog‘langan (uyg‘un) harakat – 7 oylikdan 10 oylikkacha; e) funktsional harakat – 10 – 11 oylikdan 12 – 13 oylikkacha davom etadi. Muallif har bir bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini ham sxematnq ham tekstual tarzda ifodalagan.

Bir yoshgacha bolalarda ta’sirlanishning eng muhim jihatlari paydo bo‘lishi va shakllanishi jarayonining rivojlanishi sxemasini N.L.Figurin va M.P.Denisova tuzdilar. Buning uchun ular ta’sirlanishning 34 ta ko‘rinishini tanlab, ta’sirlanish mavjud emasligi, ta’sirlanish namoyon bo‘lishi, uzil–kesil ta’sirlanish shakllanishi bosqichlariga psixologik tavsif berganlar.



Predmetning xususiyatiga qarab bola harakatlari o‘zgarishlarni M.Yu.Kistiyakovskaya, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, V.S. Muxina, N.A.Menchinskaya va boshqalar, retseptor faoliyat mexanizmlarni I.P.Pavlov va uning shogirdlari F.R.Dunaevskiy va boshqalar o‘rganishgan. Ularning talqinicha, emaklash – go‘dakning fazoda mustaqil holda o‘rin almashtirishi, harakat qilishning dastlabki ko‘rinishidir. Mustaqil yurish – go‘dakning insonlarga xos yo‘sinda fazoda siljish, joyidan qo‘zg‘alishni amalga oshirish uchun muayyan darajada tayyorgarlikni taqozo qiluvchi harakatlarning yangi ko‘rinishidir.

Shunday qilib, go‘dakning jismlar bilan bevosita amaliy aloqaga kirishuvi va ular yordamida harakatlanishi narsalarning yangi xossa va xususiyatlarini bilib borishi, ular bilan munosabatini yanada kengaytirishi uchun imkon yaratadi.

Hayotining ikkinchi yarim yilida bolaning predmetlar bilan har xil harakatlarni amalga oshirishdagi ildamligi, orientirlash faoliyatining murakkablashuvi, fazoda o‘rin almashtirishining yangi shakllari vujudga kelishi uni katta yoshdagi odamlarga bevosita bog‘lab qo‘yadi.

Go‘dak o‘sishining murakkabligi uning xilma-xil faoliyati o‘zaro bog‘langanidir. Shuning uchun katta yoshdagi odamlar bu davrda go‘dakning ehtiyojlarini to‘la qondirishga harakat qilishlari kerak. Shundagina ularning bola psixik dunyosiga muntazam va maqsadga muvofiq ta‘sir etishi bola bosh miya katta yarim sharlari po‘stining faoliyatini takomillashtiradi.

Go‘dak hayotining dastlabki oylaridan boshlab, o‘yin faoliyati uning hayotida muhim o‘rin egallaydi, go‘dakda ko‘rib va eshitib idrok qilish uquvini o‘stiradi, jismlarning rang-shakli, katta-kichikligini ajrata olish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘yin faoliyati go‘dakning borliqni bilishida va uni aks ettirishida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Oldingi sahifalarda bayon qilinganidek, go‘dakning kattalar bilan uzviy bog‘liqligi majburiy muloqotga kirishishni taqozo



qiladi. Shaxslararo aloqa o‘rnatish zarurati bolada noverbal, nutqsiz muloqotning maxsus shakli paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuni alohida takidlash kerakki, organizmning tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarga javobi jonlanishni keltirib chiqaradi. Muloqotning eng oddiy ko‘rinishlari keyinchalik boshqa murakkabroq ko‘rinishlarining vujudga kelishiga puxta zamin yaratadi.

Katta yoshli kishilar tovushiga taqlid qilish, go‘dakning qurshab turgan odamlar nutqini idrok qilishi tom ma‘nodagi nutq faoliyatini tarkib toptiradi. Muloqotning so‘nggi turlari go‘dak hayotining ikkinchi yarim yilida ko‘zga tashlanadi. Uning o‘zini parvarishlayotgan, odamlarga iliq tabassum, quvonch va shodlik tuyg‘usi bilan boqishi faqat xush kechinmalaridan emas, balki ichki mexanizmlarini ifodalovchi, muayyan darajada tashkil topgan ijobiy ta’sirlanishni aks ettiruvchi muloqotdan ham iboratdir. Katta yoshli odamlardan ta’sirlanish his-tuyg‘usi go‘dakning hayoti va faoliyatida bir necha yo‘nalishda qaror topib boradi. Ulardan bittasi quvonch yoki tabassum tuyg‘usida kattalarga butun vujudi bilan talpinishi, tiqilib turishi, harakatlarini kuzatishi, qo‘lini uzatishi, boshini qo‘zg‘atuvchi kelgan tomonga burishi, o‘ziga xos tovushlar chiqarishi yoki gugulashida yaqqol ko‘rinadi. Ta’sirlanish his-tuyg‘usi jonlanish majmuasi bilangina emas, balki uning alohida tarkibiy qismlari (tovush, chehra va hokazolar) ta’sirida ham vujudga keladi. Ta’sirlanish tuyg‘usi keyinchalik tanlovchanlik xususiyatini kasb etib, faqat ayrim kishilarga nisbatangina hosil bo‘ladi. Oldingi bo‘limlarda ta’kidlanganidek ta’sirlanish tuyg‘usi avval umumiy xususiyatga ega bo‘ladi, keyinchalik (4–5 oylik paytlarda) kishilarni tanish va begonaga ajratish bilan yakunlanadi. Ya’ni tanishlar go‘dakda chuqur ijobiy kechinmalar hosil qilsa, begonalar quvonch va tabassum hislarini butunlay to‘xtatishga ham olib keladi. Tanish kishi psixik jarayon sifatida bolaning psixikasida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan katta yoshdagi odamlar go‘dak uchun dastlabki tanish jarayonning



obyekt iga aylanadilar va muloqot davomida ijobiy ta'sirlanish tuyg'usini paydo, qiluvchi qo'zg'atuvchi vazifasini o'taydilar.

Insonga qaratilgan ta'sirlanish tuyg'usi vaqt o'tishi bilan turli jismlarga ham kuchadi. Kattalar qo'lidagi, masalan, o'yinchoq go'dakda quvonch va jonlanish hissini uyg'otadi, jismlarning bola nigohni o'ziga jalb etish xususiyati ham kattalar, yordamida ro'yobga chiqadi. Go'dak yarim yoshda ular bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta'sir o'tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat (go'dakning ularga javobi tariqasida) ham vujudga keladi. Chunonchi, bola kattalarning kiyimini tortqilaydi, ularga qichqiradi, xatto, hiqillaydi va hokazo. Mazkur psixik holat bolaning kattalar bilan muloqoti rivojlanishning yuqog'iroq bosqichiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Go'dakning katta odamlarga qo'yadigan talablari (garchi qat'iy ohangda, so'z bilan ifodalanmasa-da) bevosita yordamga muhtojligini bildirish (masalan, qo'lini o'yinchoq qisib olsa, ko'ylagi ilinib qolsa, koptogi dumalab ketsa, charchasa va boshqa hollar ro'y bersa, boshqalarni chaqiruvchi signal) vazifasini bajarsa, keyinchalik shunchaki chaqirish vositasiga aylanadi va bu hol muloqotga ehtiyojdan, uning nisbatan taqchilligidan kelib chiqadi. Shuningdek bola o'yin faoliyatida qiyinchiliklarga uchrasa, o'yin qovushmasa ham mazkur chaqiriq vositasidan foydalanadi.

Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilishi va uni tushunishi jadal sur'at bilan o'saveradi. Chunki ona yoki tarbiyachi uni parvarishlash va tarbiyalash jarayonida har bir harakatni tushunchalar, so'z birikmalari, atamalar bilan birga amalga oshiradi, harakat bilan predmetning uzviy bog'liqligini yoritishga tirishadi. Ma'lumki, har qaysi predmet va voqea o'z nomi bilan ifodalanadi. Natijada, bola uchun onaning yoki tarbiyachining (murabbiyaning) nutqini tushunish va ilg'ab olish birmuncha yengillashadi. Bularning barchasi bola bilan katta yoshli odamlar o'rtasida uzluksiz hamkorlik vujudga kelishini taqozo qiladi. Bolaning hamkorlikdagi (ota-ona,



enaga, murabbiya yoki tug‘ishganlari ishtirokidagi) o‘yin faoliyati ham, his-tuyg‘uga berilishi ham nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘lik bo‘ladi.

Olima G.L.Rozengart-Pupko bolaning nutqni tushunishi (idrok qilishi) jarayonini o‘rganib, ko‘ruv idroki va predmetlarga ko‘z yugurtirish, ularning nomlarini tushunish rivojlanishiga yordam beradi, deya xulosa chiqaradi. Tadqiqotchilardan 3.I.Barabanova go‘dakning nutqni idrok qilishini tekshirib, undagi turli analizatorlarning roliga baho beradi. Uning ma’lumotlariga qaraganda, qo‘zg‘atuvchi 10 marta namoyon bo‘lishida ko‘ruv analizatorlarishshg yo‘nalishi 86 foiz bolada saqlangan, eshituv analizatorining esa 60 foiz sinaluvchilarda yo‘qola boshlagan. Qo‘zg‘atuvchining 20 marta ta’sir ko‘rsatishi natijasida ko‘ruv analizatorini ta’sirlanish orientirovkasi 18 foiz bolada so‘ngan, eshituv analizatori xuddi shu paytda batamom so‘nib qolgan.

D.B.Elkonin xulosasiga ko‘ra, nutqni tushunish vujudga kelishining asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- a) umumiy holatdan predmetni ajrata olish;
- b) predmetga diqqat-e’tiborni to‘plash;
- v) favqulodda holatga qarab anglanadigan his-tuyg‘uning mavjudligi va boshqalar.

O‘zgalar nutqini tushunish ko‘ruv idrokining zamirida vujudga keladi. Bolani o‘zgalar nutqini tushunishga o‘rgatishda katta odam biror o‘yinchoqdan ta’sirlanishni hosil qiladigan qo‘zg‘atuvchini uyg‘otadi. Bunda o‘zi jism va rasmlarga bolaning diqqatini jalb etadi yoki uning qo‘lidagi yoxud stol ustidagi obyekt larni ko‘rsatib: “Surnay qani?”, “Katta ayiqcha qani?”, “Koptok qani?”, “Avtomobil–chi?” kabi savollar bilan murojaat qiladi.

Kattalarning bola bilan mashg‘ulotlarni bir necha marta takrorlashi natijasida talaffuz qilinayotgan so‘z bilan predmet uzviy bog‘lanadi va mazkur bog‘lanish bir necha bosqichlarda namoyon bo‘ladi. Dastavval kattalarning savoli bolada hech qanday ta’sirlanish tuyg‘usini qo‘zg‘atmaydi, hatto go‘dak o‘sha predmetga qiyo ham boqmaydi.



Ikkinchi bosqichda bolada savolga nisbatan sust harakatlanish hosil bo‘ladi va u predmet turgan tomonga diqqatini yo‘naltiradi. Nutqni idrok qilishning uchinchi bosqichida go‘dak uchun jismning mohiyati va mazmuni muhim ahamiyat kasb etmaydi, balki beri olayotgan savolning intonatsiyasi, ritmi, tempi, mantiqiy urg‘usi bosh mezon, asosiy turtki vazifasini bajaradi. O‘zgalar nutqini tushunishning oxirgi bosqichida go‘dak predmetni anglatuvchi so‘z bilan predmetni o‘zaro bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, boshqa joylardan ham shu predmetni topish uchun ijodiy izlanishga harakat qiladi. Nutqni idrok qilish va tushunishning oxirgi bosqichi go‘dakning 9-10 oyligidan boshlanadi va uni o‘zgalar nutqini tushunishning ilk shakli va ko‘rinishi deb ataladi.

Tadqiqotchi F.I.Fradkina, kattalarning go‘dakka qaratilgan nutqidan quyidagi ta’sirlanish holatlarini ko‘rish mumkinligini aniqlagan:

1. Nomi aytilgan predmetga javob tariqasida burilib, qarash (7-8 oylikda);
2. Turmush tajribasida egallangan harakatlarni kattalar eslatishi bilanoq bajarishga intilish (7-8 oylikda);
3. Kattalarning nutq orkali ko‘rsatmasi – bo‘yicha oddiy topshiriqlarni bajarish (9-10 oylikda);
4. Nutq orqali ko‘rsatma bo‘yicha zarur predmetni tanlab olish (10-11 oylikda);
5. “Mumkin emas” degan taqiklovchi so‘z ta’sirida harakatini to‘xtatish (12 oylikda) va hokazo.

Go‘dakda o‘zgalar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilish, xususan, qo‘zg‘atuvchiga javoban u yoki bu harakatni amalga oshirish murakkablashib boraveradi. Bular uning aqliy imkoniyatlari darajasiga (tiyrakligiga, topqirligiga) bevosita bog‘liq bo‘lib, bola ularday ta’sirlanish natijasida narsalarga nigoh tashlaydi, uni ushlab olish uchun qo‘l cho‘zadi, bunga emaklab boradi. Tushunish vujudga kelayotgan jarayonda favqulodda holatga qarab ta’sirlanish ham



murakkablashib boradi. Dastlab ta'sirlanish biror jismga nisbatan paydo bo'ladi, keyinchalik biror jismni boshqa obyekt lar bilan yonma-yon turgan joyidan tanlab olish birmuncha qiyinchilik bilan kechadi. Tushunishning rivojlanish bosqichlari ko'ruv idroki bilan nutq o'rtasidagi o'ziga xos munosabat tariqasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tushunish, ya'ni nutqni idrok qilish go'dakni orientirlash faoliyati negizida vujudga kelib ko'ruv orientiri shaklida ifodalanadi. Tushunishning o'zi ham ko'ruv orientirining o'sishida yangi bosqich hisoblanib, harakatning so'z bilan boshqaruv bosqichiga ko'chganligini bildiradi.

D. B. Elkonin fikricha, bir yoshgacha bola psixikasi o'sishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. kattalar nutqini tushunish hamda dastlabki so'zlarni mustaqil talaffuz qiladi;
2. predmetlar bilan xilma-xil harakatlarni uyg'unlashtirib, ish-harakatni bajarish;
3. yurishga urinishning ro'y berishi;
4. xatti-harakatni so'z bilan boshqara olish;
5. so'z bilan go'dakning idrok qilish faoliyatini boshqarish va hokazolar.

Shunday qilib bir yoshgacha go'dak egallagan eng qimmatli xususiyat paydo bo'ladi va u boladagi ijtimoiy ehtiyojning vujudga kelishida va uning shu ehtiyoj orqali katta yoshdagi odamlar bilan bevosita muloqotga kirishida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun jismlar bilan maqsadga muvofiq xatti-harakatlarni birgalikda amalga oshirishda, bilish jarayonlari va shakllari zamirida muloqotga ehtiyoj tug'iladi. Go'dakning o'sishi kattalar bilan muloqotga kirishish natijasida ro'y beradi.

Demak uch oylik go'dak gapirayotgan odamni o'z ko'zlari bilan topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki unda shu paytgacha tovush manbaini izlash uquvi shakllanadi. Shunga ko'ra bola tovush kelgan tomonga qarab, so'zlovchiga munosabatini his-tuyg'uga o'rab ifodalay



oladi. Go‘dakning borgan sari diqqat bilan atrof-muhit manzaralarini va har xil ovozlarni eshitish hamda ko‘rish imkoniyati uning umumiy yo‘sinida alohdda ahamiyat kasb etadi. Tajribalar tahlilidan ko‘rinishicha, ko‘rish, eshitish analizatorlari go‘dakning voqelik va bog‘liq bilan, kattalar bilan o‘zaro muloqotga kirishishi natijasida takomillashadi. Go‘dakning o‘z ko‘zlari orqali inson va jismlar to‘g‘risida muayyan ma‘lumot olishi turmush tajribasi ortib borishi bilan vujudga keladi. Eshitish analizatorlari yordamida tovushlarni idrok qilish ovozlarni farqlashdan iborat shartli reflekslarning tabiatiga ko‘proq bog‘liqdir. Shu sababli go‘dak inson bilan musiqaning tovushini ajrata biladi, ularning kuchsiz va kuchliligini, yoqimli va shovqinliligini sezadi. Uning eshitib tushunishi va nutqni idrok qilishi ko‘pincha shartli bog‘lanishlarning sifati bilan o‘lchanadi.

Inson zotining bir yoshgacha davrini nutqqa qadar davr deb atash odat bo‘lib qolgan. Bu davr mobaynida go‘dak bosh miya yarim sharlari ikkinchi signallar sistemasi faoliyati bilan bog‘liq anchagina ishlarni amalga oshiradi. Nutqni tushunib idrok qilish esa kun sayin o‘sib, takomillashib boradi.

Go‘dak ikki oylik bo‘lgunicha g‘udurlashni o‘rganadi. Bu ijobiy his-tuyg‘u, barqaror kayfiyatning ma‘suli sifatida boshlanadi. U asta-sekin artikulyar apparatning takomillashuvi natijasida tovushlarni o‘zaro farqlay boshlaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi bola amalga oshirayotgan nutq faoliyatining nishonasi tug‘ilayotganini ko‘rsatadi.

Go‘dak hayotining birinchi yarim yilida turli xususiyatlarga ega analizatorlar rivojlanib, orientirlash reaksiyasi aniqroq ifodalana boshlaydi. Shartli reflekslar ko‘lami tobora kengayishi natijasida voqelikka hissiy munosabat takomillashadi. Go‘dak hayotining ikkinchi yarim yilida esa u kattalarning imo-ishoralarini tushunib idrok qila boshlaydi. Faol nutq alomatlarining vujudga kelishi bilan Go‘daklik davri tugaydi va ilk bolalik yosh davrli boshlanadi.



Nazorat savollari.

1. *Go'daklik davri.*
2. *Go'daklik davrining asosiy fiziologik xususiyatlari.*
3. *Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari.*
4. *Manipulyativ faoliyat, psixik funksiyalar.*



7-MAVZU: ILK BOLALIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Ilk bolalik davridagi psixik o‘sish 1 yoshdan 3 yoshgacha o‘sish davrida shaxsiy muhim sifatlar, xarakter xislatlari, atrof-muhitga, o‘zgalarga munosabat, xulq-atvor, taffakur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko‘rinishlarini shakllanishi.*
2. *Bolaning 1,6-3 yosh davri nutq rivojlanishi bilan bog‘liq senzetiv davr hisoblanishi.*
3. *2,5-3 yoshli bola rang va shakllarni idrok etishi. 3 yosh inqirozi.*

Tayanch tushunchalar: *bolalik, inqirozi, evolyutsiya, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, rol, person, psixoanaliz.*

Inson yosh davrlarida uning 1 yoshdan 3 yoshgacha o‘sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof-muhitga, o‘zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko‘rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi, ya’ni uning imkoniyati bilan intilishi o‘rtasidagi ziddiyat rivojlanish negizi hisoblanadi.

Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg‘ul bo‘lish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobeligi, ularga bog‘liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi. Binobarin, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

R.Y.Abramovich-Lextmanning tadqiqotlarida ifodalanishicha, bir yoshli va bir yosh-u ikki oylik bolada turli narsalar bilan harakat



qilishning oddiy turi jadal rivojlanadi. Boshqacha aytganda, unda jismlar bilan muayyan harakatni amalga oshirishning nisbatan barqaror usullari shakllana boradi. Shunday harakatlar tobora ortadi va murakkablashadi, ularning mohiyati borgan sari chuqurlashadi, ko‘lami esa kengayadi.

D.B.Elkoninning fikricha, bolalarda keng ko‘lamli va ko‘p miqdordagi predmetlarni tanish, idrok qilish, ularning xususiyatlarini o‘zlashtirish ehtiyojining ortishi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish mayli, tuyg‘usi va istagini kuchaytiradi. Shunday bo‘lsa-da, bu muammo bola shaxsiy o‘yin faoliyatini tashkil qilishda hali kattalarning madadiga va yordamiga muhtojligini ko‘rsatadi.

Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har xil harakatli o‘yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ko‘zlagan ishni bajarishidagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektid) tuyg‘u va hisni vujudga keltiradi. Shuningdek, o‘z faoliyatida uchraydigan ko‘ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatini bildirish – aks ettirishning yangi shakli ta’sirlanish (reaksiyaga kirishish)ni tarkib toptiradi.

Achchiqlanish, jahl qo‘zg‘alishi, qahr-u g‘azab tuyg‘ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.Y.Konnikova ma’lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko‘pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi “portlash”, qahri qattqlik yuzaga keladi. Olimaning fikricha, uning psixikasida paydo bo‘layotgan xulq hosilasi tirishqoqlikning o‘ziga xos ko‘rinishidan iborat bo‘lib, u o‘zi yoqtirgan narsani tezroq qo‘liga olish xohishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Odatda, affektiv holatga berilishni yoki affektiv ta’sirlanishni bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmasligi hosil qiladi. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, “portlash”, “lov etish” xususiyatiga ega bo‘lgan affekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi:

1) kattalar bolaning xohish-istaklarini tushunmasligi, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo‘shilishi) e’tiborsizligi;



2) bolaning ixtiyorsiz xatti–harakatiga batamom qarshilik ko‘rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi;

3) boladagi o‘zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o‘zgarishlarni oldindan seza olmasligi va boshqalar.

Jazavaga tushishning xususiyati va darajasi bolaning yashash sharoiti hamda unga kattalarning munosabatida o‘z ifodasini topadi va mahalliy mezonlar yordami bilan aniqlanadi. N.A.Menchinskaya o‘z kundaliklarida bir yarim yoshli o‘g‘lining o‘jarligini shunday ta’riflaydi: “Mumkin emas!” degan taqiqlashga javoban Sasha o‘jarlik qilar, sho‘xligini yana zo‘r berib davom ettirishga urinar edi; uning o‘jarona xohishini boshqa obyektga tortish bilangina bartaraf qilsa bo‘lar edi: ko‘pincha taqiqlashga qarshi yig‘lab injiqlik qilar, hatto o‘zini polga otar, qo‘l va oyoqlarini tapillatar, ammo bunday “jazava” uning xulqida juda kam sodir bo‘lib, uni bunday sho‘xliklaridan tez va oson chalg‘itish mumkin edi...”

Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy va ularning shogirdlari olib borgan ishlardan ko‘rinadiki, bolada paydo bo‘lgan dastlabki so‘z-ibora go‘daklik davridan ilk bolalik davriga o‘tishning eng muhim jihati va sharti hisoblanadi. Harakat bilan so‘zning bog‘lanishi bolaning mustaqilligi va mustaqil faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, unda intilishni jadallashtiradi.

Nemis psixologlari V.Shtern, K.Byuler va boshqalarning tadqiqotdarida bayon qilinishicha, bola qo‘llaydigan dastlabki so‘zlar ikkita muhim xususiyatga egadir: birinchi xususiyati ular kattalar nutqidagi so‘zlardan fonetik jihatdan keskin farqlanishidir; ikkinchi xususiyati esa o‘zining qamrovi bilan ko‘pma’noli ekanligidir. Boshqacha aytganda, mazkur so‘zlar, iboralar ma’lum predmetni emas, balki qator narsalarning nomini, hatto guruhlarini anglatishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarning dalili sifatida T.Y.Konnikova tajribasidan namuna keltiramiz. Olimaning nuqtayi nazaricha, kattalar



bilan bolalar muloqotida ishlatiladigan soʻzlarning farqlari turli manbaga va asosga bogʻliqdir:

a) bolalar nutqida shunday soʻzlar qoʻllanadiki, ular hech qachon katta odamlarda shunday maʼnoni bildirmaydi (adiga – baliq moyi, ika – sharf, gili-giliga – qalam);

b) koʻpincha bola nutqidagi soʻzlar kattalar soʻzlashuvining maʼlum boʻlagini emas, balki uning oʻzagini tashkil qiladi, xolos (“is” – issiq”, “di” – keldi); d) bolalar kattalar qoʻllaydigan soʻzlarni buzib talaffuz qilsalar-da, lekin predmetning timsoliga asoslanib, ularning umumiy fonetik va ritmik jihatlarini saqlaydilar (“ti-ti” – soat, “pa-pa” – mashina, “ling-ling” – radio, televizor);

d) taqlid soʻzlar (“vov-vov” – it, “mu-mu” – sigir, “ba-ba” – qoʻy kabilar).

D.B.Elkonin tajribasida bir yosh-u uch oylik Galya uchun “aka” degan tushuncha (sunʼiy boʻlsa-da) hoʻl mevalar, konfet, qand, zoldir singari narsalarni anglatgan. T.Y.Konnikova tajribasida esa xuddi shu yoshdagi Nonna “kx-kx” deganda mushuk, soch, moʻynani atagan. Bu misollarni psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilsak, ularda umumpsixologik qonuniyatga va xossaga mos keluvchi ikkita xususiyat haqiqatan mavjudligiga ishonch hosil qilamiz, chunki bu voqelik metodologik hamda fenomenologik ahamiyat kasb etadi.

Juda koʻp yirik psixologlar fikriga va kuzatishlarimiz natijalariga koʻra, bolaning nutqi ixtiyorsiz birdaniga vujudga kelish xususiyatiga ega boʻlib, kattalarning mazmunli nutqi taʼsirida “nochor ahvolga tushib” qolib, oʻz faolligini yoʻqotadi. Hatto zarur shart-sharoit yaratilgan taqdirda ham bola oʻzining nutq boyligidan unumli foydalana olmaydi, chunki unda nutqning ichki dasturi mavjud emas, shu boisdan u tasodifiy xususiyatga ega.

Bolada dastlabki faol nutqning shakllanishi muammosi bilan shugʻullangan F.I.Fradkina ilmiy-amaliy ahamiyatga molik koʻp maʼlumotlar toʻplagan. Uning tajribasida tabiiy muloqot paytida bola biror soʻzni bir kunda oʻzlashtirgan, biroq sunʼiy sharoitda esa



10–11 kun davomida o‘sha so‘z bildirgan predmetning timsolini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan. F.I.Fradkinaning ma‘lumotiga ko‘ra bolaning nutq boyligi 10 oylikda 1 tadan 5 tagacha, 11 oylikda 3 tadan 8 tagacha, 12 oylikda 7 tadan 16 tagacha, ya’ni juda cheklangan bo‘ladi. Bundan tashqari, olima harakat jarayonida so‘zlarni talaffuz qilish imkoniyati kengligini bayon qilgan. Shunday qilib nutqning dastlabki rivojlanish bosqichida so‘z bilan predmet, so‘z bilan harakat o‘rtasidagi uzviy aloqa faqat muloqotga ehtiyoj tug‘ilgan taqdirda paydo bo‘ladi va bu ehtiyoj kattalarning bevosita rahbarligi hamda hamkorligidagi faoliyat orqali vujudga keladi. O‘zgarar nutqini idrok qilish va tushunish hamda undan unumli, faolroq foydalanishning eng muhim sharti bolada nutq orqali muloqot ehtiyojining mavjud bo‘lishidir. Nutq orqali muloqot ehtiyojining paydo bo‘lishi bolaning psixik jihatdan o‘shida muhim turtki vazifasini bajaradi va uni mustaqillik sari yetaklash mexanizmi hisoblanadi.

Ko‘pchilik sobiq sovet va uzoq xorij psixologlari bolaning nutqida so‘zlar paydo bo‘lishining xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganadilar. Ana shunday tadqiqotchilardan T.Y.Konnikovadir. Bola nutqida so‘zlar paydo bo‘lishining ikkita muhim xususiyati mavjudligini aytadi. Birinchi xususiyat bola so‘z bilan bog‘liq narsalarni yorqin emotsional bo‘yoqlarda idrok qilishida o‘z ifodasini topadi. Masalan, birinchidan, bolalar bitta buyumni bir qancha nomda atashlari hamda kuchli va yorqin alomatlar bilan ko‘rishlari; ikkinchidan, bola muayyan bir ashyoni har xil sharoitda har xil atashi. Bola nutqida yangi so‘zlar paydo bo‘lishining ikkinchi xususiyati uning mazkur vaziyatga faol va dadil kirib borishidan iboratdir.

Bola dastlabki so‘z va atamalarni o‘zlashtirishi uchun kattalar unga qiziqarli yo‘l-yo‘riq va ish-harakatlarni ko‘rsatishlari lozim. Harakatlar va buyumlarning yangiligi bolaning faoliyatini muayyan yo‘nalishga burib yuborishi mumkin, buni vujudga kelgan ichki mexanizmlar taqozo etadi. Maxsus o‘tkazilgan tajribalar asosida so‘zlar ko‘p ma‘noliligi bo‘yicha bir nechta guruhga mansub, deya xulosa chiqarish mumkin:



1) biror vazifani bajarishiga ko‘ra yaratilgan so‘zlar: “f-f-fu” – gugurt; pechka, chiroq, sham, primus kabilar;

2) predmetlarning yondoshlik belgisiga qarab nomlash: “anna” – devorga osilgan jami narsalar, qo‘shni xonadan eshitilgan ovozlari;

3) tashqi belgisiga asoslanib nomlash: “kx-kx” – mushuk, soch, mo‘yna, telpak, namat va boshqalar;

4) predmetlarning tovush chiqarishiga qarab yaratilgan so‘zlar: “lya-lya” – telefon, pianino, radio, televizor, tanish musiqa asboblari va hokazolar.

Psixologiya fanida to‘plangan ma’lumotlarga tayanib bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarning hosil bo‘lishi o‘rtasida keskin tafovut yo‘q, deya xulosa chiqarish mumkin. Chunki bola uchun har qanday so‘zni ham talaffuz qilish juda qiyin kechadi.

D.B.Elkoninning fikricha, so‘zlarning hosil bo‘lishi va bolaning nutqiga aylanishi, eng avvalo, so‘zning ma’nosini tushunib va idrok qilishga bevosita bog‘liqdir. Buning natijasida, birinchidan, bolaning lug‘at boyligi keskin ko‘payadi, ikkinchidan, nutqida ikkita so‘zdan iborat gap tuzish imkoniyati vujudga keladi va uchinchidan, predmetlarning nomiga qaratilgan savollar tug‘iladi. Mazkur jarayon bir yarim yoshdan oshganidan so‘ng boshlanadi va bolada kattalar bilan muloqotning yangi bosqichi paydo bo‘lganini bildiradi. Nutq orqali mana shu yoshdagi bolalarga vaziyat va holatni emas, balki predmetlarni anglatuvchi so‘zlar o‘rgatiladi. Go‘daklik davridan ilk bolalik davriga o‘tish uning faoliyatida va kattalar bilan muloqotida jiddiy olg‘a siljish bilan ajralib turadi. Ana shu siljish bolada atrofdagi odamlar va narsalarga tabaqali munosabatni shakllantiradi. Biroq bu munosabatlar faqat kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyat orqali amalga oshadi. Kattalar bilan hamkorlikdagi yoki mustaqil predmetli harakatlarni egallashdagi yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik hollari bolada turli his-tuyg‘u va kechinmalarni (quvonch, tashvish, achinish, qayg‘urish, samimiylilik, loqaydlik va hokazolarni) vujudga keltiradi. Shaxsning faolligi, harakatchanligi, tashabbuskorligi,



intiluvchanligi, bilishga ishtiyoqmandligi, dadilligi asosan yuqoridagi omillarga uzviy bog‘liqdir va bunga kattalar, atrofdagilar befarq qaramasliklari kerak.

So‘z bilan predmet o‘rtasida har xil bog‘lanish bo‘ladi, lekin dastlabki tushunish vujudga kelgan vaziyatga bog‘liqdir. Agar bola “koptok” so‘zi boshqa ko‘rinishdagi koptoklarga ham daxldorligini tushunsa, “Koptok qani?” degan savolga koptokning u yoki bu xilini ham ko‘rsata oladi. Yangi predmet bola o‘z tajribasida uchratgan jismga o‘xshasa, tanishdek tuyulsa, yangi harakat bilan uni bildiradigan so‘zni o‘zaro bog‘lash birmuncha yengil ko‘chadi. Shunga o‘xshash vaziyat bolaning turmush tajribasida qanchalik ko‘p uchrasa, idrok qilingan predmetlar ko‘lami ham shunchalik tez kengayadi va bolaning lug‘at boyligiga qo‘shiladi. Bolaning faoliyatida unga beriladigan savollarni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi va uning oddiy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotchi Y.K.Kaverinaning tajribasida tasdiqlaganidek, bolaning predmet nomini tushunishi quyidagi tartibda aks etishi mumkin: a) bola eng avval atrofdagi predmetlarning nomlarini; b) katta yoshli odamlar va o‘yinchoqlarning nomlari va rasmlarini; d) odamlarning gavdasining tuzilishini, uning bo‘laklari va hokazolarni tushunadi.

Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini yengil o‘zlashtirib oladi. Ikki yoshgacha davrida esa kattalar bilan muloqotga kirishishda uy jihozlari va boshqalarni o‘rganadi.

Y.K.Kaverinaning fikricha, bolaga beriladigan topshiriqlar, harakat nomlari va ularni bajarish bo‘yicha yo‘llanmalarni tushunish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi: a) ta’sirlanishning yo‘qligi yoki mutlaqo noto‘g‘ri ta’sirlanish; b) harakatni to‘g‘ri ijro etish; d) harakatning murakkablashuvi va boshqa ko‘rinishlarining xususiyatlari. Bolaning kattalar yo‘naltiruvchi nutqini tushunishi xatti-harakatlarni amalga oshirishda yetaklovchi vazifani o‘taydi.



Kattalar bilan bolaning hamkorlikdagi faoliyatida yo‘l-yo‘riq mohiyatini tushunish o‘ziga xos yangi munosabatlar o‘rnatishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun ikki yoshli bolalarda kattalar nutqini tushunishning o‘sishi predmetlar bilan harakatni amalga oshirish usulini egallashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bola uch yoshga qadam qo‘yganda, unda nutqni tushunishning ko‘lami kengayadi; sifati esa yuqori darajaga ko‘tariladi. 2-3 yoshli bola kattalarning amaliy faoliyatni bajarishga doir nutqini tushunishdan tashqari ertak, hikoya, she‘r kabilarni tinglashni ham yoqtirishi sababli ularda bayon qilingan fikrlarni ham tushunishga intiladi, natijada, ilk tasavvurlar vujudga kela boshlaydi.

Bola ikki yoshga to‘lganida nutqining rivojida yangi davr boshlanadi. U ona tilining grammatik qoidalariga muvofiq gap tuzishga harakat qiladi. Uning nutqida qariyb barcha so‘z turkumlari, murakkab bog‘lovchisiz gaplar uchray boshlaydi. Fikr bildirish, ma‘lumot uzatish ixtiyorsizlik asosiga quriladi.

Bola 3 yoshga o‘tganidan keyin faqat yaqin kishilari bilan emas, balki begonalar, tengqurlari bilan ham muloqot ko‘lami kengayishi natijasida unda tom ma‘nodagi nutq faoliyati vujudga keladi. Bolada kattalarning nutqiga, xatti-harakatiga qiziqish kuchayadi, o‘ziga daxlsiz fikr va mulohazalarni tinglash mayli paydo bo‘ladi. Shuningdek, uning o‘zida atrof-muhitda, kattalar davrasida olgan ma‘lumotlar va axborotlar bo‘yicha boshqalar bilan muloqotga kirishish istagi tug‘iladi.

Uch yoshli bolaning nutqi muloqot quroli vazifasini bajarib, amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda ro‘yobga chiqadi. Unda dialogik nutq paydo bo‘ladi. Chunki uning o‘zini qiziqtirgan narsalar haqida savollar berishi yoki kattalarning savoliga javob qaytarishi dialogik nutqni taqozo etadi. Dialogik nutq zamirida ona tilining grammatik tuzilishini faol egallash uchun keng imkoniyatlar yotadi. Umuman, dialogik nutq bolaning kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.



A.N.Gvozdev ilk bolalik yosh davrida rus tilining grammatik qurilishini o'rganib, uni ikki bosqichga ajratadi.

Birinchi bosqich – 1 yosh-u 3 oylikdan 1 yosh-u 10 oylikkacha. Bu bosqich ham muayyan davrlarni o'z ichiga:

- a) bir so'zdan tuzilgan gaplar bosqichi (1,3 – 1,8);
- b) ikki va undan ortiq so'zdan tuzilgan gaplar.

Ikkinchi bosqich – 1 yosh-u 10 oylikdan 3 yoshgacha. Bu bosqich ham bir necha davrlarga ajratiladi:

- a) sodda va murakkab gaplarning shakllanishi (1,10 – 2);
- b) sintaktistik aloqalarni ifodalovchi gaplardan foydalanish (2,1 – 2,3);
- d) yordamchi so'zlarni o'zlashtirish bosqichi kabilar.

Psixologik adabiyotlarda ilk bolalik davrida tilning grammatik shakllarini jadal sur'at bilan o'zlashtirish omillari bo'yicha qator muammolar ifodalangan. Masalan, K.Byuller bolani tilning flektiv (turlanish, tuslanish) tabiati bilan tanishish muammolariga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha, bola mazkur holatni intuitiv ravishda kashf qiladi, bu narsa grammatik aloqalarda, morfologik o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

Bolada tilning grammatik qurilishini o'rganishga bag'ishlangan anchagina tadqiqotlar mavjud. Ularning mualliflari F.A.Soxin, L.S.Slavina, D.B.Elkonin, K.I.Chukovskiy, M.I.Popova, G.L.Rozengart-Pupko, A.R.Luriya, F.Ya.Yuduvich, P.Ya.Galperin va boshqalardir.

D.B.Elkonin fikricha, ona tili (rus tili) grammatikasini o'zlashtirish quyidagicha amalga oshadi:

- a) yaqqol idrok qilinayotgan vaziyat tilning leksik vositasi bilan ifodalanib, obyektiv munosabatni aks ettiradi;
- b) predmetli vaziyatning grammatik shakli ajratiladi;
- d) grammatik munosabatlar shaklini bildiruvchilarni umumlashtirish va mavhumlashtirish yuzaga keladi.



Tadqiqotchi N.X.Shvachkin mulohazasiga ko‘ra, bolada avval unli harflarni, keyin undosh harflarni farqlash ko‘nikmasi vujudga keladi.

Shunday qilib yuqoridagi mulohazalar asosida umumiy bir xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, ikki yoshga to‘lgan bola tilning barcha tovushlarini fonetik jihatdan idrok qilish asosida nutqni tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu hodisa shaxslararo munosabatni vujudga keltiradi.

Ilk bolalik davrida harakatlarning shakllanishi oriyentirovka faoliyati xususiyati o‘zgarishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola u yoki bu harakatni amalga oshirish uchun avval predmet bilan tanishadi: unga ko‘z yugurtiradi, qo‘liga oladi va hokazo. Bolani predmetlarning shakli, rangi, vazni bilan tanishtirishda kattalar amalga oshirish mo‘ljallangan harakatning mohiyatini tushuntiradilar va harakatni qay yo‘sinda bajarishni o‘rgatadilar: bolani “Olib kel”, “Joyiga qo‘y”, “Rasm chiz”, “Ushlab tur” kabi so‘z birikmalaridan iborat topshiriqning mohiyati bilan tanishtirib, keyin unga harakatni bajarish yo‘llari “Qalamni mana bunday ushla”, “Avval qo‘lingga ol”, “Oldin o‘ng qo‘ling bilan tut”, “Qoshiqni bunday ushlab og‘zingga olib bor” deb ko‘rsatiladi. Shuning uchun ham bolada predmetli harakatni o‘stirish murakkab jarayon hisoblanadi.

Ilk bolalik amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qo‘l operatsiyalari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Bola ijtimoiy qurollardan foydalanish usullarini o‘zlashtirishi natijasida unda predmetli harakat ko‘nikmasi shakllanadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o‘zlashtirishda ulardagi muhim va o‘zgarmas alomatlarni ajratish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni ro‘y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi. O‘z xatti-harakatini kattalarning harakati bilan solishtirish va uning o‘xshash jihatlarini topish bolaning



aqliy o‘shishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aqliy o‘shishni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun bola bilan maxsus reja asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Bu davrda bolada “Men o‘zim” konsepsiyasining vujudga kelishi shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi va xuddi shu paytlarda u shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Bolada shaxsiy harakatlar paydo bo‘lishi o‘shishning yangi davri boshlanganidan darak beradi.

Mustaqil bajarish uchun vazifa

1. 2-3 yoshli bolalar guruhida geometrik jismlar yordamida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni kuzatib, guruh tarbiyachisining:

a) bolalarga kub va sharni quticha teshigiga tushirish;

b) g‘ishtcha va uch qirrali prizma “tom”ni quticha teshikchalariga tushirish;

d) yassi jismlarni teshiklarga tushirishni o‘rgatish tajribalarini yoritib, o‘z xulosalaringizni yozib bering.

2. Quyidagi savollarga javob topib, mavzu bo‘yicha munozaraga tayyorlaning:

1) ilk yoshdagi bolalar sensor tarbiyasining zarurligi;

2) sensor tarbiyaning vazifalari;

3) sensor tarbiyaning metodlari;

4) ilk yoshdagi bolalarning shaklni idrok qilishi;

5) bolalarni narsalarning shakli, rangi bilan tanishtirish;

6) ularga turli geometrik jismlarni taqqoslashni qanday o‘rgatish kerak?

7) bolalarni shakli ikki xil narsalar: qo‘ziqorin, ko‘zachalar, bayroqchalar, kubchalar namunasiga qarab tanlashga qanday o‘rgatamiz?



Nazorat savollari.

1. *Yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar psixik taraqqiyoti xarakteristikasi.*
2. *Nutqning vujudga kelishi.*
3. *Kognitiv o'zgarishlar, psixosotsial rivojlanish.*
4. *Predmetli faoliyat va qiyin manbalari. Go'daklik davrida aqliy rivojlanish.*
5. *Yoshdagi inqiroz. 3 yoshdagi inqiroz.*
6. *Go'daklik davrida bolaning o'zi haqidagi tasavvurlarining yuzaga kelishi.*
7. *Go'daklik davrida ijtimoiy hissiyotlar haqida bilimlar berish.*



8-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Reja

1. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik o'sishining umumiy shart-sharoitlari.*
2. *3-7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanishi.*
3. *Bu yoshda bolalar ehtiyoji va qiziqishlarining jadal ravishda ortishi.*
4. *Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyatlaridan biri ijodiy o'yindir.*

Tayanch tushunchalar: *bolalik, psixofiziologik, o'yin, yetakchi, motivasion, yosh inqirozi, person, psixoanaliz.*

Uch yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Mazkur yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan N.M.Shchelovanov, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jarayonlarini sifat jihatdan ancha o'zgartirib yuboradi. Shunga qaramay bolaning o'sishiga kattalarning ta'siri, roli yetakchiligicha qolaveradi, lekin asta-sekin o'sib borishi mustaqilroq bo'lishini ta'minlaydi. Ammo maktabgacha yoshdagi mustaqillik ko'pincha bolaning amaliy faoliyatda uncha kuchli



bo‘lmagan shaxsiy imkoniyati doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishida, nisbatan oz uchrasa-da, tobelikdan qutulish tuyg‘usida ro‘yobga chiqadi.

Bolaning mustaqilligi faqat uning jismoniy va aqliy imkoniyatida, kuchi yetadigan jarayonga nisbatan o‘z munosabatini kattalarning ko‘magisiz amalga oshirishida emas, balki o‘zining kuch-quvvati, qurbi yetmaydigan, muayyan amaliy ko‘nikmalarini egallay olmagan turmush muammolarini hal etishida ham ko‘rinadi. Mazkur psixologik holatning o‘ziga xos jihatlari Elza Keller, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina, E.G‘oziyev va N.Sodiqxo‘jayevalarning mamlakatimizda, chet ellarda mashhur ona kundaliklarida yoritilgan hamda batafsil tahlil qilingan.

Maktabgacha yoshga qadar bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda kimning ilmiy tadqiqoti va asari bo‘lishidan qat’i nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilishi individni kamol toptirishga, shakllantirishga qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Mana shu yosh davrida namoyon bo‘ladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlarini (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda ko‘p marta ta’kidlangan bo‘lib, birinchi navbatda, o‘jarlik, negativizm, qaysarlik, injiqlik kattalarning bolalar nazarida obro‘sizlanishi va qadrsizlanishi kabi illatlar bilan bog‘liqdir. Qator ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, shu yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari na irodasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va bularnng hammasi boladagi xudbinlik, o‘ziga bino qo‘yish, aksilijtimoiy mayl, urinish, qaysarlik, rashk kabi illatlarda yaqqol aks etadi.

N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalarning oqilona mulohazalariga qaraganda, bolalardagi injiqliklarning bosh omili atrofdagi odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto‘g‘ri, mensimay munosabatda bo‘lishidan iboratdir, bizningcha, o‘zini tan oldirishga intilish ham bunga sababdir.



Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarning o'jarligi doimiy bo'lmaydi. Masalan, o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro'y beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarining birortasiga o'jarlik qiladilar. A.N.Golubeva bolalardagi o'jarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinligini uqtiradi. A.P.Larinning tadqiqotida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, hatto uch yoshda ham paydo bo'lishi ifodalangan. Dastlab o'jarlik ba'zi-ba'zida ro'y beradi, lekin u hech qachon barcha katta yoshdagi kishilarga qaratilgan bo'lmaydi, binobarin, uning obyekti alohida shaxs hisoblanadi. Bola xarakterining bu sifati muhitning noto'g'ri tarbiyaviy ta'siri oqibatida biror darajada barqarorlashsa, keyinchalik ko'pchilikka qaratilgan, umumlashgan shaklga kira boshlaydi. O'jarlik bir guruh odamlarga yo'nalganligini ham uchratish mumkin. A.P.Larin to'plagan ma'lumotlar o'jarlikning asosiy sabablari – bolaning mustaqilligini cheklab qo'yish, erkinlik tuyg'usi va tashabbusini so'ndirish va uning ong xususiyatini (anglash sur'atini) kamsitishdan iboratligini ko'rsatadi.

Mazkur omillar bolaning kattalarga munosabati negizini tashkil qiladi va uning psixik o'sishi davomida muayyan darajada o'zgarib boradi. Ularning o'zgarishi kattalarning bolaga u erishgan kamolot bosqichini hisobga olib, oqilona munosabatda bo'lishiga bog'liq. Agar maktabgacha davrda bolaga tegishlicha munosabatda bo'linmasa, unda o'jarlik vujudga kelishi mumkin.

Bola xulqida muayyan sharoitning ta'siri bilan paydo bo'lgan o'jarlik va nojo'ya qiliqlar mavjudligi, uning psixikasida jiddiy o'zgarish ro'y berganini, endi unga uning hozirgi o'sish darajasini hisobga olib, munosabatni amalga oshirish zarurligini bildiradi. Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozning sabablari:



- 1) kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini;
- 2) xohish va istagini mustaqil holda turmushda qaror toptirishga intilishini;
- 3) ayrim ko‘zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishini;
- 4) o‘z holicha ish tutishni cheklashlaridir.

Kattalar bolaning ra‘yiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o‘z-o‘zidan barham topadi, nizo yoki ixtilofning oldi olinadi.

Oila va bog‘chada shaxslararo munosabatlar ilmiy asosga qurilib, oqilona qoidaga suyanilsa va pedagogik odob (nazokat) doirasidan chetga chiqilmasa, yuqorida aytilgan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin emas.

O‘jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning vujudga kelishi – bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishga urinish va kichik maktabgacha yosh davridan maktabgacha davrga o‘tishning tashqi ifodasidir. Mustaqillikka intilish mazkur yosh davridagi o‘zgarishlar, yangilanishlar, ya‘ni shaxsiy xatti-harakatni va “men o‘zim”ni anglashning mahsuli tariqasida ro‘yobga chiqish kutiladi.

D.B.Elkoninning fikricha, bolaning xohishi bilan bu xohishning harakatda ifodalanishi o‘zaro mos tushmasligi, kattalar talabiga so‘zsiz itoatkorlik uning istagini umumlashtirishga olib keladi, voyaga yetganlar talabiga mos emasligi sababli shunchaki xohish, qat‘iy shaxsiy xohish darajasiga o‘sib o‘tadi. Odatda, “Men xohlayman”, “O‘zim bajaraman” kabi mustaqillikka intilish harakatlari xohishning kuchayishida o‘z ifodasini topadi. Ana shu tariqa bola psixikasida xohishlarning o‘zaro uzviy bog‘lanishi, motivlar va ularning kurashi yuzaga kela boshlaydi.

K.M.Gurevich 3–4 yoshli bolalarda motivlarning birlamchi tobeligi va dastlabki irodaviy harakatning paydo bo‘lishini tadqiq qilgan. Tadqiqotchi bolaning oldiga jimjimador o‘yinchoqni olish



uchun avval o‘zi yoqtirmagan harakatni bajarish topshirig‘ini qo‘ygan. Buning uchun to‘rt qismli tajriba ishi amalga oshirilgan. Olingan ma‘lumotlardan ko‘rinadiki: a) maktabgacha yosh davrida ezgu orzular asosida harakat qilish imkoniyati tug‘iladi; b) mazkur orzularning sabablari o‘zaro tobeligi (bog‘liqligi) bevosita sabablarga qaraganda ertaroq paydo bo‘ladi; 3) bevosita idrok qilinadigan narsalarga aloqador xohishni bajarishga qaraganda, narsaning o‘ziga aloqador xohishni bajarishni muayyan muddatga kechiktirish osonroqdir.

Shunday qilib xohish-istakka tobe bo‘lmaslik holatidan unga nisbatan dastlabki intilish, xayrixohlik tuyg‘usining vujudga kelishi aynan maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Buning zamirida bolaning mayli, niyati, orzusi, istagi, tilagi va xohishining mazmuni hamda xususiyatidagi keskin o‘zgarishlar yotadi.

D.B.Elkoninning ta‘kidlashicha, mazkur o‘zgarishlar bevosita idrok qilinadigan buyumlarga qaratilgan xohishning mantiqan mavhumroq buyumlarga yo‘naltirilgan xohishga aylanishidir. Buning asosiy sabablari, bir tomondan, bolada oddiy umumlashtirish uquvining paydo bo‘lishi hisoblansa, ikkinchidan, unda nutq faoliyatining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishidir. Shundan so‘ng uning faoliyati jozibador, maftunkor, jimjimador, yaltiroq narsalarning tashqi alomatlariga va ularni bevosita egallashga aloqador bo‘lmay, balki mazkur narsalarning timsoli, tasavvur obrazlari, kelgusida shularning hammasini o‘zlashtirish istagi asosiga quriladi. Bolaning orzu-istagi doirasidagi hali foydalanilmagan yangi, yashirin, ammo ro‘yobga chiqadigan imkoniyatlar uning kattalar bilan munosabatida, muomalasida, muloqotida, o‘zining shaxsiy faoliyatida, his-tuyg‘usining mazmuni va rivojlanishidagi keskin, muhim o‘zgarishlar uchun zarur shart-sharoitlar sifatida xizmat qiladi. Undagi tasavvur bilan uzviy bog‘liq his-tuyg‘ular xohishni qondirishda oldindan taajjublanish jarayoniga keng istiqbollari yaratadi. Boladagi mavjud his-tuyg‘ular xohishni qondirishni bevosita aks ettirish bilan kifoyalaniq qolmaydi, balki kelgusida amalga oshirish mo‘ljallangan faoliyatning ahamiyatini ham



o‘zida mujassamlantiradi. Shuning uchun bolaning quvonchi bilan qayg‘usi daf‘atan qanday maqsadni ko‘zlashga (amalga oshirishga) yo‘nalganida emas, balki qaysi faoliyatni (ishni) rejalashtirgani bilan uzviy bog‘liqdir.

Bolaning xohish va istagidagi ayrim o‘zgarishlar, ularning tasavvurlar bilan birlashuvi maktabgacha yoshdagi subyektlarda faoliyatning yangi ko‘rinishlari (rolli o‘yinlar, ijodiy, tasviriy va konstruktiv faoliyat, sodda mehnat faoliyati) keng ko‘lamda rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit hisoblanadi. Bola o‘zining faoliyatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to‘g‘risidagi tasavvur obrazlaridan amaliy foydalanish bilan chegaralanib qolmay, ularga nisbatan o‘zining shaxsiy emotsional munosabatini ham bildiradi. Bu hol ko‘pincha ularning ijodiy o‘yinlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ijodiy o‘yinlarda bolaning kattalar faoliyati haqidagi, ularning o‘zaro munosabati to‘g‘risidagi tasavvuri aks etadi, u o‘zini kattalar bilan birga harakat qilayotgandek his etadi, hatto voqelikning bevosita qatnashchisi vazifasini o‘taydi.

Harakatga undovchi xohish-istak bolaning tasavvuri bilan uzviy bog‘lanib, shuningdek, bevosita idrok qilish mumkin bo‘lgan vaziyat bilan aloqaga kirishib, yangidan yangi xohish-istaklarni keltirib chiqaradi. Hatto bolani o‘zi uncha qiziqmaydigan faoliyatga ham undashi yoki tanish faoliyatga yangicha shakl va mazmun berib uni bajarishga yo‘naltirishi mumkin. Psixologik manbalardan ma‘lumki, mazkur yoshdagi bolalarni o‘zlari xohlamaydigan zerikarli faoliyatga (chunonchi, yozishga, rasm chizishga, mehnatga, harakatli o‘yinga) majbur qilish mumkin emas. Ular o‘zlari xohlamagan mashg‘ulotlarda juda tez charchaydilar. Shunday mashg‘ulotlarga amaliy jihatdan yondashib, yaqqollik alomatlari kiritilsa, bolalar ishga astoydil, butun vujudlari bilan kirishib ketadi. Natijada, ularda shu mashg‘ulotga ijodiy munosabat vujudga keladi.

Mazkur yosh davridagi bolalarning kattalar bilan munosabatga kirishuvining eng muhim xususiyatlaridan biri – ularning xohish-



istaklarini boshqarish imkoniyati mavjudligidir. Ularni kattalarning ezgu niyatiga ko'niktirish, ota-onalar va murabbiylar mayliga bo'ysundirish mumkinligidir. Ularning boshqa yosh davrlardagi bolalardan farqi ularda nisbatan xotirjam, barqarorroq his-tuyg'ular mavjudligi, ularning affektiv holatlardan uzoqlik, hamda nizolarga kam berilishidir. Bunday bolalarda affektiv (jazavali) holat yuz berishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'lib, yaqqol harakat bilan emas, balki tasavvur obrazlari dinamikasi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Bevosita idrok qilinmaydigan holatlarga nisbatan his-tuyg'u, murakkab ichki tug'yon va kechinmalarning paydo bo'lishi, keyinchalik emotsional o'sish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yin faoliyatida bemor singari yig'laydi, o'yinning ishtirokchisi sifatida quv naydi. Shuning uchun uning kechinmalari bemor to'g'risidagi tasavvur obrazlarining majmuasi bilan ularning nisbatan rang-barangligi bilan aniqlanadi. Bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi kabi gavdalanadi. Ertaklar tinglashda bolada qahramonlar to'g'risidagi dastlabki kechinmalar paydo bo'ladi, unga emotsional ta'sir etish imkoniyati tug'iladi, kechinmalarni aks ettirish esa tasavvur doirasida vujudga keladi. Masalan: doktor-davolaydi, shofyor-haydaydi, sotuvchi – mol sotadi, uchuvchi – samolyotni boshqaradi, o'qituvchi – bolalarga bilim beradi va hokazo.

D.B.Elkonin, Y.A.Arkin, A.V.Zaporojes va boshqalarning isbotlashicha, mazkur shart-sharoitlar bolada kattalar hayotida faol ishtirok etish tuyg'usi va istagini vujudga keltiradi. Bu holda bolaning faoliyati kattalar faoliyatidan farqlanadi, uning hayot sharoiti kengayadi, shaxslararo munosabat va shaxsiy munosabatlarning xususiyati oydinlashadi, unda voyaga yetganlarning kundalik ishlarida faol qatnashish xohish-istagi kuchayadi.

Uch yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari. Uch yoshda harakatni muvofiqlashtirish jarayonining takomillashuvi bolaga yugurganida, bir joyda tik turganida muvozanatni saqlash imkonini



yaratadi. Buning natijasida bola mustaqil holda turli harakatlarni amalga oshira boshlaydi. Jismoniy jihatdan mustaqillikka erishish bolada erkin, kattalarning nazoratisiz, o‘z holicha qandaydir ishlarni bajarish, umuman, mikro va makro muhitda shaxs sifatida yashash istagini tug‘diradi.

Xususan, bolada ikkinchi signallar sistemasining paydo bo‘lishi mazkur davr uchun muhim ahamiyat kasb etib, u eng qulay (senzitiv) o‘shish bosqichi vazifasini o‘taydi. Ikkinchi signallar sistemasining vujudga kelishi nutq va nutq faoliyatining o‘shishi bilan bevosita aloqador bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Nutq jarayonining vujudga kelishi psixofiziologiyaning shartli reflekslar qonunlari ta‘sirining mahsuli (hosilasi) sifatida sodir bo‘ladi. Bolada nutq reflekslari kattalarga taqlid qilish asosida yoki ularning kichiktoylar bilan uzluksiz muloqotga kirishuvi orqali hosil bo‘ladi hamda ota-onalar va tarbiyachilarning so‘z va atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatishlari oqibatida jadal sur‘atlar bilan takomillashadi.

Yuqoridagi umumiy xulosalar asosida aytish mumkinki, uch yoshgacha davr nutq va nutq faoliyatini eng, oqilona namoyon qilish va to‘g‘ri, maqsadga muvofiq rivojlantirish bosqichi hisoblanadi. Binobarin, har bir yosh davrining o‘ziga xos qulay o‘shish pallalari, imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu narsa umumiy psixologik qonuniyatlarga suyangan holda talqin etiladi, shu bilan birga yetakchi faoliyatning roli inobatga olinadi.

Bolaning tik yurishga odatlanishi, fazoviy qonuniyatlar, o‘ziga xoslik, borliqdagi mavjudotlarni to‘g‘ri idrok qilish kabilar unda turli psixologik sifatlarni shakllantiradi, shuningdek, mutlaqo yangi shaxs xususiyatlarni vujudga keltiradi. Unda harakat shakllariga nisbatan sinchkovlik uquvi ko‘proq o‘sadi, vaqtni tasavvur qilish, vaqt o‘lchovlariga qiziqish tuyg‘usi uyg‘onadi. O‘yin faoliyatida, tengdoshlari va kattalar bilan bevosita muloqotga kirishishda vaqtni, fazoni va harakatni idrok qilish malakasi takomillashib boradi, mazkur psixologik kategoriyalar sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarila boshlaydi.



Mazkur davrda nutq mazmunliroq, nutq faoliyati esa grammatik, morfologik va sintakytitik nuqtayi nazardan to‘g‘ri tuzilishga ega bo‘la boradi, bolaning bu boradagi faolligi mislsiz darajada o‘zgaradi. Atoqli psixologlar va o‘zimizning kuzatishlarimizga qaraganda, uch yoshli bola soat sayin bir nechtdan (ona tili yoki begona tilga doir) so‘zlarni o‘zlashtiradi va o‘zining nutq boyligiga aylantiradi. Nutq faoliyatining rivoji o‘zgalar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish imkonini yaratadi, shaxslararo muomala ko‘lamini yanada kengaytiradi.

Shunga o‘xshash o‘zgarishlar bola atrof-muhit to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, axborotlarni, ilmiy bilimlar va ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashi uchun puxta zamin hozirlaydi. Natijada, uch yoshlilar psixikasi yangiliklarni aks ettirish va ulardan ta’sirlanishdek murakkab funksiyani bajara boshlaydi. Shular sababli bu yoshdagi bolalar o‘zining ko‘rganlarini, eshitganlarini tez idrok qiladilar va eslab qoladilar, hatto ularni tushunishga intiladilar, ular o‘z bilimdonliklarini namoyish etishga, o‘zlarini shaxs sifatida ko‘rsatishga harakat qiladilar. O‘zining kattalar orasidagi o‘rnini topish istagi, hissi “Men davri”ni vujudga keltiradi. Bolaning yangi ehtiyoj va intilishlari kattalar tomonidan g‘ayritabiiy qabul qilinishi ular o‘rtasida “anglashilmovchilik”ni keltirib chiqaradi. Unda kattalarning ko‘rsatmasi, tavsiyasi, iltimosi, buyrug‘i va tazyiqiga qarshilik ko‘rsatish tuyg‘usi vujudga keladi. Shu tariqa shaxslararo munosabatda ziddiyatlar, ichki nizolar, psixologik inqiroz namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi “Men davri”ning hosilasi bo‘lib, bola shaxs sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi. Inqirozning sabablari har xildir.

Inqiroz davrida bolaning kattalarga qarshilik ko‘rsatishi ham turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ular o‘tkinchi psixologik holat va hodisaga o‘xshaydi. Lekin oila va bog‘chada qiyinchiliklarni yengish jarayonida bolaning shaxsiga uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri va oqilona yondashish uni inqirozdan ruhan mutlaqo sog‘lom olib chiqish imkonini yaratadi. Quyida ana shu qarshiliklarning ayrim ko‘rinishlari haqida qisqacha to‘xtalamiz.



Ko'pchilik psixologlarning tadqiqotlaridan va o'zimizning kuzatuvlarimizdan ma'lumki, bolalar mazkur inqiroz davrida bir necha ko'rinishdagi qaysarlik yoshini bosib o'tadilar.

Ana shu ko'rinishlarning bittasi biz nazarda tutgan davrga, ya'ni bolaning 3 yoshiga to'g'ri keladi. Shu davrda uning ruhiy dunyosida sifat va miqdor jihatdan turli o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar uning olamni o'zicha kashf qilayotganiga, psixikasi ma'lumot va axborotlar bilan soat sayin bosib borayotganiga bog'liqdir. Ayni shu yoshda bolada o'z irodasiga ishonch hissi tug'iladi, u o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini anglash qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni yengish bilan amalga oshadi.

Mazkur yoshdagi bola ba'zan o'ziga aytilgan so'zning mohiyatini tushunmasligi, anglab yetmasligi, goho o'yinga haddan tashqari berilib ketib, kattalarning ovozi eshitmay qolishi mumkin. Bunday paytda bolada tashqi ta'sirga yoki qo'zg'atuvchiga e'tibor berish qobiliyati yetishmasligi, bunga uning ko'tarinki yoki g'oyat tushkun kayfiyati xalaqit berishi mumkin. Ba'zan bola o'z o'ylari va ichki kechinmalari bilan bandligi sababli uning tashqi ta'sirga javob qaytarishi biroz kechikishi ham mumkin. Ana shu jarayonga o'zgalarning psixologik qonuniyatga rioya qilmay qo'pollik bilan aralashuvi yoqimtoy, odobli bolalarni ham darrov jahli qo'zgaladigan, gap ko'tara olmaydigan, nozik tabiatli shaxslarga aylantirib qo'yishi mumkin. Bunda kattalarning muloqotdagi qo'polligi bolada qaysarlikning belgilarini yaqqol namoyon eta boshlaydi. U har qanday taklifni, buyruqni, hatto iltimosni ham rad qiladi, o'ziga berilgan barcha savollarga bir maromda "yo'q", "kerakmas", "bermayman", "bilmayman" deya javob qaytaraveradi. Kattalar bilan bola o'rtasidagi munosabatning buzilishi tufayli uning xatti-harakatida o'jarlik illati paydo bo'ladi. Buning asosiy sababi bolada o'zining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulariga bog'liq harakatlarni mustaqil bajarish istagi tug'ilishi, "men" bilan bog'liq butunlay yangi nuqtayi nazarning vujudga kelishidir.



Mazkur davrni inson shaxsini shakllantirishda eng murakkab davr desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Shunga ko‘ra katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, bog‘cha tarbiyachilari shu davrda bolaga undagi o‘zgarishlarni, murakkab ichki kechinmalarning mohiyatini psixologik inqirozni inobatga olgan holda munosabatda bo‘lsalar, ijobiy voqelikni keltirib chiqaradi. Yuqorida aytganimizdek, mazkur davrda bolaning irodasi, irodaviy sifati takomillasha boshlaydi, shaxsning murakkab fazilatlarini xarakter xislatlari barqarorlashadi. Bola o‘zligini anglashining tashqi va ichki belgilari yaqqol ko‘zga tashlanadi. “O‘zim” bilan bog‘liq ezgu niyat mustaqillikka intilish tuyg‘usini vujudga keltiradi, binobarin, ularning ta‘siri tufayli unda o‘z xulq-atvori, “yurish-turishi” bilan kattalarning maqtovi va olqishini eshitish ishtiyoqi tug‘iladi. Shaxsning xulqini baholash keyinchalik o‘zini o‘ziga baho berish darajasiga yetadi.

Katta yoshdagi odamlar, ota-onalar, tarbiyachilar bunday hollarda o‘zlarini osoyishta tutishlari, sharoitga qarab bolaga biroz yon berishlari, ba‘zan ularga aytganlarini qildirishlari, kerakli paytlarda masalani ochiq qoldirishlari lozim. Chunki shaxslararo munosabatning ba‘zan muammoligicha qolishi ham maqsadga muvofiqdir. Yaxshisi, asabiylik vaziyatida bolaning diqqatini boshqa narsaga (obyektga) jalb qilish, uni mushkul holatdan chalg‘itish ma‘qul. Shaxsiy kuzatishlarimizda ayon bo‘ldiki, mazkur holat bolaning ruhiy dunyosiga qattiq ta‘sir qiladi, u o‘zining nojo‘ya qiliqlari kattalarga aslo yoqmayotganini anglaydi, ichidan chuqur iztirobga tushadi.

Shu davrda organizmning tez sur‘atlar bilan o‘sishi oqibatida bola sho‘x, serg‘ayrat, tinib-tinchimas, hamma narsaga qiziquvchan, harakatchan bo‘lib qoladi. Undagi bu o‘zgarishlar tabiiy ekanligini kattalar yaxshi bilishlari, o‘zlarining kichkintoylarga muomala va munosabatlarini tubdan o‘zgartirishlari lozim. Binobarin, bola oldiga qo‘yiladigan talablar muayyan shart va sharoitga muvofiq bo‘lishi kerak. Amaliy faoliyatda jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarni hisobga olmaslik kattalar bilan bolalarning o‘zaro munosabatlarida qator



qiyinchiliklarni vujudga keltiradi; bola ota-onalar va tarbiyachilarning gapiga quloq solmaydigan, topshiriqlarni bajarmaydigan, qo‘rs, hech narsaga ko‘nmaydigan bo‘lib qoladi. Bunday xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi bosh sabab – bolalarning mustaqillikka intilishini kattalar tan olmasligidir. Shuning uchun ular goho kattalardan o‘rinli xafa bo‘ladilar, nizoning sababini to‘g‘ri payqaydilar.

Ayrim kishilar bolaga topshiriq beradilar-u, lekin uning qay darajada bajarilishi bilan qiziqmaydilar, bola qanday yutuqqa erishganiga e‘tibor bermaydilar. Bola o‘ziga kattalarning mensimay, hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘layotganini darrov sezadi. Shaxslararo munosabatda vujudga kelgan anglashilmovchilik va ginaxonlik ana shu holatga oqilona baho berilgunicha davom etadi.

Erkalanish bilan vujudga keladigan o‘jarlik ham uch yoshlilar ruhiy dunyosida ko‘p uchraydi. Bolaga me‘yordan ziyod mehr-muhabbat qo‘yish, uni haddan tashqari erkalatish, har qanday xohishini qondiraverish, talab va ehtiyojini so‘zsiz ado etish ham unda erkalik va o‘jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bolaning xulq-atvorini, qilgan ishini maqtayverish, uni o‘rinsiz taltaytirish yoki unga nisbatan befarq munosabatda bo‘lish ham o‘jarlikni keltirib chiqaradi. Bolani e‘tiborsiz qoldirish, nazorat qilmaslik, tekshirmaslik ham noxush oqibatlariga olib keladi. Masalan, e‘tiborsizlik bolani qattiq iztirobga soladi, unda tanholik tuyg‘usini, umidsizlik, begonasirash hissini vujudga keltiradi. Bular esa bolada kattalarga nisbatan ichki qarama-qarshilikni, o‘zaro ziddiyatni, nizo alomatlarini tug‘diradi. Ko‘p hollarda bolalarni o‘z mayliga, o‘z holiga tashlab qo‘yiladi, ularga juda barvaqt erkinlik, mustaqillik beriladi, ammo bunday qilish bola shaxsini tezroq takomillashtirishga xizmat qilmaydi. Hayot va faoliyatda har bir bolaning oldiga aniq, yaqqol talab va topshiriqlar qo‘ymaslik, unga homiylik qilmaslik uning ruhiyatiga qattiq ta‘sir etadi, u o‘kinadi va ichidan kuyunadi. O‘zining himoyachisi yo‘qligini his qilish ham bolada o‘jarlikni yuzaga keltiradi. Boshqacha aytganda, bolaning ruhiy olamida kattalarga nisbatan paydo bo‘lgan gina-



adovat uni o‘jarlikka yetaklaydi. Shaxslararo munosabatda adolat qaror topgunicha, ziddiyatning bosh sababchisi o‘z xulqiga iqror bo‘lgunicha qarama-qarshilik davom etadi.

O‘jarlik paydo bo‘lgan bolaga muomalada uni behuda erkalatmaslik, maqtamaslik, uning barcha orzu-istaklarini qondiravermaslik kerak. Xoh oilada, xoh bog‘chada hammaga bir xil bir xilda e‘tibor berish, bolani o‘z holiga tashlab qo‘ymaslik o‘jarlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Bolalarda vujudga keladigan illatlar – o‘jarlik, qiyiqlik, qaysarlik va hokazolarning sababini u kamol topayotgan muhitdan, unga ko‘rsatilayotgan tarbiyaviy ta‘sirdan, sharoitdan, shaxsni shakllantirish jarayonidagi kamchiliklardan qidirish lozim. Eng muhimi, ota-onalar ham, tarbiyachilar ham boladagi salbiy ruhiy holat o‘tkinchi ekanini bilishlari, uning sabablarini haqqoniy aniqlashlari, u bilan umumiy til topishlari, unga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishlari zarur.

Hayot va faoliyatda kattalar bolaning shaxsini hurmat qilishlari, uning ehtiyojlari bilan hisoblashishlari, his-tuyg‘usini boshqarish imkoniyatlarini aniqlashlari kerak. Bolani sevish, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish, qiziqishlariga e‘tibor berish – o‘jarlikning oldini olishning muhim shartidir.

Uch yoshli bola jamoat joylarida, ko‘pchilik orasida o‘zini qay tarzda tutishi kerakligini bilmaydi. Shuning uchun buni kattalar tushuntirishlari, amaliy ko‘rsatmalar berishlari shart. Biroq bu ish-harakat bilan uzviy bog‘lanmasa, ko‘zlangan natijaga erishish mumkin emas. O‘yin faoliyatida bola shaxsida xulq va odob malakalari asta-sekin shakllantiriladi.

Uch yoshlilar shaxsini shakllantirishda ularni boshlagan ishni oxiriga yetkazishga, qiyinchiliklarni yengishga, sabr-toqatga, asabiylashmaslikka, bardoshlilikka, yig‘idan o‘zini tiyishga, ortiqcha xatti-harakat qilmaslikka o‘rgatish juda katta ahamiyatga ega. Bolada ijobiy – axloqiy ko‘nikma va malakalar, odatlar mustaqil ishlarni bajarishga intilishda vujudga kela boshlaydi. Shuning uchun kattalar



bolani topshiriqni qanday bajarishini nazorat qilib turishlari lozim. Umuman aytganda, bolani o‘z holiga tashlab qo‘yish pedagogik nazokatga (taktga) xilofdir.

Bolaning shaxsi tarkib topishida kattalarning axloqiy ibrati alohida ahamiyatga molikdir. Lekin yuksak fazilatlarini, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o‘zigina yetarli emas. Chunki bola o‘zicha faol harakat qilmasa, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etmasa, unda hech mahal xulq-atvor ko‘nikmalari hosil bo‘lmaydi. Ma’lumki, o‘yin faoliyatida va muloqotlarda bolaning shaxsiy fazilatlarini hamda xarakter xislatlarini uning nutqiga bog‘liq holda ro‘yobga chiqadi. Bolaning nutq faoliyati qanchalik ravon va boy bo‘lsa, u ona tilining durdonalaridan unumli foydalana olsa, uning o‘zaro fikr almashishi ham shunchalik qulay va oson amalga oshadi. Kamolotning mazkur pallasida egosentrik nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli va rolli (syujetli va mazmunli) o‘yinlar (chunonchi, “Millitsioner”, “Sotuvchi”, “Shifokor”, “Qorbobo”, “Veterinar” va boshqalar) jarayonida amaliy xatti-harakat bilan uzviy bog‘liq holda bola shaxsida insoniy xislatlar tarkib topa boradi. O‘yin faoliyati va turli o‘yinlar bolada irodaviy sifatlarni takomillashtirishda, his-tuyg‘uni boshqarishda yetakchi faoliyat vazifasini o‘taydi.

Rolli o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita “bajaradilar”. Shu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘usi, o‘zaro muomala va muloqotlarining xususiyatlarini, o‘ziga va o‘zgalarga, atrof-muhitga munosabatini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o‘tovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni alohida ta’kidlash lozimki, ijtimoiy



va maishiy voqealikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yinlarda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi va mohiyati hamda mazmuni jihatdan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, D.B.Elkonin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli o'yin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada, predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;

2) bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlanish);

3) bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi;

4) bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarning mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatdan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi;

5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishi.

Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri – bolada o'z xatti-harakatini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga o'xshatish tuyg'usining mavjudligidir.



Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo'ladi va kattalar uning xulq-atvori yurish-turishining ham obyekti, ham subyekti hisoblanadi.

Go'daklik davridan maktabgacha yoshga o'tgan bolalarning faoliyati kattalar rahbarligidagi faoliyatdan mustaqil o'z-o'zini nazorat qilish darajasiga o'sib o'tadi. Biroq yuqorida ta'kidlangan barcha shart-sharoitlar o'zaro uzviy bog'lanmasligi sababli har qanday rolli o'yinning negizi vazifasini o'tay olmaydi va shunga ko'ra ma'lum davrgacha o'yin faoliyati predmetlarga bog'liq tarzda amalga oshadi.

O'yin faoliyatini takomillastiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lishi kerak:

- a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil taassurotlar tarkib topishi;
 - b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;
 - d) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi.
- Bunda, kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yuqorida tahlil qilingan obyektiv shart-sharoitlarning o'zi rolli o'yinlarni yaratish uchun hali yetarli emas, buning uchun bola bilan kattalar o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartirish lozim, aks holda mustaqillik vujudga kelmaydi. Bunda, kattalar bolaga nisbatan talabchanlikni oshirishlari, uni mustaqil ravishda xatti-harakat qilishga majbur etishlari ma'qul. Shunga o'xshash tadbirlar bolada mustaqillik va mustaqil faoliyatni tashkil qilish uquvini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bola asta-sekin kattalarning hayoti va faoliyati dunyosiga kirib boradi, oldin hamkorlikdagi faoliyatda namoyon bo'lgan ijobiy his-tuyg'ular, shijoat va dadillik sari yetaklovchi ruhiy kechinmalar ibrat-namuna darajasiga ko'tarilgan kattalarning ruhiy olamiga ko'chiriladi. Endi bolaning o'zi mustaqil ravishda kattalarning hayoti va faoliyatiga kirishish yo'llarini topa



boshlaydi. U keyinchalik katta kishilarning hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida, shaxslararo munosabatlarida qatnashish istagini ko‘rsatadigan bo‘ladi. Shuning uchun rolli o‘yin u kattalar bilan bola o‘rtasidagi yangicha munosabatlar asosida vujudga keladi, deb xulosa chiqarish mumkin. Rolli o‘yin vujudga kelishi jihatidan ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kattalarning hayoti va faoliyatini qayta tiklash, takrorlashdan boshqa narsa emas, shuningdek, bu o‘yin faoliyati o‘zining mazmuni-mohiyati bilan ham ijtimoiydir. Rolli o‘yin bola mustaqil faoliyatining yorqin namunasi hisoblanib, u o‘yinning mazmuni orqali kattalarning hayoti bilan yaqindan tanishadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning rolli o‘yinlarda faoliyatini, ana shu o‘yin sharoiti va predmetli harakatning o‘zaro munosabatini tekshirgan L.S.Slavina rolli o‘yinlarda ko‘pincha asosiy e‘tibor o‘yinchoqlar bilan harakat qilishga qaratilishini, bunda o‘yinchoq harakatining xususiyati subyekt uchun yetakchi faoliyat vazifasini o‘tashini, bu jarayonda rol ikkinchi darajali alomatga aylanib qolishini, ammo bola o‘yinlar (“Kubcha”, “Geometrik shakllar”, “Tushlikka ovqat tayyorlash” kabi ta’limiy mushg‘ulotlar)da qandaydir vazifani bajarishini qayd qiladi. Olimaning yozishicha, rol va o‘yinning shart-sharoitlari bolaning harakati uchun farqi yo‘q narsalar emas, bola jismlarga ijtimoiy mazmuni aks ettiruvchi voqelik sifatida yondashadi.

Shunday qilib psixologik adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga qiziqadi;
- 2) bolalar rolli o‘yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin his-tuyg‘uli jihatlarini aks ettiradilar;
- 3) rolli o‘yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tatbiq qiladi;



4) kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman, uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Psixologiyada qabul qilingandek, rolli o'yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi. Odatda, syujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqelikning doirasi tushuniladi. O'yin syujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga kirishadigan voqelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinning syujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

O'yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlarga birlashtirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog Y.A.Arkin o'yinlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi:

- 1) ishlab chiqarishga (texnikaga): sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o'yinlar;
- 2) maishiy-ro'zg'or va ijtimoiy-siyosiy: bog'cha, maktab, kundalik turmushga oid o'yinlar;
- 3) harbiy: urush-urush o'yinlari;
- 4) dramalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar.

Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to'liq qo'shilamiz. Chunki harbiy va dramalashtirilgan o'yinlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma'quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o'yinlarning syujetiga ko'ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

- 1) maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar;
- 2) ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o'yinlar;
- 3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

Muallif ayrim o'yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo'g'inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishga qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga



qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o'yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, o'yin syujetining o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonini to'g'ri tashkil qilish orqali o'yin syujetlarining ko'lamini rejali kengaytirish mumkin. Yosh davrlar psixologiyasi fanida qat'iy ifodalanganidek, bola bog'chaga kelganda uning o'yin syujeti faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, sayrlarga olib borish, tabiatni kuzatish natijasida o'yinning turlari ko'payib boradi: bog'cha, hayvonot bog'i, oshxona, poyezd, paroxod, sartaresh, sotuvchi kabi o'yinlar qo'shiladi. Bolaning yoshi ulg'aya borishi bilan o'yinning muddati ham uzayib boradi. Mazkur jarayonni tadqiq qilgan A.P.Usovaning ma'lumotiga ko'ra, 3-4 yoshli bolalarning o'yin faoliyati 10-15 daqiqa, 4-5 yoshli bolalarning o'yin faoliyati 40-50 daqiqa, katta maktabgacha yoshdagilarning o'yin faoliyati bir necha soatgacha cho'zilishi mumkin. Hatto bir turdagi o'yinlarning syujetlari butun kun bo'yi, qolaversa, undan ham ortiq vaqt davom etadi. Bu hol bola o'yin faoliyati jarayonida hayot faoliyatning u yoki bu qirrasining muhim jihatini alohida ifodalab ijro etadi, deyishga hech qanday asos bo'la olmaydi. Chunki psixologiya fanida hozirgacha to'plangan ilmiy ma'lumotlar bunday muammolarga javob bera olmaydi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda uning mazmuni ham mavjud ekanligini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihati (tomoni)ni aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi.

L.S.Slavina to'plagan ma'lumotlarga qaraganda, maishiy turmushga aloqador bir xil syujetli o'yin, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatiga qarab (kichik, o'rta, katta) turlicha



yoʻsinda amalga oshirilgan. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bir xil oʻyinchoqlar bilan bir necha marta takroriy yoki ortiqcha harakat qiladilar. Ularning oʻyin mazmunini oʻyinchoq bilan bajarishi kattalarning harakatlarini takrorlashdir. Agar ular “Mehmon-mehmon” oʻynayotgan boʻlsalar, barcha harakatlarni (mehmonni kutib olish, dasturxon yozish, hol-ahvol soʻrash va hokazolarni) buyumlar bilan izchil bajaradilar. Harakatlarni soʻz bilan qisqartirish hollari bolalar faoliyatida kam uchraydi. Oʻyinning mazmuni, asosan, oʻyinchoqlar bilan bajariladigan harakatlarda oʻz ifodasini topadi, rolni ijro etish hamkorlikda emas, balki yonma-yon, bir-birini toʻldirishdan ancha yiroq tarzda amalga oshadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda oʻyin faoliyati mutlaqo boshqacha oʻtadi. Chunonchi, bir harakat ikkinchi harakat bilan uzluksiz bogʻlanib ketadi, baʼzi bir harakatlar esa soʻz yordamida qisqartiriladi (“keling, xush koʻrdik” harakat bilan emas, balki soʻz orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi. Rolli oʻyin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtirokchilar oʻrtasidagi nizolar, tortishuvlar kamayadi, rolga oʻzini loyiq deb bilish oʻzidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam – oʻqituvchi, qaychi – tikuvchi rolini olish uchun asos boʻla olmaydi), balki oʻyinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. Natijada, ular kichik maktabgacha yoshdagilarga oʻxshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqasiga bir obrazdan ikkinchisiga oʻtishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

Oʻrta maktabgacha yoshdagi bolalarda rolni taqsimlash yoki uni tanlash oʻyin faoliyatiga kirishishdan ancha ilgari amalga oshiriladi, bunga shu guruh boshligʻi bevosita rahbarlik qiladi. Shuning uchun kim qanday rolga munosibligi uzoq tortishuvlarga sabab boʻladi. Tortishuvlar va bahslar katta yoshli odamlarning aralashuvi natijasida adolatli hal qilinadi. Bolalar oʻrtasidagi va asar qahramonlarining bir-biriga munosabati oʻyin faoliyatida bosh masalaga aylanadi.



Ular amalga oshiradigan xatti-harakatlar umumlashgan bo'lsa ham, o'yinning mazmuni (ona va bola, pattachi va yo'lovchi, sotuvchi va xaridor, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi kabi) shaxslararo munosabatlarni aks ettirishga ko'chadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati negizi va mazmunini ular o'z zimmasiga olgan rolning mohiyatidan kelib chiqib o'yinning barcha qoidalariga rioya qilish tashkil etadi. Tengqurlar orasidagi bahs va tortishuvlar o'yin qoidalari va talablari qanchalik to'g'ri bajarilayotgani haqida bo'ladi.

O'yin mazmunining rivojlanishi bolaning kattalar hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrofdagi voqealarga munosabati o'zgarishida, shuningdek, o'yin mazmuni hamda syujeti ijtimoiy shart-sharoit va jamiyat a'zolari turmushining tobora to'g'ri aks ettirishida ko'rinadi. Shuning uchun bolalarda rolli o'yin qobiliyatining o'sishi o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi, balki kattalarning, tarbiyachilarning ta'siri natijasi, atrof-muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushunish va hokazolar natijasida amalga oshadi.

A.P.Usovaning tadqiqotida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulg'ayishiga qarab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

1) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib 3-5 daqiqa birga o'ynay oladilar;

2) 4-5 yoshlilar guruhi 2-5 ishtirokchidan iborat bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida qatnashchilar soni ortib ham boradi;

3) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh yoki jamoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi, natijada, avval rollar taqsimlanadi, o'yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o'yin davomida bolalar bir-birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar).

Qator ilmiy tadqiqotlarda isbotlanishicha, o'yinda tarbiyaviy ta'sir jamoasi to'g'ri uyushtirilsa, bolalar hayotida juda murakkab,



nozlik psixologik mexanizm paydo bo‘ladi va shaxslararo munosabat boshqacharoq tus oladi. Bolalar jamoasidagi o‘zaro munosabatlar, muloqotlar o‘yinning mazmunini boyitadi, syujetning ko‘lamini kengaytiradi, rollardagi g‘oyalar barqarorlashib boradi. Guruh va jamoa bo‘lib o‘ynash orqali bolalarda jamoa harakati qoidalari, axloq normalari, o‘zaro yordam ko‘nikmalari va boshqa umuminsoniy qadriyat, ma‘naviyat va ruhiyatning tarkibiy qismlari shakllanadi. Shuning uchun o‘yin faoliyatida jamoa a‘zolarining qoidaga muvofiq harakat qilishlari alohida ahamiyat kasb etadi, o‘yin davomida rollarni bajaruvchilar o‘zlarining aloqalari orqali bir-birlari bilan uzviy bog‘lanishlarini, o‘yinni muvaffaqiyat bilan yakunlash, oxiriga yetkazish uchun birgalikdagi harakat qanchalik zarurligini anglay boshlaydilar.

D.B.Elkonin va uning shogirdlari to‘plagan ma’lumotlarga, shaxsiy kuzatishlarimizga ko‘ra, bola biror rolni o‘ynashni o‘z zimmasiga olishining eng zarur sharti unda kattalar faoliyatining muhim xususiyat va belgilarini aniq ifodalash uquvining unda mavjud bo‘lishidir. O‘yin faoliyatida bola o‘z xatti-harakatini real harakatlar mantiqiga moslashtiradi, o‘yin talablariga to‘la bo‘ysundiradi. Binobarin, u mazkur jarayonda voqelikdan uzoqlashmaydi, aksincha, unga yanada yaqinlashadi, o‘yindan tashqari holatda qurbi yetmaydigan mohiyat ichiga chuqur kirib boradi.

D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi:

- 1) harakatga taqlid qilish: taqlidiy-protsessual o‘yinlar;
- 2) muayyan syujetni dramalashtirgan o‘yinlar;
- 3) syujeti oddiy o‘yinlar;
- 4) syujetsiz qoidali o‘yinlar;
- 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Bolani o‘yinga undagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to‘g‘risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o‘z shaxsiy faoliyatida sinab ko‘rish istagidir. Shuningdek,



jamoaga boʻlib oʻynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Yosh davrlar psixologiyasi fanida toʻplangan maʼlumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri boʻyicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

1) oʻyin faoliyatida bola turli harakatlarni toʻlalgicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini koʻrsatishga ishtiyoqmand boʻladi;

2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola oʻsib borган sayin narsalar va oʻyinchoqlarni nomini oʻzgartirish, yangi nom bilan atash yengillashadi. Shuningdek, faqat yangi vaziyatda jismlar nomini oʻzgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qoʻllash imkoniyati ham vujudga keladi. Oʻyin faoliyatida foydalaniladigan narsalarini yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

Oʻyin faoliyatida narsalar nomini oʻzgartirish oʻzining psixologik mohiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, soʻz bilan predmetning oʻzaro munosabatida ularga uzviy bogʻliq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining oʻrnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan oʻyin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi oʻyin mazmuniga koʻproq bogʻliqdir. Chunki bolaning xatti-harakati qanchalik ixcham va umumlashgan boʻlsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga oʻtadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini toʻgʻri ifodalashga intiladi.

Har qanday oʻyin va oʻyin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va oʻzaro munosabatini, muomalasini oʻziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga koʻra, oʻyin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar



davomida yaratilgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni o'rganishiga imkon yaratadi, oqibatda, uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. O'yinning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kasb etishi mumkin.

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganida, avvalo, shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini subyekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) subyekt (jonzot) ongining dastlabki obyekt darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda



esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi (A.V.Zaporojes).

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini berdi:

a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi;

b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida, umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



Bolaning aqliy o‘sishi to‘g‘risida fikr yuritilganida, oldingi bobda qayd qilinganidek, shuni ham aytish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, subyekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy ko‘rinishiga o‘tishida unga tayanch nuqtasi bo‘lishi kerak, vaholanki, shunday tayanch nuqtasi vazifasini o‘tuvchi narsalarning aksariyatidan o‘yinda bevosita obyekt sifatida foydalaniladi. O‘yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to‘g‘risida fikrlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog‘liq jihatini aks ettiradi. Yuqorida aytilganidek, narsa bilan o‘yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli, xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O‘yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko‘rinishdagi mantiqan izchil, yig‘iq shaklga o‘tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o‘yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e‘tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma‘noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o‘zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o‘sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o‘yin harakatlarining xususiyatini o‘zgartirish bolaning aqliy o‘sishiga sezilarli ta‘sir o‘tkaza oladi. Darhaqiqat, o‘yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko‘rinishi, ya‘ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo‘ladi va shuning uchun o‘yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko‘rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida



yoki uning umumiy kamolotida o‘yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o‘z ifodasini topadi.

Bola o‘yin faoliyatida maktab ta’limiga tayyorlanib boradi. Shu boisdan unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o‘yin faoliyatida bolaning aqliy o‘shini chuqurroq izohlab berish hali yetarli tajriba ma’lumotlari mavjud emas.

Rolli o‘yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg‘usini qo‘zg‘atuvchilar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki o‘yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug‘ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o‘ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta’siri ostida tug‘iladi.

Nazorat savollari:

1. *Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifini tushuntiring?*
2. *O‘yinning maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyatidagi o‘rniga izoh bering?*
3. *Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar haqida ma’lumot bering?*
4. *J.Piaje fenomenlari haqida nimalarni bilasiz?*
5. *Maktabgacha yosh davrida motivasion sohadagi o‘zgarishlar va shaxsning “birinchi tug‘ilishi” (A.N.Leontev) haqida gapirib bering?*
6. *7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlarini aytib bering?*
7. *Maktabga psixologik tayyorlik muammosi yuzasidan nazariy hamda amaliy bilimlarni shakllantirishni izohlang?*



9-MAVZU: KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Bolaning 7 yoshidan 11 yoshigacha boshlang'ich ta'limda o'qishi yillari kichik maktab yoshidan davriga to'g'ri kelishi.*
2. *Bu davda bola tafakkurining rivojlanishi.*
3. *7 yoshli bola o'z hissiyotlarini boshqarishi.*
4. *Kichik maktab yoshida bolaning jismoniy rivojlanishi, bo'y va organizmining tekis va propartsional rivojlanishi.*

Tayanch tushunchalar: *kichik maktab yoshi, obyekt, Subyekt, J.Piaje, A.Vallon, J.Bruner, L.V.Zankov, D.B.Elkonin, P.Y.Galperin, N.A.Menchinskaya, V.V.Davidov, A.Sh.Amonashivili, S.F.Juykov, motiv, analiz, sintez, emotsional rivojlanish.*

Odatda, psixologiya fanida kichik maktab yoshi davriga 6 yoshdan 10 (11) yoshgacha bo'lgan boshlang'ich sinf (I–ID) o'quvchilari kiritiladi. Lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va mutlaq degan fikr emas, albatta. Chunki xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi, buning uchun u, dastavval ta'lim–tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi, bundan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologik-jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan munosibligi, bilish jarayonlari bilan shaxs xususiyatlarining o'zaro mutanosibligi nazarda tutiladi. O'quvchi maktab ta'limiga keng ma'noda psixologik jihatdan obyektiv tayyor bo'ladi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada taraqqiyot bosqichiga erishadi. Ushbu yoshdagi bola o'z idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, uning qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi o'quvchilardan (jumladan, o'smirlardan) ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlik ko'rayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli ravishda barqaror ko'rinishga ega, deb hisoblash mumkin. Diqqatning xususiyatlari (taqsimlanishi, ko'chishi, kuchi, barqarorligi, bo'linishi, tebranishi va boshqalar) uning roli va syujetli o'yin faoliyatlarida, rasm chizish va ko'rish, yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan narsa yasashda, katta yoshdagilar va tengqurlari nutqini idrok qilish va tushinishda, matematik amallarni bajarishda, hikoya tinglash hamda shaxsan o'zi ham tuzishda bevosita namoyon bo'ladi. Bu davrga kelib, bola o'z diqqatini muayyan obyektga, narsa va hodisalarga yo'naltirishga, to'plashda va uni mustahkamlashda hamda taqsimlashda ma'lum darajada ko'nikmani egallagan bo'lib, o'z diqqatini boshqarish, zarur paytda, uni shaxsan tashkil qilishga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli ajoyibotlarga, g'aroyibotlarga boy, voyaga yetgan kishini taajjubga soladigan ma'lumotlar va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga egadir. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni egallab kelgan bo'lsa, endi u o'z xohish – irodasi bilan, muayyan motivatsiyaga asoslangan holda zarur ma'lumotlar olishga, o'z oldiga yaqqol maqsad va aniq vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning muayyan taraqqiyot darajasiga erishganligini uning xotirasi faolligi namoyish qiladi. U o'zining uncha boy bo'lmagan shaxsiy tajribasiga asoslanib, she'r, hikoya, ertaklarni esda qoldirish uchun



ularning takrorlanganligi, yod olishning qulay yo‘l va usullaridan foydalanganligi ta‘lim jarayonida unga juda qo‘l keladi. Demak, u o‘qish, idrok qilish, o‘zlashtirish texnikasi bilan yaqindan tanishishga erishadi.

Birinchi sinf o‘quvchisi ko‘pincha yaqqol obrazli xotiraga suyangan holda bilish faoliyatini (kognitiv holatni) tashkil etsa ham, biron bir narsa xotiraning boshqa turlarini sira istisno qilmaydi, balki aksincha, ta‘lim shaxsdan so‘z–mantiq xotirasini taqozo qiladi, ijodiy produktiv yo‘l bilan bilimlarni egallashni talab etadi, So‘z–mantiq xotirasining mavjudligi matnning ma‘nosiga tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligini orttirishga keng imkoniyat yaratadi. Tajribalardan shu narsa ma‘lumki, bola ma‘nosiz so‘zlardan ko‘ra, ko‘proq ma‘nodor ilmiy tushuncha hamda atamalarni yaratish, tuzish va mustahkamroq esda olib qolish xususiyatlariga ega. Uning nutqi ta‘limga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, o‘zgalar fikrini uqib olish va uni maqsadga muvofiq to‘g‘ri idrok qilish darajasiga to‘la javob bera oladi. Bola nutqining tuzilishi milliy til grammatikasi qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, rang–barang tushunchalarga boy, miqdor va ko‘lam jihatdan har qanday odam bilan fikr almashish, muloqotga kirishish uchun mutlaqo yetarlidir.

O‘quvchi o‘zi eshitgan narsalarini, voqelik to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘g‘ri tushuna oladi, o‘zida mavjud bo‘lgan axborotlarni (taassurotlarni) muayyan tartib bilan bayon qila oladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan (narsalarni taqqoslaydi, yaqqollashtiradi, guruhlarga ajratadi, hukm chiqaradi) o‘rinli foydalanadi.

Yirik chet el va sobiq sovet psixologlari (J.Piaje, A.Vallon, J.Bruner, L.V.Zankov, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, V.V.Davidov, A.Sh.Amonashivili, S.F.Juykov va boshqalar) tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta‘lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur‘atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishiga,



ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Chunonchi, bolalar matematik, fizik, lingvistik, politexnik tushunchalarini o'zlashtiradilar, mustaqil ravishda uncha murakkab bo'lmagan masalalar, misollar tuzadilar, oddiyroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.

Yuqorida yuritilgan mulohazalarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalarning psixologik tayyorgarlik darajasi ta'limni muvaffaqiyatli uddalash, amalga oshirish uchun mutlaqo kafolat bera oladi. Bu o'rinda uning shaxsiy xususiyatlari shakllanganligi yuzasidan ham ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Bolada shaxsning bir qator fazilatlar va xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi: qat'iylik, nisbiy mustaqillik, o'z oldiga maqsad qo'ya olishlik, xulq-atvorni ijtimoiy jamoatchilik nuqtayi-nazaridan baholashga intilishlik, ahd-paymonga sodiqdik, kattalarni hurmat qilishlik, va'daga vafo qilishlik, burch va javobgarlik hislari kabilar. Shuning bilan birga maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rayotgan bola o'z his-tuyg'usi va ichki kechinmalarini boshqarish uquviga egadir, hatto u o'z-o'ziga, o'z qilmishlari, nojo'ya xatti-harakatlari, o'rinsiz luqma tashlaganligi, ixtiyorsiz o'shshayganligi uchun baholi qudrat o'z munosabatini bildirishi mumkin. Ta'kidlab o'tilgan barcha mulohazalar, sharhlar, tavsiflar maktab ta'limiga psixologik tayyorlikning asosiy omillari, shuningdek, eng muhim shart-sharoitlari bo'lib hisoblanadi.

Olti yoshli bolaning ta'limga psixologik tayyorgarligi to'g'risida fikr yuritganimizda, biz muayyan reja asosida tartibli, ko'p qirrali, maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq va mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan boshlang'ich ta'lim uchun zamin vazifasini o'tuvchi ruhiy taraqqiyotning zarur ko'rsatkichi va darajasini nazarda tutamiz. Bu borada yana shu narsani qo'shimcha qilish o'rinliki, ta'lim uchun ruhiy taraqqiyot darajasidan tashqari, bolaning turmush sharoiti va faoliyati tafovutlari o'ziga xosligi uning sihat-salomatligi, metodik jihatdan tayyorgarligi, sodda ko'nikmalarni egallaganligi kabi omillarni



hisobga olish maqsadga muvofiq. Bildirilgan mulohazalarning barchasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorgarligining obyektiv tomonlarini o'zida aks ettiradi, xolos.

Biroq bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlikning subyektiv tomoni ham mavjuddir. Bola maktabda o'qish xohishi, intilishi, predmetlarga qiziqishi, ishtiyoqi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishishning istagi mazkur tayyorlik bilan uzviy bog'liqdir. Unda bu davrga kelib o'qish, bilim olish yuzasidan turli tasavvurlar shakllanadi. Shuning uchun u maktab jamoasining barcha a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini e'tirof etadi va ularga itoatkorlik tuyg'usi, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyillik tug'iladi. Lekin bolalarning barchasi bu narsaga bir tekis munosabatda bo'ladi, deb bo'lmaydi, shu boisdan ular o'rtasida individual farq vujudga keladi. Ba'zi bir bolalar maktabga vujudi bilan talpinadilar, go'yoki qush kabi uchishga tayyordirlar, o'qish boshlanishiga qancha vaqt qolganligini sabrsizlik bilan sanaydilar, o'quv ashyolarini oldinroq taxt qilib qo'yishga kattalarni da'vat etadilar (o'quvchilik formasini kiyishni, sumkani yelkasiga osishni yoqtiradilar). Boshqa bir toifadagi bolalar esa bu to'g'rida ehtiyotkorlik va vazminlik bilan munosabatda bo'ladilar. Biroq mazkur toifadagilarda shijoat, faollik, kuyunchaklik bilan intilish yetishmaganga o'xshab ketadi. Uchinchi bir turkumga, guruhga taalluqli o'quvchilar bo'lsa, maktabdan qat'iy ravishda voz kechish darajasigacha borib yetadilar. O'qishga nisbatan bunday salbiy munosabat kattalarning (jazo berish, majbur qilish, erkinlikni yo'qotish kabilar bilan) qo'rqitishlari oqibatida vujudga keladi. Masalan: "Maktabga borsang, ta'ziringni yeysan", "Qilt etsang – kaltak yeysan", "Dars tayyorlayverib, tinkang quriydi" va boshqalar.

Shuning bilan birga o'quvchilarning akalari va opalarining maktabdagi "mash'um kechinmalar va vaziyatlar" to'g'risidagi noxush axborotlari, kino va teleekrandagi maktab hayotiga bag'ishlangan filmlardagi, kompyuterdagi vaziyatlar o'zaro umumlashgan tasavvur obrazlarini yaratib, bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabatni



keltirib chiqaradi. O‘qishga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lgan bolalar ta‘lim muhitiga kirishishga qiynaladilar; qator ruhiy to‘siqlarga duch keladilar, buning natijasida yangi vaziyatga va jamoaga, notanish odamlarga moslashish juda og‘ir kechadi.

Maktabda ta‘lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlarini, jismoniy rivojlanish darajasini, sog‘ligi, qolaversa, nuqsonlarini hisobga olish o‘qishning muvaffaqiyat garovidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi biologik jihatdan nisbatan bir tekis taraqqiy etadi, uning bo‘yi va og‘irligi, o‘pkasining hajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq o‘quvchining suyak tizimi (ko‘krak qafasi, tos, qo‘l suyaklari), umurtqa pog‘onasida hali tog‘aysimon to‘qimalar uchraydi, bu esa mazkur tizimning yetarli darajada takomillashib bo‘lmaganligidan darak beradi. Yurak muskullari ularda tez o‘sadi, qon tomirlarining diametri sal kattaroq bo‘ladi, miyaning og‘irligi boshlang‘ich sinflarda 1250–1400 grammni tashkil etadi. Miya po‘stining analitik–sintetik faoliyati takomillashadi, qo‘zg‘alish bilan tormozlanish o‘rtasidagi o‘zaro munosabat (muvozanat) o‘zgaradi, lekin qo‘zg‘alish nisbatan ustunlikka ega bo‘ladi, shuning uchun o‘quvchining to‘g‘ri o‘shiga g‘amxo‘rlik qilish, toliqishning oldini olish zarur, o‘qish va dam olish rejimiga qat‘iy rioya qilishgan ma‘qul.

Maktab ta‘limi uning turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitidagi ahvolini o‘zgartiradi, bolaning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat bo‘lib qoladi. Yangi bilim, ko‘nikma, malakalar egallashdan tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi qonuniyatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Ta‘lim o‘quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlilikni, irodaviy zo‘r berishlikni, faollikni, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti–harakatlar o‘rmini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi. O‘quvchi tengdoshlari bilan birgalikda muayyan bir sinf jamoasiga birlashtiriladi. Modomiki, shunday ekan, sinf jamoasi va uning a‘zolari bola oldiga ko‘pchilik manfaatini himoya qilish, shaxsiy



istaklarini umumjamo'a intilishlariga bo'ysundirish, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasini qo'yadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib, murakkablashib boraveradi.

Maktab ta'limining dastlabki kundan boshlaboq kichik maktab yoshidagi bolaning taraqqiyotini harakatga keltiruvchi, kuch vazifasini o'tovchi turli xususiyatga ega bo'lgan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtilof kabilar vujudga keladi. Ushbu holat va vaziyat zamirida o'quvchi shaxsiga, uning bilish jarayonlariga nisbatan o'quv faoliyati, o'qituvchilar va sinf jamoasi tomonidan qo'yilayotgan talablar bilan bolaning psixik kamolot darajasi va undagi mavjud insoniy fazilatlarini o'rtasidagi qarama-qarshilik yotadi. Talabning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi va bu narsa boshi berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida inson taraqqiyotida amalga oshadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining muhim xususiyatlaridan biri – bu undagi o'ziga xos ehtiyojning mavjudligidir. Mazkur ehtiyoj o'z mohiyati bilan muayyan tartibdagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lmasdan, balki faqat o'quvchi bo'lish istagining aynan o'zidan iboratdir. Bu ehtiyoj zamirida o'qishning tashqi alomatlarini (atributlari), chunonchi, forma kiyish xohishi, o'z shaxsiy portfeliga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usi kabilar yotadi, xolos. Bundan tashqari, bilimlar kuni (1-sentabrdagi) shodiyona ayyom, o'quvchilar safiga qabul qilishlik lavhasi, maktab ma'muriyati va o'qituvchilarning ularga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari birinchi sinf subyektlari his-tuyg'usiga ilk ta'sir etadi. Sinf a'zolari bilan qatorlashib, saf tortib yurishlar, yoppasiga o'yin faoliyatida qatnashish va oshxonaga birga borish, o'qituvchining (qabul qilib olgan) o'gitlari ham ularni o'ziga rom qiladi. Lekin kichik maktab yoshidagilar o'qishning tub mohiyatini va



vazifasini tushunib yetmaydilar, shuning uchun umumiy tarzda hamma maktabga borishi kerak, deb tasavvur etadilar. Vaholanki, o'quvchi o'qish ijtimoiy zaruriyat ekanligini anglab yetmasligi barchaga ayon. Biroq kattalarning ko'rsatmalariga amal qilgan holda tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketishlik real voqealikdir.

Darslar boshlanib ketgandan keyin oradan ma'lum muddat o'tgach, shodiyona lahzalar taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi, ichki belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat ekanligini (irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsasi bilan shug'ullanish, diqqatni taqsimlash, o'z xulqini idora qilish zaruriyatini) o'quvchi anglab yetadi. Agarda o'quvchi shunga o'xshash aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, u holda o'qishdan ko'ngli soviydi, umidsizlanish tuyg'usi, hissi vujudga keladi. Shuning uchun o'qituvchi bunday holning oldini olish maqsadida bola bilan ta'limning o'yin faoliyatidan farqi, qiziqarliligi yuzasidan ma'lumot berishi va shu faoliyatga uni puxtaroq, jiddiyroq tayyorlashi maqsadga muvofiq. Bu bilan o'qituvchi borliqni bilishga nisbatan jiddiy munosabatni ularda ehtiyoj sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Psixolog L.S.Slavina tadqiqotiga ko'ra, boshlang'ich sinflarda bilish faoliyati yetarli darajada shakllanib bo'lmagan, aqliy jihatdan nomustaqil o'quvchilar mavjuddir. Olimaning fikricha, o'qish va o'yin faoliyatlarida ularni fikr va mulohaza yuritishga o'rgata borish natijasida muvaqqat turg'unlikning oldini olish mumkin.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining dastlabki natijalari uning boshqa materillarni egallash sari yetaklaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat faoliyati mahsuli shodlik, quvonch va amaliy (lazzatlanish) his-tuyg'usini keltirib chiqaradi. Hatto ayrim o'quvchilar u yoki bu obyekt, mavzuni bir necha marotaba o'qishni ham yoqtiradilar. O'qish faoliyatiga nisbatan qiziqish, moyillik keyinchalik predmetning mazmuniga qiziqishni vujudga keltiradi, balkim bilim olish ehtiyojini tug'diradi, qolaversa, unda o'qish motivlarini tarkib toptiradi.



Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy aloqadordir. Ushbu his o'qituvchining rag'batlantirishi orqali namoyon bo'ladi, yanada samaraliroq ishlash mayli, xohishi, istagi, ishtiyoqi o'quvchida shakllanadi. O'quvchida paydo bo'layotgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash ishiga xizmat qiladi. Shuning uchun rag'batlantirish (jazolash) o'z me'yorida bo'lgan taqdirdagina uning tarbiyaviy qiymati hamda ta'sirchanligi ortadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash uning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini tarkib toptiradi. Maktab amaliyotida ko'pincha bolani og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho taassurotida o'z faoliyatini faollashtiradi. Ijodiy izlanishga harakat qiladi. Hatto o'quvchi dastlabki davrda "yaxshi" yoki "yomon" bahoning farqiga ham bormaydi, ko'proq uni nechta baho olganligi qiziqtiradi, xolos. Bu yoshda bola bahoning mohiyatini tushunib yetmasa—da, lekin o'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun muhim rol o'ynaydi.

Yirik pedagog va psixolog olimlar B.A.Suxomlinskiy, Sh.A.Amonashvili va ularning shogirdlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib kelishi nuqtayi nazarini yoqlaganlar. Ma'lumki, faqat baho uchun o'qish bilimning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishga olib keladi. Lekin bilimni tekshirishni boshqa usul va vositalarini qo'llash (masalan: reyting, shkala, ballar) hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki baholashning bola kamoloti uchun ahamiyatini qat'iy ravishda inkor qilish ham oqilona vosita emas, modomiki, shunday ekan, baholashdan maslahat, yo'llanma, tavsiya, ko'rsatma sifatida foydalanish ijobiy omil vazifasini bajara oladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan yana bittasi— bu o'qituvchi shaxsiga nisbatan ishonch hissi va yuksak obro' tuyg'usining mavjudligi. Shuning uchun o'qituvchi bolaga tarbiyaviy, ta'limiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati shunday kattaki, uning



siyimosida aql idrokli, tiyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson gavdalanadi. O'qituvchi siyimosida o'quvchilar ezgu niyati, orzu istagi, istiqboli, ajoyib va g'aroyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi kamolot cho'qqisidagi shaxsni tasavvur qiladilar. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lari, tanish bilishlarining nufuzi keskin pasayadi. Go'yoki borliqning absolyutligi, haqiqat o'lchamining namunasi, zakovatning yuksak cho'qqisi, odob nazokatning avval boshi o'qituvchida o'z ifodasini topgandir. Ana shu sababdan ular o'qituvchi xulqini muhokama qilishga yo'l qo'ymaydilar, uning har bir so'zini qonun tariqasida qabul qiladilar va bu yo'lda o'zlarini haq deb hisoblaydilar. O'quvchining psixik jihatdan taraqqiy qilishi oqibatida o'qituvchining mutlaqligiga munosabati biroz o'zgaradi, buning asosiy sababi unda ongli xatti-harakat ehtiyojining tug'ilishi hisoblanadi. O'quvchida turmush va borliqqa nisbatan bir talay muammolar, savollar vujudga keladi, hamma narsa hayotda u o'ylaganday emasligiga ishonch hosil qiladi va bundan qanoatlanadi, shubhalanish, ikkilanish hislari paydo bo'ladi. Bu muammolarga o'zi mustaqil javob topishga intiladi, natijada savol bilan boshqa odamlarga murojaat qilishga qaror qiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi obro'sidan oqilona foydalanib, o'quvchida uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat, diqqatni boshqarish, xulqni idora qilish, o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga tasalli berish fazilatlarini shakllantirish va intilish, faollik tuyg'ularini vujudga keltirish ta'lim jarayonida yuqori samara beradi. Pedagogik odob (takt) nazorat nuqtayi nazaridan o'qituvchi obro'sini o'quvchilar davrasida to'kish yoki shaxsiyatiga tegish, mazax qilish mutlaqo mumkin emas.

Odatda, o'quvchilar o'rtasida obro' orttirish uchun bir nechta tarkibiy qismlarini yaxlit bir timsol sifatida, mujassamlashtirish maqsadga muvofiqdir:

- a) o'qituvchida kasbiy qobiliyatlarning mavjudligi;
- b) uning dilkashligi va boshqa xislatlarga ega bo'lishligi;



d) o‘quv predmetlarini chuqur egallaganligi;
g) o‘qituvchi bilim saviyasining chuqurligi va ko‘lamining kengligi;

v) o‘qituvchining vijdonligi, adolatgo‘ylik fazilatlarini, uning statusi va rolining maqsadga muvofiq ravishda turmush jabhalarida namoyon bo‘lishi, obro‘sini yanada yuksaltiradi. Chunki soxta obro‘ orttirish sun‘iylikni keltirib chiqaradi. Bu ta’lim jarayonida yo‘l qo‘yish qator nuqsonlarni yuzaga keltiradi.

O‘quvchi tevarak-atrofdagi voqelikning belgi, alomati va xususiyatlarini, ularning xossalarini, qonuniyatlarini va o‘zaro bog‘lanishlarini bilish faoliyatida hamda ta’lim jarayonida tushuna boradi, fikr yuritish faoliyatida esa ham miqdor, ham sifat o‘zgarishi yuzaga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishini yirik psixolog L.S.Vigotskiy tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan. Shuning uchun u ajnabiy psixologlarning (birinchi navbatda J.Piajening egosentrik konsepsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod yordamida o‘rganishni tavsiya qiladi. L.S.Vigotskiy psixologiya faniga inson kamolotining “Eng yaqin taraqqiyot zonasi” va “aktual faoliyat zonasi” deb nomlangan tushunchalarni olib kiradi. Uning birinchisi o‘qituvchining bevosita rahbarligida oshirilsa, ikkinchisi o‘quvchining mustaqil faoliyatida namoyon bo‘ladi.

P.P.Blonskiy mazkur yoshdagi o‘quvchilar tafakkurining o‘sishiga xotiraning taraqqiyotini, tafakkurning ta’sir etishini genetik metod yordamida ochib beradi. Ayniqsa, tafakkurning “intizomlilik” sifatining namoyon bo‘lishini inson tomonidan tafakkurni boshqarish va nazorat qilish faoliyatidan aniqlash mumkinligini P.P.Blonskiy alohida ta’kidlaydi. N.A.Menchinskaya tafakkur muammosini chuqur o‘rganib, uning taraqqiyot ko‘rsatkichlarining quyidagi jihatlarini o‘rganishda ko‘radi:

1) bilimlarni o‘zlashtirishning tezligi;



- 2) fikr yuritish jarayonining epchilligi;
- 3) tafakkurning mavhum hamda yaqqol jihatlarining o‘zaro aloqa;
- 4) analitik–sintetik faoliyatning turli darajalari kabilar.

Muallif tafakkur taraqqiyoti belgilari sifatida o‘quvchilarda bilimlar fondining ortishi, aqliy faoliyat usullarining egallanishi hamda ta’lim jarayonida ularda uquvchanlik qobiliyatining paydo bo‘lishini sanab o‘tadi. Bu narsalarning barchasi kichik maktab yoshidagi o‘zlashtirishi past o‘quvchilarida tajribadan o‘tkaziladi hamda ular muayyan mezonga asoslanib guruhlarga ajratadi.

Ukrain psixologi G.S.Kostyuk tafakkurning rivojlanishini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olingan materiallarning mazmunidan, sinaluvchilarning o‘quv faoliyatini, topshiriqlarning bajarish shakllari sifat jihatdan o‘zgarib borishini e’tiborga olishda ko‘radi. A.A.Lyublinskaya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri to‘g‘risidagi ma’lumotlarida ularda mazkur jarayonning rivoji ko‘p jihatdan analitik–sintetik faoliyatiga bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bu faoliyat birlamchi sintez va analiz, ikkilamchi sintez hamda yaqqol harakat analiz va sintez kabi tarkiblardan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Bundan u yosh davrda yaqqol–harakat, yaqqol obrazli va so‘z–mantiq yoki nazariy tafakkur bosqichlarini bosib o‘tish to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Taniqli psixolog L.V.Zankov kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish maqsadida o‘zining ta’limiy tizimini ishlab chiqadi. Mazkur ta’lim tizimi ushbu o‘qitish tamoyillariga asoslanadi:

1) ta’lim jarayonini yuqori darajadagi murakkab vaziyat asosida uyushtirish;

2) ta’lim jarayonida o‘quvchilarga berilishi nazarda tutilgan bilimlarning nazariy salmog‘ini maksimal darajada ko‘paytirish;

3) mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish faoliyatini rejalashtirish singari faoliyatni boshqarish usullarini o‘quvchilarda tarkib toptirish.

Bunday ta’lim tizimida o‘quvchilar chuqur va mazmundor bilim olish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning aqliy faolligi ortib,



mavhum (abstrakt) tafakkuri rivojlangan, aqlan o‘sgan, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabati vujudga kelgan va hokazo.

O‘quvchida maktabga kelgan kunidan e‘tiboran ta‘lim jarayonida ilmiy tushunchalar va tasavvurlar miqdori soat sayin orta boradi, u asta-sekin o‘zlashtirayotgan tushuncha va tasavvurlarning asl ma‘no – mohiyatiga tushuna boshlaydi. Umuman, o‘quvchida fikr yuritish doirasi, ko‘lami va mazmuni kengaya boradi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar o‘quv ko‘nikmalari va malakalarini egallash orqali o‘zlarining bilim ko‘lamini kengaytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma‘nosi ular ongiga singib boradi. Bu ishlarning hammasini izchillik bilan, ketma-ket, bir tekis amalga oshirish uchun o‘quvchilar ma‘lum darajada bilim va ko‘nikmalarni egallagan, qolaversa, tafakkur shakllari va mantiqiy fikr yuritish qoidalarini o‘zlashtirib olgan bo‘lishlari kerak. Ammo maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan bolaning bu narsalardan talabga javob beradigan darajada xabari bo‘lmaydi. Ular bularning barchasiga o‘qish jarayonida bevosita o‘qituvchi rahbarligi ostida erisha boshlaydilar. Jumladan, o‘qituvchi izohli o‘qish darslarida o‘quvchilarga uy hayvonlari yoki yovvoyi hayvonlar, jonivorlar, yirtqichlar va zararkunandalar, hasharotlar, foydali qushlar, yil fasllari, o‘quv qurollari, uy jihozlari, mebellar, sport anjomlari haqida so‘zlab berar ekan, ularning muhim xususiyatlari, alomatlari, belgilari, xossalari va o‘zaro bog‘lanishlarini tahlil qilib beradi. Bundan tashqari, ularning o‘xshashlik, umumiylik belgilarini va tafovutlarini o‘quvchilarga aniqlab ko‘rsatadi. Bu surunkali olib boriladigan ta‘limiy jarayon natijasida tafakkur mahsuli sifatida o‘quvchilarda uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, o‘quv qurollari mebel va boshqa tushunchalar tarkib toptiriladi. Ular bulardan tashqari, yil fasllari, hasharotlar, o‘simlik, bargli daraxtlar kabi qator tushunchalarni o‘zlashtiradilar, ularning mohiyatiga to‘laroq tushunib yetadilar. O‘quvchilarga borgan sari yangidan yangi masalalar, topshiriqlar va vazifalar yuklatilib, ularning barchasini mantiqan hal qilish, fikr yuritish vositalari



yordamida oqilona yechish talab qilinadi. Bolalar ona tili darslarida grammatik kategoriyalarga amal qilib, ot soʻz turkumini turlashi, ularni guruhlarga ajratishi, klassifikatsiya qilishi lozim. Yuqoridagi fikrlar sifat, son, feʼl singari grammatik kategoriyalarga taalluqlidir. Oʻquvchilar matematika darslarida boʻlinuvchi, boʻluvchi, boʻlinma, koʻpayuvchi, koʻpaytiruvchi, ayirma, yigʻindi, tenglik, tenglama, katta va kichiklik belgilari toʻgʻrisida tushunchalar bilan tanishadilar. Ularning bu tushunchalarni bir-biridan farqlashlari esa navbatdagi kamolotga daxldor vazifa hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda ilmiy tushunchalarni toʻgʻri tarkib toptirish uchun oʻqituvchi bola tafakkurining rivojlanish xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini puxta anglab olgan boʻlishi kerak. Fikr yuritish operatsiyalarining psixologik asoslari va mexanizmlarini bilmasdan turib, u bularni oʻquvchilar ongiga singdira olishi mumkin emas.

Tushunchalarni shakllantirishning asosiy manbalaridan biri ularni umumlashtirishdir. Umumlashtirish operatsiyasining muhim sharti narsa va hodisalar oʻrtasidagi umumiylik, oʻxshashlik, oʻziga xos xususiyat, bogʻlanish va oʻzaro munosabatlarning muhim belgilarini topishdir. Borliqdagi narsa va hodisalarning muhim belgilari boʻyicha umumlashtirishdan oldin oʻquvchi oʻsha oʻquvchi voqelikni koʻzga yaqqol tashlanib turgan tashqi belgilari boʻyicha umumlashtirishni bilishi kerak. Buni hissiy bilish orqali yaqqol umumlashtirish deyiladi. Bu davrga kelib narsa va hodisalarning tashqi belgisi, asosan, umumlashtirish oʻquvchi bilimi qobigʻiga sigʻmay qoladi. Endigi navbat oʻqitish jarayonida ularning bilim saviyalariga mos keladigan umumlashtirishni yuqoriroq darajaga koʻchirishni taqozo etadi.

Oʻquvchilarning umumlashtirish faoliyati oʻqitishning turli bosqichlarida faqat oʻxshashlik belgisi asosiga qurilgan boʻladi. Keyinroq narsa va hodisalarning tashqi sifati hamda xususiyatiga taalluqli belgilarni, guruhlarini ajratishga, klassifikatsiya qilishga suyanadi. Boshlangʻich maktabning oxirida, oʻquvchilar narsa va



hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, ularning ichki murakkab bog‘lanishlari va munosabatlarining muhim belgisiga asoslanib umumlashtirishga ko‘chadilar.

Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari buyumlarning o‘ziga beixtiyor tortuvchi tashqi belgilariga tayanib fikr yuritishni amalga oshiradilar: o‘quvchi quyosh, momaqaldiroq, sigir, avtomobil, qush va boshqa narsalar to‘g‘risida fikr yuritishi davomida “quyosh yoritadi, isitadi...”, “momoqaldiroq guldiraydi, chaqmoq chaqnaydi”, “qush sayraydi”, deb mulohaza yuritadi. Ularning har turli “sigir sut beradi”, “avtomobil yuk tashiydi”, “qushlar uchadi” singari muhokamalarida dastavval buyumlarning xilma–xil harakatlari va ularga nisbatan berilgan harakatlar vujudga keladi.

Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari jism hamda predmetlarning muhim ichki belgilarini bevosita aniqlash kezida qiyinchiliklarga duch keladilar. Chunki ular muhim bo‘lmagan (nomuhim), umumiy xususiy, yagona singari termin hamda tushunchalarni anglab yetmaydilar. Bilish jarayoni ko‘pincha tashqi belgilarga, yaqqol alomatlarga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun kichik maktab o‘quvchilari oldida murakkab vaziyat yuzaga kelib turadi. Bu kabi holatdan chiqish uchun ularning aqliy imkoniyatlari, turmush tajribalari yetishmaydi.

Gruzin psixologi R.G.Natadze tadqiqotlarining ko‘rsatishiga qaraganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kit va delfinni baliq deb hisoblaganlar, keyinchalik esa kitning havo bilan nafas olishi; sut emizuvchi hayvon ekanligi atroflicha tushuntirilganidan so‘ng ham o‘z shaxsiy fikrini to‘la–to‘kis o‘zgartirmaganlar, ya’ni sinaluvchilarning ko‘pchiligi eksperimentator fikriga ishonqiramay o‘z qaraganlaricha qolganlar. Bu yaqqol omil yana bir marotaba mazkur yosh davrdagi bolalarda umumlashtirish jarayoni ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi tashqi belgilarning kuchli iskanjasi ostida sodir bo‘lishini tasdiqlab turibdi. Matematika yuzasidan topshiriqlarni bajarish kezida ham ularda ana shunday unsurlar yoki noto‘g‘ri umumlashtirish holati uchrashini kuzatish mumkin.



Shvetsariyalik psixolog Jan Piajening ko‘p yillik tajribalarining dalolat berishiga qaraganda, ushbu yoshdagi o‘quvchilar narsalarning o‘zgarishsiz qoladigan ba‘zi belgilarining doimiyligini darrov anglab ololmaydilar. Jumladan, agar xamirdan bir xil ikkita zuvala qilinib, so‘ngra ularning biridan kulcha yasalsa, 7-8 yoshli o‘quvchilar xamirning miqdori bir xilda bo‘lmay qoladi, deb hisoblaydilar, hajm o‘zgargani uchun zuvalaning og‘irligi o‘zgaradi, deya xulosa chiqaradilar. J.Piajening mulohazasiga binoan bu holat bola tafakkurining birdan bir eng asosiy o‘ziga xos xususiyatidir.

Xuddi shu tadqiqotchining boshqa tajribalarida ko‘rsatishicha, o‘quvchilar turli belgilar ustida ishlaganlarida o‘zgarimas (doimiy) tushunchasini bir vaqtinich o‘zida egallab olmas ekanlar. Bolalar narsalar sonining o‘zgarimas tushunchasini 9-10 yoshda, hajmning o‘zgarimasligini esa faqat 11-12 yoshda tushunib yetadilar. Lekin XX asr oxiri va XXI asr psixologlarining ilmiy tekshirishlariga ko‘ra, J.Piaje olgan natijalar hozirgi davr talabiga javob bera olmaydi.

O‘quvchilar uchinchi sinfga o‘tganlaridan keyin o‘zlarining umumlashtirish, klassifikatsiyalash faoliyatlarida moddiy dunyodagi voqelik o‘rtasidagi eng muhim munosabat, uzviy zaruriyat va bog‘lanishlarini aks ettirishga qodir bo‘lgan ichki, murakkab belgilarga tayanib ish tutadilar. Jumladan, ular so‘z, havo, metall va boshqa jismlarning issiqdan kengayishi va sovuqdan torayishi xususiyatining muhim ahamiyatlari va jihatlariga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari, o‘simliklarning hayot kechirishi, rivojlanishi va ko‘payishi, shuningdek, voyaga yetishi kabi umumiy belgilarga suyangan holda “jonli tabiat” tushunchasini umumlashtiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikr yuritishlarini qiyoslash uchun ularning mulohazalaridan misollar keltiramiz: “Shaftoli daraxti issiq iqlimli joylarda o‘sadi” (1-sinf o‘quvchisi), “Paxta dalada o‘sadi, uni dehqonlar, jamoa xo‘jaligi a‘zolari yetishtiradilar, terib oladilar, so‘ng undan kiyim–kechak tayyorlaydilar” (2-sinf o‘quvchisi), “Qarag‘ay igna bargli daraxt hisoblanib, o‘rmonlarda o‘sadi,



qarag‘aylarda bujurlar mavjud. Qarag‘ay o‘rmonlarida olmaxonlar yashaydilar. Olmaxonlar bujurlarni chaqib ichidagi mevasini yeydilar. Qishda ko‘m–ko‘k turadi” (3 – sinf o‘quvchisi).

O‘quvchilarning yuqoridagi mulohazalaridan ko‘rinib turibdiki, jonli predmetlarga nisbatan bildirilgan alomatlarda aniqlik yetishmaydi. Muhim belgilar miqdori esa haddan tashqari kam. Ular o‘simliklarga tavsif berganlarida, daraxtlarning qaysi turga oidligi, qanday zonalarda o‘sishi, inson hamda hayvonot olami uchun qanchalik foyda keltirishini ta’kidlab o‘tadilar, xolos. Ammo birinchi darajali xususiyatlar, ichki bog‘lanishlar, qonuniyatlar va xossalar ahamiyatiga e’tibor berilmaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ta’lim jarayonida qator ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirib olsalar–da, lekin o‘tgan darslarda o‘zlashtirilgan turli belgilarni qorishtirib, chalkashtirib yuboradilar. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilarda tushunchalar tarkibiga kiruvchi narsa va hodisalar bilan ularning belgi hamda alomatlari o‘rtasida uzviy bog‘lanish tarkib topmagan bo‘ladi. Shuningdek, ular ilmiy tushuncha bilan turmushda iste’mol qilinadigan noilmiy (mahalliy) tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni to‘la ajratib ololmaydilar.

I–IV sinf o‘quvchilari tushunchalarni yuqori darajada o‘zlashtirishga erishishlari uchun, birinchidan, keng ko‘lamdagi bilimlar doirasiga asoslanib, voqelikning umumiy, muhim va xususiy belgilarini ajrata bilishlari, ikkinchidan, ana shu belgilar o‘rtasidagi ma’lum munosabatlarni, bog‘lanishlarni aniqlay olishlari, uchinchidan, sodda tarzda bo‘lsa ham hukm va xulosa chiqarishlari, to‘rtinchidan, ularning operatsional hamda funksional tomonlarini ajratishlari shart.

Ko‘pgina tushunchalar, jumladan, baland-past, uzoq-yaqin, kam-ko‘p, katta-kichik, yo‘g‘on-ingichka va boshqalar dastavval voqelikdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarini bevosita idrok qilish asosida o‘zlashtiradilar. Keyinroq esa umumlashtirish jarayonida son tushunchasida ifodalangan bilimlarning miqdor munosabatlariga asoslana boshlaydi.



Biroq kichik maktab yoshidagi o‘quvchilari uchun fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni o‘zlashtirish juda qiyindir. Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari uzunlik o‘lchov birligini o‘zlashtirishda qiynaladilar. Chunki ular uzunlik o‘lchovining asosiy belgisi, uning uzunligini ajratishni bilmaydilar. Bu yoshdagi o‘quvchilar “metr” tushunchasini buyum shakli bilan bir deb hisoblaydilar. Boshqacha so‘z bilan aytganda, metr deganda abstrakt (mavhum) tushunchani emas, balki uning yaqqol (konkret) ko‘rinishi (yog‘och metr, buklanadigan metr, materialdan qilingan metr va boshqalarni) nazarda tutadilar. Tushunchalarning kelib chiqishi ularni deyarli qiziqtirmaydi.

O‘quvchi uchinchi sinfga o‘tganidan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni anglay boshlaydi. Chunki ta‘lim jarayonida ularning fazo to‘g‘risidagi tushunchalari kundan kunga reja, masshtab, chizma–yoyma va shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan ko‘paya boradi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi I–II sinfda “vaqt” tushunchasi bilan tanishadi, lekin u kundalik turmush tajribasi doirasidan tashqari chiqmaydi. III–IV sinf o‘quvchilarida esa tarixiy mavzuga oid kitoblar o‘qish tufayli “soat” “hafta”, “oy”, “yil”, “asr”, “ming yillar” “uzoq o‘tmish” kabi tushunchalar shakllana boradi. Lekin bu o‘quvchilarda ham katta vaqt o‘lchovini kichik vaqt miqdoriga tushirib qo‘yish, o‘tgan zamonni hozirgi zamonga yaqinlashtirish hollari tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun ikki xil tarixiy voqea to‘g‘risida fikr yuritishsa, sanadagi tafovutni “sal undan keyin yoki sal ilgariroq” deya izohlaydilar, xolos. Aslida esa o‘n ming yillar oralig‘i ichida ro‘y bergan hodisa haqida fikr yuritiladi.

Bu davrda aqliy xatti–harakatlarni egallash ketma–ket bosqichlarni bosib o‘tadi. O‘quvchilar tafakkurining taraqqiyotidagi mazkur bosqichlarning ketma–ketligi hamma fikr yuritish jarayonlarida ham bir xil bo‘lavermaydi. Chunki o‘quvchilar ma‘lum sharoitda egallagan aqliy harakatni boshqa–boshqa sharoitda bajara olmaydi. O‘zlashtirilgan aqliy faoliyat usullari, ko‘nikma va odatlarni yangi



sharoitga ko‘chira bilmaydilar. Buning asosiy sababi ularda mavzularga bog‘langan tasavvur obrazlarining shakllanmaganligidir.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning muhokamasi ular egallagan bilimlari evaziga, anglashilganlik xususiyatining mavjudligidan oddiy shakldan asta–sekin murakkab shaklga o‘tib o‘tadi. Ammo ushbu ichki murakkab jarayon bir talay qiyinchiliklarni yengish tufayli namoyon bo‘ladi. Sistemali bilimlarni egallashga o‘quvchi tomonidan qiziqish uyg‘onishi har qanday qiyinchiliklarni yengishga yetaklaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim doirasi kengaya borgan sari, ta‘lim subyektlari fikrlashi qat‘iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko‘cha boshlaydilar. Chunki ular narsa va hodisalarning, xususiyat, qonuniyat va xossalarning turli jihatlariga ega ekanligini, voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan kelib chiqmasdan, balki ko‘plab sabablar, ta‘sirlar, qo‘zg‘ovchilar natijasida paydo bo‘lishini anglab olish bosqichiga ko‘tariladilar.

Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo‘la boshlaydi. Mazkur sinf o‘quvchilari “Nega bugun falonchi darsda ko‘rinmaydi”, balki kasal bo‘lib qolgandir, dars tayyorlay olmagani uchun kelmagandir, o‘qituvchining biror topshirig‘i bilan ketgandir, bog‘chada yordam berayotgandir, nafaqaxo‘rlarga yordam berayotgandir”, deya gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar.

Uchinchi sinfdan boshlab o‘quvchilar turli vaziyatlarni ashyolar asosida dalillab berishga o‘tadilar, buning sababi shuki, ularning bilimi kundan kunga osha boradi. Natijada, ma‘lum bilimlar tizimi hosil bo‘ladi. Ular bu davrga kelib o‘z hukmining chin yoki yolg‘on ekanligini anglab yetadilar. Ulardagi bevosita muhokama qilish, dalil keltirish holatlari isbotlashning shartli tuzilmasiga asoslanib, fikr yuritishga o‘tadi. O‘quvchilar narsa va hodisalarning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash paytida masala va savol qo‘yishdan tashqari, muammoli vaziyatni hal qilishga odatlana boshlaydilar.



O‘quvchilarda nazariy tafakkurni tarkib toptirishda matematika masalalarini yechish, grammatik kategoriyalarni o‘zlashtirish va murakkab chizmalar bilan tanishtirish kabi hollar muhim rol o‘ynaydi. Albatta, ular mana bu jaryonlarda turli muhokama, munozara, mantiqan asoslash usullarini egallaydilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning rivojlanishi ta‘lim jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi. Xulosa chiqarish dastavval bevosita idrok qilinayotgan yaqqol predmetlar asosida vujudga keladi. Bu o‘quvchilarda bevosita kuzatish, idrok qilish jarayonlarida narsa va hodisalarning munosabatini, bog‘lanishlarini aks ettiradigan xulosa chiqarish imkoniyati tug‘iladi. Keyinchalik esa ularda mavhum shart-sharoitlardan kelib chiqqan xulosa chiqarish turi paydo bo‘ladi. Bu hol ko‘rsatmalilik, sxemalar, chizmalar, rasmlar va tanish misol hamda masalalar, hodisalarga asoslanish paytida o‘z ifodasini topadi. Biroq mavhum xulosa chiqarish, ya‘ni abstrakt (mavhum) tushunchalarga asoslanib xulosa chiqarish ushbu yoshdagilarda hali odat tusiga kirmagan bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun sabab–oqibat munosabatlari ifodalovchi narsa va hodisalar to‘g‘risida ta‘rif berish hollari juda murakkab hisoblanadi. Psixolog M.N.Shardakov ishlarida ko‘rsatilishicha, uchinchi sinf o‘quvchilari jismlarning kengayishi isitishga bog‘liq ekanligini anglab yetganlar, ammo barcha jismlarning issiqdan kengayishi to‘g‘risida xulosa chiqara olmaganlar. Ular alohida olingan jismlarning issiqdan kengayishi hodisalarini tushuntirib berganlar, lekin ulardagi umumiylikni, o‘xshashlikni topa bilganlar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar deduktiv xulosa chiqarish usulini o‘zlashtira borib, yangi dalillar, ichki bog‘lanishlar va munosabatlarni tushuntirishda o‘zlarining oldin egallagan bilimlarini, umumiy qonun va qoidalarni to‘g‘ri qo‘llash malakalarini rivojlantira boradilar. O‘quvchilarning ta‘lim jarayonida bilimlar tizimini barpo qilish jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim rol



o‘ynaydi. Agar tahlil qilish analiz va sintez bo‘lmasa, hatto psixik faoliyatning oddiy shakllari sezgi va idroklarning bo‘lishi ham mumkin emas. Ana shu analiz va sintez birgalikda kelgandagina voqelik to‘g‘risida mukammal va har tomonlama haqiqiy bilim olish mumkin. O‘quvchi analiz jarayonida yaxlit narsani bo‘laklarga ajratib ularning munosabatlarini aniqlaydi, sintezda esa uning aksini ifodalaydi, ya’ni shu bo‘laklarning yaxlit buyumga nisbatan aloqasini belgilaydi. So‘zlarning gaplar, gaplardan esa yirik axborotlar va nihoyat asarlar vujudga keladi: g‘ishtdan imorat, tomchilardan ko‘l barpo bo‘ladi.

Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari ko‘rsatmalilik va harakatga asoslangan analiz operatsiyasi bilan yaqindan tanish bo‘ladilar. Bu yoshdagi o‘quvchilar fikrlashning bevosita idrokka va yaqqol materiallarga asoslangan analitik-sintetik bosqichida bo‘ladilar. Birinchi sinf o‘quvchilari qirqilgan harflardan foydalangan paytlarida so‘zidan harf, gapdan so‘zlarni bemalol ajrata oladilar. Ko‘rsatmali harakat analizi, ayniqsa, matematika darslarida yorqin namoyon bo‘ladi. Masalan, birinchi sinf o‘quvchisi barmoq tayoqchalar, doira va har xil geometrik shakllarga, ko‘rsatmali qurollarga asoslanmasdan turib, matematik amallarni yoki misol va masalalarni yecha olmaydi.

O‘quvchilarning harflar belgisini o‘zlashtirish vaqtidagi analizi ko‘rish ifodasidan eshitish va fikr yuritish ifodasiga o‘tishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Odatda, so‘z ovoz chiqarib o‘qilmaguncha, uning tarkibga kiruvchi analiz qiyinlashadi. Ba’zi zamonaviy psixologlarning aniqlashicha, “o‘z ichida” pichirlab o‘qish xatolar miqdorini ko‘paytirib yuborar emish. Shuning uchun ham ana shu olimlarning ta’biri bilan aytganda, pichirlab o‘qish o‘quvchilarning analitik–sintetik aqliy faoliyatini bo‘sh, kuchsiz qilib shakllantiradi, degan asosli fikrlar mavjuddir. Ikkinchi bir tomondan, bunday mulohazalarga nisbatan e’tiroz bildiruvchi psixologlar ham uchraydi.

Birinchi sinf o‘quvchilaridan politexnik ta’limga oid konstruktiv topshiriqlarni bajarishni talab qilsa, u holda hech bir analiz qilmasdan,



hatto xomaki rejalashtirmasdan turib amaliy ishga kirishishning guvohi bo‘lamiz. Shu tufayli faoliyatni amalga oshirishda berilgan har qanday savol ularni anglashmovchilikka olib keladi. Chunki ular o‘z tashabbuslari bilan qanday analiz qilish kerakligini hali anglab yetmagan bo‘ladilar.

O‘quvchilar ikkinchi sinfga o‘tganlaridan keyin narsa va hodisalarni mexanik harakatlarsiz, nutq orqali analiz qilishga o‘rganadilar. Bunday darajada bo‘lish bola nutqining rivojlanishi hamda bilim asosining ortishini ta‘minlaydi.

O‘quvchilarda uchinchi sinfdan boshlab amaliy analiz qilish o‘rnini nazariy analiz egallay boshlaydi va asta–sekin tizim tusiga kirib boradi. Dastavval aqliy analiz unsurlari amaliy analiz bilan aralashgan holda uchraydi. Masalan, o‘quvchilar tashqi ko‘rinishi bir–biriga o‘xshash turli bilim va hodisalarni analiz qilish paytida bevosita idrokka bog‘lanib qolmasdan, balki ular to‘g‘risida yig‘ilgan bilimlarni ham ishga soladilar.

Hozirgi kundagi murakkab o‘quv dasturi analiz jarayonida ixtiyoriy esda olib qolish zarur bo‘lgan masala va misolni anglash uchun muhim hisoblangan unsurlarni bo‘laklarga ajratishni taqozo etadi. Demak, analiz narsalar to‘g‘risidagi tasavvurlar bilan uzviy aloqada bo‘lish zarur. Lekin analitik-sintetik faoliyatning ushbu turi

1-2 sinf o‘quvchilari uchun o‘qituvchining rahbarligisiz amalga oshishi hali mashaqqatli hisoblanadi. Chunki 1-2 sinf o‘quvchilariga tasavvur bo‘yicha analiz qilish topshirilsa, u holda ular, albatta, narsa va hodisalar haqida mayda hikoya qilib berish bilan cheklanib, anglash jarayoni esa qolib ketadi. Shu sababdan o‘qituvchi masalani hal qilishda nimasini ajratish kerakligi to‘g‘risida ularga ko‘rsatma berib borishi shart. Ba‘zan 3–sinf o‘quvchilarida abstrakt (mavhum) aqliy analiz kurtaklari hosil bo‘la boshlaydi. Bu sinfdan o‘quvchilarning tushunchalarni asta–sekin voqelikning ichki bog‘lanishlari va asosiy xususiyatlarini umumlashtirish asosida shakllanadi. O‘quvchilarning fikr yuritishlarida aqliy analiz va sintez jarayonlarini umumlashtirish



darajasiga ko‘tarilishi faqat o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Ammo kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar jamiyat va tabiat qonunlarini aks ettiruvchi murakkab tushunchalarni egallashdan ancha yiroq bo‘ladi.

Sinfdan sinfga o‘tish bilan predmetlar miqdorining ortishi natijasida abstraksiyalash faoliyati o‘quvchilarda yanada jadal sur‘atlar bilan rivojlanadi. Chunki o‘qitilayotgan har bir fanda mavhumiylik, albatta, uchraydi va u o‘quvchilar ongiga singdirib boriladi.

O‘quvchilar analiz va sintez qilish hamda taqqoslashni mashq qilish natijasida narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy belgilardan ajratishni o‘rganadilar, shu tariqa o‘zlarining abstraksiyalash faoliyatini rivojlantiradilar. Konkretlikdan abstrakt holatga o‘tish va abstrakt holatdan konkretlikka ko‘chishni takomillashtirish zamirida mazkur fikriy operatsiyalar shakllanib boradi.

O‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirib olishda va tug‘ri xulosa chiqarishda umumlashtirishning roli benihoyat kattadir. O‘qishning dastlabki bosqichlarida o‘quvchilar narsa va hodisalarni faqat tashqi belgisiga, yaqqol ko‘zga tashlanadigan belgisiga qarab umumlashtiradilar. Lekin umumlashtirishning bu oddiy shakli so‘nggi ta’lim bosqichlarida uncha yaroqli bo‘lmay qoladi. Chunki o‘quv materialining eng muhim belgisi asosida ichki bog‘lanish va munosabatlarni aniqlashga to‘g‘ri keladi, ammo bu ishlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darrov uddalay olmaydilar. Buning uchun ularda umumlashtirish faoliyatini yanada taraqqiy ettirishi kerak. Buning uchun o‘quvchilar bilan uzluksiz mashg‘ulot olib borish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundagina ular uchun bilimlar tizimini o‘zlashtirish birmuncha yengil kechadi. Ma’lumki, ta’lim jarayonida tushuncha va qonuniyatlarni nomuhim belgisiga binoan egallash hollari tez–tez uchrab turadi. Bu hol esa o‘quv materiallarni o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi, shuning uchun o‘qish faoliyatida ularda qiynalishlik hissi paydo bo‘ladi. Biroq mazkur qiyinchilikdan qutulish imkoniyati mavjud. Buning uchun o‘quvchilar tushunchalarni to‘g‘ri



va oqilona yo‘l bilan umumlashtirish faoliyatini taraqqiy ettirish lozim.

Ukrain psixologi A.V.Skripchenko 1-2-sinf o‘quvchilarida umumlashtirish faoliyatini o‘rganishga oid qator tajribalar o‘tkazgan. Muallif kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning umumlashtirish faoliyati takomillashuvi 4 ta darajadan yoki 4 ta usuldan tashkil topgan, degan g‘oyani ilgari suradi, ya’ni bosqichma-bosqich o‘qishni o‘rganadi. Olingan natijalarning ko‘rsatishiga qaraganda, o‘qishning dastlabki kunlarida o‘quvchilarga mavjud bo‘lgan ko‘rsatmali amaliy umumlashtirish usuli, shu o‘quv yili oxiriga kelib ko‘rsatmali-so‘zli usulga o‘tadi. Turli predmetlar bilan turli ko‘rsatmali qurollarni ko‘rish, ekskursiyalarda o‘z ko‘zi bilan idrok qilish tufayli obrazli-so‘zli umumlashtirish usulli o‘tadi va o‘quv yilining oxiriga kelib tushunchali-so‘zli umumlashtirish usuli paydo bo‘ladi. Mazkur usulda mavhumlashning muhim unsurlar o‘z aksini topgan bo‘ladi.

O‘zbek psixologi N.N.Ne‘matov 1 - va 2- sinf o‘quvchilarida umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishi olib borgan. Muallif ta’lim jarayonini maxsus faollashtiruvchi usullarni qo‘llaydi. Tadqiqotchi o‘z kuzatishlarida o‘quvchilarga savollar berib, kitob o‘qitish paytida, suhbat mahalida suratlarni idrok qilishga, tevarak-atrofdagi vaziyatni kuzatish davomida uchraydigan narsalarni umumlashtirishga yordam beradigan maxsus usullarni tatbiq etadi. O‘tkazilgan tajribalarga asoslanib, o‘quv yilining oxiriga borib, eksperiment sinfi o‘quvchilarining umumlashtirish faoliyati darajasi nazorat sinflardagi o‘quvchilarning umumlashtirish faoliyati bilan taqqoslanilsa, eksperiment sinfida o‘quvchilarining umumlashtirish faoliyati ancha yuqori ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar fikr yuritish faoliyatini faollashtirish maqsadida tatbiq etilgan. Uslubiy usullar eksperiment sinfi o‘quvchilarining ona tilidan ulgurish darajasini oshirishga olib kelgan. 2-sinf o‘quvchilari bilan mana shu yo‘sinda olib borilgan tajribalar o‘xshash natijalarni



bergan. O‘quvchilarda mahalliy tushunchalar, terminlar miqdori keskin kamayganligi tajriba natijasida aniqlangan.

Biz olib borgan ishlarning yakuniga ko‘ra, ta‘lim jarayonida umumlashtirish usullarining boshqa turlari ham qo‘llanildi. Jumladan, fikrning umumiydan yakkaga, xususiyydan umumiyga, umumiydan xususiyyga yo‘nalgan usullari mavjud. Bizning tekshiruvlarimizga ko‘ra, maktab o‘qituvchilari o‘quvchilarga yangi bilim berayotganlarida ko‘pincha umumlashtirishning birgina usulidan unumli foydalangan holda faoliyat ko‘rsatadilar. Lekin hech vaqt ular buning umumlashtirish usuli ekanligini mutlaqo xayoliga keltirmaydilar. Ayniqsa, o‘qituvchilar bilan qilingan suhbat paytida dars deduktiv (yoki induktiv) metod yordamida olib borildi, degan mulohazalarni eshitish mumkin. Ammo ular yuqorida qayd qilib o‘tilgan ikkita metod xulosa chiqarishning ikki yo‘li ekanligini, ya‘ni tafakkur shakli ekanligini psixologik nuqtayi nazardan anglab yetmaydilar. Shuning uchun biz ularga umumlashtirish jarayoni tafakkur shakli emas, balki uning operatsiyasi bo‘lishini aytib o‘tishni lozim topib, bunday chalkashlikka barham berishga intildik.

Rossiya psixologiyasida D.B.El‘konin, V.V.Davidov va ularning shogirdlari, bir tomondan, N.A.Menchinskaya, Y.N.Kabanova–Myuller va ularning izdoshlari, ikkinchi tomondan, ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan umumlashtirishning amaliy va nazariy turlari ustunlik qilishi yuzasidan uzoq yillar ilmiy bahs ketdi. Bizningcha, o‘quv materiallarining o‘ziga xos xususiyatlarga qarab, har qaysi umumlashtirish usuli yuqori samara berishi turgan gap. Lekin u yoki bu yo‘l mutlaq ekanligini tan olish ham metodologik, ham amaliy–uslubiy xato bo‘lgan bo‘lar edi.

Birinchi sinf o‘quvchilarining tafakkuri quyidagicha rivojlantirilsa, so‘zsiz samarali natijalar berishi mumkin.

O‘quvchining “Bu nima?”, “Nega bunday?” degan savollariga o‘zi javob berishiga o‘rgatish kerak. Bu o‘rinda asosiy vazifa unga to‘g‘ri ko‘rsatma berish, uni mantiqiy xatolardan qutqarish, to‘g‘ri



mulohaza yuritishga ko‘maklashishdan iboratdir. Masalan: “5” raqami qanday bo‘laklardan tuzilgan? Bir juft so‘zdan tuzish mumkinmi? 3 va 2 sonini yaxlitlab ko‘r–chi? To‘rt tayoqchadan to‘rtburchak yasa–chi? Meva xususiyatini so‘zlab ber–chi? Yirtqich hayvonlar qanaqa bo‘ladi? Eshitgan cho‘pchagingdagi qahramonlarni sanab berchi?

Taqqoslash yordami bilan narsalaridagi o‘xshash va farqli tomonlar aniqlanadi. Taqqoslash kishi bilish faoliyatining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon orqali beshning uchdan kattaligi, sopolning chinnidan mo‘rtligi fikran solishtiriladi. Natijada, o‘quvchiga o‘xshash va tafovutli belgilar anglashilib boriladi va ular yuzasidan o‘quvchi ma‘lum xulosaga keladi, unga nimani nima bilan taqqoslash kerakligini o‘rgatish lozim, xolos. Aks holda, u qanday yo‘l tutishni bilmasdan dovdirab qolishi mumkin.

Mavhumlashtirish yaqqol narsalardan muhim tomonini fikran ajratib olish demakdir. Jumladan, o‘quvchi oq ko‘ylak to‘g‘risida so‘z yuritgan bo‘lsa, taklifimizga binoan, u qor, oq ro‘mol, ohak, oqlangan imorat haqida mulohaza yuritadi. Keyinchalik esa butunlay “oq” degan tushunchani o‘ylashi mumkin. Avval o‘qish kitobi, matematika, mehnat, o‘zbek tili, tabiatshunoslik tushunchalarini talaffuz qilib o‘rgangan bo‘lsa, asta–sekin ularni bir tushuncha bilan “kitob” deb mavhumlashtiradi.

Dunyodagi narsa va hodisalarni, jism va predmetlarni konkretlashtirish, yaqqollashtirish jarayoni mavhumlashtirish bilan mustahkam aloqada bo‘ladi. Yaqqol narsalar o‘quvchi uchun juda yengil fikr yuritishda ustun turadi. O‘quvchi hamma vaqt yaqqol narsa bilan mashg‘ul bo‘lishni yaxshi ko‘radi. Masalan, katta, uchburchak, hajm, go‘zal, harakat, elektr, parallel (yondosh) kabi mavhum tushunchalarni ular darrov tushunib ololmaydilar. Ularni yaqqollashtirgan taqdiridagina anglay boradilar. Katta ko‘cha, uchburchak taxtacha, besh litr sut, go‘zal o‘yinchoq, parallel temir yo‘l izlari va hokazolar to‘g‘risida ma‘lumot berilganidan keyingina o‘quvchilar yuqoridagi tushunchalar haqida taassurotga ega bo‘ladilar.



Ammo har qanday narsani ham yaqqollashtirish mumkin emas. Chunki bu narsa odat tusiga kirib borishi, ularda mavhum tushunchalar shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Ta'lim jarayonida bunday noxush odatdan iloji boricha saqlanish shart.

Umumlashtirish usuli o'quvchi fikr yuritishining shunday jarayonidirki, uning yordamida narsalar ma'lum aniq alomat asosida fikran birlashtiriladi. "Meva" orqali olma, shaftoli olcha kabilar to'g'risida fikr yuritsa, koshiq, cho'mich, tovoq so'zlarini jamlab "idish-tovoq" deb nomlaydi. Narsa va hodisalarni noto'g'ri umumlashtirish ham mumkin. Jumladan, so'z "uy hayvonlari" to'g'risida ketsa, birinchi sinf o'quvchilari qo'y, echki, sigir kabilar qatoriga sichqon, kalamush, mushuklarni ham qo'shib aytadilar. Shunday paytlarda o'quvchiga aniq va to'la tushuncha berib o'tmoq maqsadga muvofiq. Deylik, stol ustida traktor, raketa, samolyot o'yinchoqlari turibdi. U bu o'yinchoqlarni taqqoslash orqali yakka narsalarni umumlashtirib – "o'yinchoqlar" deyilishini angelaydi.

Kitob, daftar, qalam – o'quv qurollari; qo'g'irchoq, avtomobil, belkurakcha – o'yinchoqlar; shkaf, javon; stol, stul – uy jihozlari; uchburchak, to'rtburchak aylana – geometrik shakllar; ayiq, bo'ri, tulki, yo'lbars, arslon – yovvoyi hayvonlar; qarg'a, chumchuq, musicha – qushlar; buvi, opa, oyi, uka, aka, singil – oila a'zolari kabi so'zlar, tushunchalar orqali guruhlariga ajratishda, bola aqliy faoliyatini rivojlantirishda salmoqli turtki bo'ladi oladi. Shuning uchun ularni klassifikatsiyalashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf ta'limi jarayonida ayrim paytlarda hissiy–yaqqol yoki amaliy umumlashtirish usulini qo'llash hollari uchrab turadi. Bu hol, albatta, topshiriq talabiga binoan amalga oshiriladi. Narsa va hodisalarni klassifikatsiya qilish lozim bo'lib qolsa, ko'pincha, shu usuldan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki bunday chog'larda chuqur tahlil qilish, ulardan muhim belgilarni (alomatlarni) ajratish kabi murakkab jarayonlar talab qilinmaydi. Politexnik ta'lim darslarida mana shu xildagi qator vazifalarni berish mumkin. Jumladan,



turli hajmda yasalgan va turli rangda bo‘yalgan jismlardan bayram bezaklarini tayyorlash yoki boshqa narsalardan yashil o‘simliklar, yumshoq metallar, bezakli–akvarium baliqlar, odamsimon maymunlar, qushlar, “yig‘loqi” bolalar va hokazolarni tayyorlash mumkin.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar predmet va tushunchalarni muhim bo‘lmagan belgisiga asoslangan holda umumlashtirishni nazarda tutadilar. Ular hissiy–yaqqol umumlashtirish usuli yordamida vazifani bajarishga muvaffaq bo‘lganlar. Bolalar ularni “qizil”, “yaltiroq”, “yumshoq”, “bezakli”, “odamsimon” kabi belgilarga ajratib klassifikatsiya qiladilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, go‘zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki bu narsa milliy qadriyat va ruhiyatni tiklash jarayonida ta‘lim va tarbiya samaradorligini oshirish masalasidan kelib chiqadi. Mazkur muammoni o‘rganishda psixologlar oldida turgan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda boshlang‘ich ta‘limni ilmiy asosda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishlari zarur.

Ma‘lumki, o‘quvchi shaxsini shakllantirish faoliyatini namunali yo‘lga qo‘yish uchun dastavval ularning xarakter xislatlarini va shaxs fazilatlarini maqsadga muvofiq tarkib topganligi darajasini aniqlash ayni muddaodir. Har bir o‘quvchini axloqiy jihatdan aniqlagandan keyin alohida olingan subyekt bilan induvidual munosabatda bo‘lishi imkoni vujudga keladi.

8–10 yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy fazilatlarini beqaror, dunyoqarashi sodda, tashqi taassurotlarga tez beriluvchidir. Buyuk allomalar ta‘kidlaganlaridek, kishining xarakteri hammadan ko‘ra ko‘prok uning hayotidagi dastlabki bilimlaridan tashkil topadi va mazkur xislatlarida namoyon bo‘lgan sifat juda mustahkam o‘rnashadi va bolaning ikkinchi tabiatiga aylanadi.

Bolaning ikkinchi tabiatida ijobiy his, shaxs fazilatlarini tarkib toptirishda, yuksak axloqiy sifatlarni ularda shakllantirishda barcha



mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. O'quvchining ushbu yosh davrida o'qituvchining har bir aytgan so'zi, har bir xatti-harakati, ta'sir o'tkazish uslubi uning uchun haqiqat mezoni rolini o'taydi. Chunki o'quvchilar o'z o'qituvchisiga juda qattiq ishonadilar, uning fikr va mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatdan (taktidan) o'ta ta'sirlanadilar, qo'yan talablariga hamisha amal qiladilar. Ana shu boisdan pedagog tomonidan berilgan barcha vazifalar, yaratilgan muammoli vazifalarni bajarishga intiladilar, ularni o'z vaqtida ado etishga harakat qiladilar. O'qituvchiga yuksak ishonch, unga bevosita taqlid insonni inson tomonidan idrok qilishni identifikatsiya bosqichiga o'xshab ketadi.

Ayni shu davrdan boshlab:

- 1) o'qituvchining psixikasiga tashqi ta'sir ko'rsatish;
- 2) atrof-mikromuhitidagi kishilarga yordam berishga undash;
- 3) nima bilan shug'ullanish zarruriyati to'g'risida ko'rsatma va yo'llanma berish;
- 4) unga oddiy individual yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan burch hissini tushuntirish;
- 5) uni to'g'ri mulohaza yuritishga o'rgatish;
- 6) ijobiy his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini quvvatlash;
- 7) o'qilgan kitobni, tomosha qilingan kinofilmni, sinfda sodir bo'lgan voqeani, sayohat taassurotlarini birgalashib muhokama qilish;
- 8) o'quvchilarni noma'qul so'z va iboralardan tiyish, ixtilofning oldini olish;
- 9) tabiat manzaralarini quvvatlash va musiqa tinglash ko'nikmasini vujudga keltirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bu omillarning barchasi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarning to'g'ri bajarilishi, o'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbat uyushtirishi, muloqot o'rnatishi ularda chuqur taassurot qoldiradi va faollik ko'rsatish sari undaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning



axloqiy sifatlarini rivojlantirish jarayonida yuksak samaraga erishish uchun ularning yosh individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish taqozo qilinadi.

Ma'lumki, o'qituvchi turlicha psixologik xususiyatga ega bo'lgan yaqqol shaxs bilan shug'ullanadi. Shuning uchun biror bir o'quvchiga nisbatan muvaffaqiyatli qo'llangan interfaol ta'sir boshqa biriga kutilgan samara bermasligi mumkin. Binobarin, o'zgalarga ta'sir o'tkazish tadbirlari o'quvchi shaxsiga individual yondashish orqali amalga oshirilsa, yuqoriroq ko'rsatkichga erishiladi.

Ushbu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarning individual–tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqur o'rgangan bo'lsa, ularga shunchalik ta'sir o'tkazish kuchi sezilarli va samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ruhiy dunyosiga oqilona yo'l topa olish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mujassamlashgan axloqiy tushunchalarning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida boshlang'ich sinf subyektlariga o'quv yilining boshida (sentyabr oyining 3–haftasida) alohida savollar bilan murojaat qilindi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan aniqlovchi tajriba uchun "yaxshi" va "yomon" tushunchalari tanlab olindi. Ularning kundalik turmush sharoitida keng ko'lamda qo'llaniladigan tushunchalar bo'lganligi tufayli o'rganish rejalashtirildi. Axloqning alifbosi xuddi shu so'zlardan boshlanadi. Chunki mazkur tushunchalar zamirida insonning murakkab axloqiy qiyofasi, yuksak xislati, barqaror maslagi, negizi yotadi. Tajribalarda o'quvchilarning hukmiga havola qilingan savollar ularning yosh xususiyatlari va hayot tajribalarini hisobga olgan holda tuzildi.

Birinchi sinf o'quvchilarida yuqorida sanab o'tilgan axloqiy tushunchalar darajasini aniqlash muddaosi ila ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- 1). Nima yaxshi–yu, nima yomon?



2). O‘zidan kattalarga salom beradigan, ularning aytganlarini bajaradigan bolalar qanday bolalar?

3). ”Xo‘p” degani yaxshimi yoki “Yo‘q” degani yaxshimi? va hokazo.

Birinchi savolga 1–sinfnng aksariyat o‘quvchilari «Quyvon yaxshi bo‘ri yomon “Echki yaxshi, bo‘ri yomon” kabi javoblar beradilar. Ammo javoblar ichida o‘quvchi Y.M.ning javobi tengdoshlarinikidan mutlaqo tafovutlanib, mantiqiy izchillik asosida o‘z fikrini dalillab berishi ko‘zga tashlanadi: “Echki yaxshi – sut beradi. Tulki yomon. U bizni aldaydi”. Demak, u “yaxshi” tushunchasi uchun muhim belgi sifatida insonga foyda keltirish xislati ajratilgan bo‘lsa, “yomon” tushunchasi zamirida “aldash”lik alomati yotadi, ya’ni aldash salbiy illat ekanligini anglab yetadi. Uning yomon illatini o‘z vaqtida payqay olgan va hayvonlarga, qolaversa, odamlarga ziyon keltirishini asoslashga uringan. O‘quvchining mulohazasidan ko‘rinib turibdiki, birinchi savolga javob berishning o‘ziyoq, tajribada ishtirok qilgan o‘quvchilar ichida individual farqlar mavjuddir.

Ikkinchi savolga o‘quvchilar “yaxshi bolalar” degan umumiy javobni berganlar. Mazkur savolga deyarli hamma bolalar javob bera olgan bo‘lsa–da, lekin mulohaza yuritish ko‘lamining kengligi, javobning dalillarga boyligi bo‘yicha individual tafovut yuzaga keldi. Bunday bolalar savolga quyidagicha javob berishgan: “Yo‘q” degani – yomon, u aldaydi, topshiriqni bajarmaydi”. “Xo‘p” degani – yaxshi, u yordamlashadi”. O‘quvchilarning ko‘pchiligi mazkur savol munozarasida faol qatnashdilar, fikrlarining ravonligi, ma’lum darajada kengligi bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ayniqsa, M.ning mulohaza yuritishi o‘z sinfdoshlaridan har tomonlama, har jihatdan ustunlikka ega. Ba’zi aniqlangan dalillarga ko‘ra qizchanning oilasida farzandlarga nisbatan e’tibor va nazorat kuchli ekanligi, muloqot va shaxslararo fikr almashinish yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi aniqlandi. Ularning mulohazasiga ko‘ra, birinchi sinf o‘quvchilarida



axloqiy tushunchalar bo'yicha ayrim tafovut mavjudligi namoyon bo'ldi.

Ikkinchi sinf o'quvchilarida yuqorida qayd qilib o'tilgan axloqiy tushunchalar darajasini aniqlash uchun quyidagi savollar berildi: "Nima yaxshi-yu, nima yomon?", "Odobli bola deganda qanday bolalarni tushunasiz?" "Odob haqida qanday she'rlarni bilasiz?".

Birinchi savolga aksariyat o'quvchilar "Kattalarga quloq solish, onasiga yordamlashish, darslarni tayyorlash yaxshi". "Yolg'on gapirish, kattalarni aldash, dars tayyorlamaslik yomon". "Chumchuqni otmaydigan, yolg'on gapirmaydigan, kitoblarni yirtish yomon" kabi javoblarni berdilar. Olingan javoblarga ko'ra, 2-sinf bolalarining 1 – sinf o'quvchilariga nisbatan mantiq va mazmun jihatdan fikrlarni bayon qilish bo'yicha ustunligi sezilib turadi. Ular javoblarida "yaxshi" tushunchasining mohiyatini ochish kengayib borganligini ko'rish mumkin: quloq solish, yordamlashish, dars tayyorlash yoki chumchuqlarni otmaydigan, yolg'on gapirmaydiganlar – yaxshi. O'quvchilar "yomon" tushunchasiga qiyos berganlarida, quyidagi holatga e'tibor qiladilar: yolg'on gapirish, aldash, dars tayyorlamaslik; kitoblarni yirtish va boshqalar. Ularning mulohazalarining ko'rsatishicha, bildirilgan fikrlar aynan bir-birlarini takrorlashdan iborat emasligi ma'lum bo'ladi. Tushunchalarni to'g'ri anglashlariga qaramasdan, ularning mohiyatini ochishda o'quvchilar o'rtasida muayyan darajada farqlar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Ikkinchi savolga 2-sinfning o'quvchisi Umida ushbu tarzda javob berdi: "Ukasining sochidan tortmaydi. Toza polni iflos qilmaydi". M.ning fikricha, odobli bola ko'chaga ruhsatsiz chiqmaydi, o'z ishlarini qiladi, uy ishlariga yordamlashadi, ozoda yuradi. Buning bilan u odobli bola qiyofasiga xos xislatlar ko'lamini birmuncha kengaytiradi. Birinchi sinaluvchining javobida biz cheklanganlik holatini ko'ramiz: sochdan tortmaydi va polni iflos qilmaydi. Keltirilgan ikkita namuna bir-biridan ma'lum darajada farqlarga ega. Mazkur tafovut odob sohasida she'rlardan misollar keltirilganida



yanada orta bordi. Bunday omillarning tajribada ko‘pincha qayd qilinganligi yuqoridagi fikrimizni to‘liq tasdiqlaydi.

Tajribalarda uchinchi sinf o‘quvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi: “Nima yaxshi–yu, nima yomon?”, “Eng go‘zal narsa nima?” “Eng xunuk narsa–chi?”, “Odob nima?”

Ko‘pchilik o‘quvchilar birinchi savolga ushbu mazmunda javob qaytardilar: “Odobli bola yaxshi, yomon bola – yomon”, “Odobli bola kattalarga salom beradi. Ularni hurmat qiladi”. “Yomon bola gap qaytaradi. Keksalar yomon bolalarni yoqtirmaydilar”, “Non olib kelish yaxshi, aytganlarni qilish yaxshi. Pol artmaslik, uy supurmaslik – bu juda yomon”.

Mazkur o‘quvchilar “yaxshi” va «yomon» tushunchalarini murakkablashgan (odobli bola yaxshi yoki yomon bola yomon) shaklida qo‘llashga harakat qiladilar. Chunonchi, odobli bolaning xarakter xislati yana boyitiladi: unday bola salom beradi va hurmat qiladi. «Yomon» tushunchasining mohiyati kengayadi: u gap qaytarmaydi, uni keksalar yoqtiradi. Yuritilgan mulohazalar yakuni bo‘yicha aniq xulosa chiqarishga intilsak, u holda o‘quvchilarning ayrimlarigina 2-va 3-savollarga javob berishga muvaffaq bo‘ldilar: “Bog‘da har xil gullarning ochilib turishi chiroyli, go‘zal. O‘sha gullarni so‘ramasdan uzish, ularni sindirish xunuk”, “Mevali daraxtlarning bahorda gullashi juda chiroyli, lekin ularni yulish va uzib o‘ynash xunuk”, “Tandirda yopilgan nonlar chiroyli. Shu nonlarni sindirib yerga tashlash xunuk” va boshqalar.

Yuqoridagi savollar psixologik asosga ega bo‘lib, shaxsning axloq tushunchalarini aniqlashga qaratilganligi sababli atrof–muhit, ijtimoiy hayot to‘g‘risida, shaxslararo munosabat yuzasidan bilim va tasavvurga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bu yerda “yaxshi” va “yomon” tushunchalari “go‘zal” va “xunuk” singari axloqiy tushunchalar bilan uyg‘unlashib ketganligining shohidi bo‘lamiz. Jumladan, sinaluvchilar gullarning ochilishi, daraxtlarning gullashi, issiq nonlar – chiroyli, gullarni sindirish, shoxlarini uzib tashlash, nonlarni isrof qilish – xunuk, degan xulosaga keladilar.



Bildirilgan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, ular tushunchalar mohiyatini ochishda ham o‘zaro tafovut qiladilar. Bizningcha, qayd qilingan tushunchalar yuzasidan o‘quvchilar fikri mazmundor bo‘lishining asosiy sabablari – bu ularning tabiatshunoslik faniga qiziqishi va anglashilgan hissiy motivlari, aqliy harakatlarida faolligi mavjudligidir.

3–sinf o‘quvchilarining odob to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari 1–2 – sinf sinaluvchilariga qaraganda, mazmun, shakl, tuzilish jihatdan katta tafovutga ega bo‘lib, bu narsa bolaning turmush tajribasi ko‘lami, yosh xususiyati va aqliy kamolot darajasi bilan o‘lchanadi. Yosh davr xususiyati bilan izohlanuvchi farq bilan bir qatorda narsaga turlicha qarash, har xil yondashish, muammo mohiyatini ochib berish uslubi individual tafovut borligini ko‘rsatadi.

I–III sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, axloqiy tushunchalarni tarkib toptirish uchun ularni har bir tushunchaning muhim alomatlari (belgilari)ni ajratishga, umumlashtirishga o‘rgatish, ularda ikkinchi darajali belgilarni ta’kidlash uquvini vujudga keltirish zarur. Shuningdek, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini takomillashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish usullari bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qurollantirish maqsadga muvofiqdir.

Psixologiya fanida o‘quvchi tafakkurining faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan “uquvchanlik” darajasi hamma o‘quvchilarda bir xilda rivojlanmagan bo‘lishi ko‘rsatilgan. Uquvchanlik kishining intellektual xususiyatlari yig‘indisidan iborat bo‘lib, unga barcha teng sharoitlarda materialning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishida muayyan rol o‘ynaydigan fikrlash faoliyati xususiyatlarining faollashuvi demakdir. Mana shunga binoan uquvchanlik darajasi yuqori hisoblangan o‘quvchilar zaruriy bilimlarni mustaqil ravishda tez va chuqur egallab olish imkoniyatiga egadirlar. Albatta, bunday o‘quvchilarning o‘qishga munosabatlari har xil bo‘lishi mumkin. Agar o‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lsalar, bu holat ularning diqqatida,



qiziqish xususiyatlarida, his–tuyg‘usida va o‘zlashtirish jarayondagi irodaviy zo‘r berishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Uquvchanlik darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishga xohishlari kuchli, o‘qishga munosabatlari esa aksariyat hollarda samarali uslublarini egallamaganliklaridandir. Ular ko‘p jihatdan hali xotira shakldagi o‘quv faoliyati usullari yordamida bilimlarni egallashga intiladilar. Mustaqil fikrlashlarga nisbatan qo‘yiladigan talablarning tobora ortib borishiga qaramasdan, ular ta‘lim jarayonida juda sust bo‘ladilar. Ular o‘qituvchi hamisha o‘quv materialini to‘la tushuntirib beradi, tushuncha ila darsga xotirjam qatnashadilar. Uquvchanlik darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarining asosiy vazifalari o‘quv qo‘llanmalarida berilgan va o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladigan axborotlar yoki ma‘lumotlarni esda olib qolish, o‘tilgan mavzular bo‘yicha mashqlanish, takrorlashdan iborat deb tushunadilar. Lekin ba‘zi o‘quvchilarga xos bo‘lgan bunday xususiyatlar ular uchun doimiy o‘zgarimas sifat emas, balki u ta‘lim jarayonida tegishli mashqlar bilan shug‘ullanish yordamida o‘zgaradi. Uquvchanlik darajasi yuqori, yuksak bo‘lgan o‘quvchilar o‘quv materiallarini to‘g‘ri umumlashtirish, tahlil qilish va yaxlitlash (sintez) faoliyatini tez va to‘g‘ri bajarilishi bilan boshqa toifaga kirgan tengdoshlaridan farq qiladilar.

O‘quvchanlik darajasi va ko‘rsatkichi past bo‘lgan o‘quvchilarda umumlashtirish, analiz va sintez faoliyati juda zaif rivojlangan bo‘ladi. Bu toifaga mansub o‘quvchilar, asosan, bo‘sh o‘zlashtiruvchilar hisoblanadilar. Ular bilan individual ishlashni tashkil qilishda murakkab ilmiy va mavhum (abstrakt) tushunchalarni keng miqyosda ko‘rsatmalilik yoki tasviriylik asosida tushuntirib borish, majbur qilmasdan (ta‘sir o‘tkazmasdan, tazyiqsiz), qiziqarli mashqlar uyushtirish, bilish motivi va ehtiyojlarini muayyan darajada qondirish uchun intilish tuyg‘usini vujudga keltirish maqsadga muvofiqdir. Xullas, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan yordamlar darajasini tobora kamaytirib borish, keyinroq o‘quv materiallarini sekin–asta oshira borish rejalashtirilgan bo‘lishi shart.



N.A.Menchinskaya, Y.K.Babanskiy va shunga o‘xshash olimlar ilmiy tekshirish ishlarining ko‘rsatishicha, o‘zlashtirilmaydigan o‘quvchilarni keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilardan iboratdir.

1. Pedagogik kamchiliklar: o‘quv faoliyatining past darajada olib borilishi, o‘z faoliyatidagi mahsuldorlikning yo‘qligi, darslarning ko‘p qoldirilganligi – davomatning pastligi; ta’limda individual munosabatning joriy etilmaganligi, ota–onalar va oila a’zolari tomonidan o‘quvchilarni nazoratdan chetda qoldirilganlik va g‘amxo‘rlik qilishning zaifligi kabilar.

2. Psixologik kamchiliklar: o‘quv faoliyati motivlarining tarkib topmaganligi va xulq beqarorligi, intizomning yo‘qligi, ta’limda emotsional va irodaviy zo‘r berishlikning rivojlanmaganligi, o‘quvchining bilim tizimida ko‘plab uzilishlarining mavjudligi, bilim olish uchun zarur o‘quv ko‘nikmalari va malakalarining shakllanmaganligi; o‘quvchining bilish qobiliyati, aqliy imkoniyati darajasining pastligi va boshqalar.

3. Neyrofiziologik kamchiliklar: o‘quvchi organizmida umumiy susayishning kuchayganligi, ko‘rish, eshitish, artikulyatsiya, nutq apparatining buzilganligi, bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining biron qismida yuz beradigan barqaror yoki muvaqqat tormozlanish hodisasining yuzaga kelganligi va hokazo.

Taniqli psixolog N.A.Menchinskaya bo‘sh o‘zlashtiruvchi va barqaror o‘zlashtirilmaydigan o‘quvchilar toifasi (tipi) to‘g‘risida fikr yuritadi. Uning fikricha, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar tipining vujudga kelishi ularning bo‘sh o‘zlashtirishlarida ustunlik rolini bajaradi hamda kompleks shaxs xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘quv faoliyati motivlari, intellektual qobiliyatlarining rivojlanmaganligi, o‘quv faoliyati uchun zarur hisoblangan ko‘nikma va malakalarining yetarli darajada hosil bo‘lmaganligi shunday xususiyatlar qatoriga kiradi. Bular bir–birlari bilan yaqindan aloqada bo‘lishiga qaramasdan, haqiqatan ham bularning biri bo‘sh o‘zlashtirishning sababchisi rolini o‘ynashi mumkin.



Psixolog N.I.Murachkovskiyning aniqlashicha, shaxsning ikki xil toifali xususiyatlari o‘zlashtirmovchilikning kelib chiqishiga ta’sir etadi: birinchidan, o‘quvchining fikr yuritish faoliyati xususiyatlari, ikkinchidan, o‘quvchi shaxsining yo‘nalishida namoyon bo‘ladigan o‘qishga munosabatlar “o‘quvchining ichki mavqei” hisoblanadi. O‘quvchi shaxsining bu ikki tomonini ko‘rsatuvchi xususiyatlar bilan bog‘liq ravishda bo‘sh o‘zlashtiradigan bolalarning muayyan tiplari paydo bo‘ladi, hozircha ularning quyidagi tiplari mavjud: birinchi o‘qishga munosabatlari ijobiy, lekin uquvchanligi past bo‘lgan o‘quvchilar; ikkinchi toifa – o‘qishga munosabatlari salbiy, ammo uquvchanlik imkoniyatlari yuqori bo‘lgan o‘quvchilar; uchinchi toifa – o‘qishga munosabatlari salbiy hamda uquvchanlik imkoniyatlari past bo‘lgan kontingentlar.

Har uchala toifaga aloqador bo‘lgan bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tabiiyki, agar bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi shaxsi faqat bir tomonlama (uquvchanlik yoki o‘qishga ijobiy munosabat) ijobiy ko‘rinishda bo‘lganida edi, unda bo‘sh o‘zlashtirishning oldini olish nisbatan oson bo‘lar edi. Bordi–yu, uquvchanlik imkoniyati past, lekin o‘quv motivlari ijobiy bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashga to‘g‘ri kelganida, asosiy diqqat–e’tiborni ularning aqliy faoliyatini mashq qildirishga qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zlashtirishlari past bo‘lgan ikkinchi toifadagi o‘quvchilarga nisbatan boshqacha yondashish talab etiladi. Eng muhimi ularga interfaol ta’sir ko‘rsatish, o‘quv faoliyati motivlarini o‘zgartirish ijobiy natijalar beradi. Bu toifadagi o‘quvchilarning maktabdan tashqari amaliy va mustaqil faoliyatlaridan, ayniqsa, ijodiy ishlarga bo‘lgan qiziqishlaridan (rasm solish, musiqa asboblarini chalish, modellashtirish) va shaxsning boshqa ijobiy sifatlariga asoslangan o‘qituvchilik faoliyati vazifalaridan foydalangan holda ish yuritish, odatda, ijobiy natija berishi kuzatiladi.



Uchinchi toifadagi o‘quvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan tadbirlar juda sekin va qiyinchiliklar bilan ta‘sir etadi. Bu o‘quvchilar uquvchanlik imkoniyatlarining pasayib ketishi ularga salbiy munosabatda bo‘lishlari, pedagogik ta‘sirdan chetda qolganlikari sababli kelib chiqadi.

Uzoq vaqt asosiy fanlardan bo‘sh o‘zlashtirib kelgan va aqliy faoliyatdan bosh tortishga harakat qilishgan o‘quvchilarda aqliy rivojlanishning mo‘tadil borishi buzilgan, shu sababli ularda salbiy axloqiy sifatlar yoki illatlar yuzaga kela boshlagani ayon bo‘ladi.

Shunga qaramasdan bu toifaga aloqador o‘quvchilarning har birida ma‘lum darajada ijobiy sifatlar uchraydi. O‘qituvchi ana shu yashirin ijobiy sifatlarga tayanib, shu asosda ish ko‘rganidagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Psixolog L.S.Slavinaning ko‘rsatishicha, boshlang‘ich sinflarda o‘z tengkurklariga nisbatan bilish faolligi yetarli darajada bo‘lgan, intellektual jihatdan normal rivojlanmagan bolalar mavjuddir. Lekin ular hali fikr qilishga, mulohaza yuritishga odatlanmagan bo‘ladilar. Faol fikr yuritish faoliyatidan qochishga intiladilar. O‘qituvchi bunday o‘quvchilarga alohida diqqat bilan qarashi, ularni fikrlashga odatlantirishi o‘quv faoliyatida erishilgan yutuqlarini har tomonlama ma‘qullashi, o‘quv totshiriqlarini bajarishni o‘yin va amaliy faoliyat bilan bog‘lab olib borishga harakat qilishi kerak.

Xullas, bo‘sh o‘zlashtirish yoki barqaror o‘zlashtirmaslikning kelib chiqishiga sabab xususiyatlarining ham bo‘lishi mumkin. Odatda, maktabga endigina qadam qo‘ygan bolalar orasida aqliy jihatdan o‘z imkoniyatlariga nisbatan past rivojlangan, borliq to‘g‘risida tasavvurlari cheklangan, nutq faoliyati kam rivojlangan, hatto sodda bo‘lsa ham, o‘quv malakalari shakllanib ulgurmagan bolalar uchrab turadi. Bunday holat ota–onalar umumiy pedagogik hamda psixologik madaniyati darajasining pastligi, bolani kattalar bilan muomala qilish ehtiyojlarining o‘z vaqtida qondirilmaganligi bilan tavsiflanadi.



Bo'sh o'zlashtirishning ikkinchi davri boshqacha ta'riflanadi. Chunonchi, ko'pgina bolalar o'qishga nisbatan qiziqishi o'zgarganligini o'zlari sezmaydilar, murakkab aqliy faoliyat ularni toliqtiradi, natijada, o'qishga, predmetlarga munosabati o'zgaradi, undan mutlaqo ko'ngli soviydi.

Maktabda o'quvchilardan zo'r uyushqoqlik, intizomlilik va irodaviylik talab etiladi. Mana shu talablarga javob bera olmagan ayrim o'quvchilar bo'sh o'zlashtiradigan bo'lib qoladilar. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilganidek, yuqori darajada uquvchanlik muvaffaqiyatli o'qitishning zaruriy shartlaridan hisoblansa ham bola shaxsi xususiyatlarining boshqa tomonlari, avvalo, javobgarlik va burch hislarining shakllanmaganliklarida, mehnatga muhabbat va mehnat qilishga odatlanishi rivojlanmay qolishi muvaffaqiyatli o'qishni to'la ta'minlay olmaydi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar tafakkuridagi ayrim zaif jihatlar rivojlantirishni taqozo qiladi, unga qaratilgan tadbirlardan biri –ta'limga nisbatan differensial yondashishni amalga oshirishdan iboratdir.

Y.K.Babanskiyning ko'rsatishicha, ayrim o'qituvchilar bo'shroq o'zlash-tiruvchi o'quvchilarga nisbatan o'quv topshiriqlarining hajminigina differensiallashtiradilar (bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi kuchli o'quvchiga nisbatan kamroq miqdorda topshiriq oladi), yana boshqa o'quvchi esa murakkab topshiriqlarni bajarishga to'g'ri kelganida ularni differensiyalashtiradi, (bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi ancha sodda topshiriq oladi) yana boshqa bir o'qituvchi topshiriqlarni bajarishda yordam berish xususiyati va darajasiga binoan differensiyalashtiradi (bunday holatda kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajaradilar) va nihoyat yana bir toifadagi o'quvchilar turli qulayliklardagi topshiriqlar variantni bajarishda differensial yondashishni amalga oshiradilar.

Y.K.Babanskiy bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga nisbatan bunday differensial yondashish turlarini ko'rib chiqib shunday



xulosaga keladi: bularning har biri o‘quvchining imkoniyatlarini optimal ravishda, ayni vaqtda, kelgusi taraqqiyot uchun qo‘llaniladigan bo‘lsa, to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. O‘quv topshiriqlarini shunday usullar yordamida rejalashtirib borish mutlaqo to‘g‘ridir. Faqat psixologlarning natijalariga asoslanib ish ko‘rishga harakat qilishi kerak.

Psixologik tekshirishlarda bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga nisbatan o‘quv topshiriqlarni kamaytirib borish faqat ularning aqliy jihatdan charchaganliklarini aniqlaganlikda to‘g‘ri bo‘ladi. Lekin tabiiy ravishda buni doimiy qoidalar tarkibiga kiritib bo‘lmaydi. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘quv topshiriqlarini mustaqil va muvaffaqiyatli bajara olishlariga ishonch hosil qilganlaridagina ularga shunday topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv topshiriqlarini differensiyalashgan bo‘lishi ularning mazmunida emas, balki metodik jihatdan to‘g‘ri bajara olishni ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Masalan, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga ham barcha o‘quvchilarga (matematika yoki ona tilidan) beriladigan topshiriqlar, lekin bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga berilgan topshiriqlar izohi, sxemali yoki o‘xshash savollarning bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bunday munosabat natijasida o‘quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajara olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga muttasil yordam berilayotganida ularning mustaqil fikr yuritishiga harakat qilishlarini rag‘batlantirib borish lozim.

O‘quvchanlik darajasi quyi bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar ularning bilim darajasi o‘zlashtirish imkoniyatlariga mos tushmog‘i kerak. Aks holda, ularda o‘quv faoliyatining murakkabligidan cho‘chish, hadiksirash, mustaqil o‘zlashtira olishga ishonmaslik tuyg‘usi singari salbiy illatlar yuzaga kela boshlaydi.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning fikr yuritishlarini rivojlantirishda ularga individual yondashish katta rol o‘ynaydi.



Shubhasizki, o‘quvchi jiddiyroq shug‘ullanishga kirishsa, o‘z kelajagini oldindan ko‘ra olishga intilsa, o‘qituvchi ularni sinchkovlik bilan o‘rganishga intilishi lozim. O‘qituvchida: “Agar o‘quvchilarda yomon xulq–atvor, sustlik, loqaydlik singari yomon jihatlar uchragan bo‘lsa, albatta, ertaga xislatlarning yaxshi tomonlari yuzaga chiqadi”, degan umid, ishonch, istiqbol tuyg‘ulari mavjud bo‘lgandagina o‘qitishda takomillashish jarayoni yuzaga keladi. O‘quvchining kuchiga ishonganida zaifgina bo‘lsa–da, yaxshi xislat borligini bilish asosida uning shaxsini shakllantira borish individual munosabatning eng muhim tomonidir.

O‘qituvchi bo‘sh o‘zlashtiruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan individual yondashganida quyidagi talablarga amal qilishi shart:

1) bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari va aqliy imkoniyat darajasini bilish;

2) ularga interfaol ta’sir ko‘rsatish usullari va metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni tatbiq etishda individual xususiyatlarini hisobga olish;

3) o‘quvchi bilan o‘qituvchi muomalasi oqibatini oldindan sezish.

Bola olti yoshga to‘lganda jismoniy rivojlanishi yanada tezlashadi. Mazkur yoshda bola ko‘proq bo‘yiga o‘sadi. Natijada bo‘y bilan tana o‘rtasida mutanosiblik buziladi. Bola g‘ayratli, serharakat bo‘la boshlaydi. Uning muomolasi, xatti–harakatlari tobora murakkablashib boradi. Samokat, velosiped uchishga juda mohir bo‘ladi. Har narsaga qiziqish doirasi kengayadi olam va odam haqida kishini ba‘zan hayratga soladigan murakkab savollarni ko‘plab beradigan bo‘ladi. Mustaqil harakat qilish istagi ko‘payadi. Olti yoshli bolalar bolg‘a, kurakcha, qaychi, pichoq singari mehnat qurollaridan bemaol foydalana oladilar. Shuningdek, ular rasm solishda oddiy qalam va mo‘yqalamdan, bo‘yoqlardan foydalanish uquviga ega bo‘ladilar. Kattalar ishonchini qozonishga harakat qiladilar, ularning oldida javobgarlik hissini sezadilar. Ana shular evaziga topshiriqni o‘z vaqtida va ko‘ngildagidek bajarishga ishtiyoqli bo‘ladilar.



Olti yoshli bolalarda nutq ham juda tez rivojlanadi. Ularning nutq boyligi 2500 taga yaqin soʻzdan iborat boʻladi. Shu sababdan ular gap tuzish, suhbat koʻrishni uddasidan chiqadilar. Til qoidalarini bilmasalar–da, amalda ularni toʻgʻri qoʻllaydilar. Kattalarning gaplariga, suhbatlariga quloq soladilar. Kattalar bilan muloqotga kirishish orqali ularda nutqni oʻqib olish qobiliyati tugʻiladi. Kattalar nutqni oʻqib olish ularda soʻz boyligining ortib borishida muhim ahamiyatga ega.

Olti yoshlilarning ruhiy dunyosi oʻsib borishda, takomillashuvida turli xildagi oʻyinlar alohida rol oʻynaydi. Bolalarning yoshi ulgʻaygan sari ular oʻyining mazmuni murakkablashib, turlari ham ortib boradi, oʻynash vaqti ham choʻziladi. Ular oʻzlarining syujetli oʻyinlarida turmushdagi voqealarni namoyish qilishga urinadilar. Guruh boʻlib oʻynashda oʻzaro bir–birlarini tushuna oladilar, oʻyin shartiga tez moslashadilar.

Mazkur yoshdagi bolalarda atrofdagi narsa va hodisalarga qiziquvchanlik bilan idrok qilishi ortib, tabiat va turmush voqealarini kuzatishi rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar mayda-chuyda narsalarni sinchkovlik bilan kuzatadilar. Kuzatuvchanlik qobiliyatining oʻsib borishi bolalarda narsa va hodisalarni ixtiyoriy esda olib qolish faoliyatini takomillashtiradi. Shuning uchun ham bu yoshda bola oʻrgangan hikoya, yodlagan sheʼrlarini butun vujudi bilan aytib berishga intiladi. Har bir narsaning mantiqiy tomonini anglab olishga harakat qiladi. Katta yoshdagilarga qaraganda olti yoshli bolada u yoki bu narsani eslab qolish, esga tushirish, tanish xislati yuqori boʻladi.

Olti yoshlilarda tasavvur doirasining kengayishi xayolning oʻsishiga olib keladi. Xayol tasavvurlarining oʻsganligi bolalarning rasm solishida, plastilin va loydan oʻyinchoqlar yasashlarida, harakatli va syujetli oʻyinlarida koʻzga tashlanadi. Bola xayolan turli qiyofaga kirishi mumkin. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarda kattalarning xatti–harakatlariga aynan taqlid qilishga urinish kuchli boʻladi. Ular oʻyinlar orqali turli kasb egalarining xususiyatlarini oʻzlarida



mujassamlashtirishga harakat qiladilar. O‘z xayollarida vrach bo‘lib, bemorlar dardini davolash, o‘qituvchi sifatida insonga bilim berish, ziyo tarqatish, kosmonavt bo‘lib fazoga parvoz qilib, koinot sirlarini ochish, haydovchi bo‘lib kishilar manzilini yaqin qilish, o‘quvchi bo‘lib, ko‘k yuzini quchish istaklarining tug‘yon urishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Shuni aytish kerakki, bolalarning turli o‘yinlarida yoki chizgan rasmlarida biror elementning yoki chiziqning xayoliy obrazlari kengayib boradi, ayrim alomatlar fantaziya tariqasida ma’lum syujetni keltirib chiqaradi. Shuning uchun kattalar bolalarga “quyonning rasmini chiz”, “kubiklardan uy yasa”, “cho‘plardan shakllar bunyod qil”, “ertaklar asosida rasmlar chizgin” deb ularni turli mashg‘ulotlarga jalb qilishlari lozim. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bolalar chizgan rasmlari yoki yasagan o‘yinchoqlarini ko‘pincha mavhum allaqanday jonivorlarga yoki predmetlarga qiyoslaydilar. Ko‘pincha ular chizgan narsa o‘zlari qiyoslangan yoki “men falon narsani chizdim” deb isbotlashga harakat qilayotgan narsadan ancha yiroq bo‘lishi mumkin. Lekin bola o‘z so‘zida turib oladi. Shu daqiqalarda uning tajribasizligini nazarga olish bilan birga bolada fantaziya ham ishlayotganini unutmaslik kerak. Bunday hollarda kattalar kichkintoylarga e’tiborliroq bo‘lganlari, yordam berganlari, tushuntirishlari, lozim bo‘lsa, ko‘nglini ko‘targanlari ma’qul. Bu bolaning mushohada etish, odam va atrof–muhitni o‘z qalb ko‘zi bilan ko‘rishida zada qilib qo‘ymaydi, aksincha, ilhomlantiradi. Shuningdek, bu yoshda bolalar uzoq ellar to‘g‘risida, moviy dengiz, poyonsiz o‘rmonlar haqida, u yerdagi ajoyibotlar to‘g‘risida ertaklar, yodgorliklar, urush qahramonlari, qahramon dengizchilar, qutb tadqiqodchilari, tabiatni o‘zlashtirish yuzasidan hikoyalar eshitishni yaxshi ko‘radilar. Ertak va hikoyalar eshitish jarayonida bolalar shirin xayol og‘ushiga toladilar, orzular quchog‘iga cho‘madilar, o‘sha qahramonlar o‘rnida o‘zlarini qo‘yib ko‘radilar. Goh sehrgar chol Ibn Xattob, goh Gulliver bo‘lgilari keladi, “uchar gilamlar”da sayohat



qilishni xayol qiladilar. Bolalarga ertak aytayotganda, eng muhimi, kerakli o‘rinlarda: “Mana, buni qara”, “Falon narsaga qulok sol”, «Bu joyni ko‘zdan kechir», «Endi sen javob ber» deb ularni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatib borish zarur. Bolalar amalga oshirishi lozim bo‘lgan kelajak ishlari, rejaları to‘g‘risida ham ijodiy xayol suradilar. Osmonga uzoq sayyoralarga xayolan parvoz qiladilar, “bir zumda” har qanday manzilga olib boradigan texnika haqida o‘ylaydilar. Bularning barchasi bolalarning bilim doirasini kengaytiradi, texnik qobiliyatini o‘stiradi, uning mantiqiy fikr yuritishini mustahkamlaydi, aqlni peshlash mashqlari rolini bajaradi. Shuning uchun ota-onalar, o‘qituvchilar bolalarning xayoliy parvozlariga alohida e‘tibor berishlari lozim. Eng muhimi, har bir o‘qituvchi, ota-ona bolaning qobiliyatini nimalarga qiziqishini, fikrlashini yaxshi bilib olishlari zarur. Bolaning har bir narsa va hodisaga qiziquvchanlik bilan qarashi, uning mulohaza yuritishini, ya‘ni tafakkurini rivojlantiradi. Zero, olamdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida fikr yuritish ruhiy dunyomizning murakkab jarayonlaridan biri hisoblanadi. Tafakkur orqali bola tevarak–atrofdagi borliq o‘rtasida mavjud muhim bog‘lanishlar ichki qonuniyatlar va munosabatlarni ongida aks ettiradi. Fikr yuritish faqat so‘z vositasi bilan vujudga keladi. Bola narsalarning tashqi ko‘rinishi bilan qiziqibgina qolmasdan, balki ularning ichki xossa va xususiyatlari bilan tanishishga ham oshiqadi, hamma narsani bilishga qiziqadi. Shu sababdan ularda “Bu nima?”, “Nega bunaqa?”, “Qayerdan kelgan?”, “Nega kerak?”, “Kim yasagan?”, “Nima uchun yuradi?”, “Qanday qilib uchadi?”, “Nega biz uchmaymiz?”, “Odam nima uchun kuladi?” kabi savollar tug‘iladi. Bunday savollarning vujudga kelishi bolaning olam va odam haqida fikr yuritish jarayonining tobora rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Shu narsani unutmazlik kerakki, bolaning bergan savollariga o‘qituvchilar ota–onalar va tarbiyachilar e‘tiborsiz bo‘lmay, o‘z vaqtida va imkon qadar to‘liq hamda asosli javob berishlari zarur. Beparvolik hamisha bolaga salbiy ta‘sir qiladi. Agar bola mazkur savollarga o‘rinli javob olmasa, kattalar ularga



yetarli ahamiyat bermasalar, u holda bolaning qiziquvchanligi, intiluvchanligi, faolligi asta–sekin so‘na boradi. Shuning uchun kattalar iloji boricha uning talab va ehtiyojini qondirishi maqsadga muvofiqdir.

“Qanday paytda bolalar fikr yuritadilar?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Biron–bir narsaga tushuna olmagan taqdirda yoki narsa va hodisalar taajjublantirsa, hayratga solsa, u holda bolalar fikr yurita boshlaydilar. Ko‘pincha o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota–onalar bola me‘yoridan ortiqroq savol bersa, dunyo ajoyibotlarini bilishga qiziqsa: “Ko‘p mahmadonalik qilma”, “Ko‘p qaqajon bo‘lma”, “Bunday gaplarni senga kim o‘rgatdi?”, “Nega kerak bo‘lib qoldi?” deya urishib, tanbeh beradilar. Bu uning ruhiy dunyosiga ta‘sir qilmay qolmaydi, albatta.

Shuningdek, olti yoshli bolada ixtiyoriy diqqat o‘sib boradi. Shuning uchun o‘ziga yangi, notanish bo‘lgan bilimlar axborotlardan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlarga diqqat–e‘tibor qilib o‘tiradi. Kattalarning xatti–harakatlarini, ular bajarayotgan ishni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uning o‘z maqsadi sari intilishi, mustaqilligi, jasoratlilik bolaning iroda kuchidan kechinmalar rivojlangan bo‘ladi. Ayni paytda bolaning yaxshi yoki yomon xatti–harakatlarning sezishi, go‘zallikning idrok qilishi katta odamlarnikidan sifat va maqsad jihatdan farq qiladi. Ayniqsa, uning aqliy hislari mazmunan sayoz, davomiylik jihatdan beqarordir.

Olti yoshlilarda irodaviy xislatlarning o‘sib borishi bola shaxsi shakllanishi, tarkib topishi jarayonida unda ijtimoiy–axloqiy qoidalari o‘zlashtirib boriladi. Axloq qoidalari va maqomlarining bola tomonidan o‘zlashtirib borilishi natijasida unda xarakter xislatlari shakllana boshlaydi.

Olti yoshlilarning tarbiyasi oddiy o‘quv va mehnat ko‘nikmalari, malakalari, ixtiyoriy diqqat idrok va tajriba, mantiqiy esda qolish fikr yuritish, so‘z boyligi, iroda sifatleri, yuksak insoniy xislatlar qamrab oladi. Boladagi mazkur ruhiy jarayonlar, shaxs sifatleri,



maxsus tashkil qilingan o‘yinlar, ta’limiy mashg‘ulotlar asosidagina bir tekis rivojlanishi mumkin. Bu narsa o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar olti yoshli bola ustidan qat’iy nazorat qilishni va o‘z vaqtida unga yordam berib turishni taqozo etadi. Buning uchun barcha olti yoshlilarning psixologik xususiyatlarini to‘la o‘rganishlari zarur.

Faol, muloqotga tez kirishuvchi, har narsani bilishga qiziquvchi bola maktab ta’limiga mustahkam poydevor bilan kirib boradi. Tajribalardan shu narsa ma’lumki, ko‘pincha tortinchoq tabiatli bola savol berishdan o‘zini olib qochadi. Shuning uchun bunday xarakterli bolani o‘qituvchi, tarbiyachi, ota-onalar ko‘proq har xil sohaga taalluqli mashg‘ulotlarga tortishlari, turli joylarga sayohatlarga olib chiqishi bola faolligini oshiradi. Natijada, bunday toifadagi bola mustaqil savol berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bolalarning turmush tajribalari kengayishi ma’qul qolipdagi narsa va hodisalarning ichki bog‘lanishlari, goho taraqqiyot sabablarini tushunishga olib keladi, ularning fikr yuritish doirasi o‘sadi, tartibli bilim olishga to‘g‘ri tayyorlanadi.

Nazorat savollari:

1. *Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar va anatomik–fiziologik o‘zgarishlarini tushuntirib bering?*
2. *Motivlarning bo‘ysundirilishi, axloqiy normalarning qabul qilinishi, xatti–harakatning ichki rejasini shakllantirishi – muvaffaqiyatli o‘qitishning omili sifatida izohlang?*
3. *Motivatsiya va uni baholash mezonlarini tushuntirib bering?*
4. *Maktabga moslashish davridagi qiyinchiliklar haqida nazariy tahlillar keltiring?*



10-MAVZU: O‘SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. O‘smirlik davri insonni balog‘atga yetish davri hisoblanishi
2. O‘smirda ro‘y beradigan biologik o‘zgarishlar.
3. O‘smirlik yoshida o‘g‘il-qizlarning jismoniy qiyofasida muhim o‘zgarishlar ro‘y berishi.
4. Ertaroq jinciy balog‘atga yetishishning sodir bo‘lishi.
5. O‘smirlik davridagi jins tafovutlari.
6. O‘smirlarning yurakning hajmi va tiriklik sig‘imi.

Tayanch tushunchalar: o‘smir, yetakchi faoliyat, muloqot, psixologik yangilik, o‘z-o‘ziga baho berish, jinsiy yetilish jarayoni, o‘spirinlik davriga o‘tishdagi inqiroz.

Hozirgi davrda o‘smirlarni voyaga yetkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti–harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni kamol toptirishda ularning turli xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy–tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Turg‘unlik yillaridagi so‘z bilan ishning nomuvofiqligi, tarbiyadagi qo‘pol xatolar o‘smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi



kunda o‘smirlar taqdiri masalasi ham g‘oyat jiddiy tus oldi. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtayi nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilikgi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur.

O‘smirlar muammosiga e’tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san’at va adabiyot, ijtimoiy–iqtisodiy shart–sharoitlarning o‘zgarayotgani;

2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o‘smirlar ongliligini darajasining ko‘tarilgani;

3) o‘g‘il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

5) o‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy–siyosiy, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;

7) o‘quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o‘zini o‘zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o‘quvchi bilan o‘qituvchining muloqotida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat’iy o‘zgarishlar vujudga keladi. Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar ham vujudga keladi. Bular, avvalo, ta’lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. O‘qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma’ruza shaklida olib borishi o‘quvchilarni zeriktiradi, ularda o‘qishga loqaydlik paydo qiladi. Ilgari o‘quv materialini ma’nosiga tushunmay



yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, tahsil oluvchi unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'la boshlaydi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtayi nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatlarning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi kabi o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlilik davri inqirozi to'g'risida kuyunib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqarolmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlilik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gaplashish to'g'riroq bo'ladi, deya xulosa chiqarilgan.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirganligi, ehtiyojlar bilan ularni qondirish



imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni, psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, obyektlar o'rtasida ichki munosabatlar o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Maktab va bilim yurtida, oilada mustaqil faoliyatga keng imkoniyatlar bo'lsa, o'quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni bajara boshlaydi. Natijada, o'smirning ijtimoiy mavqeyi ortib, faoliyati takomillashib, psixikasi har tomonlama rivojlanib boradi.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunliklarga ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10–11 yoshi dan 14–15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Sobiq sovet psixologlari Z.Freyd



nazariyasining mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanishini asoslab berdilar.

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirni psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi subyektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deya tushuntiriladi. O'smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hamma ayondir.

Amerikalik psixolog R.Kulen o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy–axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani ilgari suradi. Ammo noto'g'ri nuqtayi nazardan o'smirlikni biologik va psixologik kategoriyadan tashqari deb hisoblaydi. R.Kulenning fikricha, o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas. Chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo'q. Shuningdek, o'smirlik davrining muayyan



hech o'zgarma xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Shu bilan birga o'smirning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

O'smirlik insonning balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11(12)–15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi.

Bolaning bo'yi 11–12 yoshida 6–7 sm, hatto 10 sm gacha o'sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadilar. O'smir 13–14 yoshga to'lganda har ikkala jins o'rtasida bo'yni o'sishi qariyb baravarlashadi. O'n besh yoshga qadam qo'yganda esa o'g'il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. Shundan keyin to'umrning oxirigacha o'sishda o'g'il bolalar ustunlik qiladilar.

O'smirlik davrida bo'y bilan tana nomutanosib ravishda o'sadi, natijada, bolalar oriqlik, nimjon va uzun bo'lyli bo'lib ko'rinadilar.

O'smirlarda yurakning hajmi va tiriklik sig'imi har yili 25 foiz kattalashib boradi. Bo'yni jadal o'sishi va tana og'irligining ortishi bilan qon hamda kislorodga ehtiyoj ham ortadi, bu ehtiyoj yurak hajmining kengayishi va funksional faoliyati ko'rsatkichlarining boyishi evaziga ta'minlanadi. Mazkur davrda tananing umumiy hajmidan 7–8 foizini qon tashkil qiladi, qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110–115 mm darajasida bo'ladi. Yurak qisqarishining chastotasi bir qadar sekinlashadi, masalan, 11 yoshda har daqiqada 85–90 marta urgan bo'lsa, 14–15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi.

Yurak kengayishi bilan birga qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanishi tizimining qayta qurilishi, vegetativ, nerv sistemasidagi beqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smir ba'zan qon bosimining



ortishi ro‘y beradi. Qon aylanishining o‘zgarishi qizlarda og‘irroq kichadi. Chunki ularda yurak vaznining ortishi oldinroq boshlanib, oldinroq yakunlanadi.

O‘smirlik davrida nafas olish organlari jadal rivojlanadi. O‘pkaning tiriklik sig‘imi quyidagicha bo‘ladi:

– o‘g‘il bolalarda –11 yoshda 1900–2000 ml; 15 yoshda 2600–2700 mm.

– qizlarda –11 yoshda 1800–1900 ml; 15 yoshda 2500–2600 ml. Shuning uchun nafas olish har daqiqada 2 marta kamayadi. O‘g‘il bolalar qorin bilan, qizlar esa ko‘krak bilan nafas ola boshlaydilar. Ko‘krak qafasi, nafas olish muskullari tez o‘sa boradi va jinsiy yetilishni kuchaytiradi.

11–12 yoshdagi o‘smirning ichki sekretiya bezlari qayta quriladi. Gipofizning old qismi ishlab chiqaradigan gormonlar gavdaning o‘shishini ta‘minlaydi. Gipofizning o‘rta qismi kuchayishi sababli pigmentlar almashinishi o‘zgaradi, natijada, soch qorayishi, yuzlarning oqarishi namoyon bo‘ladi. Gipofiz bilan bir qatorda qalqonsimon bez funksiyasi ham kuchayadi. Qalqonsimon bez ishlab chiqaradigan tiroksin gormoni organizmda modda almashinuvi va energiya sarfini keskin orttiradi. Markaziy nerv sistemasida qo‘zg‘aluvchanlik o‘zgaradi, natijada, yaqqol his–tuyg‘ular tug‘ila boshlaydi. Qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo‘zg‘aluvchanlik, asabiylashish va toliqishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig‘ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g‘ayritabiiylik paydo bo‘ladi. Qalqonsimon bez funksiyasining o‘zgarishi va modda almashinuvining buzishi sababli o‘smirda semirish ro‘y beradi.

Mazkur yosh davrida jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. Balog‘atga yetishning birlamchi va ikkilamchi alomatlari o‘sa boshlaydi: o‘g‘il bolalarda ovoz o‘zgaradi, yo‘g‘onlashadi, mo‘ylov va soqol paydo bo‘ladi, qizlarda esa ko‘krak bezlari rivojlanadi va hokazo. Natijada, boshqa jinsga qiziqish ortadi, orzu, xohish, nozik tuyg‘u, sog‘inch, iztirob kabi kechinmalar paydo bo‘ladi.



O'smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o'qituvchilardan, 4 foizini maktab vrachidan va qolgan yashirin jihatlari, holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'cha-ko'ydan, o'rtoqlari va dugonalaridan eshitib bilib oladilar. Kutilmagan holatlar va ma'lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi, fe'l-atvorda ayrim illatlar paydo bo'ladi. Goho o'smirlar orasida axloqan tubanlashuv hollari ro'y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, nopok guruh va to'dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy hayotda yaramas odatlarni keltirib chiqaruvchi anchagina manbalar bor: birinchidan, kino zallari va televideniya o'smirlarga to'g'ri kelmaydigan filmlarga ruxsat qilinishi; ikkinchidan, jamoat joylarida va ko'cha-ko'yda kattalarning nojoiz qiliqlar ko'rsatishlari; uchinchidan ta'limda biologik o'sish to'g'risida yetarli bilimlar berilmasligi; to'rtinchidan, vrachlarning bu sohada keng ko'lamda ish olib bormasligi; beshinchidan, ota-onalarda fiziologik va psixologik bilimlar yetishmasligi; oltinchidan, o'smir bolalar va qizlarga mo'ljallangan materiallarning kamligi va hokazolar.

O'smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o'rin egallaydi. U inson kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. O'smirlik davrida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur ta'lim-tarbiya ta'sirida barqaror, mustahkam iz qoldiruvchi, ijobiy xislatlar namoyon bo'ladi. Tadrijiy ravishda izchil vujudga kelayotgan psixik o'zgarishlar, shakllanayotgan fazilatlar va shaxsning o'sishi, avvalo, mazkur yoshdagi o'g'il-qizlar faoliyatlarining (yetakchi va yordamchi faoliyat turlari: o'qish, mehnat va o'yin kabilar nazarda tutiladi) xususiyatiga bevosita bog'liqdir. O'smirning boshqa yosh davrlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular his-tuyg'u va irodaviy sifatlarda o'z ifodasini topadi. O'smir kichik maktab yoshidagi o'quvchidan farqli ravishda hayotni ilk bor shaxs sifatida faol ilmiy bilishda ishtirok



eta boshlaydi, birinchi galda faqat narsa va hodisalarning ayrim alomatlarini emas, balki ularning umumiy va obyektiv qonuniyatlarini anglab yetish, tushunish imkoniyatiga ega bo‘lib boradi.

Shaxsning har tomonlama uyg‘un rivojlanishiga mehnat faoliyati salmoqli ta‘sir ko‘rsatadi. O‘smirlarning sinf va maktab yer uchastkasidagi mehnat faoliyati o‘z mohiyati bilan zarur axborot va ma‘lumotlar berib, murakkablashib, ularning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib, mehnat samarasidan, mahsulidan lazzatlanish his-tuyg‘ularini shakllantira boshlaydi.

O‘smirlik davrida ham o‘yin faoliyati ma‘lum vaqtgacha shaxsning kamolotida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Jamoa bo‘lib amalga oshiriladigan o‘yinlar va ularning keng ko‘lamda o‘tkazilishi o‘tish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengillashtirishga xizmat qiladi. O‘yin faoliyati o‘smirda yuksak axloqiy his-tuyg‘ularni vujudga keltiradi, matonatlilik, jasurlik kabi fazilatlar shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur faoliyat o‘smirning aqliy jihatdan o‘shishiga, fikr yuritishiga, o‘z his-tuyg‘usini boshqarishiga, jismoniy kamol topishiga turtki vazifasini o‘taydi. O‘yinning har xili bilan mashg‘ul bo‘lish o‘smirni fahmlashga, eslab qolishga, biror ishni amalga oshirishdan oldin uni rejalashtirishga va diqqatni bir nechta obyektga taqsimlashga odatlantiradi. Ziyraklik, tezkorlik, farosatlilik kabi muhim xususiyatlar, xislatlar ham o‘yin va sport mashg‘ulotlarida shakllana boradi.

O‘smir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo‘la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo‘ladi. O‘zgarishlar uning oldiga yangi talablar qo‘yadi, bu esa, o‘z navbatida, ko‘proq huquq va erk berilishini, eng avvalo, mustaqil qarorga kelish va o‘z xulq-atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishni taqozo qiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik o‘smirlik davrining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi.



Hozirgacha balogʻatga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi toʻgʻrisida bir butun ilmiy nazariya mavjud emas. Shuning uchun oʻsishdagi jadallashuv, yaʼni akseleratsiya boʻyicha ham muayyan nazariya yaratilmagan. Ana shu boisdan har xil ilmiy asosdagi, bir–biridan farqli eʼtirozli qator nazariyalar paydo boʻlgan. Quyida akseleratsiya muammosiga oid qarashlar bilan tanishib chiqamiz.

Geliogen nazariyasi. Ushbu nazariya 1936-yilda chet el olimlari tomonidan yaratilgan boʻlib, uning asosiy mohiyati akseleratsiya hodisasi quyosh nurining bevosita taʼsiri bilan vujudga keladi, degan gʻoyadan iboratdir. Mazkur gʻoya tarafdorlarining fikricha, bolalar koʻp vaqt oftobda boʻlishi natijasida ularning oʻsishida tezlashish, yaʼni akseleratsiya roʻy beradi. Chunki quyosh nuri organizmni zarur elementlar, moddalar, ozuqalar bilan taʼminlaydi. Ammo hozirgi davrda akseleratsiya hodisasi janubiy (quyosh nurlari serob) mamlakatlarda shimoliy joʻgʻrofiy kenglikda joylashgan mamlakatlarda ham bir tekis roʻy bermoqda. Ikkinchi tomondan, shahar muhitidagi qizlar va oʻgʻil bolalar qishloq bolalariga qaraganda tezroq voyaga yetishi kuzatilmoqda, vaholanki, qishloq odamlari quyosh nurida koʻproq toblanadilar. Demak, hozirgi davrda geliogen nazariyasi ziddiyatlarga sabab boʻlmoqda. Umuman, oftobda toblanishni akseleratsiya jarayonining muhim jihatlaridan biri deyish notoʻgʻridir.

Geteroziya nazariyasi. Oʻn toʻqqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshlaridan buyon ijtimoiy hayotda, turmushda keskin oʻzgarishlar sodir boʻlgani insonlar oʻrtasidagi ijtimoiy, diniy, milliy, irqiy tafovutlarning kamayishiga olib keldi. Turli millat vakillarining aralash nikohga kira boshlagani bunga yorqin misoldir. Diniy eʼtiqodlar, irqiy farqlar, etnik va milliy xususiyatlar, xarakter, anʼanalar, urf–odatlar, marosimlar, rasm–rusum va hokazolar aralash nikohga hech qanday toʻsiq boʻla olmadi. Hayot tarzi har xil mamlakatlar xalqlariga xos xususiyatlar ham aralash nikohni toʻxtata olmadi. Aralash nikohga kirish tobora kengaymoqda. Mazkur nazariyaga muvofiq psixik dunyodagi qayta qurishlar nasliy belgilar keskin oʻzgarishiga sabab



bo‘ldi, natijada, farzandlarning o‘shida kuchayish, jadallashish, akseleratsiya hodisasi vujudga keldi. Biroq mazkur muammoni ilmiy jihatdan atroflicha asoslab berish uchun yuqorida ta’kidlangan omillar yetarli emas. Shunga qaramay geteroziya nazariyasi biologik o‘shida jadallashish jarayonini vujudga keltirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Urbanizatsiya nazariyasi. Jamiyat rivojlanishida shaharlarning roli ortishi bu nazariyaga asos qilib olingan. O‘n to‘qqizinchi asrning o‘rtalaridan boshlab, qishloq aholisining shaharga ko‘chishi (voqelik tariqasida) avj oldi, ya’ni aholi orasida migratsiya yoki urbanizatsiya hodisasi yuzaga keldi. Shaharning turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlari, axborot tarmoqlarining kengligi, madaniyat darajasi, fan–texnika, transport, maishiy xizmat kabi omillar bolalarning aqliy, axloqiy, jinsiy jihatdan ertaroq voyaga yetishi uchun zarur shart–sharoitlar yaratdi. Qishloq aholisi bilan shahar xalqining yashash muhiti va turmush sharoitining yaqinlashishi akseleratsiya jarayoniga ijobiy ta’sir etdi, lekin bu omilning o‘zi akseleratsiyaning sababi bo‘la olmaydi.

Nutritiv nazariya. Bu g‘oyaning tub mohiyati shuki, o‘shidagi jadallashish (akseleratsiya) odamlarning ovqatlanishi yaxshilanishi, iste’mol qilinayotgan ozuqalarda darmondorilar miqdorining ko‘payishi sababli vujudga keladi. Ushbu g‘oya namoyandalarining fikricha, V–6, V–12 darmondorilari va foliy kislotasini odamlar ko‘proq iste’mol qilishi mazkur holat namoyon bo‘lishining asosiy omili emish. Tabiiyki, inson o‘shining jadallashuvida darmondorilar ma’lum darajada ijobiy ta’sir etishi mumkin, lekin mazkur omillarning o‘zi akseleratsiya uchun muhim va yagona negiz bo‘la olmaydi. Shuning uchun tibbiyot xodimlari gigiyenachilar, biologlar, fiziologlar, psixologlarning ayrimlari bu g‘oyani qo‘llab–quvvatlaydilar. Shuning uchun tahlil qilinayotgan, sharlanayotgan ilmiy nazariya akseleratsiya uchun ma’lum turtki vazifasini o‘taydi.



Nurlanish nazariyasi. Bu nazariya namoyandalarining fikricha, yer yuzida rentgen qurilmalarining ko‘payishi, atom, vodorod va neytron bombalarining portlashi natijasida insonda radioaktiv moddalar, radiatsiya nurlanishi darajasining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Yer kurrasiga tarqalgan zaryadlar bilan inson organizmining nurlanishi o‘shni kuchaytiradi, ya’ni akseleratsiya jarayoni yuzaga keladi. Shuning uchun ushbu nazariyaning himoyachilari turli xususiyatlarga ega bo‘lgan nurlarning aniq dozasi organizmga ta’sir etishi, tarqalishi, yemirilishga sabab bo‘lmasa, insonning jismoniy o‘shisi jadallashishi uchun imkoniyat yaratar emish. Ma’lumki, me’yoridan ortiq rentgen nuridan foydalanish ham organizm uchun zararlidir. Ana shu mulohazaga asoslanib organizm ayrim qismlarining rivojlanishi nurlar bilan bog‘liqdir, degan xulosa chiqarish mumkin. Hatto ayrim ilmiy manbalarda payvandlash apparatining yog‘dusi ham, chaqmoq nuri ham organizmga ijobiy ta’sir qilishi aytiladi. Biroq tom ma’nodagi akseleratsiya uchun mana shu omillarning o‘zi yetarli emas, albatta.

Ijtimoiy sharoitning yaxshilanishi nazariyasi. Yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi, keng ko‘lamda sanitariya va gigiyena tadbirlarining amalga oshirilishi, ovqatlanish sifatining ortishi, ota–onadan farzandga nasliy belgilarning (genlarning) bir tekis o‘tishi kabi omillar akseleratsiya jarayonini tezlashtiradi, degan fikr qator mamlakatlardagi tadqiqotchilar orasida keng tarqalgan. Ularning talqinicha, turmush sharoitining yaxshilanishi, qulayliklar yaratilishi turli imkoniyatlarning ishga solinishi uchun tabiiy zamin tayyorlashi mumkin. Lekin mazkur nazariya amaliy ma’lumotlarni to‘liq, atroflicha ifodalashni taqozo etadi. Shuning uchun mazkur nazariyada masalaga har tomonlama yondashish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Agar ijtimoiy sharoit ilmiy jihatdan chuqur yoritib berilsa, uning ta’sir kuchi yanada ortishi mumkin.

Ijtimoiy akseleratsiya nazariyasi. Bu ilmiy nazariyaning asoschilaridan biri, yirik fiziolog olim A.A.Markosyandir. Uning



ta'riflashicha, hozirgi kishilardagi bilimlar hajmini yigirmanchi asr yarmidagi kishilarning bilimlari hajmiga taqqoslash orqali bolalardagi o'sish jarayonini aniqlash ijtimoiy akseleratsiya deyiladi. Bolalardagi akseleratsiyaning sababi: birinchidan, ota-onalarning umumiy saviyasi yuksalgani, umumiy o'rta ta'limning amalga oshgani; ikkinchidan, ijtimoiy turmushda axborot vositalari tarmog'ining kengaygani, ya'ni radio, televizor, teatr, kino, konsert zallari, madaniyat markazlari, o'quvchilar saroylari va uylari, yosh texniklar va tabiatshunoslar stansiyalarining, ulardagi ishtirokchilarning ko'paygani; uchinchidan, kitob, jurnal, mahalliy matbuot ko'lami va sifatining o'zgarishi, informatika ko'lami kengayishi, internet tarmog'i jadal o'sishi va hokazolardir.

Bizningcha, mana shu omillar qatoriga shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, odamlarning oqilona, odilona muloqotga o'rgangani, jamoa va guruhlarda ijobiy psixologik muhit yaratilgani, asabiylashish, parokandalik kamayganini ham qo'shish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rilgan akseleratsiya nazariyalarini alohida olib qaralsa, mazkur jarayonni tushuntirish imkoniyati torayadi. Shuning uchun ularning ijobiy jihatlari tanlab, muayyan tizimni barpo etish va shu yaxlit tizimdan foydalanib, akseleratsiyaning mohiyati va uni keltirib chiqaruvchi omillarni tushuntirish mumkin.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtayi nazar, pozitsiya, o'zligini anglash, baholash va hokozalar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

O'smir shaxsining tarkib topishida axloq o'ziga xos, ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda, o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni, o'quvchidagi



ishonch, aqida, nuqtayi nazarning qarama–qarshiliklariga duch keladi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof–muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o‘smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo‘ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko‘nikmalarni egallash kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada, favqulodda holatlarga – katta yoshdagi odamlarning tutgan yo‘li va uslubini baholash ko‘nikmasi tarkib topa boshlaydi. O‘smir xulq-atvorini baholashda (rag‘batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat‘iyatliligi, prinsipialligi sinchkov o‘quvchi tomonidan tahlil qilinadi va qo‘llangan tadbirning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi yana bir marta tekshiriladi.

Shuning uchun rag‘batlantirish va jazolash usullari oqilona, o‘z vaqtida qo‘llanishi kerak. Psixologik adabiyotlarda mehnat bilan jazolash o‘smir psixologiyasida keskin o‘zgarish yasashi ifodalangan. Ma‘lumki, hamma o‘quvchilarga mehnatning qahramonlik, yaratuvchilik ekanligi uqtirib kelinadi. Favqulodda mehnatdan jazo sifatida foydalanish ularga mutlaqo yomon ta‘sir etadi.

Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat‘iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma‘naviy, axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallashi natijasida barqaror e‘tiqod va ilmiy dunyoqarash, tarkib topadi, shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

O‘smirlarning ideallari, negizida orzu, maqsad va ularni ro‘yobga chiqarish rejaları namoyon bo‘la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug‘iladi. Orzu–istaklar rang–barangligi bilan bir–biridan keskin ajralib turadi.

O‘smirlar mulohazasini tadqiq qilish ularda axloqiy tushunchalar baravar tarkib topmasligini ko‘rsatdi. A.I.Maliovanov o‘smirlarni to‘rtta guruhga ajratadi:



- 1) xatti–harakatda o‘zlari anglagan, ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so‘zi bilan ishi mos o‘smirlar;
- 2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o‘smirlar;
- 3) xatti–harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan, shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o‘smirlar;
- 4) o‘zlari biladigan axloqiy talablar bilan, kundalik xulq–atvorning aloqasini tushunmaydigan o‘smirlar.

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto‘g‘ri tushunib, shaxsning ba’zi fazilatlarini noto‘g‘ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o‘z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o‘smirlar o‘zlarida salbiy sifatarni o‘stirishga urinishini ko‘rsatdi. Hatto ular o‘zlarida shakllangan ijobiy xislatlarni yo‘qotishga ham harakat qiladilar. O‘qituvchi va ota–onalarning asosiy vazifasi o‘smirlarning noto‘g‘ri qarashlariga zarba berish va ularning adashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdir.

O‘smir o‘g‘il-qizlar shaxsining kamol topishida o‘zini anglash muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘zini anglash jarayonida o‘ziga baho berish mayli va istagi o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o‘ziga bino qo‘yish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bular esa o‘smirning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak–atrofga munosabatining shakllanishiga ta’sir qiladi.

O‘smirlarda o‘zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq–atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi.

O‘smirda o‘zini anglash rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a’zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning xatti-harakati, o‘z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o‘z o‘rnini topishga intilishi o‘zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O‘smirlarda o‘zini anglash yangi bosqichga ko‘tarilgach, ular o‘ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O‘quvchi o‘ziga namuna bo‘lgan shaxsning xulq–atvori bilan o‘zining xatti-harakatini solishtiradi va o‘zining ijobiy yoki



salbiy jihatlarni anglab yetadi. Natijada, unda o‘zini o‘zi tarbiyalashga bog‘liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. O‘smir o‘zini o‘zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o‘rnak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo‘lda uchraydigan to‘siq hamda qiyinchiliklarni yengadi.

O‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat – voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko‘ngil ochish jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o‘z ifodasini topadi. O‘smir o‘z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g‘ashga tegadigan rahbarlikdan, o‘rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g‘amxo‘rlikdan xoli bo‘lish istagi vujudga keladi. Mazkur, jarayon, o‘z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirishgina kattalar bilan o‘smirlar orasidagi “anglashilmovchilik g‘ovi”ni yo‘qotadi.

O‘smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o‘zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha homiylik, g‘amxo‘rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi.

O‘smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B.Elkonin va T.V.Dragunovning ta’kidlashicha, o‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi.

O‘smirlarning o‘rtoqlik va do‘stlik tuyg‘ulari o‘zaro munosabatlarini o‘rgangan I.V.Straxov, ularning o‘zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o‘rtoqlik va do‘stlikka bo‘ladi. Har bir yuksak tuyg‘uni psixologik jihatdan ta’riflab, ularning rivojlanishini bayon qiladi, yuksak insoniy tuyg‘ularning shakllanish sur’ati, barqarorligi o‘g‘il bolalar bilan qizlarda birmuncha farqlanishini ta’kidlaydi.



V.A.Krutetskiy va N.S.Lukinning fikricha, haqiqiy oʻrtoqlik va chinakam doʻstlik – mardonavor oʻrtoqlik va talabchan doʻstlikdir. Bunday oʻrtoqlik va doʻstlik amaliy yordamni va oʻrtogʻining xatolarini toʻgʻri, samimiy va ochiq tanqid qilishni taqozo etadi.

Oʻsmirning sinf jamoasi hayotida faol qatnashish uchun intilishi gʻoyat katta ahamiyatga ega. Sinf jamoasi aʼzolarining oʻzaro yordam, birdamlik, hamdardlik, boʻysunish odati, shaxsiy hamda ijtimoiy qiziqishlarini rivojlantiradi.

Oʻsmirlarning jismoniy oʻsishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida keskin oʻzgarishlarni vujudga keltiradi. Oʻquv fanlarining koʻpayishi, axborotlar tarmogʻining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga koʻtarilgan intellekt oʻsmirlik davrida yanada takomillashadi. Taʼlim jarayonida ular materiallarni tahlil va sintez qilish, muammoning mohiyatiga tushunish jadal surʼatlar bilan oʻsadi. Tafakkurning rivojlanishi intellektni qoʻshimcha maʼlumotlar bilan boyitadi.

Maʼlumki arifmetikadan algebraga oʻtish umumlashtirishning yuqori bosqichiga koʻtarilganini bildiradi. Binobarin, mazkur holatda mavhumlashgan sonlar qaytadan mavhumlashtiriladi, oldin umumlashtirilgan narsa va hodisalar qaytadan umumlashtiriladi. Natijada “mavhumni mavhumlashtirish”, “umumlashmani umumlashtirish” degan ilmiy tushunchalar vujudga keladi.

Oʻsmir oʻquvchilar oʻrganayotgan fan asoslari, avvalo, ularning mavhum tafakkurini oʻstirishga qaratiladi. Uning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri–mavhum tafakkurning rivojlanishidir.

Maktab taʼlimi va mustaqil bilim olish faoliyati taʼsiri ostida, oʻsmirda analitik-sintetik faoliyat jadal surʼat bilan rivojlana boshlaydi. Shuning uchun unda sabab va natijani izohlash uquvi mustahkamlanib boradi. Oʻquvchi materiallarning muhim belgilarini ajratishga, keng maʼnoli umumlashtirishni amalga oshirishga harakat qiladi. Taʼlim jarayonida anchagina mavhum tushunchalar, masalan, matematikada



– nuqta, chiziq, tenglik, fizikada – kuch, solishtirma og‘irlik, tezlik, amper, volt, geografiyada – ekvator, qutb, kenglik, uzunlik, zona, plato, tarixda – qul, davr, shaxsiy mulk, boylik, ekspluatatsiya va hokazolar vujudga keladi.

O‘smirlik davrida o‘quvchilarda analitik–sintetik faoliyat yetarlicha rivojlanmagani, fikr yuritish usullari to‘liq emasligi uchrab turadi. Shuning uchun geometrik masalani yechish usuli yoki isbotlash yo‘li ko‘rsatib berilmasa, qiyinchiliklar tug‘iladi, o‘quvchilar masalani eng oddiy usulda “tavakkal”iga yecha boshlaydilar.

O‘smirlar fikr yuritish faoliyatining xususiyatlaridan biri – yaqqol–obrazli, ko‘rsatmali tafakkur tarkibining muhim rol o‘ynashidir. Ularda mavhum tafakkur o‘sishi bilan yaqqol–obrazli tafakkurning tarkibiy qismi mutlaqo yo‘qolib ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi hamda tafakkurning umumiy strukturasi muhim rol o‘ynaydi.

O‘smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchidan farqli o‘laroq, o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi.

Maktab ta‘limining bevosita ta‘siri bilan o‘smirda o‘zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o‘zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o‘z mulohazasiga ega bo‘lishi uchun harakat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi yoki ota–onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtayi nazardan qaraydi. Ko‘pincha, o‘qituvchining mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o‘z gapida turib, ayrim fikrlarga qat‘iy e‘tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyil bo‘ladi.

Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida “anglashilmovchilik g‘ovi”ni vujudga keltiradi. Aqlning “tanqidiyligi” o‘smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u o‘z g‘alalar fikrini turli bahonalar, sabablar bilan yo‘qqa chiqarishga qaratilgan bo‘ladi.



Tafakkurning mustaqilligi inson uchun juda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda, har qanday og‘ir shart–sharoitlarda ham turli usullar bilan bu xislatni qo‘llab–quvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, dastlabki davrda o‘smirning nuqtayi nazarini, mulohazalaridagi xatolarini, muvaffaqiyatsizliklarni yomonlash, uni izza qilish, izzat–nafsiga tegish, masxaralash mutlaqo mumkin emas. Aks holda o‘smir aqlining ajoyib sifati barbod bo‘ladi va uning o‘zi jamiyat hamda tabiat qonunlariga, holatlariga befarq qaraydigan shaxsga aylanib qoladi.

O‘qituvchi o‘quvchining aql–zakovatini to‘g‘ri rivojlantirish uchun har bir imkoniyatni to‘la ishga solishi:

1) o‘smirlarga to‘g‘ri ta’riflashni, tahlil qilishni, taqqoslashni, materiallarni mavhumlashtirish va umumlashtirishni o‘rgatishi;

2) ularga o‘z fikrini to‘g‘ri, ravon va aniq ifodalash yo‘lini tushuntirib berishi lozim. Mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish kabi aqlning turli shakllaridan foydalanish o‘smirlarda aqliy, faoliyat ko‘nikma va malakalarini o‘stiradi, natijada, jadal rivojlanish pallasi amalga oshadi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun, avvalo, o‘smirlar oldiga turli obyektlarni mustaqil holda taqqoslash, ulardagi o‘xshash va tafovutli jihatlarni topishni yuklash kerak. Buning uchun ularning diqqatini quyidagi savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir: “Bu holatda qanday umumiylik mavjud?”, “Ushbu narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir–biridan farqlanadi?”, “Mazkur narsalar va hodisalar o‘rtasida qanday o‘xshashlik belgisi bor?” va hokazolar.

Botanika darslarida o‘quvchilarga mox (yo‘sin) bilan suv o‘tini, zamburug‘ning poyasi bilan ildizini taqqoslashni tavsiya etib, poyaning ildizdan, sporaning urug‘dan nimasi bilan farqlanishini aniqlashni topshirish foydalidir.

O‘smir aql–zakovatini kamol toptirish uchun ularga doimo mantiqiy tafakkur usullarini o‘rgatib borish zarur. Bunda, mantiqiy



xatolarni tuzatib borishni aslo yoddan chiqarmaslik kepak. O‘smirda to‘g‘ri mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o‘quvchilarga to‘g‘ri jumla tuzishni, ravon mulohaza yuritishni, fikrlashni, yozishni o‘rgatib boradi.

O‘qituvchilar jamoasi har qancha urinishidan qat‘i nazar ta‘lim jarayonida tarbiyasi qiyin o‘smirlar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda, bunday o‘quvchilar bilan yakkama–yakka ishlash usuli yaratilgan, fe‘l–atvordagi nuqsonlarning xatti–harakati nosog‘lomligining oldini olish va tuzatish yo‘llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tarbiyasi qiyin; injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O‘quvchilarda nojo‘ya xatti–harakatlar paydo bo‘lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishni darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o‘smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar (tartibbuzar) guruhlarga ajratiladi.

Shaxsning biologik o‘shidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o‘qishga salbiy ta‘sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyin o‘smirlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o‘shidagi kamchiliklar, chunonchi, aql–idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo‘shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o‘smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o‘rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti–harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hisslarning yetishmasligi, o‘qituvchi, sinf jamoalari, oila a‘zolari bilan noto‘g‘ri muloqot, ishyoqmaslik, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, o‘quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktab faoliyatidagi: o‘qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular



jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik–psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota–onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri, madaniy–ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Tarbiyasi qiyin bolalarni o'rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag'batlantirish, bo'ysundirishdan, qo'rqitish, “sun'iy qiyin holatni yaratish” singari usullardan foydalaniladi. Shulardan ayrimlarining mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Odatda, novella, voqea, hikoya, sarguzasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish o'smirlar xatti–harakatining sabablarini o'rganishda yaxshi samara beradi. O'qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar xodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin o'smirlarga tegishli asardan parcha o'qib beriladi, so'ng ularda qanday qo'zg'alish yoki ta'sirlanish paydo bo'layotganligi kuzatiladi. Tajriba qoidasiga binoan o'qilgan parchada o'smirlarning sarguzashti, ajoyibot va g'aroyibotlar o'z aksini topishi shart.

Agar usul o'zining ijobiy natijasini ko'rsata olmasa, boshqa vositalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Navbatdagi bosqichda ulardan o'qilgan asar personaji yoki bosh qahramonining o'rnida bo'lganida qanday ish tutishi so'raladi. Shu yo'l bilan har bir o'smirni, qanday hodisalar qiziqtirishi va unda qanday salbiy xatti–harakat yoki illat mavjudligi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda har bir o'smirdan asarning bosh obrazi yoki personajiga munosabatini so'rashi lozim. Chunki shaxsiy mulohazalar zaminida o'smirning ruhiy dunyosidagi turli kechinmalar aks etadi. Shu tufayli ularning nojo'ya xatti–harakatlari nimalar bilan bog'liq ekanligi o'qituvchiga ayon bo'ladi.

Tajriba o'tkazishda matnni o'qilganda psixologik pauzaga, ravon ohangga, o'qish sur'ati va ritmiga alohida e'tibor berish lozim. Ana shu qoidalarga rioya qilinsagina matnning ta'siri ortadi, o'smirdagi



muayyan kechinmalarning tashqi ifodasi tez ko‘riladi. O‘smirlar xususiyatiga mos matnlarni tanlash, ularning hajmiga va mazmuniga e‘tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi. Tanlangan matnlar tarbiyasi qiyin o‘smirlarning o‘ziga xos va yosh xususiyatlariga, ichki imkoniyatlariga mutlaqo mos bo‘lishi shart.

Qonunbuzarlikning sababini aniqlash usullaridan yana biri – syujetli fotosuratlar yoki rasmlar bilan tajriba o‘tkazishdir. Buning ma‘nosi va maqsadi o‘smirlarning salbiy xatti–harakatlarini keltirib chiqaradigan qanday motivlar mavjudligini, shuningdek, ular qaysi ta’sirlarga osonroq berilishini aniqlashdir.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlardagi xususiyatlarni o‘rganishning yana bir yo‘li alohida–alohida suhbat o‘tkazish orqali ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishdir. Suhbat kezida yaxshi va yomon xulq–atvor, xatti–harakatlar yuzasidan keng ma‘lumotlar to‘planadi. Mazkur jarayonda amalga oshiriladigan har xil xatti–harakatlarni baholash, ularni sharhlab berish lozim. Xatti–harakatni baholashda o‘smirga qo‘yilgan ayb yo tan olinadi yoki u mutlaqo inkor etiladi. Biroq o‘tkazilgan suhbatlar o‘smirning psixik dunyosiga shunday nozik ta’sir qilishi kerakki, natijada, unda vijdon azobi, o‘ng‘aysizlik tuyg‘usi vujudga kelsin. O‘smir shaxsiyatiga tegadigan muomala qilish man etiladi. Hamma vaqt suhbat davomida iliq psixologik iqlim, do‘stona munosabat, qulay mikromuhit bo‘lmog‘i shart. Faqat shundagina mavjud imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish mumkin. O‘smirlar bilan suhbat orqali ularning kelajak rejalari, orzu–umidlari, intilishlari, jismoniy va aqliy mehnatga yaroqliligi aniqlanadi.

O‘smirlarni tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o‘z xatolarini bilib turib qonun qoidalarni buzadilar, noma‘qul ishlarni qiladilar. Ko‘pincha, ular o‘zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim



kamchiliklarni tanqid qiladilar. Lekin yutuqlarni e'tirof qilishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullashni va o'z talablarini o'zgarar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Bunday bolalar betga chopar, o'jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, "zo'ravon" bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli "orqa qanoat"da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir. Ular tashviqotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq "kompaniya" fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha, tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tganidan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar, biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xohishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar, ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xohishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi, xolos.

Injiq tabiatli o'smirlar to'rtinchi guruhga mansub bo'lib, ular sinf jamoasida o'z o'rinlarini topa olmaganidan qayg'uradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon, arazchi bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek, kechinmalar bilan yashaydilar. Bunday holatning vujudga kelishiga asosiy sabab shaxsiy imkoniyatlardan ko'ra intilish,



mayl va obro‘ ketidan quvishning ustunligidir. Ular jamoa a‘zolarining hurmatiga sazovor bo‘lishni xohlaydilar. Ko‘pincha, tundlik bilan ish tutadilar, biror narsaga xayrixohliklari yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o‘z imkoniyati, aqliy, quvvatiga ishonchsizlik ularga xos xususiyatlardir. Ular qonun va qoidalarni buzishga astoydil harakat qilmasalar-da, ta‘lim va tarbiya jarayonida qiyinchilik tug‘diradilar.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo‘nalishga burib yuborish uchun ularda mas‘uliyat, g‘urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, tirik burchakni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe‘l-atvorlarini kamaytirish mumkin. Ularni o‘zlari qiziqqan to‘garaklarga jalb qilish orqali o‘qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo‘qotib boriladi.

Tarbiyasi qiyin o‘smir o‘quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e‘tibor berish kerak.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasi.

I. Shaxsning biologik nuqsonlari:

- a) sezgi organlaridagi kamchiliklar;
- b) o‘qishga salbiy ta‘sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;
- d) psixopatologik ojiqliklar.

II. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

- a) aqlning bo‘sh o‘sganligi;
- b) irodaning zaifligi;
- d) shaxsda hissiyotning kam rivojlangani;
- g) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;
- d) o‘smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibli.

III. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar:

- a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;



b) o‘smirning o‘qituvchi, sinf jamoasi va oila a‘zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;

d) mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

g) bo‘sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar.

IV. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

a) bilimlar, maxsus ko‘nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

b) ta‘lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi.

V. Maktab ta‘limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta‘lim jarayonida bilimlar va xatti–harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o‘quv qo‘llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va hokazolar;

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar o‘qituvchining o‘smirga xayrixoh emasligi, o‘quvchining ikkilanishi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o‘z o‘rnini topa olmaslik va boshqalar.

VI. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;

b) oilaning buzilishi va oilaviy nizolar;

d) ota–ona yoki oila a‘zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

g) oila a‘zolari o‘rtasida sudlangan odamning uchrashi;

d) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo‘li egrilikka) o‘rgatishi va hokazo;

y) madaniy–ma‘rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari.

O‘smirlik davriga kelib, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy faoliyati taraqqiyotida muhim siljishlar yuz beradi. Ularning jismoniy rivojlanishi, jinsiy balog‘atga yetishi psixikasida keskin o‘zgarishni vujudga keltiradi. O‘quv fanlarining ko‘payishi, axborotlar



tarmog‘ining kengayishi fikr yuritishni jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchida ma‘lum taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan tafakkur o‘smirlik davriga kelib o‘zining yana bir yuqoriroq pallasiga ko‘tariladi. O‘qitish jarayonida ularda o‘rganilishi zarur bo‘lgan materiallarni analiz va sintez qilish, ya‘ni analitik–sintetik faoliyat hamda mavhum tafakkur jarayonlari jadal sur‘atlar bilan taraqqiy eta boshlaydi. Tafakkurning rivojlanishi uchun mazkur yosh davrida matematika, ona tili, geografiya, fizika, biologiya kabi fanlar muhim imkoniyatlar yaratib beradi.

Sobiq sovet psixologiyasi fanining asoschilaridan biri L.S.Vigotskiy tafakkur muammosini o‘rganib, ko‘proq umumlashtirish va abstraksiyalash ustida to‘xtalib, ularni gruppalariga, turlarga ajratib o‘rganishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, umumlashtirish va mavhumlashtirishning yuqori bosqichi yuzasidan mulohaza yuritib, “umumiylikni umumlashtirish”, “mavhumni mavhumlash” degan tushunchalarni birinchi bo‘lib psixologiyaga olib kiradi. Bu holat bir fanda o‘zlashtirilgan bilimlarning ikkinchi bir fanda uchrashi paytida sodir bo‘lishi mumkinligi asoslab ko‘rsatiladi. Masalan, arifmetikadan algebra tomon yoki planimetriyadan steriometriya sari, tabiiy geografiyadan iqtisodiy geografiyaga o‘tish va boshqalar.

Yirik sobiq sovet psixologlaridan biri P.P.Blonskiy tafakkur bir davrning o‘zida ikki yo‘nalishga qarab, ya‘ni mavhumdan yanada mavhumba, yaqqoldan undan ham yaqqolroq holatga qarab o‘sib o‘tishi ustida fikr yuritadi. Uning fikricha, tafakkur taraqqiy qilib borishi natijasida o‘smirlar ma‘lum qonun va qoida asosida aqliy mehnat qilishga odatlanadilar. Natijada, o‘quvchilar o‘z xatti-harakatlari va intellektual faoliyatlarini nazorat qilishga o‘rganadilar. Ularning o‘z-o‘zini nazorat qilishi to‘rt bosqichda tarkib topadi. Birinchi bosqich o‘z-o‘zini nazorat qilishning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchi materialni sidirg‘asiga takrorlash asosida o‘z fikr yuritish faoliyatini tekshiradi. Shuning uchun bu bosqich o‘z-o‘zini to‘liq nazorat qilish bosqichi deyiladi.



Uchinchi bosqich «tanlab nazorat qilish bosqichi» deb yuritilib, unda o‘quvchi materialning asosiy qismini idrok qila olishini tekshirgan bo‘ladi. To‘rtinchi bosqichda unda o‘z-o‘zini nazorat qilish funksiyasi yana yo‘qoladi, faqat natijalarni bir necha asosiy va muhim belgilariga qarab mulohaza yuritishi ko‘zga tashlanadi va hokazo.

S.L.Rubinshteyn umumlashtirishni empirik (amaliy), nazariy va deduktiv (umumiydan xususiyga) umumlashtirish turlariga ajratib o‘rganadi. Muallifning mulohazasiga ko‘ra, umumlashtirish yordamida muammolar yo asta–sekin (empirik), yoki «birdaniga» (nazariy) hal qilinishi nazarda tutiladi. Mavhum tafakkurni o‘stiruvchi birdan bir yo‘l – muammoli vaziyatdir, deb tushuntiradi tadqiqotchi. Muammoli vaziyat abstrakt tafakkurni o‘stirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ijodiy tafakkurni har tomonlama taraqqiy ettirishi mumkinligi ta’kidlab o‘tiladi. S.L.Rubinshteyn ta’limda tafakkur shakllari, chunonchi, tushunchalar, hukm va xulosa chiqarishning tarkib topishi va rivojlanishi to‘g‘risida ham nazariy, ham amaliy xususiyatga ega bo‘lgan fikrlarni bildiradi. U mavhum tafakkurning rivojlanishi matematik–tabiiy sohadagi fanlar zimmasiga tushishini alohida uqtiradi.

N.D.Levitov o‘smirlarda tafakkur muammosining kechishini o‘rganib, asosiy e’tiborini quyidagi ko‘rsatkichlarga qaratadi. Uning fikricha, tafakkur taraqqiysi uchun ushbu ko‘rsatkichlar mutlaqo zarurdir;

- a) tafakkurning mustaqilligi;
- b) o‘quv materialining tez va puxta o‘zlashtirilishi;
- d) aqliy topqirlik;
- g) muammo mohiyatiga chuqur kirib borish, ya’ni muhim alomatni nomuhimidan ajrata bilish;
- v) tafakkurning tanqidiyligi va boshqalar. Bizningcha, muallif tomonidan ajratilgan tafakkurning rivojini ko‘rsatuvchi mezonlar yetarli emas. Chunki tafakkur o‘sishi uchun mutlaqo shart bo‘lgan baholash, sabab–oqibat, muammoni hal qiluvchi usullar va ularning



yangi sharoitga ko‘chish, mantiqiy fikr yuritish yo‘llarini egallash singari tarkiblar yetishmaydi.

M.N.Shardakov sababiy bog‘lanishning tutgan o‘rni va uni o‘stirish yo‘llari to‘g‘risida mulohaza yuritadi. Ta’lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalarining taraqqiy qilish bosqichlari bayon qilib o‘tilgan. Tafakkur operatsiyalarini o‘quvchilar ongida tarkib toptirishning ta’limdagi o‘rni, o‘quv materiallarini oson o‘zlashtirish imkoniyatining tug‘ilishi, tushunishning osonlashuvi, bilishga qiziqishning ortishi kabi muhim masalalar M.N.Shardakov tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Tafakkurning o‘sishi o‘qitiladigan fan ta’siriga bog‘liq ekanligi muallif tomonidan alohida ta’kidlanadi.

M.N.Shardakov tadqiqotlarida tafakkur shakllarining o‘quvchilarda tarkib topishi natijasida tafakkurning mantiqiyliги ortib borishi masalasi ochib berilgan. Ayniqsa, ilmiy tushunchalarni shakllantirish, narsa va hodisalar to‘g‘risida obyektiv hukm chiqarish masalasiga keng o‘rin berilgan. Shuningdek, xulosa chiqarishning induktiv, deduktiv va analogik yo‘llarining o‘quvchilar yosh davriga qarab o‘zgarish psixologiyasiga muhim o‘rin ajratilgan.

Ma’lumki, arifmetikadan algebraga o‘tish umumlashtirishning yuqori darajaga ko‘chganligini bildiradi. Binobarin, mazkur holatda dastavval mavhumlashtirilgan sonlar qaytadan mavhumlashtiriladi, oldin umumlashtirilgan narsa va hodisalar, jism va predmetlar qaytadan umumlashtiriladi. Natijada “mavhumni mavhumlash”, “umumlashmani umumlashtirish”– degan yangi tushunchalar vujudga keladi.

O‘smir yosh davridagi o‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan barcha fan asoslari, avvalo, ularning mavhum tafakkurini o‘stirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘smir aqliy (o‘quv) faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri. Mavhum tafakkurining kamol topishidan, yaqqol–obrazli tafakkur bilan mavhum tafakkur o‘rtasidagi munosabatning abstrakt tafakkur foydasiga hal bo‘lishidan iboratdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar yaqqol fikrlashdan, o‘smirlik davriga o‘tib



mavhum tafakkurga asoslanib, fan asoslarini o‘zlashtirishga harakat qiladilar.

Endi o‘smirlar faqat yaqqol omillar qiziqishdan tashqari, ularning analizi bilan ham qiziqqa boshlaydilar. Bundan tashqari, o‘quvchilarda sabablarni izohlash tendensiyasi mustahkamlana boradi. Natijada, ular materiallardan muhim belgilarni ajratishga, keng ma’noli umumlashtirishni amalga oshirishga harakat qilishadi. Ta’lim jarayonida ko‘pgina mavhum tushunchalar vujudga keladi, jumladan, matematikada – nuqta, chiziq, burchak, tenglik, fizikada – kuch, solishtirma og‘irlik, tezlik, amper, volt, geografiyada – ekvator, qutb, kenglik, uzunlik, zona, plato, tarixda – qul, davr, xizmatkor, shaxsiy mulk, boyluk va boshqalar.

V.I.Zikovaning fikriga ko‘ra, oltinchi sinf o‘quvchilarining muhim psixologik xususiyatlaridan biri shundan iboratki, agar chizmada ifodalangan yaqqol shakldan sal chetlashish holati yuz berib qolsa, u taqdirda geometrik isbotlashlarni o‘zlashtirish qiyinlashadi. Chunki mazkur yoshdagi o‘quvchilarda hali isbotlanayotgan holat chizmadan tashqari ko‘pgina boshqa vaziyatlarga ham taalluqli ekanligi to‘g‘risida, uning umumiy ahamiyat kasb etishi haqida tushuncha o‘qib to‘liq anglanmagan bo‘ladi. Olimaning ta’kidlashicha, oltinchi sinf o‘quvchilari, bundan tashqari, yana qator qiyinchiliklarni ham boshdan kechiradilar. Bu qiyinchiliklar ham bir vaziyatni geometrik isbotlash orqali asoslab berishdan yoki mulohaza qilish ketma–ketligini izchil saqlash zarur deb tushunishdan kelib chiqadi. Ularning tipik xatolari quyidagilardan iborat: ayrim joylarini tushirib qoldirish, ba’zi joylarini o‘zgartirish, isbotlashning tarkiblarini qaytadan takrorlash, tarkiblariga ortiqcha fikrlarni olib kirish, asoslashni tushirib qoldirish va hokazo.

O‘smirlik davrida o‘quvchilar analitik–sintetik faoliyatning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, fikr yuritish usullari bilan to‘liq tanish emasliklari uchrab turadi. Shuning uchun geometrik masalani yechish usulini yoki isbotlash yo‘lini ko‘rsatib bera olmasa, u holda



qiyinchiliklar tugʻiladi. Shu sababdan oʻquvchilar masalani eng oddiy usul yordamida “tavakkal”iga yechish yoʻlidan boradilar.

Baʼzan oʻsmirlar sabab–oqibat munosabatini aniqlash paytida qiyinchiliklarga duch keladi. Ular narsa va hodisalarning sodir boʻlishi sababini qidirib topish, uning oqibatini aniqlashni nisbatan yengilroq uddalaydilar.

Oʻsmirlar fikr yuritish faoliyatining navbatdagi xususiyatlaridan biri yaqqol-obrazli (koʻrsatmali) tafakkur jabhasining hali ham muhim rol oʻynashi hisoblanadi. Oʻsmirda mavhum tafakkurning oʻsishi bilan yaqqol-obrazli tafakkur tarkiblari mutlaqo yoʻqolib ketmaydi, balki ular saqlanib qoladi, taraqqiy etadi hamda tafakkurning umumiy tuzilishida muhim rol oʻynashni davom ettiradi (ayniqsa, V–VI sinf oʻquvchilari faoliyatida).

A.Z.Redkoning tarixiy tushunchalarni oʻzlashtirishga doir materiallarida koʻrsatilishicha, oʻsmirlar yaqqol tasavvur qilish mumkin boʻlgan tushunchalarni oson egallab oladilar. Masalan, “qul” tushunchasida eng avval qullarning majburiy mehnat qilish belgisini, “quldor” tushunchasida esa boyluk belgisini osonlik bilan oʻzlashtiradilar. Biroq “quldorlik tuzumi”, “feodalizm” va boshqa yetarli darajada konkret boʻlmagan tushunchalar esa ular ongiga ancha qiyinchilik bilan yetib boradi. Xuddi shunday mashaqqatlar geometriya, fizika, geografiya, biologiya fanlariga taalluqli tushunchalarni oʻzlashtirish paytida ham sodir boʻlganligi oʻqituvchilar tajribasida koʻp marta qayd etib oʻtilgan.

Tarix faniga oid rasmlarni, polotnolarni, illyustratsiyalarni koʻrgan paytida ham oʻsmir oʻquvchilar koʻrsatmali qoʻllanmalarni muhim boʻlmagan belgisiga asoslanib idrok qilish tufayli notoʻgʻri tasavvurlarga ega boʻladilar. Masalan, “xon” deganda, oʻsmirlar koʻz oʻngida uzun soqolli, barvasta, qozonday sallali, qahr–gʻazabli kishi gavdalansa, “chorakor” deganda yupun kiyingan, ozgʻin, hamisha boy oldida yetti bukilib sajda qiluvchi, kamonqomad, oʻrta yashar



shaxs gavdalanadi. Biroq shu misollardagi kishilar mutlaqo boshqacha qiyofada bo‘lishi mumkinligini xayoliga keltirmaydilar.

O‘smir uchun eng ahamiyatga molik xususiyatlardan yana biri – tafakkurning mustaqilligi, tanqidiyligi shiddatli taraqqiyot pallasiga kirishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilardan farqli o‘laroq, o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganligidan darak beradi.

Maktab ta‘limining bevosita ta‘siri ostida (mustaqil bilim olish faoliyati nazarga olinmayapti) o‘smirda o‘z–o‘zini anglash jarayoni kamoloti uchun xarakterli bo‘lgan fikrlash taraqqiy eta boshlaydi. U o‘zining shaxsiy fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o‘z mulohazasiga ega bo‘lish uchun harakat qiladi. Shuning uchun o‘smir o‘qituvchi yoki ota–onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga nisbatan tanqidiy nuqtayi nazardan qaraydi. Ko‘pincha o‘qituvchi mulohazasidan yoki darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o‘z pozitsiyasidan turib, fikrlarga qat‘iy e‘tiroz bildirishga, hatto tortishishga mayli kuchli bo‘ladi.

Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasida “anglashilmovchilik g‘ovi”ni vujudga keltiradi. Bu, albatta, o‘qituvchidan psixologik–pedagogik odobga rioya qilishni va uning chegarasidan chiqmaslikni talab etadi. Agarda o‘qituvchi o‘quvchining individual va yosh xususiyatini to‘la bilmas ekan, u holda ta‘lim va tarbiyada maqsadga muvofiq rivojlanish o‘z–o‘zidan yo‘qqa chiqadi. Shuning uchun hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri, pedagogning to‘la psixologik bilimga ega bo‘lishidir. O‘qituvchining psixologik savodsizligi salbiy oqibatlariga olib kelishi ko‘pgina tadqiqotchilar izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

“Tanqidiylik” o‘smirlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u o‘zgalar fikrini turli bahonalar, sabablar bilan yo‘qqa chiqarishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu yosh davrda o‘zgalar fikri bilan hisoblashish yoki o‘zgarmas “xislat” deb mulohaza yuritmaslik kerak. Chunki o‘tish davrida parokandalik tez-tez ko‘zga tashlanib turadi.



Uning oldini olishga harakat qilish, profilaktik ish olib borish ilg'or o'qituvchilar tajribasida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, muammo dalilli fikr bilan to'la asoslanganda, o'smir u haqda oqilona hukm chiqarib, so'nggi yo'lning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Tafakkurning mustaqilligi inson uchun juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda, har qanday og'ir shart-sharoitlarda ham turli usul va yo'l, har xil metod bilan bu xislatni qo'llab-quvvatlashi, o'stirishi, voyaga yetkazishi va avaylashi kerak. Yana shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, dastlabki davrda o'smirning u yoki bu pozitsiyada mustaqil, tanqidiy yondashish vaqtida uning mulohazalaridagi bo'sh va zaif tomonlarni, umuman, muvaffaqiyatsizliklarini ta'na qilish, izza qilish yoki izzat-nafsigaga, shaxsiyatiga tegish, kulish mutlaqo mumkin emas. Aks holda biz o'smir tafakkurini ajoyib sifatidan judo qilib, uni jamiyat va tabiat qonuniyatlariga befarq qaraydigan qilib qo'yishimiz mumkin. O'smirda vujudga kelayotgan mazkur aql sifati shuning bilan izohlanadiki, o'smir tafakkuri, ya'ni aqlning tanqidiyligi o'z-o'zini tanqid qilish faoliyatidan keyin taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Bunday hollarda o'qituvchi xushmuomalalik va ustalik bilan shunga o'xshash tortishuvlarning, e'tirozlarning o'rinsizligini ko'rsatib berishi lozim hamda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun boshqacharoq yo'l-yo'riqlar ko'rsatishi kerak.

Qanday qilib o'smirlar tafakkurini shakllantirsa bo'ladi?

O'qituvchi tafakkurni to'g'ri rivojlantirish uchun har bir imkoniyatni to'la ishga solishi lozim:

1) o'smirlarni to'g'ri ta'rif berishga, analiz qilishga, taqqoslashga, abstraksiyalash va umumlashtirishga o'rgatishi(shart);

2) o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq izhor etish yo'lini tushuntirishi;

3) mustaqil ravishda hukm va xulosa chiqarish, mulohaza yuritish kabi fikr yuritish shakllari ularda aqliy ko'nikma va malakalarni o'stiradi va oqibat natijada rivojlanish amalga oshiriladi.



Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, o‘smirlar oldiga turli–tuman obyektlarni mustaqil taqqoslash, ulardagi o‘xshashlik va tafovutni topish zaruriyatini qo‘yish shart. Buning uchun o‘smirlar diqqatini ushbu savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Bu holatda qanday umumiylik mavjud?”, “Ushbu narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi?”, “Mazkur narsalar va hodisalar o‘rtasida qanday o‘xshashliklar bor?” va boshqalar.

Botanika darslarida o‘quvchilarga mox (yo‘sin) bilan suv o‘tini, zamburug‘ning poyasi bilan ildiz sistemasini taqqoslashni tavsiya etib, poyaning ildizdan, sporaning urug‘dan nimasi bilan farqlanishini aniqlash kabi vazifalar berish foydalidir. Ushbu natijalar psixolog Y.M.Kudryavseva tadqiqotlaridan bir namuna sifatida keltirib o‘tildi, xolos. Boshqa fanlar bo‘yicha ham xuddi shunga o‘xshash topshiriqlar berish mumkin: “Romb bilan kvadratni taqqoslang”, “Ravishdoshdan sifatdoshni qanday ajratsa bo‘ladi?”, “Kislorod bilan vodorodni solishtiring”, “Birhad ko‘phaddan qaysi tomonlari bilan farq qiladi?”, “Quldorlik tuzumi bilan feodal tuzum o‘rtasida qanday o‘xshashlik va tafovutli jihatlarmavjud?”, “Tog‘ daryolari va pasttekislik daryolari o‘rtasida qanday o‘xshashliklar ko‘zga tashlanadi?” va hokazo.

Psixolog V.A.Krutetskiy o‘smir tafakkurining mustaqilligini faollashtirish maqsadida yangi o‘quv materialini evristik yo‘l bilan o‘zlashtirish foydali ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Muallif muammoli–evristik metodning birin–ketin, ya’ni tadrijiy uch bosqichdan iboratligidan xabar beradi.

Birinchi bosqichda o‘qituvchi tinglovchilar oldiga muammo qo‘yadi va uning ta’rifini aytib o‘tadi, o‘quvchilar esa muammoni yechish uchun mustaqil yo‘l–yo‘riq qidiradilar.

Ikkinchi bosqichda esa o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoni mustaqil ta’riflash vazifasini qo‘yadi, lekin uni yechishga yo‘llanma beradi.



Uchinchi bosqichda bo‘lsa, o‘qituvchi muammoga ishora qilmaydi, balki o‘quvchilarni muammoni mustaqil analiz qilib chiqish, undan so‘ng ta‘riflash, yechish usullari va imkoniyatlarini qidirib topishga o‘rgatadi.

V.A.Krutetskiy tadqiqotidan ushbu misolni keltirib o‘tishni lozim deb topdik: Teorema, – “Uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi $2d$ ga teng”.

Birinchi bosqich. O‘qituvchi deydi: “Har qanday uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi 180 gradusga teng. O‘ylab ko‘ring, qanday qilib bu teoremani isbot qilish mumkin?”.

Ikkinchi bosqich. O‘qituvchi: “Uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi nimaga teng ekanligini isbotlashga va aniqlashga harakat qilib ko‘ring. Bu o‘lchov doimiy bo‘lishi mumkinmi?”.

Uchinchi bosqich. O‘qituvchi: “Uchburchak xossasini qidirib toping. Bu shaklning qaysi xossasini bilish zarur va qaysi biri qiziqarli?”. O‘quvchi taxminan mana bunday javob berishi mumkin: “Ichki burchaklar to‘g‘risida tasavvur qilish juda qiziqarlidir. Shuningdek, burchaklarning turli hajmda, doimiy o‘lchov miqdoriga tengligi yoki teng emasligi to‘g‘risidagi fikr ham kam ahamiyatli emas”.

Sobiq sovet psixologiyasida tafakkurni rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar ichida M.N.Skatkinning ishi alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘smirlarning mustaqil fikrlashini o‘stirish maqsadida quyidagi usulni tavsiya qiladi. O‘qituvchi sinfga pomidor, bodring, ko‘knor hosilini olib kiradi.

O‘qituvchi: Biz sizlar bilan o‘simlikning tana, barg qismlarini o‘rganganmiz. Endi o‘simlikning meva qismi haqida fikr yuritamiz. Biz hosil nima ekanligini va u nima uchun xizmat qilishini aniqlashimiz shart. Mana hosil. Nega bodring, pomidor, ko‘knor mevasi bir xil nom bilan “hosil” deb ataladi? Ehtimol, ularning shakli bir xildir?

O‘quvchi: Yo‘q, ularning shakli har xil. Pomidor dumaloq, bodring cho‘zinchoq, ko‘knor esa kichkina ryumkaga o‘xshaydi.



O‘qituvchi: Qani, rangi bir xil emasmikin?

O‘quvchi: Yo‘q, ranglari turlicha. Pomidor qizil, bodring yam-yashil, ko‘knor esa sarg‘ish.

O‘qituvchi: Ularda shakl, rang va maza – umumiy hamma narsa turlicha ekan, nima uchun bari “hosil” deyiladi? Demak, nimasidir umumiyga o‘xshaydi. Nima ekan u?

O‘quvchi: Ularning umumiy tomoni – bizning yeyishimiz va mazasi.

O‘qituvchi: Go‘shtli kotletni ham yeymiz, u ham mazali. Unday bo‘lsa kotlet ham hosil ekan-da?

O‘quvchi: Ularning barchasi shoxlarda o‘sadi.

O‘qituvchi: Bu to‘g‘ri, ammo barg ham, gul ham shoxchalarda o‘sadi, lekin ular meva yoki hosil emas–ku! Men sizga yordamlashaman. Qani, sen stolga yaqin kel va hosilni o‘rtasidan kes. (O‘quvchi ularni o‘rtasidan kesadi).

O‘quvchi: Men topdim. Ularning hammasining urug‘i bo‘lar ekan.

O‘qituvchi: Juda soz. Urug‘ o‘simlikning ko‘payishi uchun xizmat qiladi. Daftarga hosilni chizib, xulosani yozib qo‘ying.

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari o‘quvchining fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. Muammo mohiyatini ochishga tarqoq fikrlar to‘plandi, har bir oddiy aqliy harakat maqsadga yo‘naltirildi.

Kichik yoshdagi o‘smirlar tafakkuri yaqqol xususiyatga ega bo‘lishi munosabati bilan o‘qitishni ba‘zan ko‘rsatmali qurollar asosida tashkil etish talab qilinadi. Lekin doimo darslar ana shu yo‘sinda olib borilishi shart degan xulosaga bormaslik kerak. O‘smir tafakkurining butunlay hissiy–yaqqollikka bog‘lanib qolishining oldini olish maqsadida, quruq taassurotni ko‘pincha so‘z bilan ifodalab, goho ularning turli obrazlari bilan tanishtirib borish ba‘zi salbiy ta’sirdan saqlaydi. Shuning uchun so‘z orqali faqat muhim belginigina emas, balki uning muhim bo‘lmagan belgiga tayangan turli ko‘rinishini ham ifodalash mumkin.



Bundan tashqari, o'smirlar tafakkurining taraqqiyotiga salbiy ta'sir etadigan yana bir narsa "turmushda" shakllangan g'ayrilmiy tushunchalarni ta'lim jarayonida qo'llashdan saqlanish o'qitish samaradorligini keskin ravishda oshiradi.

Ko'pgina sobiq sovet psixologlari va pedagog olimlarning fikriga qaraganda, noto'g'ri umumlashtirish jarayoni vujudga kelmasligi uchun o'rganilayotgan umumiy qoidadan tashqari bo'lgan ko'rsatmani mavzu tushuntirilgandan so'ng tavsiya etish imkonligi ta'kidlanadi. O'zlashtirilayotgan tushunchani amaliy tatbiq etib ko'rish yoki tadrijiy ravishda mashq qilish mazkur tushunchalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Binobarin, o'qitishda materiallarni turli variantlari, variatsiyalari, ko'rinishlari bilan tanishtirish chalkashliklarga barham beradi.

Bu degan so'z boshqa fan o'qituvchilari bu sharaflil vazifadan mustasno degan gap emas. Balki barcha pedagogning maqsadi yagona, u ham bo'lsa – o'quvchilarga puxta bilim berish va ularni kelajakning munosib, keng tafakkurli yoshlari qilib tarbiyalashdir.

Yirik sobiq sovet psixologi N.A.Menchinskaya o'quvchilarning tafakkuri taraqqiyotini aniqlashda ularning mavjud bilim fondini, bilimlarni amalda qo'llash darajasini hamda mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini belgilashga intiladi. Olima bu asnoda o'zlashtirish sur'atiga, yaqqol va mavhum tafakkur turlarining o'zaro aloqasiga, analitik-sintetik faoliyat bosqichiga ahamiyat beradi. Bunda, tadqiqotchi uchun eng muhim jihat – o'quvchilar fikrini xususiyan umumiy mulohazaga almashtirish imkoniyati hisoblanadi. Chunki busiz tafakkur taraqqiyot darajasi to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Muallifning ko'pgina xulosalari "o'qiy olishlik" (uquvchanlik–obuchayemost) muammosidan kelib chiqadi. Mazkur muammo tafakkur rivoji uchun katta ahamiyatga ega ekanligi uqtirib o'tiladi. Ularning fikriga qaraganda, tafakkur taraqqiyoti o'z ichiga o'smirlarning o'qishga munosabati, o'qish motivlari, bilishga qiziqishlarini qamrab olishi kerak. Menchinskaya o'quvchi shaxsiy



qarashini shakllantirish, uni mustaqil baholashga o'rgatish bu boradagi muhim siljish ekanligini ta'kidlaydi.

Sobiq sovet psixologiyasida mavhumlash jarayoni turli usullar orqali amalga oshirish qabul qilingan. Jumladan, psixolog Y.N.Kabanova–Meller uch xil abstraksiyalash usuli ustida ilmiy–tadqiqot ishi olib borgan: taqqoslovchi, ayiruvchi va ta'kidlovchi.

Taqqoslovchi mavhumlash usuli yordamida o'smirlar ongli holda narsa va hodisalardan muhim ham muhim bo'lmagan belgilarni (alomatlarini) ajratib olib, ularni shu zahotiy oq taqqoslaydilar. Misol uchun o'quvchi uchburchakning tashqi burchagi degan tushunchani mavhumlash paytida uni muhim (ichkiburchakka qo'shni bo'lishi) va muhim bo'lmagan (tashqi burchakning o'tmas yoki o'tkir bo'lishi) belgilarga ajratib ko'rsatadi. Bu topshiriqni bajarish mobaynida ikki guruh belgilarini, ya'ni muhim va muhim bo'lmagan o'xshashliklarni taqqoslaydi. Binobarin, birinchini muhim belgi deb hisoblasa, ikkinchisini nomuhim belgi deb ataydi. O'quvchi berilgan chizmani ko'zdan kechirib, muhim belgini payqaydi va uning barcha tashqi burchaklar uchun umumiy ekanligiga tushunib yetadi.

O'quvchi ayiruvchi mavhumlash usuli bilan topshiriq bajarayotgan vaqtda muayyan obyektidan faqat muhim belgilarni ajratib, nomuhim, tasodifiy belgilardan butunlay chetlashib, uni sezmay qolishi mumkin. Masalan, o'quvchiga 5 dona uchburchakni klassifikatsiya qilish topshirilganida, u uchburchakdagi raqamlarga, uning shakliga, katta-kichikligiga sira ahamiyat bermay, faqat muhim belgi bilangina chegaralanib, muhim belgini nomuhim belgidan ajratib olganligini tajribamizda kuzatdik.

Ta'kidlovchi mavhumlash usuli ta'lim jarayonida tez-tez qo'llanilib turadi. O'quvchi berilgan narsa va hodisalarni, jism va predmetlarning muhim belgilarni ajratish paytida yo'l-yo'lakay ularning ayrim nomuhim belgilarini ham payqashi mumkin. Masalan, o'smirlar uchburchaklarni gruppalashtirish (klassifikatsiyalash) davrida muhim belgilar bilan bir qatorda nomuhim ba'zi belgilarni (shakli, rangi,



hajmi), ayrim tasodifiy unsurlarni (raqamlarni) ham yo‘l-yo‘lakay uqib oladilar. O‘quvchilarga qo‘shimcha savol berilganida ular faqat uchburchaklar o‘rtasida katta–kichiklik va shakli jihatidagina tafovut borligini ko‘rsatib o‘tdilar. Ammo ular bu belgilar yuzasidan aniq biror narsa ayta olmadilar. Xuddi shunday omil yana bir holatda ham takrorlandi. O‘quvchilar barcha uchburchaklarda raqamlar borligini ta‘kidlab o‘tdilar–u, biroq ularni aytib berishga o‘jizlik qildilar. Demak, bu abstraksiyalash usuli bilan topshiriqni bajarishda muhim belgilar ajratilib, nomuhim tasodifiy belgilar ta‘kidlab o‘tilar ekan, xolos.

Psixologiyada mavhumlashning “ijobiy va salbiy” tomonini qayd qilib o‘tish an‘ana tusiga kirib qolgan. Biz ko‘rib o‘tgan uch xil usulda mavhumlashning ijobiy tomoni deb muhim belgilarni ajratish jarayonini nazarda tutdik. Mavhumlashning salbiy tomoni turli holatlarni o‘z ichiga oladi: bunda, muhim bo‘lmagan belgilar chiqarib tashlanadi yoki nazardan chetda qoldiriladi (ayiruvchi mavhumlash), muhim bo‘lmagan ba‘zi belgilar idrok qilinadi (ta‘kidlovchi mavhumlash), idrok qilingan muhim belgilar muhim bo‘lmagan belgilar bilan taqqoslanadi (taqqoslovchi mavhumlash) va boshqalar. Lekin bunda muhim bo‘lmagan tasodifiy belgilar bilangina qanday ishlar qilinaotganligi to‘g‘risida mulohaza yuritiladi. Shuning uchun bu omillarning barchasini birgina umumiy so‘z bilan “abstraksiyalashning salbiy tomoni” deb atash mumkin.

Ta‘limda o‘qituvchi ba‘zi hollarda faqat ayiruvchi mavhumlash usulini tavsiya etishiga to‘g‘ri keladi. Chunki aksariyat dasturdagi masala va misollar mavhumlashning xuddi shu usulini talab qiladi. Agar masala yoki topshiriq narsa va hodisalarning muhim belgisini topishni taqozo etsa, u taqdirda mavhumlash usuli qo‘llaniladi. Masalan, o‘quvchiga “pasttekislik” tushunchasini mavhumlash topshirildi deb faraz qilaylik, u holda vazifa mana bunday tarzda bajariladi: “Dengiz sathidan 200 metr yuqorida joylashgan yer yuzasiga pasttekislik deyiladi”. Demak, uning muhim belgisi dengiz sathidan 200 m yuqorida bo‘lishidir.



Qo'yilgan masala taqqoslovchi mavhumlash usuli yordamida hal qilishni talab etsa, bu paytda voqelikning ham muhim, ham nomuhim belgilarini aniqlashga to'g'ri keladi. Misol tariqasida shu narsani aytib o'tish mumkin: geometriya darsligida ko'pburchak ichki burchaklarining yig'indisi $2d(p-2)$ ga teng degan teorema mavjud. Buning muhim belgisi ichki burchaklar yig'indisining $2d(p-2)$ ga teng bo'lishidir. Uning besh burchakli, o'n burchakli bo'lishi, fazoda turlicha joylashishi, hajmi, rangi va boshqa xususiyatlari muhim bo'lmagan belgilarga yoki ko'pburchaklar variatsiyasiga taalluqli ekanligidir. Shunday qilib, bu misolda geometrik shaklning muhim va muhim bo'lmagan belgilari ajratib ko'rsatilgan.

O'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan topshiriq ba'zan ta'kidlovchi belgilar mavhumlash usulini talab etsa, u holda muhim belgilar sanab o'tiladi, nomuhim belgilarning ayrimlari yo'l-yo'lakay ta'kidlab o'tiladi. Masalan, o'smirlarga biz paxta terish mashinasini ko'rsatib, "bu qanday mashina" desak, ular, albatta, uni ta'riflab, ishlash qoidalari bilan tanishtirishadi, muhim belgisini aytib berishadi, ammo mashinaning katta balloni borligi, bunkerining hajmi, rangi, chiqqan yili va boshqa shu kabi jihatlari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Biroq ular bu belgilarni shu zahoti tushuntirib berishga qiynaladilar, chunki bu tasodifiy belgilar bo'lib, masalaning asosiy tomonini tashkil etmaydigan belgilardir.

Demak, o'smirlarning o'quv faoliyatida abstraksiyalash (mavhumlash) usullarini o'rganish va ularni o'quv materiallarini osonroq o'zlashtirish uchun amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz o'z tadqiqotimizda umumlashtirishning eng keng tarqalgan uch turi: umumiydan yakkaga, yakkadan umumiyga, yakkadan umumiyga va so'ngra umumiydan yana yakkaga o'tish kabi usullar ustida mulohaza yuritib, o'zbek tili darslarida ularni sinovdan o'tkazdik.

Birinchi guruh o'quvchilaridan umumlashtirishning umumiydan yakkaga o'tish usuli shakllantirildi. O'qituvchi doskaga ushbu gapni



yozdi: “Ravon yo‘llar, baland imoratlar, istirohat bog‘i va xiyobonlar shahrimiz husniga husn qo‘shmoqda”. O‘qituvchi gapni ovoz chiqarib o‘qiydi va predmet nomini bildirgan so‘zlarni gapdan ajratib olib, ularni yonma–yon yozadi. So‘ngra o‘qituvchi predmet nomini anglatib kelgan so‘zlar qaysi so‘roqlarga javob bo‘lishini aytib o‘tadi va ot kategoriyasiga ta’rif beradi: “Predmet nomini bildirib, kim? nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar ot deb ataladi”. U mazkur turkumni aniqlab kelgan muhim belgilarni: predmet nomini bildirishi va kim? nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishini ko‘rsatadi. Shundan so‘ng gapda ishtirok etgan insonga oid nomlarni, jonivorlarning, narsa va jismlarning, voqea-hodisalarning nomlarini, belgi-sifat, harakat-holat nomlarini ajratib tanishtiradi. So‘zlardagi qo‘shimchalar (kelishik, egalik, shaxs), son va tushum, qaratqich kelishiklari differentsiatsiyasiga to‘xtab o‘tiladi. O‘qituvchi suhbatining oxirida barcha aytilgan so‘zlarni qisqacha xulosalab berishi kerak.

Ikkinchi guruh o‘quvchilarida umumlashtirish yakkadan umumiyga o‘tish usuli shakllantirildi. O‘qituvchi doskaga ushbu gaplarni yozdi: “Vostok” fazo kemasida birinchi bo‘lib kosmosga uchgan inson – Sobiq Ittifoqning fuqarosi Yuriy Alekseyevich Gagarindir. 1991- yilda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e‘lon qilinishi xalqimizning azaliy ijtimoiy-tarixiy orzusi ushalishidir». So‘ngra u o‘quvchilarga murojaat qiladi: “Gaplarni taqqoslang, predmet nomini bildirgan so‘zlarni topib ayting va ular qaysi so‘z turkumiga xos ekanligini tushuntirib bering”. O‘quvchilar o‘qituvchining ozmi-ko‘pmi yordami bilan predmet nomini bildirgan so‘zlarni sanab o‘tmog‘i, ularning qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlamog‘i va “ot” so‘z turkumiga ta’rif bermog‘i lozim. O‘quvchi so‘z turkumini aniqlovchi muhim belgilarni: predmet nomini bildirib, kim? va nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishini topishi shart.

Ishning keyingi bosqichida ajratib olingan so‘zlarning qanday qo‘shimchalar bilan kelganligini aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, o‘quvchilarga ikkita so‘z birikmasi (maktabning



hovlisi; hikoyani tingladik) beriladi. O‘qituvchi bu so‘z birikmalarini taqqoslab, analiz qilishni va tushum, qaratqich kelishiklari differenziatsiyasini aytib berishni taklif qiladi. Bu holda o‘quvchi shunday xulosaga kelishi kerakki, agar ot so‘z turkumi ot bilan bog‘lanib kelsa (maktabning hovlisi) qaratqich kelishigi qo‘shimchasi yozilishi hamda ot fe‘l bilan (hikoyani tingladik) aloqada bo‘lib kelsa – tushum kelishigi qo‘shimchasi qo‘llanilishi unda o‘z ifodasini topsin.

Uchinchi guruh o‘quvchilarida umumlashtirishning yakkadan umumiyga, so‘ngra umumiydan yana yakkaga o‘tish usuli shakllantirildi. O‘qituvchi doskaga ushbu gapni yozadi: “It bo‘ynini burmasdan g‘alatiroq bukildi ko‘m-ko‘k och ko‘zlari bilan menga bir qarash qildi-da dumini qisib o‘zini o‘rmonga urdi”. O‘quvchi bu gapni mustaqil analiz qilishi (agar ehtiyoj tug‘ilsa, o‘qituvchi yordam berishi maqsadga muvofiqdir), predmet nomini anglatgan so‘zlarni alohida ko‘chirib olishi va qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini aniqlamog‘i, ot so‘z turkumiga ta‘rif bermog‘i kerak. U otga xos bo‘lgan muhim belgilarni (predmetni bildirib, kim?, nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishini) ajratishi lozim. So‘ngra gapdagi insonga oid nomlarni, jonivorlarning, narsa va jismlar hamda voqea-hodisalarning nomlarini, belgi–sifat, harakat–holat nomlarini bildirgan so‘zlarni bir necha ustunga yozish taklif etiladi. Keyinchalik o‘quvchilardan qo‘shimchalarni aniqlash (shaxs, kelishik, egalik), qaratqich va tushum kelishigi differenziatsiyasi to‘g‘risida mulohaza yuritish taklif qilinadi.

O‘quvchi o‘z tashabbusi bilan yoki o‘qituvchi so‘rog‘iga javob berishda yuqoridagi yagona misol asosida ifodalangan qoidani boshqa bir qancha fanlarga ko‘chirishi lozim. Boshqacha so‘z bilan aytganda, yagona misoldan umumiy qoida chiqariladi. Shu tariqa, o‘quvchilarda yakkadan umumiyga, so‘ngra umumiydan yana yakkaga o‘tish usuli tarkib topadi. Topshiriqning ikkinchi bosqichida o‘quvchiga bir gap topib, uni yuqoridagida tahlil qilish talab etiladi, qaratqich va tushum kelishigi differenziatsiyasiga doir mana bu gap beriladi: havoning harorati kishini kuydiradi.



Umumlashtirish usullarini o'quvchilarga o'rgatish o'zbek tili materiallarini puxta egallashni osonlashtiradi va o'qitish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning faolligini, bilishga qiziqish faoliyatini kuchaytiradi va hokazo. Olib borilgan izlanishlarimizning ko'rsatishiga qaraganda, o'smir tafakkurini o'stirishda insho yozish va uni mantiqiy muhokama qilish muhim ahamiyatga ega. Yettinchi sinf o'quvchisining ijodiy ishidan namuna keltiramiz: "Men Toshkent shahriga yaqin qishloqda istiqomat qilaman. Onam jamoa xo'jaligida, otam esa kombinatda mehnat qilishadi. Onamlar yetishtirgan nozne'matlar xalqimiz dasturxonini bezatadi. Xalq maqtoviga sazovor bo'lishdan ham baxtliroq narsa bormi dunyoda axir?!

Ular vaqtli matbuot bilan sinchkov tanishadilar, siyosiy va badiiy jurnallarga obuna bo'ladilar. Vatan baxt-saodati uchun ter to'kaman, – deydilar biz bilan suhbatda. Ular o'zlarining dugonalari bilan erta ketib, kech qaytadilar. Lekin oila g'amxo'rligini esdan chiqarmaydilar. Onamlar orden olganlarida uyimizga tabriklash uchun ko'pgina kishilar kelishdi. Otamlar ikkinchi jahon urushida ishtirok etganlar. Hozirgacha quroldosh do'stlari bilan xat olishib turadilar. Ularning ko'ksini 2 ta orden bezab turadi. Suratleri hurmat taxtasidan joy olgan. Bo'sh vaqtlarida yog'ochdan o'ymakor nashqlar yasaydilar. Men ota-onamni behad hurmat qilaman va ular bilan faxrlanaman. Kasbning yomoni bo'lmaydi, chunki uni sevsang, bas, bo'lgani".

Inshoni guruh bo'lib muhokama qilish o'smirlarni mantiqiy mulohaza yuritishga o'rgatadi. Masalan:

- o'quvchining onasini jamoa xo'jaligi a'zosi ekanligi va ko'ksini orden bezab turishi,
- "Vatan baxt-saodati uchun" ter to'kishi,
- jamoa xo'jaligida baynalminal oilaning yuzaga kelishi,
- onaning g'oyaviy-siyosiy ongini o'stirish uchun tinmay harakat qilishi,
- farzandda g'urur tuyg'usining paydo bo'lishi,



- otaning orden sohibi ekanligi va hurmat taxtasidan joy olganligi,
- Vatan ozodligi uchun frontda jang qilganligi,
- baynalminal quroldosh do‘stlar aloqasi,
- bo‘sh vaqtlarda o‘ymakorlik bilan shug‘ullanishi to‘g‘risidagi mulohazalar tafakkur rivoji uchun kuchli ta‘sir qiladi.

Endi sakkizinchi sinf o‘quvchisining inshoda ifodalagan fikrlaridan namunalar keltiramiz. “Orzuning cheki yo‘q, deydi xalqimiz. Men bunga to‘la ishonaman. Shu boisdan bo‘lsa kerak, ko‘p kishilarni o‘z idealim deb hisoblayman. Kosmos qahramonlari bilan faxrlanaman. Mehnatsevar sportchilarni yoqtiraman. Kishining salomatligi posbonlariga hurmat bilan qarayman. Dongdor ishchi–xizmatchilarni olqishlayman. Dovyurak Vatan posbonlaridek bo‘lishni orzu qilaman. Mening orzuyim qahramon Sobir Rahimovdek baynalmilal, jasur, aql–zakovatli, kamtar kishidek inson bo‘lib voyaga yetishdir. Men ular to‘g‘risida ko‘p materiallar o‘qiyman jismonan toblanaman. Temir irodali Vatanimiz qahramonlari (Ozod Sharafiddinov va boshqalar) men uchun idealdir”.

Inshoni hamkorlikda muhokama qilish ularni milliy–ma‘naviy ruhda tarbiyalaydi. Bunda, ayniqsa, o‘qituvchining o‘smirlar fikr yuritishiga qaratilgan savollari: “Sobir Rahimovning qaysi xarakter xislatlari barkamol avlod uchun qimmatli?”, “Sobir Rahimovning tashkilotchilik va aqliy qobiliyatiga qanday qaraysiz?”, “Sobir. Rahimov jasoratining g‘alaba uchun kurashda tutgan o‘rni nimalarda o‘z ifodasini topgan?”, “Sobir. Rahimov jasoratining ommaviy tus olishi qanday rol o‘ynadi?” muhim ahamiyat kasb etdi.

Eksperimentlarning birida o‘qituvchi botanika darsida o‘quvchilarga dukkaklilar oilasining umumiy belgilari va ularning yashash sharoiti hamda turi haqida, uning qishloq xo‘jaligida, oziq–ovqat sanoatidagi ahamiyati to‘g‘risida bilim berishga intildi. O‘smirlar fikr yuritish faoliyatini faollashtirish, darsni jonlashtirish maqsadida quyidagi savollar o‘rtaga tashlanadi:



- 1) Dukkakli o‘simliklar poyasi va barg tuzilishi qanday?
- 2) Mosh, loviya va no‘xat o‘simliklarining ildiz ko‘rinishi va holati qanday?
- 3) Boshqa bir yillik o‘simliklardan dukkakli o‘simliklarning qanday farqi bor?
- 4) Yovvoyi va madaniy dukkakli o‘simliklarga qaysilar kiradi?
- 5) Yantoqning usti va yer osti qismlari qanday tuzilgan?
- 6) Quyonsuyak o‘simligi cho‘lda qanday yashashga moslashgan?
- 7) Dukkaklilarning qanday ahamiyati bor?.

Ayniqsa, o‘quv dasturi materiallarining dunyo voqea va hodisalarining qonuniyati, ularning o‘zaro aloqasi, o‘simlik va hayvonot dunyosining uzviy bog‘liqligi, organizmning tashqi muhitga ohangdoshligi va nihoyat, inson tabiatni o‘zgartiruvchi kuch ekanligi kabi muhim tushunchalar bilan bog‘lanishi o‘zining tarbiyaviy ta‘sir kuchi bilan alohida ajralib turdi. Ma‘lumki, tabiat va jamiyat qonunlari to‘g‘risidagi keng ko‘lamli bilimlarni o‘zlashtirish tafakkur asosini tashkil qiladi.

“Funksiya” mavzusini matematik nuqtayi nazardan o‘smirlarga har tomonlama ochib berishda o‘qituvchi jonli misollarga murojaat etdi. U bu bilan qanoat hosil qilgani yo‘q, mavzuning ko‘lamini yanada kengaytirishga harakat qila bordi, uning ahamiyatini atroflicha tushuntirishga intildi. Jumladan, funksiya matematikaga o‘z-o‘zidan kelib qolmaganligi, balki ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyoji va zaruriyatidan kashf qilinganligi, shu yo‘lda olimlar ko‘p yillar izlanishlarda bo‘lganliklarini tushuntirib berishga erishdi. Davr taqozosi bilan mashina-texnika sanoati rivojlangani bois uning zaruriyat darajasida ko‘tarilganligi o‘qituvchi tomonidan isbotlab berildi. Ayniqsa, o‘tmishdagi donishmandlardan birining ta‘biri bilan aytilgan, matematikaga o‘zgaruvchan kattalikning olib kirilishi bilan dialektikaga harakat tushunchasi kirib keldi, degan iborani o‘rinli ishlatishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.



O‘quvchilarning fikr yuritish faoliyatini jonlantirish maqsadida bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan savollar sinf kollektivi hukmiga havola qilinib turildi.

Qisqa qilib aytganda, Respublikamiz maktablarida olib borilgan tajribalar va kuzatishlar har qanday o‘quv fani materiallarini o‘zlashtirishda (o‘rganishda) tafakkurning ko‘pqirrali, ko‘pyoqlama tarzda rivojlantirishni amalga oshirishning zaxira va imkoniyatlari hali ko‘p ekanligini ko‘rsatdi. Shu boisdan murakkab, lekin sharaffli vazifani maktab ta’lim tizimi amaliyotiga joriy qilish uchun ichki imkoniyatlarni qidirish va ulardan oqilona foydalanish darkor. Ta’limda tafakkur jarayonini rivojlantirish uchun, eng avvalo, o‘qitishni ilmiy asosda rejalashtirish va uni oqilona tashkil qilish lozim. Buning uchun o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan o‘quvchilarning kamol topganlik darajasidan, aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayoniga yondashish o‘quv–tarbiya samaradorligini oshiradi, XXI asr talabiga javob beradigan har tomonlama taraqqiy qilgan o‘smir o‘quvchilar shaxsini barkamol qilib shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. *O‘smirlik davrining asosiy psixik xususiyatlari.*
2. *O‘smirlik davridagi yetakchi faoliyat turi.*
3. *O‘quv faoliyatining qayta tuzilishi hamda o‘smirdagi bilish jarayonlarining rivojlanishi.*
4. *O‘smirlik davri krizisi, sabablari va namoyon bo‘lishi.*
5. *«Tarbiyasi qiyin» o‘smir xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar va ularga psixologik yondashuv.*
6. *O‘smirlik yoshida individual yondashuv.*



11-MAVZU: O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI (15-16 yoshdan 20 yoshgacha)

Reja:

1. *O'spirinlik davri 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab olishi.*
2. *O'spirinlik (8-11 sinf) davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi.*
3. *Ilk o'spirin va kasb tanlash.*
4. *O'spirinlik davri organizmdagi o'zgarishlar.*
5. *O'spirinlarda nerv tizimining rivojlanishi.*
6. *O'spirinlik davrida analitik va sintetik faoliyat rivojlanishi.*
7. *Yuqori sinf o'quvchilarining bilim egallashidagi aqliy individual faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.*

Tayanch tushunchalar: *ilk o'spirinlik, intellektual rivojlanish, yetakchi faoliyat, muloqot, emotsional rivojlanish, yangi psixologik tuzilma.*

Ilk o'spirinlik yoshi davriga 15–18 yoshlardagilar (akademik litsey, kasb–hunar kolleji o'quvchilari) kiradilar. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi, ma'naviy jihatdan yetuklikka erishadi. Ilk o'spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida esa saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bularning barchasi ilk o'spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga yetishi, hayotda o'z o'rnini topishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi va yetuk shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi.



Ilk o‘spirinning shaxsi ijtimoiy hayotda, akademik litsey, kasb-hunar kolleji jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqeyi ta’sirida, o‘qish va turmush sharoitidagi o‘zgarishlar ta’sirida tarkib topa boshlaydi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta’lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iboratdir. Mavjud shart-sharoitlar ta’siri ostida ilk o‘spirinning aqliy va axloqiy jihatdan o‘shida o‘ziga xos o‘zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo‘ladi. Akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari ijtimoiy hayotdagi dolzarb vazifalarni hal qilishda faol ishtirok eta boshlaydilar. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta’lim xarakterining o‘zgarishi yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e’tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy his-tuyg‘uning vujudga kelishiga, bilimlarni o‘zlashtirishga ijodiy yondashish kuchayishiga olib keladi, natijada, mustaqil fikrlash shakllanadi.

Hayotda o‘z o‘rnini topishga intilish kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo‘lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuchg‘ayrat, shijoat, qahramonlik ko‘rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo‘lish bilan boshqa yosh davrlardan keskin farqlanadi. Ayniqsa, turmush va o‘qish faoliyatlarining yangicha shart-sharoitlari sinf (kurs) jamoasidagi o‘zgacha vaziyat, ilk o‘spirinlarning maxsus ta’lim tizimida egallagan yuqori mavqeyi, jamoatchilik ishlarida tajriba orttirishlari ular oldiga yuksak talab hamda mas’uliyatli vazifalar qo‘yadi. Bu davrda ilk o‘spirin yangicha ta’lim muhitida tashkilotchilik, rahbarlik, tarbiyachilik, tashviqotchilik vazifalarini o‘tay boshlaydilar.

Ilk o‘spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, o‘quv jamoasi, ta’lim jarayoni qo‘yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o‘rtasidagi ziddiyatdan iboratdir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar ilk o‘spirinning axloqiy, aqliy, nafosat jihatdan tez o‘shishi orqali bartaraf qilinadi.



Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘zgarishlar maktab, oila, shaxslararo munosabatlardagi mavqeyini yanada mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Lekin yetakchi omil yangicha ta‘lim muassasasi o‘quvchisi faoliyatining xususiyati, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

Ilk o‘spirinlarda, avvalo, o‘zini anglashdagi siljish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu hol shunchaki o‘shishni bildirmaydi, balki o‘z shaxsiyatining ma‘naviy–psixologik fazilatlarini, faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad va vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi. Ilk o‘spirinda o‘zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O‘z xulq-atvorini jilovlash, his-tuyg‘ulari hamda ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi.

Ilk o‘spirindagi o‘zini anglash turmush, o‘qish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo‘ladi. Yangicha ta‘lim muassasidagi odatlanilmagan vaziyatning shaxslararo munosabat va muloqot ko‘lamining kengayishi o‘zining aqliy, axloqiy, irodaviy his-tuyg‘ularining xususiyatlarini oqilona baholash, qo‘yilayotgan talablarga javob tariqasida yondashish o‘zini anglashni jadallashtiradi.

Bunday ta‘lim tizimidagi o‘quvchilarning o‘zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval o‘zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Agar o‘smirda atrofdagi kishilarning oqilona baholashlari orqali aniq baholash yuzaga kelsa, ilk o‘spirinda bu holat boshqacharoq tarzda kechadi, unda o‘z shaxsiy fazilatini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini tahlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. Ilk o‘spirin o‘smirga qaraganda o‘z ma‘naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to‘laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. Natijada, u o‘z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo‘ladi, sinf (kurs) va pedagoglar jamoalarining a‘zolariga g‘ayritabiiy munosabatda



bo‘la boshlaydi. Shuningdek, ayrim ilk o‘spirinlar o‘z xatti-harakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baho beradilar va o‘zlarini kamtarona tutishga intiladilar.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchisining o‘smirlik yoshi davridagi boladan boshqacha yana bir xususiyati – murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o‘z qadr-qimmatini e‘zozlash, sezish va fahmlashga moyillikdir. Masalan, o‘spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis holatlarning farqiga borish, zaruratni tez anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. Ilk o‘spirin o‘zining ezgu niyatini baholashga jamoada o‘z o‘rnini belgilash nuqtayi nazaridan yondashadi. Chunonchi, “O‘zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?”, “Jonajon vatanimga, ota-onamga munosib farzand bo‘la olamanmi?”, “Jamiyat taraqqiyotiga o‘z ulushimni qo‘sha olamanmi?” degan savollarga javob qidiradi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘quvchida o‘zining fazilati to‘g‘risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi unga juda ustalik, bilimdonlik, ziyraklik bilan yordam berishi lozim. U o‘zining do‘stona, iliq munosabati bilan sinf jamoasi a‘zolari e‘tiborida ishonch, obro‘ qozonishi uchun har bir mulohazasida pedagogik–psixologik nazokatga rioya qilsa, yigit va qizlarda ham o‘z kuchiga, imkoniyatiga, qobiliyatiga, fahm-farosatiga ishonch hissini paydo qiladi. Ularda ustozga chuqur hurmat, minnatdorchilik tuyg‘ulari uyg‘onadi.

Ilk o‘spirin o‘quvchida o‘zini anglash negizida o‘zini o‘zi tarbiyalash istagi tug‘iladi va bu ishning vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tatbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o‘zlarining o‘zini o‘zi tarbiyalashi psixologiyasidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni kattalarga xos ko‘p qirrali umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ilk o‘spirinlik davrida o‘quvchilar o‘zlarida eng qimmatli fazilatlarni, o‘quv va malakalarni ongli, rejali, tartibli, izchil va



muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadilar. Ma'lumki, mazkur toifadagi ta'lim muassasi o'quvchilari ma'naviy-psixologik qiyofaga ega bo'lish uchun oqilona o'lcham, mezon, vazifalarini bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

Ilk o'spirinlarda ideallar bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramoni timsolida o'zlarida yuksak fazilatlarini (sifatlarni) gavdalantirishni orzu qiladilar. Biroq yigitlar bilan qizlar o'rtasida ideal obrazini tanlashda katta farq bo'ladi. Masalan, qizlar ko'pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlangan qiyofalarni ideal darajasiga ko'taradilar. Ammo ayrim o'quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo'lto'sar, oq ofitser, quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taqlid qilishga ham moyil bo'ladilar.

Ilk o'spirin o'quvchilarning o'zini o'zi tarbiyalashi o'quv yurtidagi jamoatchilik tashkilotlarining, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida amalga oshishi shart. Zeroki, o'zini o'zi takomillastirish jamoada munosib o'rin egallash, ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishga xizmat qilishi kerak.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko'rsatishi ba'zi hollarda ilk o'spirinlar o'zlarini qo'rqmas, jasur qilib ko'rsatishga, noo'rin xatti-harakatlarga moyil bo'ladilar, qaltis yo'llar bilan o'z irodalarini tarbiyalashga intiladilar, goho hayotlarini xavf ostida qoldirishgacha borib yetadilar. Shuning uchun ularga sun'iy usullar va vositalar yordamida qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin emasligini tushuntirish kerak. Shuningdek, ularni oqilona, maqsadga muvofiq samarali usullardan foydalanish yo'llari bilan tanishtirish, haqiqiy chiniqish malakalari bilan qurollantirish yaxshi natija beradi.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji o'quvchilari ma'naviy xislatlarga, axloq normalarining mohiyatiga jiddiy munosabatda bo'ladilar. Ular axloqiy turkumlar, birliklarning mazmunini chuqur



anglay boshlaydilar, har qaysi axloqiy tushunchaning nozikligi va ko‘p ma‘noligini bilishga harakat qiladilar. Masalan, burch, vijdon, g‘urur, qadr-qimmat, faxrlanish, mas‘uliyat, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin ularning hammalari bu axloqiy tushunchalarni yaxshi anglaydilar, deb bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, to‘g‘ri axloqiy qarashlar, tasavvurlar tarkib topishi uchun adolatli turmush tarzining o‘zi yetarli, deyish mumkin emas. Va pedagog xotirjamlikka yo‘l qo‘ymasligi, sog‘lom muhit yaratish, barqaror shaxsni kamol toptirish uchun doimo izlanishi zarur. Shuningdek, maktabda, kollejda tarbiya ishlari izchil olib borilmasa, yigit va qizlarda chinakam, barqaror e‘tiqodlar shakllanmaydi. Ilk o‘spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirish lozim, ularga nojo‘ya xulq-atvor, chet el filmlarining mazmuni ma‘naviyatga va ruhiyatga salbiy ta‘sir etishini tushuntirish zarur. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish-turishlarga, illatlarga zarba berish, ularning ta‘siridan yigit va qizlarni asrash pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Ilk o‘spirinlarda balog‘atga yetish tuyg‘usi takomillashib borib, o‘zi o‘rnini belgilash va ma‘naviy dunyosini ifodalash tuyg‘usiga aylanadi. Bu hol uning o‘zini alohida shaxs ekanligini, o‘ziga xos xislatining tan olinishiga intilishida aks etadi. Bunga esa moddalarga mayl qo‘yish, murakkab tasviriy san‘atga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga qiziqishni namoyish qilish yaqqol dalildir.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, ilk o‘spirin yoshidagi qizlar katta yoshdagi kishilarning ta‘siriga osonroq beriladi. Ilk o‘spirin yigitlar esa kattalardan ko‘ra tengdoshlari ta‘siriga ko‘proq beriladilar. Shuning uchun maxsus o‘quv yurti o‘quvchisi shaxsining tarkib topishiga maktab muhiti, xususan, sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqurlar guruhi kuchli ta‘sir etadi. Sinf, kurs jamoasi umumiy maqsadni belgilashga, jamoa a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar o‘rnatishga, shaxsiy va jamoatchilik munosabatlar rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi. Sinf va maktab jamoalari ta‘sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik



kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo‘rqoqlik, g‘ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi. Jamoa a‘zolari o‘rtasidagi ahillik, birlik, yagona maqsadga intilish, iliq psixologik muhit mavjud salbiy xatti-harakatlarni yo‘qotish uchun xizmat qiladi.

Kollej o‘quvchilari shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yuksak talablar qo‘yishi natijasida ilk o‘spirinlarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat‘iyatlilik, mas‘uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlar barqarorlashadi. Mazkur tashkilotlar ilk o‘spirinlardagi g‘oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, jamoatchilik, insonparvarlik, o‘zaro yordam, hamkorlik tuyg‘ularini mukammal bosqichga ko‘taradi. Ana shularni kuzatib tadqiq etgan psixolog L.I.Umanskiy tashkilotchilik qobiliyati o‘zaro uzviy bog‘liq quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi:

1) tashkilotchilik tuyg‘usi (psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, nazokat, amaliy aql-idrokda o‘z ifodasini topadi);

2) tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati (muammolar yechimiga jalb qilish, ularning kuch-g‘ayratini biriktirish);

3) tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (emotsional his-tuyg‘u, ijobiy munosabat, faollik ko‘rsatish, qat‘iy qiziqish va hokazolar).

L.I.Umanskiyning fikricha, ilk o‘spirin namunali tashkilotchi bo‘lishi uchun unda quyidagi xislatlar bo‘lishi kerak:

a) axloqiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, qat‘iyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

d) emotsional xislatlar – xushchaqchaqlik, tetiklik, hazilkashlik va yangilikni his etish, o‘z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

Ilk o‘spirinlarning yana bir muhim xislati ularda yuksak darajadagi do‘stlik, o‘rtoqlik, ulfatchilik, muhabbatning vujudga kelishidir. Shu his-tuyg‘ular yigit va qizlarning ma’naviyati va psixologiyasida



qanday tus olishiga qarab, tarbiyaviy chora va tadbirlarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Sinfdagi hamkorlik faoliyatida o‘zaro yordam hamjihatlik, intilish va manfaatlar birligiga asoslangan o‘rtoqlik munosabatlari yuzaga keladi. O‘rtoqlik munosabatlarining yuksak cho‘qqisi do‘stlik hissida namoyon bo‘ladi. Do‘stlik hissi o‘rtog‘iga mehribonlikda, u bilan uchrashish va suhbatlashish, o‘z fikr va hissiyotlari bilan o‘rtoqlashishda ko‘rinadi. Haqiqiy do‘stlik hissi o‘zaro talabchanlik bilan bog‘liq bo‘lib, xatolarni birgalikda tuzatishda o‘z ifodasini topadi.

Yigit bilan qiz o‘rtasida muhabbat tuyg‘usi vujudga kela boshlaydi. Muhabbatning quvonchli lahzalari, iztirobli kechinmalari ikkala yoshning ruhiyatini egallaydi va tobora chuqurlashib boradi, ular uchun dastlabki hayot sinovi vazifasi bo‘ladi. Mazkur his–tuyg‘u o‘spirinlarning o‘zaro yaqinligi, hayotga qarashlari, qiziqishlari, didlari va ezgu niyatlarining umumiyliги hamda butun umrga ahillik, ittifoqlik umidini bag‘ishlagan shodlik bilan xarakterlanadi.

Ilk o‘spirin o‘quvchilarda tabiat, san‘at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hayot go‘zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta’sirlanish, ma’naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo‘ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni to‘lqinlantiruvchi musiqa, nozik his–tuyg‘u, ezgulik hislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, estetik hislar ularning ma’naviyatidagi qo‘pol, noxush, xunuk va yoqimsiz qiliqlarning yo‘qolishiga yordam beradi. Lekin bundan ilk o‘spirinlar jo‘shqin, keskin, shavq va zavqli damlardan butunlay voz kechadilar, degan ma’no kelib chiqmaydi. Shunga qaramay, ilk o‘spirin yigit va qizlar orasida estetik tuyg‘usi to‘la shakllanmagan, noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lgan shaxslar ham uchraydi. Ularda estetik his–tuyg‘u o‘ziga xos qarashlar va nuqtayi nazarning o‘shida ilm–fan va texnikaning rivoji, tafakkurning takomillashuvi, taqlidchanlik muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun muayyan reja asosida turli muzeylar ko‘rgazma va konsert zallariga, kino, teatr, radio va telestudiyaga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.



Mazkur o‘quvchilarning o‘quv mashg‘uloti o‘z xususiyati va mazmuni bilan boshqa yosh davridagi o‘quvchilarning ta‘lim jarayonidan tubdan farq qiladi. O‘quv rejasi va dasturining murakkablashuvi, yangi fanlar va fakultativ kurslarning kiritilishi o‘zlashtirishni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shu sababli ularning munosabati ham o‘zgaradi, ularda fanlarga turlicha munosabatlar shakllana boshlaydi.

O‘quvchilarning fanlarga munosabatlari, asosan, qaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga amaliy xususiyatiga o‘zlashtirish imkoniyatiga va uni o‘qitish metodikasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu yoshda bilishga qiziqish amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Masalan, bu qiziqish ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnikaga, tabiatga, osmon jismlariga, jamiyatshunoslikka, huquqiy muammolarga, sport va hokazolarga yo‘nalgan bo‘ladi. Ularning to‘garaklarda faol qatnashishi qobiliyat va aqliy imkoniyatlariga qarab amalga oshadi.

Ilk o‘spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo‘l va vositalari esa ta‘lim jarayonida yetakchi rol o‘ynay boshlaydi. Ular topshiriqlarni bajarishda uning ma‘nosi hamda mohiyatini to‘la anglab ish tutadilar, eslab qolish, esda qolish, esga tushirish jarayonlarning samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Bu jarayonlar muvaffaqiyatli amalga oshishini ta‘minlovchi diqqatning sifati va miqdori o‘zgaradi. Diqqatni ko‘chirish va taqsimlash sezilarli rivojlanadi, boshqalarning nuqtayi nazariga e‘tibor berish, ularning nutqini tinglash, yozib olish, mulohaza yuritish mahorati oshadi va aqliy qobiliyati takomillashadi.

Ilk o‘spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lib boradi. Lekin ularning fikr yuritishida birmuncha obyektiv va subyektiv kamchiliklar uchraydi.

Ilk o‘spirin barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Ilk o‘spirinlarga



adabiy qahramon qiyofasini ifodalash, asar mohiyati, mazmuni va g'oyasi yuzasidan mustaqil holda hukm va xulosa chiqarish topshirilganida ular, birinchidan, asarni o'qishgan, biroq hech qanday xulosa chiqarishmagan, ikkinchidan, mavzuga ijodiy yondashmasdan o'qituvchining har bir so'zini esda saqlab olib, hech o'zgarishsiz qaytadan aytib berishga harakat qilishgan, uchinchidan, o'zlari maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatlarida eshitganlari, o'qiganlari bilan o'qituvchining axboroti, ma'lumoti xabarni umumlashtirib javob berishgan, to'rtinchidan, o'z fikrlarini bayon etishga qiynalغانlarida asardan ko'chirmalar keltirishgan.

O'quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to'garak va fakultativ mashg'ulotlar, kasbiy fanlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ilk o'spirin o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda o'qituvchilar, sinf rahbarlarining siymolari muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar ilk o'spirinlarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarning obyektivligi, haqqoniyligi, to'g'riligiga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlanishlari va ularni isbotlashga o'rgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan o'qituvchilari ularni narsa va hodisalar to'g'risida original fikr yuritishga yo'naltirishlari kerak. Uchinchidan, o'quvchilarning mashg'ulotlarda qo'llanilaverib, ma'naviy eskirgan bir qolipdagi so'zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. To'rtinchidan, fan o'qituvchilari o'spirin yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishni o'rgatishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda rivojlanishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun tafakkur rivojlanishi bilan birga o'quvchining nutq faoliyati ham o'sadi. Bu esa o'quvchida o'z fikrini to'g'ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi, nutqining tuzilishini takomillashtiradi va lug'at boyligini yanada oshiradi.

Ilk o'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o'rgana boradi. Unda



asta–sekin tabiat va jamiyatda o‘zining nuqtayi nazari, e‘tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma‘lumki, shaxsning ana shu fazilatlarini – fikrlashi, mustaqil o‘ylashi, to‘g‘ri hukm va xulosa chiqarishi, qat‘iy qarorga kelishining natijasidir.

Yigit va qizlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarini bildirishi, muammoli tomonlari yuzasidan bahslashuvi va hokazolarda insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi aql tanqidiyligining aynan o‘zginasidir. Turmushda uchraydigan noo‘rin tanqidiylik esa ilk o‘spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O‘qituvchining ayni shu paytdagi asosiy vazifasi – o‘quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko‘tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona tanqidiy nuqtayi nazardan qarashni o‘rgatishdan iboratdir.

Mazkur yoshdagi o‘quvchi aqlining tanqidiyligida og‘machilikka moyillik kuchli bo‘ladi. Og‘machilikning eng asosiy sabablaridan biri – voqelikning mohiyatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tushunmaslikdir. Shuningdek, uning “o‘z pozitsiyasi”da bo‘sh kelmasligi, narsa va hodisalarning asl mohiyatini anglab turib, jo‘rttaga “o‘jarlik” qilishi ham ana shu og‘machilikning bir ko‘rinishidir.

Ularda moddiy dunyo to‘g‘risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Aqlning yoki tafakkurning tanqidiyligini tarbiyalashda o‘qituvchi o‘quvchining o‘ziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, mulohaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtayi nazariga, o‘qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyat va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o‘qish ko‘nikmasi va malakalariga alohida e‘tibor berishi lozim.

Aql tanqidiyligining rivojlanishi yangicha ta‘lim muassasa o‘quvchilarini moddiy dunyoni, atrof-muhitni o‘rganishga, o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirishga, ta‘lim jarayonida tashabbuskorlikka, faollikka da‘vat etadi, bundan tashqari, voqelikni



isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. O'rganilayotgan hodisa to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ilk o'spirin tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, ilk o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik bo'yicha mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, o'zaro bog'lanishi va munosabatlari ilk o'spirinning fikrlashida to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi narsa va hodisalarning eng muhim alomat va xususiyatlarini mujassamlantirsa, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildira olsa, buni keng tafakkur deyiladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, ilk o'spirin tashabbuskorlik bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi va ularni hech kimning yordamisiz oqilona usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda, ilk o'spirinning o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni ham o'zi topishga intilishini anglaymiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo'llay olishda, eskirgan vositalardan qutulishda namoyon bo'ladi. Agar o'quvchi muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli yangi fikrlarni aytgan bo'lsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Ilk o'spirin tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchidan, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, turli his-tuyg'ularning mavjudligiga, o'quvchining diqqati va qiziqishiga; ikkinchidan, uning bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalarga bog'liqdir.



Ilk o'spirin qobiliyati, layoqati va iste'dodi ta'lim jarayonida mehnat faoliyatida rivojlanadi. Uning qanchalik iste'dodli ekanini aniqlash uchun ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilligi, intilish, psixik tayyorligi, mantiqiy fikrlashining tezligi, izchilligi, samaradorligiga e'tibor berish kerak. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi.

Ilk o'spirinlikda o'tiladigan darslar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar, referat konspekt yozish kabi ta'limiy faoliyat turlari yangicha ta'lim muassasi o'quvchilari o'zlashtirishi zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Bu ishlar kundan-kunga ko'proq ahamiyat kasb etishi natijasida tafakkur tobora faol, mustaqil, ijodiy tus olib boradi. Bularning barchasi ilmiy-nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak-atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini bilish qobiliyati o'sishiga, aqliy imkoniyatlar vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglab olishga muhim shart-sharoit yaratadi.

Ilk o'spirinlar biror hodisani asoslagan, isbotlagan paytlarida uning muhim xususiyatlariga, birlamchi jihatlariga sinchkovlik bilan qaray boshlaydilar. Darsliklardan o'qigan va o'qituvchilardan eshitgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarga ishonish va ulardan qanoat hosil qilish uchun faol harakat qiladilar, biroq ularda o'smirlar singari obro' ketidan ergashish juda kam sodir bo'ladi. Ular har bir darsda tanishilgan materiallarning mohiyatiga, inson uchun zarurligiga ishonch hosil qilishga to'xtovsiz intiladilar. Ba'zan ta'lim jarayonida shaxs tomonidan biror narsaga e'tiroz bildirsa yoki shubhalansa, uni nohaq ravishda qoralaydi. Tafakkurni oqilona yo'llar bilan o'stirish uchun favqulodda holatlarda o'quvchining mazkur xususiyatini yomonlamay, balki uni rag'batlantirish to'g'ri bo'ladi.

Ilk o'spirinlik yoshida kollej o'quvchilari aqliy faoliyatning omillari va usullari bilan yetarli darajada qurollangan bo'ladilar.



Shunday qilib, ta'lim jarayonida turli fanlarni o'qitish tufayli keng ko'lamli bilimlar sistemasi o'zlashtirilishi orqali kollej va akademik litsey o'quvchilarida tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mazmundorligi, mahsuldorligi ortadi. Ularda dialektik-refleksiv nazariy tafakkur tarkib topadi. Shu sababli voqelikning ichki bog'lanishlari, munosabatlari jamiyat rivojlanishining qonunlarini bilish va anglab olish ko'nikmasi yuqori pog'onaga ko'tariladi.

Agar o'smirlar tafakkuri yaqqol-obrazli tafakkurning mavhum tafakkurga aylanishi bilan xarakterlansa, bu yoshdagi o'quvchilarda dialektik-kreativ tafakkur qobiliyati rivojlana boshlaydi va bu tafakkur tabiat hamda jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mazkur qonunlarning vujudga kelishi, o'zgarib borishi, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi, shuningdek, o'zaro uzviy bog'liqligiga doir murakkab bilimlar ularning yosh xususiyatiga aynan mosdir.

Endigina o'sib kelayotgan ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma'lumki, odatda, ilk o'spirinlik yoshidagi o'g'il-qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to'g'risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavakkaliga ish ko'radilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo'ladilar. Natijada, noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. O'quvchilarning ba'zilar kasb tanlashda yaqqol ko'zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar. Bunda, o'z atroflaridagi yaqin kishilarni nazarda tutadilar, ularning yo'ldan borishni mo'ljallaydilar. Kuzatishlarimizning birida G'. ismli ilk o'spirin (akademik litsey o'quvchisi) o'z kelajagi haqida quyidagi fikrlarni bildirdi: "Ehtimol, qishloq xo'jalik texnikumiga o'qishga kirarman. U menga tanish. Unda akamlar o'qiganlar. Balki jamoa xo'jaligida qolib ishlarman. O'qituvchi bo'lish orzum ham bor. Chunki pedagogika institutida



tog‘amlar ta‘lim olmoqdalar”. O‘quvchining bu mulohazasini tahlil qilishning hojati yo‘q, chunki unda biror maqsadga yo‘nalgan g‘oya mavjud emas.

O‘quvchilar kollejda fanlarning asoslaridan bilim oladilar, har qaysi ilk o‘spirin fizika yoki matematika bilan tanishadilar. Biroq ularning hammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xohlayvermaydi. Unda yer kurrasi o‘rganiladi, barcha planetalarning xususiyati bilan tanishiladi, uzoq qit‘alar dunyo xalqlari tarixi va san‘ati bo‘yicha bilimlar beriladi. Ammo barcha o‘quvchilar sayyoh bo‘lishni istamaydi. Fan asoslari o‘quvchilarga keng ko‘lamda ma‘lumot va axborotlar berishga moslashtirilgan bo‘lib, o‘spirinlar olingan bilimlarning kelajak, shaxsiy turmush, bilimdon shaxs bo‘lish uchun amaliy ahamiyatini anglab olishi kerak.

O‘quvchilarda biror o‘quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Tanlangan kasbni o‘zlashtirish bilan bog‘liq fanga qiziqish ham ortadi. Natijada, to‘garak, mashg‘ulotlariga va fakultativ kurslarga qatnashish imkoniyati vujudga keladi. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Akademik litsey va kollej o‘quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste‘dodlari asosida tanlangan kasblariga to‘g‘ri yo‘naltirish o‘spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. Kasb tanlash jarayonida ilk o‘spirinlarga o‘qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, o‘z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e‘tibor berishlari kerak. Ko‘p hollarda ular kattalarning maslahat va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat‘iy bir qarorga kelishlari mumkin. Chunki ular o‘z xohishlarini har tomonlama asoslab bera oladilar.

V.A.Krutetskiyning ma‘lumotlariga qaraganda pedagogika instituti talabalarining yarmi o‘qituvchilik kasbini yoqtirib o‘qishga kirgan. Ularning qolgan qismi esa institutga tasodifan kirib qolgan. Biroq bu oliy o‘quv yurtiga o‘z xohishi bilan kirgan talabalar orasida ham har xil mulohazalar mavjud. Pedagog kasbini yoqtirib o‘qishga kirgan talabalarning chorak qismi faqat olgan bilimlarini



boshqalarga o'rgatish maqsadini bildirgan bo'lsalar, yana shuncha ilk o'spirinlar institutda o'qitilayotgan biror fanni sevganlari uchun o'qishga kirganini aytgan. Talabalarning beshdan bir qismi bolalarni chin ko'ngildan yaxshi ko'rgani uchun o'qituvchilik kasbini tanlagan.

Akademik litsey va kollejni bitirgunicha hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi, deyish mumkin emas. Ularning aksariyati o'zi kelajakda kim bo'lishini tasavvur ham qila olmaydi va kelajak rejasini ham tuzmaydi. İlk o'spirinlarning ko'pchiligi ta'lim muassasini tugatganidan so'ng oliy o'quv yurtida ham o'qish to'g'risida gapiradilar, bu haqda orzu qiladilar. Lekin unga kira olmagan, ya'ni o'zining asosiy maqsadiga erisha olmagan yoshlar tushkunlikka tushadilar. Butun orzu-umidlarim barbod bo'ldi, deb o'ylaydilar, ba'zilar kelgusi yilda o'qishga kirishga umid bog'laydilar. Kasb-hunarga har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

V.A.Krutetskiy ilk o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi:

- a) biror o'quv faniga qiziqish;
- b) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyat va qobiliyatni hisobga olmagan holda);
- c) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
- d) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik);
- e) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish;
- f) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi;
- g) moddiy ta'minlanish;
- h) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi.

Shuningdek, boshqa turdagi motivlar, masalan, shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, maqsadi, unga intilishi, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, o'zining sihat-salomatligi, asab tizimining, temperamentining xususiyati va hokazolar ham bo'lishi mumkin.



Ilk o‘spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bo‘lmasligi sababli ular ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo‘lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarini talab qilishini tushunib yetmaydilar. O‘z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozir mazkur ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogic-psixologik omillarga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1) kasblarni o‘rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo‘nda qilib ifodalash;

2) o‘qituvchining kasblar bo‘yicha tashviqot ishlari olib borishi, o‘quvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi ilk o‘spirin va uning ota–onasi bilan birga kasbga yo‘naltirish tadbirlarini ko‘rib chiqishi;

3) ularni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;

4) mehnat ta‘limi darslarida o‘quvchilarni kasbga tayyorlash va qiziqish uyg‘otish;

5) psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarni ishlab chiqish;

6) joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish;

7) kasb tanlash targ‘iboti yuzasidan ilk o‘spirinlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish ularni psixologik jihatdan tayyorlash.

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo‘naltirishning usul va uslubiylatlari ishlab chiqilgan. Kasblarni xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni ma‘lum tartibga solib ifodalab berishga erishilgan. Bu borada Y.A.Klimovning sxemasi alohida ahamiyatga ega. U quyidagi kasb turlarini tavsiya qiladi:

1. Polizchi, chorvador, asalarichi, zootexnik, agronom, o‘rmonchi – bionika mutaxassisligi “inson – tabiat”.



2. Chilangar, tokar, montyor, konstruktor, radiotexnik, muhandis – texnika mutaxassisligi “inson – texnika”.

3. Ofitsiant, sotuvchi, hamshira, o‘qituvchi, tarbiyachi, tashkilotchi – sotsionomika mutaxassisligi “inson – inson”.

4. Bo‘yoqchi, nusxa ko‘chiruvchi, musiqachi, badiiy bezovchi yoki pardoizlovchi, bastakor, yozuvchi, rassom – artonomika mutaxassisligi – “inson – badiiy obraz”.

Oddiyroq ifodalansa, kasblarni tabiatga xizmat qilishga, texnikaga xizmat qilishga, insonga xizmat qilishga va badiiy obrazlar ustida ishlashga doir kasblarga ajratish mumkin. Lekin mazkur kasblar tasnifida ularning ko‘pchiligi ifodalanmagan. Ana shu guruhlariga o‘nlab yondosh kasb-hunarlarini kiritish mumkin.

Kasb tanlashga yo‘llash va kasblarni targ‘ib qilish usullaridan biri – ko‘rsatmali vositalar, ya’ni fotostendlardan, kitoblar ko‘rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika to‘garagi ishlaridan foydalanishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiya uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg‘otish mumkin.

Yuritilgan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, kasb-hunar to‘g‘risida axborotlar, maslahatlar berishning o‘zi ongli ravishda kasb tanlash uchun yetarli emas. Shunga ko‘ra, ilk o‘spirin o‘quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirish, ularni mustaqil bilim olishga o‘rgatish, ularga o‘zlarini muayyan faoliyatda sinab ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Lekin kasbga yo‘naltirishning boshqa yo‘l va vositalarini ham qidirish va qo‘llash kerak.

Mehnat psixologiyasining mutaxassislari kasbga yo‘naltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni o‘qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy-matematik fanlarda atrofda ishlab chiqarishdan obyekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o‘qitishda o‘lkashunoslik materiallarini qo‘llab, o‘quvchilarning kasbga qiziqishini oshirish, mehnatga ishtiyoq uyg‘otishni; darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan



o‘quvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

Qishloq sharoitida kasb tanlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar ham mavjud. Chunonchi, yozda o‘quvchilarni ishlab chiqarishga bemaolol jalb etish mumkin. Bunda, jismoniy mehnatga ularni qiziqtirish, mehnat nashidasidan bahramand etish, ularda mamnuniyat hissini tarkib toptirish, rejali mehnat qilish ko‘nikmasini vujudga keltirish, javobgarlik va mas‘uliyat hissini tarkib uyg‘otish lozim. Ilk o‘spirinlarni mehnatga tayyorlanishga rag‘batlantirishni malaka darajasini berish bilan yakunlagan ma‘qul. Ishlab chiqarish mavsumida o‘quvchilar brigadalarini tuzishda ularning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va aqliy kamolotini hisobga olish zarur. Brigadalarda ishlash mehnat va kasbga psixologik tayyorgarlik bosqichi bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zining qaysi kasb-hunarga yaroqliligi yoki yaroqsizligini amaliy ishlarda sinab ko‘radilar va o‘zlarining qobiliyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Kasb tanlashda ilk o‘spirin yigit-qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad – bosh maqsad deb ataladi va u umumxalq mehnatiga o‘z ulushimni qo‘sha olamanmi, qanday inson bo‘lib yetishaman, hayot va faoliyat ideallarim nimalar bo‘lishi lozim, degan fikrlardan iborat bo‘ladi. Yaqin va yaqqol maqsad – dastlabki faoliyati sohasi, mutaxassislikni qanday va qayerda egallash, o‘qishni tugatgach, dastlabki mehnat faoliyat qaysi lavozimdan boshlanishi, mehnat mahoratini oshirish istiqbollari haqidagi mulohazalardan tashkil topadi. Psixologik nuqtayi nazardan maqsadga erishishning tashqi va ichki shart-sharoitlari mavjud. Tashqi sharoitlarga maqsad yo‘lidagi har xil qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar mazkur muassasa yoki tashkilotning imkoniyatlari, muayyan subyektgа – yosh kasb egasiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qarshiligi va hokazolar kiradi. Maqsadga erishishning ichki shart-sharoitlariga shaxsning imkoniyatlari, sihat-salomatligi, aqliy qobiliyati, tirishqoqligi,



irodaviy sifatlari (chidamliligi, sabr-toqati) tanlagan kasbi bo'yicha ishlashi uchun zarur fazilatlar va hokazolar kiradi.

Psixologiya fanida maqsadga erishish faoliyatining qo'shimcha, yordamchi turlari ham amalda uchrab turadi. Ular asosiy maqsad vositalari ish bermay qolganida qo'llanadi. Ilk o'spirinlar tajribasida shunday hollar ro'y beradiki, asosiy maqsadni amalga oshirishda, yengish qiyin to'siqlarga duch kelinadi, ana shundagina yordamchi vositalardan foydalaniladi. Bunday holatni tasavvur etish uchun ularning tajribasidan quyidagi ko'chirmani keltiramiz: "Tanlov bo'yicha yaqin oradagi kasb-hunar kollejiga kira olmayman, shuning uchun xuddi shu mutaxassislik bo'yicha kollejga kirish uchun harakat qilaman..." Kasb tanlovchi ilk o'spirinning mulohazasidan ko'rinib turibdiki, u bir emas, balki bir nechta qo'shimcha maqsaddan foydalanishga intilyapti. Shunga o'xshash maqsadga erishishning qo'shimcha, yordamchi yo'l va vositalari uchrashi mumkin. Qo'yilgan maqsadni ro'yobga chiqarish uchun intilish kasb tanlash jarayonida ularning shaxsiyatida jur'atlilikni vujudga keltiradi. Bu fazilat ilk o'spirin shaxsining ajoyib yutug'idir.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining professiogramma bilan tanishishida asosiy maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni, jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi:

a) asosiy mehnat qurollari – kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr-xayoli – xuddi shu qurollariga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

b) asosiy mehnat operatsiyalari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarida ishlatish mumkinligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operatsiyalarning yangi variantlarini qidirib topish uchun harakat qilish;

d) asosiy qurollar va vositalar; qo'l asboblardan – chilangar, xirurg, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi;



g) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini qurshagan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazolar.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, ilk o‘spirinlarni o‘z qiziqishlari, mayl, ehtiyoj, iqtidor, qobiliyat, ko‘nikma va malakalarini hisobga olgan holda kasb tanlashga yo‘naltirish jamiyatning rivoji uchun puxta zamin hozirlaydi.

Ilk o‘spirinlik yoshida inson uchun eng muhim hissiyot – sevgi vujudga keladi. U o‘rtoqlik, do‘stlik tuyg‘ulari zamirida paydo bo‘ladi. Sevgi mazkur yoshdagi o‘quvchilarning hissiy dunyosida mutlaqo yangi holat bo‘lib, u o‘smirlarning shunday ichki kechinmalaridan tubdan farq qiladi. Ma‘lumki, o‘smirlarda ham mehr–muhabbat tuyg‘usi, ishqibozlik, ko‘ngil qo‘yish, qo‘msash ko‘rinishlarida aks etadi. Lekin ilk o‘spirinning sevgisi chuqur, kuchli, otashin, haqiqiy bo‘ladi. Mana shu yoshdagi o‘g‘il–qizlar sevgisi o‘zining softligi, beg‘uborligi, ma‘sumligi, iboliligi, shirin kechinmalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Ilk o‘spirinlik davrida vujudga keladigan his–tuyg‘ularni to‘g‘ri idora etish, yigit va qizlarga sevgi munosabatlarining naqadar nozikligini, bo‘lajak oilaning baxti haqidagi tushunchalarni to‘g‘ri anglatish yaxshi natija beradi. Yigit va qizlarning ma‘naviy olamida uchraydigan ayrim ziddiyatlarni bartaraf etishda, ularni kelajakda oilaning taqdiriga yuzaki munosabatda bo‘lmaslikka o‘rgatishda va oila qurishga tayyorlashda jinsiy tarbiya muhim ahamiyatga molikdir.

Erkak va ayollarning teng huquqliligi bir–biriga sodiqligi lozimligi haqidagi tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish zarur. Buning uchun o‘qituvchi o‘zbek milliy turmush tarzidan aniq misollar keltirishi lozim. Chunonchi, xotin–qizlarga past nazar bilan qarash, huquqdagi notenglik hollarini yoshlarning ko‘z oldiga keltirish, ularni o‘ziga o‘zi o‘t qo‘ygan, sirka ichgan, o‘zini osgan ayollarning ayanchli ahvolidan xabardor qilish kerak.

Ilk o‘spirin yigit – qizlar erkak va ayolning munosabatlarini yotig‘i bilan tushuntirish ota-ona, shifokor, sinf rahbari va o‘qituvchilarning muhim vazifalaridir.



Ta'lim tizimida ilk o'spirinlarga o'zlaridagi jismoniy, fiziologik va psixik o'zgarishlar; yigit va qizlarning o'zaro munosabatlari shakllanishi; sevgi, oilaviy turmush, uning maqsadi va ijtimoiy, gigiyenik, masalalari to'g'risida maxsus bilimlar berish lozim. Tarbiyaviy soatlar, shifokor bilan suhbat, oila a'zolarining maslahatlari kabi tadbirlarga jiddiy e'tibor berish kerak.

Ota-onalar va o'qituvchilar ilk o'spirin yigit – qizlarga sevgining ikki turi – shahvoniy tuyg'u zaminida vujudga keladigan beqaror sevgi va chinakam do'stlik, insoniy munosabatlar asosida paydo bo'ladigan haqiqiy sevgi borligini tushuntirishlari lozim. Qizlarda haqiqiy sevgi kurtaklari o'g'il bolalarga nisbatan erta uyg'onadi, ular bir umr o'zlariga yo'ldosh va doimo g'amxo'rlik qiladigan kishining muhabbatiga sazovor bo'lishni orzulaydilar. Ba'zan qizlarda ham beqaror hislar yuzaga kelishi mumkin.

Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g'amxo'rliги oiladagi farzandlarning munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarini tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro'zg'or yumushlarini o'rgatishi ham lozim. Aks holda nimalar bo'lishini ma'naviy qashshoq, yengil-yelpi hayotga ko'nikib, tubanlik botqog'iga botib qolgan ayrim ayollarning ayanchli qismatidan misol keltirish orqali tushuntirishi zarur.

Ilk o'spirinlarni turmush qurishga tayyorlashda maktab bilan oilaning hamkorligi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ro'y berishi mumkin bo'lgan ruhiy, jismoniy iztiroblarning oldini olish juda murakkab ish. O'qituvchilar jamoasining o'zi bu ishni bajara olmaydi. Shuning uchun uni ota-onalar va jamoatchilikka tayanib amalga oshirish zarur.

Ilk o'spirin yigit-qizlarning hayotiy rejaları bilan tanishishda ularning mayli, qiziqishi va nafis tuyg'ulariga, ezgu maqsad sari intilishlariga alohida ahamiyat berish lozim. Yigit yoki qizning ruhiyati va ma'naviyatiga to'g'ri yo'l topish orqali uning fe'l-atvorida o'zgarishlar hosil qilish mumkin.



Oiladagi sogʻlom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Oiladagi tarbiyaviy ishlar taʼlim tizimida mustahkamlanishi va rivojlantirilishi, ilk oʻspirinlarni turmush masalasiga ilmiy nuqtayi nazardan qarashga oʻrgatish lozim. Yigit va qiz oʻrtasidagi munosabatlar ancha murakkab boʻlib, ular asta-sekin shakllanadi, bu munosabatlarning rivojlanishi koʻp jihatdan sinf rahbarining faoliyatiga bogʻliqdir. U oʻz ishini yigit va qiz oʻzaro doʻstlik munosabatlarini aʼlo oʻqish, namunali xulq, jamoat ishlarida faol qatnashish bilan amalga oshiradigan yoʻsinda tashkil etishi kerak. Shuningdek, taʼlim tizimida ilk oʻspirin yigitlar qizlarga yordam beradigan, qizlar esa bu yordamni qadrlab ularga mehribonlik tuygʻusini namoyon qiladigan vaziyatlarni yaratish kerak.

Akademik litsey va kollejda oʻqish davrida har ikkala jinsdagi oʻquvchilar oʻzaro doʻstona munosabatda boʻlishlari, bir-biriga yordam berishlari, oʻzaro hurmatda boʻlishlari shart. Lekin ular oʻrtasida muqaddas, hech buzilmaydigan parda, chegara boʻlishi maʼqul. Yigitning burchi qizni avaylash, uning sharm-hayosini poymol qilmaslik, taqdirga yuzaki qaramaslik; qiz esa, oʻz navbatida, uyatchan, sharm-hayoli, andishali, kamtar, qizlarga xos gʻururli, nazokatli boʻlishlari darkor. Qizlik shaʼniga dogʻ tushiradigan xatti-harakat va hirsga berilmaslik kelajakdagi baxtiyorlik uchun zarurligini har bir qiz bilib qoʻygani yaxshi.

Ilk oʻspirinlarga oila qurish haqida tushuncha berishda baxtli, tinch–totuv yashash, bir–biriga ishonch, sadoqat boʻlishi kerakligini uqtirish bilan birga, ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin boʻlgan qiyinchiliklardan ham ogohlantirish kerak, albatta. Ularga oilada boʻlib turadigan janjallarda oxirini oʻylab ish tutish zarurligini uqtirish lozim.

Nikohga tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri kuyov-qayliqning oʻzaro qaynota, qaynona, qarindosh-urugʻlar, xonadonning yaqin kishilari oldidagi burchlarini anglab olishdir. Mustahkam va



barqaror oila qurishning asosiy shartlaridan biri – kelinning boshqa sharoitga ko‘nikishi, begona turmush tarziga moslashuvidir. Uning sinalmagan oilaga, undagi iqtisodiy-moliyaviy tartibga, notanish qadriyatlarga, an‘analarga, marosimlar, rasm-rusmlarga o‘rganishi ham oson emas. Bularning hammasi yosh kelinning jismoniy, axloqiy, ma‘naviy va ruhiy jihatdan tayyorgarligini talab qiladi.

O‘qituvchilar akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining ota-onalari bilan olib boriladigan ishlarda asosiy e‘tiborni bolalar ruhiy dunyosining murakkab tomonlarini yoritishga qaratishlari kerak. Ularda tanqid va o‘zini o‘zi tanqid qilish, o‘zini tuta bilish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va to‘g‘ri baholash, o‘zini idora qilish kabi xususiyatlarni rivojlantirish zarur.

Tarbiyaning muhim quroli nutq hisoblanadi. Shuning uchun ota-ona o‘z nutqida yoqimsiz iboralarni ishlatmasligi, mantiqsiz, yoqimsiz ohang bilan bolalarni ranjitmasligi, ularda ishonch hissini uyg‘otmaydigan, nosamimiy so‘zlarni aytishdan saqlanishlari kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuxanlikka, samimiylikka, sof vijdonli bo‘lishga nima yetsin! Mazax qilish, ba‘zan noo‘rin hazillashish orqali ham farzandlarning murg‘ak qalbini cho‘ktirish mumkin.

O‘smirlik yosh davrida inson psixikasiga oid materiallardan shu narsa ma‘lumki, ushbu taraqqiyot bosqichida fiziologik jihatdan rivojlanish, odatda, notekis amalga oshadi. Biroq hozirgi davrda (XXI asrda) biz ilk o‘spirinlarning rivojlanishi to‘g‘risida mulohazalar yuritar ekanmiz, shuni alohida ta‘kidlash joizki, ularda fiziologik o‘zgarishlar, funksional holatlar bu davrga kelib osoyishtalik pallasiga kiradi. Bu voqelikning ko‘plab omillari, mexanizmlari, harakatga keltiruvchi kuchlari mavjud bo‘lib, muayyan vaziyatga bog‘langan holda kechuvchi ta’sirlar orqali ro‘yobga chiqadi.

Ilk o‘spirinlik davriga kelib, rivojlanish subyektlarida jinsiy o‘sish (kamolot) biologik nuqtayi nazardan o‘zining tugallanish yoki yakunlanish pallasiga ko‘tariladi, buning natijasida ushbu ontogenez davrida organizmning barcha tarkiblari, bo‘linmalari har



tomonlama mustahkamlanishi yoxud takomillashuvi sodir bo'ladi. Ularda bo'yinging o'sishi o'smirnikigiga nisbatan biroz sekinlashadi. Shunga qaramasdan, ba'zi bir o'g'il ilk o'spirinlarda bu jarayon uzoqroq davom etishi kuzatiladi. Bo'yinging o'sishi qariyb to'xtash arafasidagi ilk o'spirinlarda vazn ortadi, kattalashadi, natijada, o'ziga xoslik vujudga keladi. Og'irlik bo'yinging o'sishiga nisbatan bir necha barobar ustun turishi ham mumkin. Yuqoridagi mulohazalarga qaramasdan, ularning xatti harakatidagi qo'pollik, keskinlik illatlari asta-sekin yo'qola boradi. Ma'lumotlar tahliligiga qaraganda, og'irlik ortishining asosiy sabablaridan biri - ilk o'spirinlik davriga kelib ularning muskullari rivojlanishidagi jadallashuv ekanligi. Fiziolog va psixofiziolog olimlar tomonidan muskullar o'sishining o'rganilishi quyidagi dalillarni keltirib chiqardi, chunonchi:

Yosh davri:	Muskullarning tana og'irligiga nisbati:
8 yosh	27
10 yosh	32
17 yosh	44

Odatda, biologik ya'ni jismoniy rivojlanish barcha ilk o'spirinlarda bioquvvatning oshib borishidan dalolat beradi. Ularda mehnat faoliyatining murakkablashuvi, yangi mehnat ko'nikmalari va malakalarining vujudga kelishiga olib keladi, lekin bunday rivojlanish ilk o'spirinlarning psixikasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, albatta. Mazkur yoshdagi qizlarda esa o'zlarining tashqi ko'rinishlariga, qiyofalariga nisbatan shaxsiy munosabatlari, e'tiborlari, qiziqishlari, mayllari tobora kuchayib boradi. Ular aksariyat hollarda o'zlarining tashqi ko'rinishlari yoki qiyofalarini anglagan yoki unchalik anglamagan holda o'zlarini yuqori baholashga intiladilar. Ilk o'spirinlik davrida o'g'il qizlardagi o'zini o'zi



yuqori baholash, noadekvatlik keyinchalik (ontogenezning keyingi bosqichida) hayoti va faoliyati davomida saqlanib qolishi, dinamik stereotip tus olish ehtimoli mavjud bo‘ladi. Mazkur tendensiyaning saqlanib qolish xususiyatini fransuz olimlari eksperimental tarzda o‘rganish orqali ularda o‘zini o‘zi baholash darajasini aniqlaganlar. Tadqiqotchilar oradan 30 yil o‘tgach, xuddi shu sinaluvchilarni yig‘ib, ular bilan o‘zini o‘zi baholash yuzasidan tajriba ishlarini o‘tkazganlar. Olingan natijalarni psixologik tahlil qilgan olimlarning fikrlaricha, ilk o‘spirinlik davrida dominantlik xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanmagan sinaluvchilarda oradan 30 yil o‘tganidan keyin ham mazkur stereotip tubdan yo‘qolmagan.

Psixologik ma‘lumotlarning tahliliga qaraganda, kuchsiz, zaif, past bo‘yli yoki ko‘rimsiz, notekislik fenomeni mavjud ilk o‘spirinlar o‘smirlardan farqli o‘laroq injiqlik, qaysarlik qilmaydilar, tevarak atrofdagi odamlar bilan shaxslararo munosabatlarda nizoli holatlarga kirmaydilar. Vaholanki, bunday toifadagi ilk o‘spirinlar o‘zlarining asosiy diqqatlarini o‘z o‘zini tarbiyalashga, kamol toptirishga, zaruriy shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga qaratadilar. Bu mayl ta‘sirida o‘zini jismoniy jihatdan kuchsiz, zaif his etgan ilk o‘spirinlar jismoniy tarbiya va sport bilan jiddiy, ravishda shug‘ullana boshlaydilar, qolaversa, o‘zlarining aqliy rivojlanishlariga, mustaqil fikr yuritishlariga alohida e‘tibor beradilar. Bunday voqelik yuzaga kelganligi munosabati bilan ushbu davrda kuchli va kuchsiz, bo‘ydir va pakana tuzilishga ega bo‘lgan o‘quvchilarni (akademik litsey, kasb hunar kollejlari subyektlarini) toifalarga ajratish ancha qiyin kechadi, chunki ularning orasidagi farqlar keskin kamayadi. Favqulod vaziyatga esa akselerantlarga tez rivojlanuvchi reterdontlar o‘sisdan orqada qoluvchilarga yetib oladilar. Buning natijasida ularning o‘zaro qarama-qarshiliklari keskin kamaya boradi.

Ilk o‘spirinlarda fiziologik rivojlanish o‘smirlik davriga nisbatan ancha tinch o‘tishi bilan tafovutlanadi, xuddi shu boisdan o‘sis va o‘zgarishlarning yakunlovchi bosqichi deb ham atash mumkin. Biroq



shu narsani alohida ta'kidlash joizki, biologik, fiziologik jihatdan ilk o'spirinlarning to'la voyaga yetmaganligi ularning shaxs sifatida to'kis shakllanganligini anglatmaydi. İlk o'spirinlik davrining o'ziga xosligi shundan iboratki, u biologik balog'atga yetishdan shaxs kamolotiga, ijtimoiyloshuvning navbatdagi bosqichiga o'tishni aks ettiradi. Mazkur davrda ham asosiy faoliyat o'qish, kasb-hunar tanlash bo'lib qolaveradi, lekin ularga nisbatan qiziqish biroz pasayadi, tanlab munosabatga kirishish kuchayadi, ya'ni differentsiatsiya dominantlik xususiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik voqelikning ham o'ziga xos muayyan omillari, sabablari mavjud. Agarda o'smirlikda asosiy faoliyat muomala, shaxslararo munosabat bo'lib hisoblansa, ilk o'spirinlik davriga kelib, undan oldingi ontogenetik bosqichdan farqli o'laroq o'qishga nisbatan qiziqish jonlana boradi. Chunki bu davrda ta'lim subyektlari oldida akademik litsey hamda kasb-hunar kollejarini bitirishdek mas'uliyat yotganligi harakatlantiruvchi kuch funksiyasini bajaradi. Bilish va kognitiv jarayonlarning barqarorligi o'sganligi, takomillashganligi, kasbiy malakalar shakllanganligi o'quv jarayonining sifat va miqdor jihatdan o'zgarganligidan dalolat beradi. O'zgarishlarning miqdoriy jihatdan ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yaqqol (konkret) va mavhum (abstrakt) ilmiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar.

2. Kognitiv faoliyatning jarayonlari, operatsiyalari rivojlanganligi: taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash va hokazo.

3. Esda olib qolishning ratsional usullarining mavjudligi (so'z-mantiq xotirasiga asoslangan holda).

4. Muammoli vaziyatlar va ularning yechimini topish imkoniyatlari.

5. Ijodiylik (kreatsiya) usullari vujudga kelayotganligi.

6. O'zini o'zi baholash va nazorat qilish uquvi shakllanayotganligi.

Odatda, sifat o'zgarishlarining tarkibiga o'quv faoliyatining motivatsion va mohiyat jihatidan o'zgarishning variantlari kiradi. Motivatsion o'zgarish to'g'risida shuni ta'kidlash joizki, o'quv



faoliyati ilk o'spirin uchun shaxslararo munosabatlarda o'z o'rmini topish, jamoa (sinf, kurs) ichida o'zini tasdiqlash, tan oldirish, mustaqil turmushga, hayotga kirishga tayyorgarlik ko'rishning motivlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu motivlarning barchasi ilk o'spirin uchun shaxsiy ma'no kasb etadi. Shaxsning motivatsiya tuzilishida yuksak ijtimoiy motivlardan jamiyatning to'laqonli, teng huquqli a'zosi bo'lish, xalqqa va Vatanga xizmat qilish, foyda yoki naf keltirish katta o'rin egallaydi. Bilishda, kognitiv faoliyatda o'quv jarayoniga va bevosita unda berilayotgan materiallarning (aksariyat fan asoslari) mohiyatiga nisbatan qiziqish ilk o'spirinlarda o'ziga xos xususiyatga ega (rasmiy yoki norasmiy nuqtayi nazardan yondashish). Yuqorida fikr, mulohaza va mushohadalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, bu davrga kelib o'quv faoliyatining barcha motivlari (hatto ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchilari ham) jiplashib, barqaror tus egallaydi. Ushbu motivlarning eng ahamiyatli, o'ziga xos tomonlari – bu ularning ixtiyoriyligidir. Boshqacha so'z bilan aytganda, ilk o'spirin (akademik litsey va kasb–hunar kolleji subyektlari) butun faoliyatini o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishga qaratishidir. O'quv faoliyatining bu motivatsiya sohasida differensial (individual) o'zini o'zi baholash hamda nazorat qilish alohida o'rin tutadi. O'zini o'zi bunday yo'sinda baholash (orttirib, pasaytirib, xolisona, haqqoniy) ilk o'spirinning qaysi soha kuchli va qaysida kuchsiz ekanligini to'g'ri (adekvat) baholashga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, o'zini o'zi rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini o'zi namoyon etish, o'ziga o'zi buyruq berish kabilarni takomillashtiradi. Buning natijasida “Men”ligini egallashga intilish tuyg'usi shakllana boshlaydi.

Akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quv faoliyati mohiyatining ikkinchi tomonini uning mazmunidagi o'zgarishlar tashkil etadi. Agarda o'smirlar ma'lum voqea va hodisaning shunchaki mazmunigagina qiziqsalar (ehtiyoj sezsalar), ilk o'spirinlar esa mazkur hodisa yoki voqelikka nisbatan turlicha munosabatlarni



izchil o‘rganib, tahlil qilib, shaxsiy nuqtayi nazarini bildirishni, talqin etishni (interpretatsiyani) xohlaydilar. Chunki ilk o‘spirinlarni bor haqiqat qiziqtiradi, qolaversa, bu davrda ishonch-e‘tiqod, dunyoqarash jadal sur‘atlar bilan shakllanadi. Ular har bir hodisani ko‘pyoqlama, atroflicha, butun yaxlitligi va chuqurligi, mohiyati bilan bilishni istaydilar. Lekin shunday omil yoki sabab mavjudkim, buning ta‘sirida ular uchun qiziqarli bo‘lmagan masalalarga diqqatini jalb qilolmaydi, natijada o‘spirinlar faoliyati susayadi. Ko‘pincha ilk o‘spirinlarni bevosita ana shu jarayonning kechishi, uning isbotlari, keltirilgan ham nazariy, ham empirik barcha dalillar qiziqtiradi, ularni bilish faoliyatining predmetiga joylashtirishni istaydi. Ular juda tez munozaraga kirishib ketadilar, chin haqiqat yechimini topishga intiladilar, bu esa mustaqil fikr yuritishga, ta‘lim samaradorligidan foydalanishga harakat qiladilar. Binobarin, baholash va baholanish istagi, bahs-munozaraga intilish mazkur yosh davrining eng asosiy xususiyatidir. Ular fikrlashining faolligi va tafakkurining mahsuldorligi bilan boshqa yosh davrlardan keskin ajralib turadi. Bu narsa (voqelik) larning barchasi turmushda fantastikada o‘z aksini topadi. O‘smirlardan farqli o‘laroq ular o‘z faoliyatini boshqara boradilar, hatto nazorat qila biladilar. Ushbu davrga kelib tafakkurning ijodiyligi jadallashadi. Shuni uqtirib o‘tish lozimki, ilk o‘spirinlarni faqat ilmiy emas, hatto ularni etik (axloqiy) muammolar ham qiziqtiradi. Ularda axloqiy masalalar yuzasidan kuchli baholash tizimi vujudga kela boshlaydi. Bu jarayonda tushunarsiz hisoblangan, tasavvur qilingan dalil va isbotlar ular tomonidan qabul qilinmaydi. Ilk o‘spirinlar o‘z faoliyatlarida hissiyot va irodaning kuchli xatti–harakatlari hamda tafakkurning faolligi bilangina tavsiflanib qolmasdan, balki mustaqillikka (shaxs sifati tariqasida) intiladilar. Ular uchun munozarali, bahsli kechalar, eksperimental laboratoriya mashg‘ulotlari, erkin seminar mavzulari katta qiziqish, motiv, moyillik uyg‘otuvchi stimuly hisoblanadi. Bularning barchasidan unumli foydalanish orqaligina har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilaridan (kasb-hunar kolleji, akademik litsey



subyektlaridan) mustaqil ravishda o‘z ma’lumotini uzluksiz oshirib borish qobiliyatini yanada takomillashtirishi mumkin.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, ilk o‘spirinlik davriga kelib o‘quvchilarning bilish (kreativ-ijodiy) faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlar, kasb-hunar motivlari, intilish, moyillik, tabiat va jamiyatga nisbatan ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik munosabat ular shaxsining tarkib topishida (ijtimoiylashuvida) muhim rol o‘ynaydi.

Odatda, har bir yosh davrining psixologik xususiyatlari tadqiq etilganida undagi alohida (individual) shaxsning o‘z tengdoshlari davrasidagi (mikromuhitdagi) o‘rni va ular bilan o‘zaro hamda shaxslararo munosabatlari alohida izlanish predmeti sifatida ko‘rib chiqiladi. Xuddi shu bois ilk o‘spirinlik davrining asosiy xususiyatlaridan yana biri sifatida shuni ta’kidlash joizki, bu davrga kelib ularda shaxslararo munosabatlarda ota-ona, o‘qituvchi, tengdoshlari, norasmiy guruh a’zolariga nisbatan qayta oriyentatsiya (reoriyentatsiya) qilish jarayoni tugallanadi. Ma’lumki, o‘z tengdoshlari bilan muomalaga (muloqotga) kirishish ehtiyoji insonda 4–5 yoshidayoq vujudga kelsa-da, ushbu ehtiyoj borgan sari kuchayadi, jadallashadi, ko‘lami ortadi, buning natijasida reoriyentatsiya jarayoni namoyon bo‘ladi, tobora barqarorlashib boradi.

Materiallarning psixologik tahliliga qaraganda, ilk o‘spirinlik davrida tengdoshlar o‘rtasidagi muomala, muloqot uch xil ko‘rinishdagi funksiyani bajaradi:

1. Axborot (informatsiya) kanali.
2. Shaxslararo munosabatlarni shakllanish jarayoni.
3. Emotsional–hissiy aloqa (kontakt) o‘rnatish vositasi (o‘zaro ta’sir yoki interaksiya).

1. Axborot (informatsiya) kanali yuzasidan shuni aytib o‘tish lozimki, ilk o‘spirinlar o‘z tengdoshlaridan muayyan darajada tabiat, jamiyat, fan va texnika to‘g‘risidagi ma’lumot (xabar)larni oladilar. Jinslar (genderlik) haqidagi ma’lumotlarning deyarli



aksariyati tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, muomala jarayonida o'zlashtiriladi, qolaversa, ularga nisbatan shaxsiy munosabati shakllanadi. Shuning uchun tengdoshlari bilan munosabatga kirishmaslikning o'zi ijtimoiy-psixologik voqelikka daxldor salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, buning natijasida ularning psixikasida rivojlanishdan orqada qolish hodisasi vujudga keladi. Axborot taqchilligi shaxsni sust harakat qilishga, loqaydlikka olib boruvchi illatni namoyon etadi.

2. Shaxslararo munosabatning shakllanish jarayoni – ilk o'spirinning o'z tengdoshlari orasida axloqiy va nafosatga oid bilim, ko'nikma, madaniyatni egallaydilar. Jamoada, guruhda, jamoatchilik o'rtasida o'zini tuta bilishlik, o'zini o'zi ham jismonan, ham aqlan idora qilishlik bolalik davridayoq tengdoshlar davrasida shakllana boradi. Mazkur davrda munosabatlarning me'yori, mezoni, paralingvistik, ekstralingvistik, prosemik, operativ-kinestetik fenomenlari bilan qurollanish vaziyati yuzaga keladi.

3. Emotsional-hissiy aloqa (kontakt) o'rnatish vositasi (interaksiya funksiyasi) – guruhning teng huquqli a'zosi (ishtirokchisi, hamkorlik faoliyati subyekti) ekanligini anglash (tushunish, o'zini o'zi tan oldirish, o'z "Men"ligini tasdiqlash), undagi o'rtoqlarcha, do'stona (xolisona) o'zaro yordam ilk o'spirinning mustaqil shaxs sifatida shakllanishida ko'mak beribgina qolmasdan, balki unga emotsional-hissiy kechinmalar, tuyg'ular, yuksak hislar (aqliy, axloqiy, lazzatlanish, ehtiros, eyforiya, kayfiyat, affekt, stress, depressiya kabilar) to'g'risida ma'lumotlar hamda ulardan ijtimoiy turmushda foydalanish yo'l-yo'riqlari bilan tanishtiriladi. Bularning barchasi mazkur yoshdagi o'g'il-qizlarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga puxta, barqaror, mustahkam psixologik negiz yaratadi.

Ilk o'spirinlarning tengdoshlari haqida mulohaza yuritar ekanmiz, ular ishtirok etgan jamoasi (guruhi) tushunchasini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan izohlab berishga, tavsiflashga harakat qilamiz. Bizningcha (E.G'.), bu tushuncha ikki xil ma'no, mohiyat kasb etishi, shuning uchun ikki toifaga mansub sifatida talqin qilinishi mumkin.



1. Tor ma'nodagi, ya'ni ko'lami ixcham bo'lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatli guruh birlashmasi (rasmiy yoki norasmiy bo'lishidan qat'i nazar) ko'rinishi, shakli sifatida.

2. Keng ma'nodagi, ya'ni ko'lami keng, umuman olganda, keng miqyosdagi tanish va notanish tengdoshlarni birlashtirish tariqasida. Lekin ta'bir joiz bo'lsa shuni aytish kerakki, tor ma'nodagi ijtimoiy-psixologik guruhlar sifatidagi tengdoshlar jamoasi bir tomondan turli yoshdagi, kasbdagi yoshlarni, masalan, sport komandasi a'zolarini o'z ichiga qamrab olishi nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, ular ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan turli kasb-hunar egalaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin, chunonchi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey o'quvchilari, xizmatchilar, ishchilar, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilar va boshqalar.

Ilk o'spirinlar psixikasi tadqiq qilinar ekan, ular ko'pincha referent guruhlariga taalluqli ekanligi uqtirib o'tiladi, ya'ni ularga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan hamda alohida o'g'il yoki qiz uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan guruh gavdalanadi. Psixologiya fanida ilk o'spirinlik davri ikki xil guruhga ajratiladi:

1) rasmiy guruhlar, ya'ni muayyan muhitga daxldorligi, yaqqol vaqt hamda fazoda hamkorlik tizimiga aloqadorligi;

2) ixtiyorsiz, g'ayritabiiy, spontan tarzda vujudga keluvchi guruhlar.

Odatda, rasmiy guruhlar katta yoshdagi insonlar tomonidan tashkil toptirilgan, shakllantirilgan, ham ijtimoiy, ham psixologik mexanizm bilan boshqariladigan hamda jamiyat tashkilotlari tomonidan nazorat qilib turiladigan odamlar jamlanmasi (birlashmasi)dir. Ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan ular ham o'z navbatida ikkitaga bo'linadi:

a) o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari, "Kamolot" tashkilotlari;

b) sport komandalari va seksiyalari, madaniyat uyi va o'quvchilar saroyidagi turli to'garak a'zolari.



Ilk o'spirinlarning ixtiyorsiz, g'ayritabiiy, spontan guruhlari esa mazkur yosh davridagi o'g'il-qizlarning o'zlari tomonidan o'rtoqchilik, do'stlik, tengdoshlik asosida tashkil topadi. Psixologik ma'lumotlar qiyosiy tahlilining ko'rsatishicha, g'ayritabiiy guruhlar ham, o'z navbatida, uch xil xususiyatga, ko'rinishga, morfologik tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

1) prosotsial guruhlar – rasmiy jihatdan hech qaysi jamoaga, guruhga qarashli bo'lmasalar–da, biroq ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanuvchi, faoliyat mahsuliga ega bo'lgan, jamoa yoki kengroq ma'noda jamiyat a'zolari bilan bir tekis qadam tashlovchi, ruhan sog'lom, zamon nafasiga hamohang hissiyotni gavalantiruvchi ilk o'spirinlardan tashkil topgandir;

2) asotsial guruhlar – ularni muayyan muhitga ijtimoiy foydali mehnat birlashtirmaydi. Bu guruhlar deyarli biror narsa bilan umumiy tarzda qiziqmaydilar, boshqacha so'z bilan aytganda, ularda ijtimoiy motivatsiya qariyb latent holatida, biroq ularning a'zolari bo'sh vaqtini birga o'tkazish uchun uchrashadilar, xolos. Ilk o'spirinlarning bunday guruhlari jamiyatda, uning infratuzilmalarida uchrab turadi. Aksariyat hollarda ular xarakteridagi beqarorlik mavjud bo'lganligi sababli antisotsial (aksilijtimoiy) guruhlariga aylanib qolish xavfi bor. Ma'lumki, bir stakan maydan mayxo'rlikka, qoidabuzarlikdan jinoyatchilikka o'sib o'tish o'rtasida masofa unchali katta emas.

3) antisotsial (aksilijtimoiy) guruhlar – bu ilk o'spirinlar jamiyatning axloqiy normalariga (me'yorlariga), milliy qadriyatlarga, ma'naviy mezonlarga, belgilangan qonunlarga qarshi, zid mashg'ulotlar bilan anglagan, goho anglamagan holda shug'ullanadilar. O'z sinfida, kursida yoki tengdoshlari, o'rtoqlari o'rtasida o'z o'rnini topa olmagan ilk o'spirinlar bunday guruhni tashkil qiladi. Aksariyat hollarda bu kabi guruhlarning liderlari jinoyatchilar, retsedivistlar hisoblanadilar, ularning xatti-harakatlarini ashaddiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda boshqaradilar. Bunday guruh a'zolari oddiy bezorilikdan tortib, to murakkab jinoyatchilikka qadar sa'y-harakatlarini amalga oshiradilar.



Yuqorida keltirilgan guruhlarga daxldor ilk o‘spirinlar vujudga kelishininh oldini olish uchun oila, mahalla, maktab, kollejlilar, akademik litseyilar, “Yoshlar ittifoqi” hamkorlikda ular ruhiyatidagi og‘ishni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu yo‘nalishda olib borilgan psixologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra ko‘rsatishicha, o‘qituvchilar tomonidan aql-idroki, qobiliyati, ma‘naviy olami, qiziqish motivatsiyasi oqilona baholanmagan, tengdoshlari davrasida hurmat, e‘tibor qozona olmagan, oilada, shaxslararo munosabatlarda muayyan maromga erisha bilmagan ilk o‘spirin yoshidagi o‘g‘il-qizlar qonunbuzarlik yo‘lini tanlaydilar. Ular uchun jinoyat tengdoshlar, voyaga yetganlar davrasida o‘zini ko‘rsatish va tan oldirish, o‘zgalar diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday toifaga aloqador ilk o‘spirinlar o‘zlari amalga oshirayotgan jinoyatlaridan asosiy maqsad nima ekanligini anglab yetmaydilar. Ular bilan psixologik mashg‘ulotlar o‘tkazish, psixotreninglar tashkil etish, psixoterapiya vositalaridan foydalanish, proyektiv metodlarni tatbiq qilish orqali psixologik og‘ishni kamaytirish mumkin. Ilk o‘spirinlarni o‘zini o‘zi baholashga, nazorat qilishga o‘rgatish, irodasini takomillashtirish mashg‘ulotlarini o‘tkazish ijobiy natija keltiradi. Eng samarali vositalardan biri – bu ularda qiziqish ko‘lamini kengaytirish, motivlarni motivatsiyaga o‘sib o‘tkazish, ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirish.

Ilk o‘spirinlik davrida biror ijtimoiy guruhda o‘z o‘rnini topish uning uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etmasin, bu yosh davrlari bosqichida eng rivojlangan his bu do‘stlik bo‘lib hisoblanadi. Ilk o‘spirinlar o‘zlarini qanchalik ko‘rsatishga (namoyon etishga, ro‘yobga chiqarishga) intilmasinlar, ko‘pincha, o‘zlarini tushunadigan va anglay oladiganlarni juda qadrlaydilar. Ular o‘z do‘stlarining oldiga o‘smirga o‘xshab umuman bajarib bo‘lmaydigan, noreal talablarni qo‘ymaydilar, bunday do‘stlik nafaqat mustahkam, barqaror bo‘libgina qolmay, balki u chuqur negizga ega bo‘la boradi. Ilmiy tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, barcha ilk o‘spirinlarda



do‘stlikning mustahkamligi bir xil emas ekan. Chunki bu turli ko‘rinish ijtimoiy-madaniy, aqliy-ijodiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liqdir. Qizlar bilan yigitlar o‘rtasidagi do‘stlik tuyg‘usiga nisbatan munosabat ham turlicha ma‘no-mohiyatga ega ekan. Masalan, shaharda yashaydigan yigit va qizlarda bu do‘stlikning mustahkamligiga ishonch kuchliroqdir. Shunga qaramasdan, yigitlarga nisbatan bokira qizlarda ushbu munosabat jiddiyroqdir. Ilk o‘spirinlik davrida bu tuyg‘u juda katta ahamiyat kasb etadi, hatto ijtimoiylashuvning muhim fenomeni sifatida gavdalanadi. Bir tomondan u ilk o‘spirin uchun uning ichki dunyosini ochishga xizmat qilsa, o‘zini o‘zi anglashga yordam bersa, ikkinchi tomondan ushbu yuksak tuyg‘u do‘stlik o‘zgalarni tushunishga harakat qilishning ijtimoiy turmush maktabi vazifasini bajaradi. Shuning uchun shaxsning ilk o‘spirinlik davridagi do‘stlikka (ilk muhabbatga aylanish ehtimoli mavjudligi tufayli) o‘qituvchilar ularga jiddiy munosabatda bo‘lishlari ayni muddaodir. Unga o‘tkinchi mayl sifatida to‘sqinlik qilmay, balki yigit-qizlarni uni avaylashga, qadrlashga, ulug‘lashga o‘rgatish kerak, toki u ilk o‘spirinlar emotsional–hissiy kechinmalarining regulyatoriga aylansin. Ilk o‘spirinlarni do‘stlashish vaqtida shaxsning yoshiga ham e‘tibor berish ijtimoiy turmushda foydadan xoli emas. Chunki u kishining ruhiy holatiga kuchli ta‘sir etadi, hatto larzaga keltiradi (shirin tuyg‘u, murakkab kechinma, eyforiya, ruhiy madad, stress, depressiya va boshqalar).

Jahon psixologlarining tadqiqot natijalari quyidagi ma‘lumotlarning tavsifiga imkon beradi. Ularni umumlashtirish: ilk o‘spirin yigitlar do‘stlashishida: 75–85% tengdoshini, 15–18% katta yoshdagilarni, 1–7% kichik yoshda bo‘lishini ma‘qul ko‘radilar. Ilk o‘spirin yoshidagi qizlarda esa olingan ma‘lumotlar o‘zgacha xususiyatga ega. Ular: 50–60% tengdoshlari bilan, 40–50% katta yoshdagilar bilan, kichik yoshdagilar bilan do‘stlashmaslikni afzal ko‘radilar. Psixologlarning talqiniga qaraganda, buning barchasi ulardagi ideal do‘stlik haqidagi tushunchalarning turli–tumanligi



bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Biroq ilk o‘spirinlik davridagi do‘stlikning eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, ular o‘z do‘stining ijtimoiy o‘rniga, psixologik xususiyatlariga, hayotiy ustanovkalariga asoslangan holda tanlab olmaydilar.

Fransuz psixologi Zazzo ilk o‘spirinlardagi, shu jumladan, o‘smirlikda kechadigan do‘stlikka ta’rif berar ekan: “Bu davr eng samimiy va olijanob davrdir” degan edi. Keltirilgan olim fikrining asl ma’nosi shuki, ilk o‘spirinlar eng pok do‘stlikka, ya’ni sevgiga ega bo‘lib, goho undan norozi bo‘ladilar, iztirob chekadilar, chunki bu do‘stlik juda ko‘p ziddiyatlar makonidir. Ilk o‘spirinlar do‘stlikka intilmasinlar, bunga bo‘lgan ehtiyoj prinsiplar jihatdan qondirilmay qolaverishi ham mumkin. Ilk o‘spirinlarning do‘stligi to‘g‘risida beto‘xtov, uzluksiz mulohaza yuritish mumkin, shuning uchun bu ma’ruzada yoritilmasdan qolib ketgan masalalar yuzasidan materiallarni mustaqil ta’lim soatlarida o‘rganib, o‘zlashtirib olasizlar, deb ularga ishonch bildirish maqsadga muvofiq.

Ilk o‘spirinlarda dunyoqarash muammosining tahlili shaxs shakllanishining muhim bo‘g‘imi bo‘lib hisoblanadi. Dunyoqarash – jamiki olamga (o‘n sakkiz ming va undan ortiq) nisbatan shaxsning munosabati borliqning asosi va prinsiplari haqidagi tasavvurlar tizimi, odamning turmush falsafasi, uning barcha bilimlarining yig‘indisi va natijasi. Dunyoqarash bilimlar tizimidan tashqari e’tiqodlar, qadriyatlar, ma’naviyat tizimini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Ular dunyoqarashiga xos bo‘lgan izlanishlardan biri o‘z hayotining (turmushining) ma’nosini qidirishdir. Ilk o‘spirin yigit va qiz hayotining shunday bir formulasini topishni istaydiki, bu formula turmushning barcha qonunlari, qoidalari, mexanizmlari, prinsiplari, holatlari, xususiyatlari, hodisalari va jarayonlarini o‘z ichiga qamrab olishdan iboratdir.

Dunyoqarash ikki yoqlama tavsifdan tashkil topadi va o‘ziga xosligini namoyon etadi. Kognitiv – kognitiv nuqtayi nazardan dunyoqarash obyektiv borliqni qanchalik to‘g‘ri aks ettirish



bilan tavsiflanadi. Akseologik – akseologik nuqtayi nazardan esa – dunyoqarash shaxs faoliyatining qanday boshqarilishi bilan tavsiflanadi. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, dunyoqarash inson faoliyatini boshqarar ekan, u progressiv yoki reaksion optimistik yoki neosimistik faol ijodiy yoki sust-kuzatuvchan bo‘lishi mumkin. Biz yuqorida ilk o‘spirinlarning rivojlanishidagi eng asosiy xususiyatlarni ko‘rib chiqdik, xolos.

Ilk o‘spirinlik yosh davri ma’ruza tipidagi darslar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlar, referat, tuzish, konspekt yozish kabi o‘quv faoliyati turlari akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilari o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan materiallarni mustaqil tushunishga olib keladi. Mazkur faoliyat tiplarining kundan-kunga ko‘proq ahamiyat kasb etishi natijasida tafakkur borgan sari faol, mustaqil, ijodiy xislatlar bilan boyib boradi. O‘quvchilarning aqliy faoliyati o‘zining umumlashtirish va abstraksiyalash jarayonining yanada yuqoriroq darajasi hamda narsa va hodisalarning kelib chiqish sababini tushuntirish an’anasining ortib borishi bilan ham ajralib turadi. Bu ba’zi holatlarning chin yoki chin emasligini ko‘rsatish bilan, chuqur xulosa chiqarish bilan, o‘rganilayotgan narsani tizimga kiritish bilan tavsiflanadi va tafakkurning tanqidiyligi bilan boshqa yosh davrdagi o‘quvchilardan ham sifat, ham miqdor jihatidan farqlanib turadi. Bularning barchasi ilmiy–nazariy tafakkurning shakllanishiga va tevarak-atrofdagi voqelik haqidagi umumiy qonuniyatlarni bilish qobiliyatini o‘z sishiga intellectual-ijodiy, zaxira va imkoniyatning ochilishiga, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini anglab olishga muhim shart-sharoitlar yaratib beradi. Ilk o‘spirinlar u yoki bu holatni asoslangan, isbotlagan davrda ularning asosiy tomoniga, muhim xususiyatlariga, birlamchi jihatlariga sinchkovlik bilan qaray boshlaydilar. Darsliklardan o‘qigan va o‘qituvchi tomonidan bayon qilingan axborot va ma’lumotlarga ishonch va qanoat hosil qilish uchun faol harakat qiladilar, biroq o‘smirlar singari obro‘ ketidan ko‘r-ko‘rona ergashish holati ularda juda kam ko‘zga tashlanadi. Ular har



bir darsda tanishishga to‘g‘ri kelgan materiallarning chin mohiyatiga, inson uchun zaruriyatligiga, haqiqat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun to‘xtovsiz intiladilar. Ba‘zan ta‘lim jarayonida ilk o‘spirin tomonidan u yoki bu narsaga nisbatan e‘tiroz yoki shubha tug‘ilsa, o‘qituvchi uni nohaq ravishda qoralaydi va “ishonmovchi” deb ayblaydi. Tafakkurni oqilona yo‘l orqali o‘stirish uchun favqulodda holatlarda o‘quvchining mazkur xususiyatini qoralamasdan, balki uni rag‘batlantirish to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki bu xislat rivojlanishi natijasida narsa va hodisalarni asoslash, dalillash, isbotlash, ishonirish kabi aqliy kamolotga yordam beruvchi, bilimlarni puxta o‘zlashtirishga eltuvchi aqliy faoliyat komponentlari takomillashadi.

Bu yosh davriga kelib, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilari aqliy faoliyat texnikasi va metodikasi bilan yetarli darajada qurollangan bo‘ladilar. Ammo mazkur yuksalishga qaramasdan, ularda bu sohada ma‘lum darajada kamchiliklar uchrab turadi. Bir tomondan, narsa va hodisalarning to‘la isbotlanmay qolishi hodisasi ko‘zga tashlansa, ikkinchi tomondan – tafakkurni faollashtiruvchi turli xususiyatli, maxsus o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan o‘quv faoliyati usullariga yetarli darajada ega bo‘lmasligidir. Ma‘lumki, fikr yuritish operatsiyalarini faollashtiruvchi aqliy usullardan oqilona foydalanish ko‘zlagan maqsadga yetishda asosiy rol o‘ynaydi.

Fikrlash faoliyatida mustaqillikning yo‘qligi yoki kamligi akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilarining muhim kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Ularga badiiy adabiyot obzorini tavsiflab berib, mazkur asar yuzasidan mustaqil hukm chiqarish topshirilgan taqdirda qanday xatti-harakatni amalga oshirish mumkin? Birinchidan, asarni bir necha bor o‘qishi, ammo hech qanday xulosa chiqarmasligi mumkin. Ikkinchidan, o‘qituvchi so‘zlarining har birini eslab qolib, ularni mexanik ravishda so‘zlab berishga harakat qilishi mumkin. Uchinchidan, o‘zi shaxsan boshqalardan eshitganlari bilan o‘qituvchi axborotini o‘zaro aralashtirib, sintez qilib javob berishga intiladi. To‘rtinchidan, o‘z shaxsiy fikrini bayon etishga qiyinchilik tug‘ilsa, u holda asardan parchalar keltirishga urinadi va hokazo.



Ilk o‘spirin o‘quvchilar fikr yuritishdan erinib, materiallarni hech o‘zgarishsiz “tayyor holda” egallab olishga intilib, hatto darsliklarda va boshqa manbalarda kam uchraydigan, javobini topish mumkin bo‘lmagan taqdirda ham ijodiy izlanishlarga harakat qilmaydilar. Lekin ta‘lim mazmuni va o‘quv faoliyatining xususiyati bu yoshdagi o‘quvchilarning fikr yuritish operatsiyasiga ulkan talab qo‘yishini ular xayollariga ham keltirmaydilar. Bu yoshga kelib, ular o‘quv materiallarini mustaqil ravishda abstraksiyalash va umumlashtirishga qodir bo‘ladilar. Mana shunday fikr yuritish zaminida nazariy tafakkur vujudga keladi. O‘qishga qiziqish esa asta-sekin aniq fanlarga qiziqishga aylana boradi.

Agar o‘smir tafakkuri yaqqol-obrazli tafakkurdan abstrakt (mavhum) tafakkurga o‘tib o‘tish bilan tavsiflangan bo‘lsa, katta maktab yoshidagi o‘quvchilarda dialektik-nazariy tafakkur qilish qobiliyati rivojlana boshlaydi. Bu tafakkur tabiat va jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari bilan bevosita aloqadordir. Mazkur qonuniyatlarning vujudga kelishi, o‘zgarib borishi, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi, shuningdek, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi singari murakkab bilimlar ilk o‘spirinlarning yosh xususiyatiga mutlaqo mos keladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida nazariy tafakkurning shakllanishida darsdan va sinfdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga ega, jumladan, turli to‘garaklar o‘quvchi bilimini chuqurlashtirib, uning bilim doirasini kengaytiradi. Ayniqsa, bu borada mustaqil bilim olish faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Agar to‘garaklar shaxsiy tashabbuskorlikka asoslanmay tashkil etilsa va ijodiy xususiyatga ega bo‘lmasa, u holda ko‘zlagan natijasini bermasligi mumkin (mustaqil ishlar, testlar, kompyuter, internet).

Fizika o‘quv predmeti sifatida o‘quvchilarda abstrakt tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy manbadan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, fizika fani bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiadalar, qiziqarli ijodiy bahslar, qo‘shimcha manbalardan topilgan dalillar, kashfiyotlar, koinot



sirlaridan ma'lumotlar, jahon energetikasi masalalari, laboratoriya metodi orqali fizik qonuniyatlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatlari ilk o'spirinda fikr yuritish faoliyatida siljishni vujudga keltiradi. Bu narsalarning barchasi o'quvchilarda bilishga qiziqishni taraqqiy ettiradi.

Masalan, kimyo fani bo'yicha tashkil etilgan to'garakda ishtirok etish natijasida o'spirinlarda moddalarning kimyoviy xususiyatlari va xossalari hamda ularning tuzilishi haqida qo'shimcha bilim oladilar. Kimyoning sanoat va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risida ko'pgina qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishishga muvaffaq bo'ladilar. Matematika, asosan, o'quvchilarning abstrakt tafakkurini o'stirishga qaratilgan fan bo'lib, algebraik, geometrik, trigonometrik shakllar va ularning turli variantlari bilan har tomonlama chuqur tanishish muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot ilk o'spirinlarda mantiqiy va ijodiy tafakkurni o'stirishda asosiy rol o'ynaydigan fan hisoblanadi. To'garaklar ta'siri ostida mustaqil fikr yuritish, aqlning tanqidiyligi, nutq madaniyati tez sur'atlar bilan taraqqiy eta boshlaydi Bundan tashqari, ilk o'spirinning badiiy san'atga bo'lgan qobiliyati o'sadi, badiiy didi, ijodiy qobiliyati, ijodiy fikri va xayoli kamolot sari ko'tarila boradi.

Ilk o'spirin o'quvchilar tafakkurining mustaqillik darajasini vujudga keltirishda o'qituvchining o'zi ulkan rol o'ynaydi. Birinchidan, u o'quvchilarni o'rganilayotgan qonuniyat va xossalarning to'g'riligi haqida ishonch hosil qilishga, mavzular yuzasidan qanoatlanishga, isbotlash va dalillashga o'rgatib borishi kerak. Bundan tashqari, sanab o'tilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun eng qulay usul va metodlardan foydalanish kerakligi to'g'risida to'la ma'lumot berilishi maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchilarni narsa va hodisalar haqida original yoki nostandart fikr yuritishga, ijodiy yondashishga o'rgatishi lozim. Buning uchun ularni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirish darkor. Uchinchidan, qo'llanilaverib eskirgan tarixiylikka aylangan so'zlardan, terminlardan, iboralardan



foydalanishga, umuman, shablonizmga yo‘l qo‘ymaslik, ilk o‘spirinlarni ijodiy izlanishga yetaklashni hech vaqt diqqat-e‘tibordan chetga chiqarmaslik zarur. To‘rtinchidan, o‘qituvchi ilk o‘spirinlarning oldiga bilimlarni amalda tatbiq qilish vazifasini qo‘yishi shart. Beshinchidan, o‘qituvchi ilk o‘spirinlarning individual xususiyatlarini hisobga olib, zaxiradagi aqliy imkoniyatlarni ishga solishi maqsadga muvofiqdir. Oltinchidan, o‘qituvchi ilk o‘spirinlar oldida muammoli vaziyatni vujudga keltirishi va ularni hal qilish bosqichlari bilan tanishtirib, yechishga da‘vat etishi ayni muddao. Yettinchidan, ilk o‘spirinlarning emotsional-irodaviy xususiyatlarini, mustahkamlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, ustanovka berishi, ularni qiyinchiliklarni yengish va oldini olishga o‘rgatish o‘qituvchining kasbiy burchidir.

O‘qituvchi zimmasiga qo‘yilgan vazifalar va shartlarning barchasi pedagogik faoliyatga tatbiq qilishga muayassar bo‘linsa, hamisha ularga rioya qilinsa, u taqdirda akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilari tafakkurining mustaqilligini shakllantirish bosqichida yuksak amaliy vazifalar ro‘yobga chiqqan bo‘ladi. Bunday ulkan talab hamda vazifalarni pedagog sharaf bilan bajarish uchun o‘z fanini mukammal egallash yo‘lida ko‘p mehnat qilish, siyosiy savodxon bo‘lishi, psixologik bilimlarni puxta egallashi, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini to‘la o‘zlashtirishi, psixologik ta‘lim va tarbiya qonuniyatlari bilan qurollanishi maqsadga muvofiqdir.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda taraqqiy etishi mumkin emas. Shu sababdan tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda ilk o‘spirinlarning axloqiy-ma‘naviy sifatlarida ham muhim o‘zgarishlar vujudga keladi, uning nutq madaniyati o‘sadi. Bu esa o‘quvchining o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash malakasini tarkib toptirib, nutq tuzilishini mustahkamlaydi, uni murakkablashtiradi va lug‘at tarkibini yanada boyitadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji ta‘limi oxiriga kelib, o‘quvchi mustaqil fikrlash malakasini egallab, mustaqil aqliy mehnat texnikasini, uning metodlarini o‘zlashtirgan holda mustaqil



bilim olish ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. Biroq fikr yuritish faoliyati mustaqilligining rivojlanmaganligi ularning o‘quv faoliyatida katta kamchilik hisoblanadi. Bu kamchilikning asosiy sababi o‘quv topshiriqlarining noto‘g‘ri qo‘yilishi, o‘quvchilardan mulohaza yuritishni uzluksiz talab etmaslik va mustaqil fikrlash qobiliyatiga e‘tibor bermaslikdir. O‘quv topshiriqlarining noto‘g‘ri qo‘yilishi natijasida o‘spirinlar “tayyor mulohazalar quli” bo‘lib qolaveradilar. Shu sababli o‘qituvchi yuqoridagi fikrlarni e‘tiborga olishi mutlaqo shart. Akademik litsey o‘quvchilarida va kasb-hunar kolleji subyektlarida u yoki bu xildagi vaziyatni to‘g‘ri aniqlashga, asoslashga va isbotlashga, butun diqqatini qaratishga moyillik kuchli bo‘ladi. Dars jarayonida duch kelinadigan narsa va hodisalarning chin ekanligiga ishonch hosil qilishga intilish bu yoshdagi yigit-qizlarda o‘ta kuchlidir. Lekin ba’zi hollarda o‘qituvchilarimiz o‘quvchilarning ana shu intilishiga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lib, ularni o‘rinsiz tanqidchilikda qoralaydilar, ulardagi bunday intilishning yosh xususiyatidan kelib chiqishini nazarga olmaydilar. Shu sababli o‘quvchilardagi tanqidiyligni faqat qoniqtiribgina qolmasdan, balki uni rag‘batlantirish kerak, chunki bu yoshdagi kontingentlarga xos xususiyatdir. Bu xususiyat ularning aqliy faoliyati taraqqiyoti uchun foydalidir. Ishonch, dalillashga talabchanlik, asoslash va isbotlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni anglash, shaxsiy nuqtayi nazarga ega bo‘lish kabi xislatlarni e‘tibordan chiqarmaslik zarur. O‘qituvchi fikrlash, analiz qilish yo‘lini shunday tushuntirishi kerakki, o‘quvchi mustaqil va to‘g‘ri xulosa chiqara olsin. Buning uchun o‘qituvchida didaktik qobiliyat mavjud bo‘lishi shart.

Ilk o‘spirinlar o‘zlariga xos bo‘lgan tanqidiyligni, o‘zlarining aniq nuqtayi nazarini adabiyot, tarix, jamiyatshunoslik fanlaridan ko‘ra aniq fanlarni o‘rganish paytida namoyish qilishlari qiyinroq bo‘ladi. Ulardagi tanqidiy tafakkurning, qat’iy mulohaza qilishning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, badiiy did va umummadaniyat hissining kamligi badiiy asar qiymatini yuzaki baholashga olib



keladi. Asar to‘g‘risida chuqur fikr yuritmasdan turib uning qiymatini aniqlashga shoshish mazkur yoshdagi o‘quvchilarning real turmush bilan badiiy asar o‘rtasidagi farqni anglay olmasligidan kelib chiqadi.

Ilk o‘spirin o‘quvchi adabiyot faniga o‘smirga qaraganda boshqacharoq yondashadi. Bu ko‘p tarmoqli bo‘lib, turli xususiyatli masalalarni hal etishni nazarda tutadi. Jumladan, ilk o‘spirinni hayajonga solgan savollarga kitobdan javob topish, shaxsiy dunyoqarash pozitsiyasi bilan o‘zini qoniqtirish, personaj idealini yaratish kabilar. Berilgan bu tavsifnoma ilk o‘spirin ruhiy olamining to‘la shakllangan holda turmushga kirib kelishidir. Bayon etilganlarga ko‘ra, o‘quvchiga o‘qituvchining «tayyor» bilim berishi, ularni zerikarli holatga tushirib qo‘yadi. Shu sababdan, bunday ko‘ngilsiz holni vujudga keltirmaslik maqsadida mustaqil fikr yuritishga undovchi yo‘lni topish juda zarur.

O‘quvchilarga ma‘naviy ozuqa bera olmaydigan darslar fanga nisbatan qiziqishini susaytiradi. O‘quvchi, ma‘naviy boylik orttirish yo‘llarini izlaydi. Vujudga kelgan ma‘naviy talabini qondirishni istaydi. Ko‘pincha ular bunday ehtiyojini qondirish uchun mustaqil bilim olish usullarini qidiradi. Natijada, ijodiy izlanish va evristik uslublarni intuitsiyadan ustun ekanligini anglab yetadilar.

Odatda, ta‘lim jarayonida an‘ana tusiga kirib qolgan bir qolipdagi, monoton darslardan qochish zarur. Iloji boricha o‘ng‘aysiz holatni yuzaga keltirmaslik maqsadida pedagog butun kuch, va irodasini, mahoratini ishga solishi maqsadga muvofiqdir. Darsning jonli va qiziqarli o‘tishi uchun ilk o‘spirinlarni doimiy faollashtirib borish yaxshi natija beradi.

Ushbu yoshdagi o‘quvchilar xususiyatlaridan yana biri – darslikda bayon qilingan fikr va qarashlardan foydalanmay turib, adabiy asarni mustaqil tushunish sari intilishdan iboratdir. Ammo bunday intilish, izlanish hamma vaqt ham badiiy did malakasi bilan mustahkam aloqada bo‘lavermaydi. Buning asosiy sababi, ularda estetik did saviyasining yetarli rivojlanmaganligidir.



Adabiyot fani mehnatning yangilik yaratuvchi, o'zgartuvchi faoliyat ekanligini ilk o'spiringa tushuntirsa, shaxsiy hayot va turmush sharoitini tanishtirsa, nozik ezgu-tilak yoki his-tuyg'uga ma'lum yo'l bilan yetishga ko'mak bersa, u holda o'quvchining bu fanga nisbatan munosabati ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin.

Ilk o'spirin u yoki bu xildagi adabiy asarni o'qish, tushunish orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilishga kundan kun o'rganib boradi. Uning mustaqil nuqtayi nazari, qarashi, shaxsiy pozitsiyasi shakllanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu fazilat ilk o'spirinning shaxsiy fikri, mustaqil o'ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo'lib, o'zgalarning tashqaridan bergan maslahati mahsuli emasdir. Balki bu narsa fikr yuritish faoliyatining rivojlanib borishidan dalolatdir.

Adabiy asarni baholash, unga nisbatan shaxsiy fikrini bildirish, munozaraga kirishish kabi xislatlarning mavjudligi tafakkur tanqidiyligining o'zginasidir. No'rin tanqidiylik esa uning badiiy didi, nutq madaniyati va turmush tajribasining kamchiligidir.

Psixolog V.A.Krutetskiy mazkur yoshdagi o'quvchi aqlining (tafakkurining) tanqidiyligini ko'rsatish maqsadida, L.A.Shumeyeva ma'lumotidan foydalanib, quyidagi dalillarni keltiradi.

Men hech vaqt hayajonlanmayman, ammo siz chuqur hayajonlanib, to'lqinlanib turibsiz. O'ylaymanki, bunday holatni vujudga keltirishingiz pedagogik burchingizni ado etishlik bo'lsa kerak. Mana siz M.Gorkiy asarining tilidan o'ta hayajondasiz – menga esa uning tili mutlaqo yoqmaydi. M.Gorkiy asarini o'qiganman. Birinchi satrda shunday iboralarni ishlatadi: “Dengiz qah-qaha uradi?” Bu jumla mening qalbimni hech qachon larzaga keltirmaydi, aksincha, kulgimni qistatadi. Men bu kulayotgan dengizni tasavvur qilishga harakat qilaman, ancha zo'rma-zo'rakilikdan keyin baqaloq, puchuq, yuzlari qip–qizil, kichkinagina pirpiroq ko'zli allaqanday bir ayolni xayolimga keltiraman. Uning yuzlari shamoldan qimirlaganday bo'lib turadi. Keyinroq bo'lsa, Quyosh nur sochishi bilan o'zini behad baxtiyor hisoblaydi. Dengiz esa quyoshning erkalovchi purini aks



ettirish bilan ovora. Bu nima degani?! Buni qanday tushunmoq kerak? Qanday tasavvur qilish mumkin?! Men faraz qilayapman, sap-sariq odam har kuni ertalab baxtiyorona ko'zguga tikiladi, ko'zgu ham o'zicha go'yo baxtiyor, chunki u bu baxtiyor chehrani o'zida aks ettirgani uchun behad baxtiyor. Bu narsa hech qachon mening kulgimni qistatmaydi. Qani, bunda kulish uchun yumoristik iboralar?! Nega bunday yozishadi?! Bu nima degan gap, axir?! Nahotki, oddiyroq yozishning iloji bo'lmasa, ha?!

V.A.Krutetskiy tavsiyasiga ko'ra, yuqorida suhbat qatnashchisi hisoblangan o'qituvchi, bu o'rinda epitet va metaforalarni o'quvchiga tushuntirib, unda adabiyotga nisbatan nozik didni paydo qilishga va uni o'stirishga harakat qilishi kerak edi. Ammo pedagog bilan o'quvchi o'rtasida bunday samimiy suhbat bo'lib o'tmagan. Shunisi achinarliki, o'quvchining mazkur asarga nisbatan o'z fikrini ozmi-ko'pmi o'zgartirganligi diqqat markazidan chetlashgan. Natijada, asarning mohiyatini o'quvchi tushunib yetdimi yoki tushuna olmadimi, bu haqda o'qituvchi hech qanday ma'lumot olishga muyassar bo'lmagan. Bu o'rinda tarbiyachi pedagogik odobga rioya qilmaganligi tufayli qo'pol xatoga yo'l qo'ygan. Bizningcha, u individual suhbat uyushtirish natijasida ilk o'spiringa adabiy janrlar to'g'risida, epitet va metaforalar haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot berib o'tganda ish qilingan bo'lar edi.

Pedagog o'quvchining aytgan so'zlari va fikrlarini dalillar asosida asta-sekin inkor darajasiga olib borib (ammo qat'iy rad qilishdan saqlanish kerak), asarning asl mazmunini tushuntirishi va hayotda uning qanday ahamiyat kasb etishini yoritishga harakat qilmog'i zarur. O'qituvchi unga shunday ta'sir etishi kerakki, o'quvchining bu asar to'g'risidagi fikri o'zgarsin. Biroq o'qituvchi o'quvchining asar muallifiga va uning asariga munosabati o'zgargan yoki o'zgarmaganligini aniqlashni mutlaqo yodidan chiqarmasligi shart. Mazkur jarayon bir-ikki suhbat yoki bahs natijasida amalga oshadigan faoliyat emas. Chunki ilk o'spirinning o'zi mustaqil ravishda asarni



tushunib yetishi unga nisbatan o‘zining munosabatini o‘zgartirish qiyin. Bu ko‘pgina omillarga bog‘liq murakkab hol bo‘lib, shaxs shakllanishiga ko‘pyoqlama yondashishni taqozo etadilar.

Ayrim o‘quvchilarda asardagi allegoriyalarni, epitet va metaforalarni noto‘g‘ri tasavvur etish hollari uchraydi. Ular shoir va yozuvchilarni hayotda aslo bunday voqelikning sodir bo‘lmashligida ayblab, bu narsa to‘qima deb da‘vo qilib, qattiq “koyishgacha” borib yetadilar. Lekin bu badiiy asar tarkibiy qismlari qahramonlarning ichki dunyosini bo‘rttirib ko‘rsatish vositasi ekanligini hali to‘la anglab yetmaydilar. Shu sababdan “falon narsa bunday bo‘lmaydi, aql bovar qilmaydi” deya ishonchsizlik kayfiyatini izhor etadilar.

Ilk o‘spirinlar badiiy peyzaj to‘g‘risida ham shoir va adiblar bilan munozaraga kirishadilar. Chunki o‘xshatish va taqqoslash kabi badiiy bo‘yoqlar negadir ularga yoqmas emish. Asardagi juda nafis did, kuchli hissiyot bilan berilgan voqelikni idrok qilish, tasavvur etish, xayolga keltirish, fikran mulohaza yuritish holatlarini ularda taajjub hislarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ushbu yoshdagi o‘quvchilarda adib bilan “kelishmovchilik” namoyon bo‘ladi. Aks ettirilgan voqealar juda rangsiz yoritilganday tuyuladi. Ular “o‘z pozitsiyasi”ning barbod bo‘lishiga anchagacha qarshilik ko‘rsatishadi. Shuning uchun o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarning tafakkurini tanqidiy sifat jihatdan almashtirib, ularni voqelikka odilona tanqidiy nuqtayi nazardan qarashga o‘rgatishdan iboratdir.

Ilk o‘spirin yoshidagi o‘quvchilar asar qahramonlariga ham turlicha baho beradilar. Bu narsa ularning individual xususiyatlaridan, shaxsiy qarashlaridan kelib chiqadi. Shu sababli qaysidir obraz o‘spiriniga butunlay yoqmaydi, uning ba‘zi bir xususiyatlarinigina qo‘llab–quvvatlaydi, xolos. Bu xususiy holni dalillash maqsadida misolga murojaat qilamiz. “Gulorning insoniy xislatlarining hammasini juda yoqtiraman, ammo irodasizlik qilib Mirzakarimboyga turmushga chiqishini esa sira kechira olmayman. Agar chindan Yo‘lchini sevganida edi, u bu ishni qilmagan bo‘lardir. Ota–onaga hurmat va



muhabbat, albatta, bo‘lishi kerak, lekin sof sevgi hamma narsadan ulug‘ va mo‘‘tabar bo‘lishi lozim. Muhabbat katta «M» harfi bilan yozilmog‘i shart. Unga hech kimning, hatto malikaning ham bevafoqlik qilishga haqqi yo‘q. Chunki u olamda muqaddasdir. Shu muqaddas tuyg‘uni oyoq osti qilish – Gulnorda uchraydi”, – deydi o‘spirin qiz Robiya. Bunga o‘xshash misollarni yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib borgan tajribalardan ko‘plab keltirish mumkin.

Shaxsiy tajribalarimiz va o‘rta maxsus ta‘lim tajribasidan shu narsalar ma‘lum bo‘ldiki, o‘quvchilar muayyan obrazni, yaxlit asarni yoki muallif faoliyatini baholash jarayonida hamma vaqt ham o‘z shaxsiy fikrini, qarashini va shaxsiy munosabatini xuddi shundayligicha qo‘llay vermas ekanlar. Biz bunday omillarga ularning insho va bayonlarini tekshirayotgan mahalda duch keldik. Yozma ishlar va jonli mushohadani taqqoslagan paytimizda, yozma ifoda bilan shaxsiy mulohazalar o‘rtasida katta tafovut bo‘lganligining guvohi bo‘ldik. O‘ylaymizki, o‘qituvchilar ham kundalik amaliy faoliyatida bunga o‘xshash hodisalarni uchratgan bo‘lsalar, ajab emas. Eksperimentimizda ishtirok etgan ilk o‘spirin o‘quvchilar bilan “Nega o‘z shaxsiy fikringizni inshoda ifoda etmadingiz?”, “Muallif yoki asarga nisbatan asl munosabatingiz shunday edimi?”, “Erkin mavzuda yozilgan ishda nega o‘z mulohazangizni to‘liq ifodaladingiz?”, “Agar siz asar qahramoni o‘rnida bo‘lganingizda nima qilar edingiz?”, “Mushkul vaziyatni qanday hal etish kerak?”, “Mutlaq haqiqatni bilishga qanday intilasiz, ular nega sizni tinchlantirmaydi?”, “Nima uchun siz har bir narsani (voqelik yoki qonuniyatni) o‘z aqlingiz tarozisi bilan yana bir marta tortgingiz keladi?” kabi savol-javob viktorinasini o‘tkazdik. Bundan tashqari o‘quvchilarning yozma ishlari bilan yaqindan tanishib chiqdik. Biz uchun eng zarur bo‘lgan savolga ko‘pgina ilk o‘spirinlar bir-biriga juda yaqin, analogik javoblar berdilar. Jumladan, o‘z shaxsiy fikrlarini ifoda etmaganliklarini ular quyidagicha isbotlaydilar: “Agar men o‘z fikrim va munosabatimni o‘z bilganimcha yozganimda edi, u holda sizning qo‘ymoqchi bo‘lgan



bahoyingiz, hozirgi qo'yilgan bahodan bir-ikki ball past bo'lar edi, men shunday bo'lishidan qo'rqdim. Chunki mening shaxsiy fikrimga qarshi ekanligingizni bilaman-ku!" deb javob qaytardilar.

Keltirgan misoldan shu narsa ma'lum bo'ldiki, mazkur mulohazalar mualliflari bo'lmish ba'zi o'quvchilarda tafakkurning tanqidiyligi yetarli darajada taraqqiy etmagan. Yuqoridagi parchadan shunday xulosaga kelish mumkinki, bu yoshdagi o'spirinlarda o'z fikrida qat'iy turishning irodaviy sifati, shakllanib bo'lgan mustahkam "pozitsiya"si hanuzgacha mavjud emasdir. Bundan shu narsa ochiq-oydin ko'rinib turibdiki, katta yoshdagi o'quvchi aqlining tanqidiyligida liberalchilikka yo'l qo'yish kuchlidir. O'quvchilardagi ikkilanish holatlari, bizningcha, ikki xil sabab bilan izohlanishi mumkin: bu sabablardan biri voqelik mohiyatini to'g'ri tushunib yetmaslik bo'lsa, ikkinchisi "o'z pozitsiyasida" bo'sh kelmaslik yoki narsa va hodisalarni anglab turib "o'jarlik", qilishdan iboratdir.

Demak, adabiyot darsligi va uning majmuasini o'qitish, qo'shimcha badiiy manbalardan unumli foydalanish o'quvchilarda aqlning tanqidiyligini kamol toptirishda juda muhim rol o'ynar ekan. Adabiyotning turmush qonuniyatini, hayot mazmunini, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishdan tashqari, ilk o'spirinlarda estetik tuyg'uni vujudga keltirishda ham ahamiyati kattadir.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri o'quvchilarda tafakkurning tanqidiyligini dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda keng jamoatchilikka suyangan holda o'stirishdan iboratdir. O'qituvchi butun diqqat-e'tiborini o'quvchilarning narsa va hodisalar to'g'risidagi o'z fikrini o'zgartirgan yoki o'zgartirmaganligi biror narsani tushunib olishga muyassar bo'lgan yoki bo'lmaganligi, agar tushunib olgan bo'lsa, faqat darslikka asoslanibgina berishni anglaganligi, o'z fikrini faqat "o'zida" ("dilda") qoldirish shart ekanligini his etganligi yoki his etmaganligi kabi holatlarga qaratishi lozim. U o'quvchilarda ikkiyuzlamachilikning shakllanishiga yo'l qo'yimasligi kerak. Chunki o'quvchilar ko'pincha voqelik haqida



bir narsani gapirib, haqiqatda esa ikkinchi bir narsa to‘g‘risida fikr yuritadilar. Bunda, ularning yuqoridagi insho to‘g‘risidagi mulohazalarini eslatib o‘tishning o‘zi kifoya qiladi. Agar o‘qituvchi shu narsalarga beparvo qarasa, u holda uning tutgan yo‘li mutlaqo to‘g‘ri bo‘lib chiqmaydi. Pedagog o‘quvchilarda shaxsiy fikr va mustaqil qarashning vujudga kelishidan sira xavotirga kelmasligi, qo‘rqmasligi shart. U o‘quvchilarda shaxsiy fikrning mutlaqo bo‘lmasligidan, mustaqil mulohazalardan uzoqligidan, tayyor jummalarni to‘tishday takrorlab, yod qilib yurishidan cho‘chisin.

Aqlning tanqidiyligini shakllantirishda pedagog o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, aqliy taraqqiyotiga, mavjud bilim fondiga, mulohaza yuritish doirasining kengligiga, mazmundorligiga, chuqurligiga, tashabbuskorligiga, adabiyot va boshqa fanlarga qiziqishiga, nutq madaniyatiga, so‘z boyligiga, shaxsiy nuqtayi nazariga, bilishga qiziqishiga, o‘quv faoliyati usullarini qanchalik egallaganlik darajasiga, bilimlarni o‘zlashtirib olishga ko‘maklashuvchi ko‘nikma va malakalarning mavjudligiga hamda ularni asoslash, isbotlash, ishonch hosil qilish kabi ijodiy tafakkur sifatlariga diqqat–e‘tibor qilishi lozim.

Tafakkur tanqidiyligining rivojlanishi ilk o‘spirin o‘quvchilarni moddiy dunyoni mustaqil o‘rganishga, barcha o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirishga, dars jarayonida tashabbuskorlik va faollikni oshirishga yetaklaydi. Bundan tashqari, voqelikni isbotlash, asoslash ko‘nikmalarining paydo bo‘lishiga imkon yaratadi, obyekt to‘g‘risida hukm va xulosani tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

Shunday qilib ta‘lim jarayonida turli fanlarning o‘qitilishi tufayli, keng ko‘lamdagi bilim sistemasining o‘zlashtirilishi orqali o‘quvchilarda tafakkur jarayonining aktivligi, mustaqilligi, mazmundorligi, mahsuldorligi kabi sifatleri rivojlanadi va uning ijodiy, nazariy shakllari yanada o‘sadi. Bu yoshdagi o‘quvchilarda narsa va hodisalarni abstraksiyalash va umumlashtirish yuqori



bosqichga ko‘tariladi. Ular tevarak–atrofdagi voqelik to‘g‘risida haqiqiy hukmlar, omillarga asoslangan xulosalar chiqarish bilan boshqa yoshdagi o‘quvchilardan keskin farq qiladi. O‘qitish jarayonida ularda nazariy, ijodiy, mahsuldor, vizual, so‘z– mantiq tafakkur tarkib topadi. Shu sababli, voqelikning ichki bog‘lanishlari, munosabatlari, jamiyat taraqqiyot qonunlarini bilish va anglab olish uquvi yuqori taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tariladi. Mustaqil fikr yuritish metodikasi va texnikasi vujudga keladi, bilim olish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Bularning barchasi ilk o‘spirinlarda tafakkurning o‘sishi uchun ham obyektiv, ham subyektiv shart–sharoitlar yaratadi.

Nazorat savollari:

1. *Ilk o‘spirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish xususiyatlari.*
2. *Ilk o‘spirinlikdagi aqliy rivojlanish bilan yetakchi faoliyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik.*
3. *Umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanishi.*
4. *Ilk o‘spirinlik davrida kasb tanlashning o‘ziga xos xususiyatlari.*



12-MAVZU: YOSHLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Yoshlik davrida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirish.*
2. *Yoshlarning mehnat faoliyatining dastlabki yillarida jamoada o'z o'rnini topishi.*
3. *Mutaxassis sifatida o'zini takomilashtirish uchun ijodiy izlanishi.*
4. *Oila muhiti yoshlarning ruhiyati va ma'naviyatini o'zgartiradigan omil sifatida.*

Tayanch tushunchalar: *yoshlik, o'rta yetuklik, yetuklik bosqichlari, mezonlari.*

Yoshlik davri 23–28 yoshoralig'ida iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa Yosh davrlaridan farqlanadi: 1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a'zolarining xususiyatiga moslashish (ko'nikish) – mehnat faoliyatining dastlabki yillari (taxminan 1 yildan 3 yilgacha) yoki jamoada o'z o'rnini topish va qadr-qimmatga erishish; 2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasi – 3 yildan 8 yilgacha – ish tajribasi nazarda tutiladi) yoki kasb–korlik, mahoratini



egallash; 3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko‘rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy yetuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko‘rsatish.

Yuqoridagi bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo‘lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o‘rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo‘ladi. Masalan, kasb-hunar kollejni tamomlagan yigit-qizlar o‘z mehnat faoliyatini oliy ma‘lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o‘tishlari shart.

Hozirgi mutaxassislarning ko‘pchiligi o‘quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o‘z mohiyatiga ko‘ra uch xildir; ular:

a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhit shart–sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, mehnat jamoasining saviyasi, undagi kishilarning xarakter xislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatlarini, ma‘naviyati, an‘analari va hokazo;

b) bilim va bilishga oid qiyinchiliklar: maxsus o‘quv yurtida olgan bilimlardagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning yetishmasligi va boshqalar;

d) mutaxassislik bilan bog‘liq o‘ziga xos qiyinchiliklar; ishlab chiqarishning mohiyati, xususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblari, amaliy ko‘nikmaning bo‘shligi yoki ular bilan yetarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy negizini to‘la anglab yetmaslik, xavfsizlik texnikasi mahsulot ishlab chiqarishning chizma-yoyilmasi va grafik irodasini taqqoslash murakkabligi, muammolar oldida lol qolish. Bu qiyinchiliklarni yengish davrida insonning ruhiy holatlari, jarayon va xususiyatlarida miqdor hamda sifat o‘zgarishlari ro‘y beradi.



Psixofiziolog P.P.Lazarevning fikricha, eshitish, ko‘rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o‘zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma’lumotni chet el psixologlari Fulds, Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisobladilar. B.G.Ananov o‘zining ilmiy–tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o‘zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va noverbal aqliy (mantiqiy va mnemik funksiyalar) sodda jarayonlargacha (organizmda issiklik paydo bo‘lishidan metabolizm – modda almashinuvigacha), hatto shaxsning xususiyatigacha bo‘lgan (holatlarni o‘z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma’lumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko‘rsatib o‘tadi.

Ko‘zlarning farqlashdagi sezgirligi inson yoshiga qarab o‘zgarishini tadqiq qilgan S.V.Kravkov sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini ta’kidlaydi. B.G.Ananov laboratoriyasida olingan natijalar inson funksional darajasining oshishi 23–27 yoshdagi yigit va qizlarda 44 foiz, funksional holatining barqarorlashuvi 19,8 foiz, funksional darajaning pasayishi 36,2 foizga tengdir. Ushbu ma’lumotlar kamolot bosqichining turli mikro davrlarida o‘zaro jihatlarining o‘zaro munosabati har xil kechishini ko‘rsatib turibdi. Y.N.Kulyutkin katta kishilarning diqqat, xotira, tafakkur va bilish jarayonlarini birgalikda o‘rgangan. Y.N.Kulyutkin o‘z tadqiqotida 0–130 shkalagacha oraliqni tekshirib, 22–25 yoshlarda diqqat va xotira 100,5 tafakkur 102,5 ballga tengligini, 26–29 yoshlarda esa diqqat 102,8, xotira 97,0 tafakkur 95,0 ball ekanligini isbotlab berdi. Amerikalik olim V.Shevchuk voyaga yetgan odamlarda ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasini tadqiq qilib, 11–20 yoshlar oralig‘ida 12,5 foiz, 21–30 yoshlarda esa 66 foiz ekanini aniqladi. Ziyolilarning ilmiy mahsuli dinamikasini o‘rgangan .F.Yesareva uning boshlanishi matematiklarda 18–23, fiziklarda 24–27, biologlarda 25–31, psixologlarda 27–30, tarixchilarda 27–32, filologlarda 28–33 yoshlarni tashkil qilishini ko‘rsatib o‘tadi.



Yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o‘rgangan V.Shevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishishning eng yuqori cho‘qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu hol odamlarning 45,4 foizida bo‘lishini ma’lum qiladi. Uning fikricha, qolgan Yosh davrlarda insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, hatto u 45 yoshda 3 foizga teng bo‘ladi.

Kishilarda ko‘rish maydoni chegarasi (idrok) xususiyatini o‘rgangan L.N.Kuleshova va M.D.Aleksandrovalar 18–35 yoshlardagi haydovchilarda uning uch xil: normadan ortiq 11 foiz, normada 47 foiz, qolganlarida etalon bo‘yicha normadan kam bo‘lishini ta’kidlaydilar.

23–28 yoshgacha davrda qator funksiyalar darajasining o‘zgarishi, takomillashuvi: ko‘rish maydonining ko‘lami, ko‘z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari; anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o‘zgarimasligining o‘sishi boshqa faoliyat va ko‘rish ta’sirchanligi, qisqa muddatli ko‘rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo‘ladi: 22–25 yoshlarda ikki xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemologik (xotira, tafakkur) va attensional (diqqat xususiyati va xossasining) majmuasidan iborat bo‘ladi.

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm, ya’ni mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik muhit, ma’naviyat olami, barqaror maslak, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an’analar va odatlar yangi a’zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o‘zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta’sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtayi nazar yo‘qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi qo‘shilgan a’zo unda o‘z o‘rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o‘z maslagidan sal bo‘lsa-da chetlashishga majbur bo‘ladi. Bu yo‘l jamoadagi psixologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tug‘yonga qarshi qo‘yilgan qadam hisoblanadi.



Shuning uchun yakka shaxs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish har bir a'zoning burchidir.

Ayrim hollarda ko'pchilikning taziyiqiga uchragan shaxsda prinsipiellik, adolatlilik singari hislar shaxsiy nuqtayi nazar bo'shshib qoladi. Natijada, unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi. Yoshlik gashitini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtog'iga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilishi shart. Oiladagi shaxslararo munosabatning ko'lami kengligi sababli bir nechta bosqichli muloqotga asoslanish kerak. Lekin oila tinchligi, totuvligi va ahilligiga halal bermaslik niyatida yosh yigit va qizlar (kelinlar) vijdon amriga qarshi xatti-harakat qilishga ham majbur bo'ladilar, o'z maslaklari, fikrlari, shaxsiy qarashlariga xilof yo'l tutadilar. Dilkashlik uchun har bir oila a'zosi bilan umumiy "til" topishishga intiladilar. Shunga ko'ra oila muhiti ham yigit va qizlarning ruhiyati hamda ma'naviyatini o'zgartiradigan omil vazifasini o'taydi.

Inson uchun psixologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar, odatda, shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va xulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'stlar ra'yiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakterida o'zgarishlar yuzaga keladi. Yuksak hislar, barqaror e'tiqod, ilmiy dunyoqarash, ichki kechinmalar, mustaqillik va tashabbuskorlik tuyg'ulari poymol bo'ladi, ya'ni "Do'sting uchun zahar yut" qabilida ish tutiladi. Natijada, mas'uliyatsizlik, yuzakilik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, bevafoqlik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ulfatlar davrasida yangi fazilatlarini ishbilarmonlikni, amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyati ham bo'ladi. Shu boisdan ulfatchilikka faqat maishat nuqtayi nazaridan yondashmay, uning mazkur imkoniyatlaridan foydalanishga ham harakat qilish ayni muddaodir.



Yoshlik davri insonning kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalarga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo‘l-ko‘lchiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati – yoshlarga bog‘liq, shuning uchun ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan ma‘naviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Kamol topishning bu bosqichiga 28–35 yoshlardagi erkak va ayollar kiradilar. Yetuklik davrida odam o‘zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o‘z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga to‘la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari yetaklaydi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholashi, dinamik stereotipida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ladi. U endi faqat o‘zining xatti-harakati uchun emas, balki boshqa odamlarning qilmishlari, uchun ham javobgarligini anglay boshlaydi, ayniqsa, hayot tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlarning o‘z farzandlarining xulq-atvori, yurish-turishi uchun ham kuyadi, ularga imkoniyat boricha yordam berishga intiladi.

Yetuklik, kattalik, donishmandlik, rahnamolik, g‘amxo‘rlik, homiylik davridir. Boshqa yosh davrlardagi kabi mazkur davrda ham muayyan darajada inqiroz bo‘ladi. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishga, qaysi imkoniyatlardan foydalanmagani, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli ko‘ngilsizliklar vujudga kelganligini anglay boshlaydi. O‘ziga o‘zi hisob berish shu davrning muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Organizmdagi ayrim o‘zgarishlar, umrning tez o‘tishi kishini qattiq tashvishga va iztirobga soladi. U bundan keyingi hayotning har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi. Ayrim orzu-istaklarini amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlari yetishmasligini anglash uning psixikasida “turg‘unlik” tuyg‘usini vujudga keltiradi. Buning asosiy sababi 33–35 yoshlarda mnemologik – attension majmua tubdan qayta qurilishidir. Yaxlit mnemologik – markazning mnemik (xotira)



va mantiqiy (tafakkur) qismlarga ajralishi ro‘y beradi. Attentional holatning omillari saqlanib qoladi, lekin katta yoshdagi inson intellekti tarkibida xotira va tafakkur muhim o‘rin tutadi. Biroq o‘zgarishlar uning ruhiy dunyosida, kechinmalarida, his-tuyg‘ularida chuqur iz qoldirmaydi, yetuk shaxs xotirasida illyuzion xususiyatga ega bo‘lgan tasavvur obrazlari (yoshlik tuyg‘usi, kayfiyati, orzusi, xom xayoli) saqlanib qolaveradi.

Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to‘laroq foydalanish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Bu hol butun kuch-quvvat, aqliy zo‘riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi hisobiga emas, balki muayyan ko‘nikma, malaka va mahorat asosida ro‘y beradi.

Yetuklikning turli davrlarida kamol topish jabhalarining o‘zaro munosabatini tadqiq qilgan B.G.Ananev laboratoriyasi hodimlari 29–32 yoshlarda funksional darajaning oshishi – 46,2, barqarorlashuvi – 15,8, funksional darajaning pasayishi – 38,0, 33–35 yoshlarda 11,2, hamda 33,3 foiz, 55,5 foizni tashkil qilishini aniqlashgan.

Y.N.Kulyutkin tadqiqotining natijasiga qaraganda, 30–35 yoshlarda diqqat 102,8, xotira 99,5, tafakkur 102,3 birlikka barobardir. Yetuklik davri faoliyatining mahsuldorligini o‘rgangan G.Leman uning cho‘qqisi kimyogarlarda 30 yosh, matematiklarda 30–34, geologlar va astronomlarda 30–35 yosh ekanligini va o‘rtacha mahsuldorlik cho‘qqisi 37 yoshda bo‘lishini qayd qilgan.

Psixofiziolog S.V.Kravkov ko‘zning farqlash sezgirligi yoshga qarab o‘zgarishini 4 yoshdan 80 yoshgacha bo‘lgan odamlarda tekshirib, sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha, sezgirlikning barqarorlashuvi 25–50 yoshgacha davom etishi mumkinligini aniqlagan.

F.Yesareva oliy maktab o‘qituvchilari aqliy faoliyatining mahsuldorligi muammosini tadqiq qilib, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlashni matematiklar – 26, psixologlar – 32, filologlar – 34, tarixchilar – 31, fiziklar – 30, biologlar – 32 yoshda amalga oshirishi mumkinligini aniqlagan. Kamolotning birinchi bosqichidagi yetuk kishilarda ijtimoiy faoliyatida qatnashish istagi 30 yoshda 18,3 foiz, 35



yoshda 6,2 foizni tashkil etadi. Demak, ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida qatnashish ko‘lami torayib boradi.

Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namoyon bo‘ladi: jismoniy, jinsiy, ruhiy kamolotda ayollar ilgari kelgan bo‘lsalar, endi erkaklar oldinga o‘tib oladilar va bu hol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi.

Yetuklik davrida ijodiy faoliyatning maxsuldorligini Z.F.Yesareva quyidagi mezonlar bilan o‘lchashni lozim topadi: 1) e‘lon qilingan ilmiy ishlarning miqdori; 2) chop qilingan asarlar ichida o‘quv qo‘llanma, darslik va monografiyalarning mavjudligi; 3) ilmiy tadqiqotda yangi yo‘nalishning ochilishi; 4) ilmiy muammoni hal qilishda yangi usulning kashf etilishi; 5) ilmiy maktabning tashkil qilinishi; 6) boshqa mualliflarning ishlariga murojaat qilish va ilova berish miqdori; 7) o‘qituvchining ilmiy ma‘lumotlaridan talabaning mustaqil ishlarida foydalanish ko‘lami; 8) o‘qituvchi rahbarligidagi diplom va dissertatsiya ishlarining miqdori va sifati; 9) o‘qituvchining ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyat mukofot bilan taqdirlanishi; 10) dotsent va professor degan ilmiy pedagogik unvonlarga sazovor bo‘lish kabilar.

Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g‘alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta‘sir etadi. Natijada, unda takabburlik, mag‘rurlik hislari paydo bo‘ladi, o‘zini boshqalardan ustun qo‘ya boshlaydi, yoki aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatan loqaydlik tuyg‘usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko‘rinishga ega bo‘lgan ruhiy holat ham oila a‘zolari, tengqurlari, mehnat jamoasi a‘zolarining ta‘siri orqali asta-sekin muayyan yo‘nalishga tushib qoladi.

Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikir–chikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik, do‘stlik, dunyo lazzatlaridan oqilona foydalanish tuyg‘usi bilan yashaydilar.



Nazorat savollar:

1. *Yoshlikni davrlashtirish muammosi haqida fikringizni bildiring.*
2. *Yoshlik davrining yetakchi faoliyati nima va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari qanday?*
3. *Yoshlik davrida shaxs rivojlanishi to'g'risida fikringizni bildiring.*
4. *Yoshlik davrining inqirozlari.*
5. *Yoshlik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarining rivojlanishi qanday kechadi?*



13-MAVZU: YETUKLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Yetuklik davri 36-55 yoshlardagi erkak va ayollarni o‘z ichiga oladi.*
2. *Yetuklik davri imkoniyatlari.*
3. *Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati va ularni baholashi.*
4. *Yetuklik-kattalik, donishmandlik, rahnamolik, g‘amxo‘rlik, xomiylik davridir.*

Yetuklik davri 36–55 (60) yoshlardagi erkak va ayollarni o‘z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o‘z ifodasini topuvchi yangi xislat namoyon bo‘ladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan bo‘lsalar, endi mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, o‘zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo‘ladilar, har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Hayotda qo‘ldan bergan imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda yetti o‘lchab, bir kes qabilida ish tutish tuyg‘usini vujudga keltiradi. Shuning uchun ular umrning biror daqiqasi behuda o‘tishiga achinadilar, yoshlik yillarida yo‘qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to‘ldirishga intiladilar.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko‘proq o‘rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45–50 yoshlardir.



Lekin odamlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra bu chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo‘lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga, jug‘rofiy iqlim va hokazolarga ham bog‘liqdir. Mazkur yosh davrining o‘zgaruvchanligini insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz tarbiyaviy ta‘sir) belgilaydi.

Y.N.Kulyutkin bir xil yosh davridagi odamlarda har xil jarayonlar, holatlar, xossalar, xususiyatlarning o‘shishi, o‘zgarishi baravar emas, balki ularning birovda oldin xotira, keyin tafakkur, boshqa birovda, aksincha, rivojlanishining, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisining esa jadal sur‘at bilan o‘stirishini uqtiradi.

Shaxsning o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi faoliyatning barcha turlarida ma‘naviy va ruhiy jihatdan o‘zini anglashini yanada takomillashtiradi. Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o‘zligini anglashdagi “Men” uch xil ko‘rishdan ifodalanadi: “Men” ko‘pincha “Men – obraz” shaklida o‘zi tomonidan talqin qilinadi. Shaxsning “Men – obrazi”:

1) retrospektiv “Men”dan iborat bo‘lib, o‘tmishdagi o‘zligini aks ettiradi;

2) aktual “Men” sifatida tasavvur etilib, o‘zining hozirgi davrini ifodalaydi;

3) ideal “Men” obrazi esa yaqin kelajakda o‘zining qanday tasavvur qilish tuyg‘usi bilan bog‘liq holda yaratiladi.

Shuning uchun o‘z imkoniyatlarini hayotda to‘la safarbar qilish istagi ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida o‘zining o‘tmish obrazini hozirgisi bilan solishtirib, shaxsiy ideal modelini vujudga keltiradi, shaxs mazkur modelga asoslanib, turmush rejalarini, xatti-harakat maqsadini, usul va vositalarini tanlay boshlaydi. Insonning o‘tmishidan hozirgi kunga, hozirgi kundan kelajakka intilishi o‘zini anglashning bosh mezoni hisoblanadi. O‘zligini anglashning boshqa



mezonlari ham mavjud bo'lib, ular o'zini o'zi baholash, nazorat qilish, tekshirish, qo'lga olish, o'ziga buyruq berish kabilarda aks etadi. O'zini anglash, ko'pincha, o'ziga boshqa kishilar:

- a) yoshi ulug' odamlar;
- b) tengdoshlari;
- d) o'zidan kichik odamlar nuqtayi nazaridan qarashda ko'rinadi.

Mazkur yosh davridagi odamlarning ko'rish maydonini o'rgangan L.N.Kuleshova va M.D.Aleksandrovalar 36–50 yoshli erkaklarda ko'rish chegarasi quyidagicha ekanini aniqlaganlar: normadan ortiq 4 foiz, normada 53 foiz, qolganlari normadan kam. Y.N.Kulyutkin 36–40 yoshli sinaluvchilarda diqqat, xotira, tafakkurning 0–130 gacha shkalada 94,8; 93,7; 99,0 birliklarga ega ekanligini isbotlab berdi. B.G.Ananev esa mazkur yoshdagilarda shaklni idrok qilishni binokulyar va monokulyar yo'llarida muayyan darajada tafovutlar yuzaga kelishini aytadi.

Qator olimlar (Klapared, Mayls, Bellis, Filip) mazkur yoshdagilarning tovush va yorug'likdan ta'sirlanish vaqti o'zgarishini o'rganganlar. Olingan ma'lumotlar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'z qimmatini hozirgacha saqlab kelmoqda. Fulds, Raven, Pako kabi tadqiqotchilar intellektning mantiqiy qobiliyatini tekshirib, 30 yoshda 96, 40 yoshda 87, 50 yoshda 80, 60 yoshda esa 75 foiz bo'lishini aniqlaganlar. Ularning ijtimoiy faoliyatga kirish xususiyatini faollik nuqtayi nazaridan o'rgangan V.Shevchuk 35 yoshidagi odamlarning 6,2 foizi bu faoliyatda qatnashish istagini bildirsa, 40 yoshda 2,2 foizi qatnashishni xohlaydi, 2,8 foizi esa undan chiqishga qaror qiladi. Ahvol shunday davom etadi.

.F.Yesareva oliy maktab o'qituvchilarining ijodiy faoliyati xususiyatlarini o'rganib, doktorlik ishlarini yoqlashni matematiklar 33, psixologlar 46, filologlar 46, tarixchilar 47, fiziklar 37, biologlar 40 yoshda amalga oshirishini aniqlagan.

Umuman, yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatga



bag'ishlagani bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy faolliklari susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'kinchli damlarga, kechinmalarga, his-tuyg'ularga seroblighi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi. Qanday qarorga kelish, ya'ni mehnat jamoasi bilan aloqani uzmaslik yoki mutlaqo ijtimoiy faoliyatdan chetlashish muayyan holatlardagi motivlar kurashiga bog'liqdir.

Hozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishida XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb bir yarim – ikki marta uzayganligi, yetuklik davridagi erkak va ayollarning jismoniy baquvvatligi, ma'naviyati va ruhiyati tetikligi ijtimoiy faollikni susaytirish haqida so'z bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Demak, ularning ishchanligi, aqliy qobiliyati, kasbiy mahorati, turmush tajribasi, ongining yuksakligi, ma'naviyatining boyligi, ruhiyatining sofligi yangi zafar: mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga to'la kafolat beradi.

Nazorat savollar:

1. *Yetuklikni davrlashtirish muammosi haqida fikringizni bildiring.*
2. *Yetuklik davrining yetakchi faoliyati nima va rivojlanishning ijtimoiy shart–sharoitlari qanday?*
3. *Yetuklik davrida shaxs rivojlanishi to'g'risida fikringizni bildiring.*
4. *Yetuklik davrining inqirozlari.*
5. *Yetuklik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarining rivojlanishi qanday kechadi?*



14-MAVZU: PSIXOGERONTOLOGIYA – KEKSALIK PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. *Psixogerontologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanligi.*
2. *Psixogerontologiya keksa erkak va ayollarning psixologik xususiyatlari.*
3. *Biologik keksayish.*
4. *Asab sistemasining qarishi.*
5. *Keksayishning makroskopik va mikroskopik natijalari.*

Tayanch tushunchalar: *gerontologiya, oliy psixik jarayonlar, skleroz, demensiya, alsgeymer*

Psixogerontologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan S.Xoll asoslagan bo‘lsa-da, lekin bu yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida Mark Tulliy Sitseron (“Katta Katon yoki keksayish haqida” asarida), I.I.Mechnikov (“Optimizm etyudlari” kitobida), O‘rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik haqidagi durdonalarida falsafiy fikr va mulohazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog S.Xoll (1846–1924) “Keksayish” monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g‘oyalarni ilgari surgan. O‘sha asar keng ilm ahli ichiga tez yoyilishiga qaramay, uning izdoshlari birdaniga ko‘paymadi.

Yigirmanchi asrning 30–yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy-biologik tadqiqotlarning ko‘payishi, shuningdek, inson kamolotiga shaxs sifatida yondashishning paydo bo‘lishi



psixogerontologiyaning rivojlanishiga birmuncha ta'sir ko'rsatdi. Ana shu tariqa keksayishga tibbiy, ijtimoiy jihatdan yondashish bilan bir qatorda psixologik jabha jihatidan yondashish ham vujudga keldi va psixogerontologiyaning tadqiqot sohasi kengayib bordi, shu soha bo'yicha ingliz tilida maxsus jurnallar chiqa boshladi. Ilmiy izlanishlarning aksariyati keksayish davridagi odamlar shaxsining xususiyatlari, diqqati, xotirasi, tafakkuri, aql-zakovatiga bag'ishlangan bo'lib, boshqa psixik holatlar, jarayonlar juda kam tadqiq qilingan. Hozir keksayish psixologiyasi ham gerontologiyaga, ham yosh davrlar psixologiyasi sohasiga taalluqli degan ikki xil ilmiy nazariya mavjud, vaholanki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini doimo ilmiy axborot va ma'lumotlar bilan boyitib turadi.

Psixogerontologiya fanida gerontologiya, involyutsiya, geriatriya, gerogigiyena, geteroxronlik kabi ilmiy tushunchalar mavjud: Gerontologiya – grekcha so'z bo'lib – keksayishning, keksalikni kelib chiqishi demakdir. Geriatriya so'zi keksaygan inson shaxsini davolashni bildiradi. Involyutsiya tushunchasi evolyutsiyaning teskarisi bo'lib, o'sishdan orqaga qaytishni ifodalaydi. Gerogigiyena – keksaygan odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash sohasidir. Gerogigiyena keksa odamlarda asab, ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun xizmat qiladi. Geteroxronlik bir xil yoshdagi odamlarda ruhiy jarayonlarning turlicha (har xil vaqt va muddatda) namoyon bo'lishidir.

Psixogerontologiya fanida gerontogenezning evolyutsion omillari qatoriga I.V.Davidovskiy nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarini kiritadi. D.Bromley insonni qarish sikli uchta bosqichdan iborat bo'lishini ta'kidlaydi:

- 1) "ishdan, xizmatdan uzoqlashish" (iste'fo) – 66-70 yosh,
- 2) keksalik (70 va undan katta yosh),
- 3) munkillagan keksalik (hasta keksalik va o'lim) – maksimum 110 yosh.



Shu bilan birga (keksayishning qonuniyatlari ham kashf qilingan, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) geteroxronlik (har xil vaqtlilik) qonuni;
- 2) o‘ziga xoslik qonuni;
- 3) xilma-xillik qonuni.

I.V.Davidovskiy “Keksayish nima?” nomli asarida ta’kidlaganidek, inson 50–60 yoshga to‘lganida yoki undan oshgan chog‘ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarning o‘limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki hozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish yoshidan 15–20 yil ilgari ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug‘ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. I.V.Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko‘ruvchilar asosan ozg‘in, faol, harakatchan odamlar bo‘lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga daxldor tinka quritar kasalliklardan xoli bo‘ladilar.

Tadqiqotchi P.P.Lazerev 1928-yilda umr o‘tishi bilan ko‘ruv apparati markaziy etnologiyasining xiralashuvini aytgan edi. Keyinchalik 1967-yilda amerikalik psixolog Gregori bu fikrni tajribadan o‘tkazdi va inson keksayishi bilan retseptor apparatining optik funksiyasi zaiflashadi, ko‘ruv sezgisi va idrokini xiralashtiradi, dedi. Ko‘zning rangni sezishi insoni ulg‘ayishi bilan o‘zgarib boradi, hatto rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, rang ajratish, spektr nurlarining yoyilishi Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida esa bu kashfiyot Gelmgolsga qiyos beriladi. Ko‘rishning pasayishi geteroxron xususiyat kasb etib, spektrning qisqa va to‘kis qismida (ko‘k va qizil rangda) aniqroq aks etadi.

Psixogerontologik nuqtayi nazardan sezish vaqtini tadqiq qilgan Y.N.Sokolov, Y.I.Boyko, A.R.Luriyalar sezish vaqti yosh davrining informatsion stimuly funksiyasidan boshqa narsa emas, deya xulosa



chiqaradilar. Ular sezish vaqtining egri chiziqli ko'rsatkichlarini sxema tarzida ishlab chiqib, keksalik davriga xos ikkita xususiyatni chuqur tahlil qildilar. Xuddi shunga o'xshash ma'lumotlar D.Birron, D.Botvinnik tajribalarida ham olingan.

Psixogerontologiyada keksa erkak va ayollarning psixologik xususiyatlarini o'rganishda ko'proq test (sinov)dan foydalaniladi. Testlar o'z maqsadi, mohiyati hamda tizmiga binoan bir nechta ko'rinishga ega:

- 1) maqsadga yo'naltirilgan, bilim hajmini aniqlovchi standart testlar – imtihon– sinov varaqasi;
- 2) insonning aql-zakovatini o'lchashga moslashtirilgan aql testlari;
- 3) inson shaxsining fazilatlarini tekshirishga mo'ljallangan testlar;
- 4) inson iste'dodi, iqtidori hamda qobiliyatining darajasini aniqlashga qaratilgan testlar.

Keksayish davrida odamlar psixologiyasini o'rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo'riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtdan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga testlar kishilarda (rang–barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug'ullanish his–tuyg'usini uyg'otadi. Testlar bilan ishlashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yiladi, lekin ularni aynan o'sha sinaluvchilarda muayyan vaqt o'tgandan keyin takror o'tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin. Keksalar psixologiyasini tadqiq qilishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda.

Nafaqat yoshiga to'lgan kishilarning ishni davom ettirish istagi va ulardan foydalanish ehtiyoji tibbiyot va ruhiyat ilmi oldiga bir qancha talablar qo'yadi. Bu talablar M.D.Aleksandrova va uning shogirdlari ta'kidlaganidek, 60 yoshdan oshgan odamlarning somatik salomatligini ularning ishlab chiqarishda qatnashishiga qanchalik imkon berishini, insonning ruhiy salomatligi ishlashda qay darajada yordamlashishini, sog'lom keksa odamning psixofiziologik funksiyalari, psixik



jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari va kasb-korlik uchun zarur talablarga mos kelish–kelmasligini aniqlashdan iboratdir. Shularning so‘nggi qismini tadqiq qilish bevosita psixologlarning zimmasida bo‘lib, yosh ulg‘ayib borishiga qarab fiziologik funksiyalarning o‘zgarishini psixometriya ma’lumotlariga tayanib muayyan usulda o‘rganilishi lozim. Bu usulda bir qancha elat, jamoa, hududning xuddi shu yoshdagi aholisi bilan solishtiriladi. Tadqiqotning mazkur turi ayrim ruhiy jarayonlarning yosh dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Asab sistemasining qarishi V.D.Mixaylova–Lukasheva, .M.Aleksandrovskaya kabi olimlarning fiziologik va gistologik tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi, bosh miya tuzilishi o‘zgarishi o‘rganilgan bo‘lib, bu hol makroskopiya va mikroskopiya ma’lumotlari asosida ifodalangan.

Makroskopiya ma’lumotlariga ko‘ra: a) keksalik davrida miyaning og‘irligi 20–30 foiz yengillashadi; b) bir davrning o‘zida miya bilan kalla suyagining hajmi o‘rtasida disproporsiya kuchayadi; d) keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalari kengayishi kuzatiladi, bular, ayniqsa, miya qobig‘ining peshona qismida yaqqol ko‘rinadi va yetuk yoshdagi odamlarga qaraganda 3–4 ta yo‘l qisqaradi; g) miyaning zichligi ortadi.

Mikroskopiyaning natijalariga binoan:

1) nerv hujayralarining umumiy miqdori kamayadi, bu o‘zgarish qobig‘ining III – V zonalarida aniq bilinadi;

2) Purkine hujayralarining miqdori keskin kamayadi, hujayralarning yo‘qolishi yetuk kishilarga nisbatan 25 foiz ko‘p bo‘ladi;

3) nerv hujayralari ajinlashadi: yadro esa noto‘g‘ri ko‘rinishga ega bo‘la boshlaydi;

4) nerv tolalari yo‘g‘onlashadi;

5) xabar olib boruvchi yo‘lda miyelin tolalarining miqdori ozayadi.

Sensor – perseptiv funksiyalarning qarishi. Ko‘rish funksiyasining yosh davri dinamikasiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mavjud



bo‘lib, amerikalik psixolog Krukning izlanishlariga qaraganda, agar vaqt cheklanmasa, ko‘ruv stimullarini idrok qilish 20–50 yoshli odamlarda bir tekis, aniq va to‘g‘ri amalga oshishi mumkin. Mabodo vaqt cheklangan bo‘lsa, idrok qilinayotgan jism qisqa vaqt namoyish qilinsa, qo‘zg‘atuvchining kuchi o‘zgarib tursa, yoshlar bilan kattalar o‘rtasida keskin farq vujudga keladi. Oddiy turmushda bu hol jismlarga uzoq muddat termulish imkoniyati va sun‘iy yorug‘likdan foydalanish ko‘ruv idroki pasayishining oldini oladi va muvaqqat uzilishni barham toptiradi. L.Y.Birron va L.Botvinnik quyidagicha xulosa chiqardilar: sensor informatsiyani qayta ishlash va stimullarni baholash uchun keksa kishilarga ko‘p vaqt kerak. Ko‘rish pasayishining ikkita sababi bo‘lib, birinchisi – ko‘z gavharining torayishi, ikkinchisi – ko‘z akkomodatsiyasining yomonlashuvidir.

S.Pakoning fikricha, idrok qilinayotgan obyekt va uning stimullari qanchalik murakkablashib borsa, tajribada yosh davrining farqlari shunchalik ortib boradi.

Bir guruh psixologlarning uqtirishicha, idrok funksiyasidagi yosh davriga bog‘liq pasayishning asosiy sabablaridan biri miya po‘stining gnostik zonasidagi neyronlar miqdorining kamayishidir. U.Mayls va A.Uelford uning pasayishini aytganlar.

Eshitish. Eshitish qobiliyatining eng yuqori darajasi 14–15 yoshlarga to‘g‘ri keladi, undan keyingi kamolot davrlarida biroz pasayish yuz beradi. Ko‘pgina olimlarning fikricha, inson yoshining ulg‘ayishi bilan eshitishning zaiflashuvi mo‘tadil holat hisoblanib, u organizmning biologik qarishi bilan uzviy bog‘liq ravishda kechadi. Ishlab chiqarishdagi kuchli shovqin odamning eshitish qobiliyatini yomonlashtiradi. Eshitish qobiliyatini yo‘qotish erkaklarda ayollarga qaraganda ko‘proq uchraydi.

Ta‘m bilish sezgisida ham yosh ulg‘ayishi va keksalik tufayli ayrim o‘zgarishlar vujudga keladi. Masalan, nordon, shirin va achchiqni sezish 50 yoshgacha keskin o‘zgarmasa-da, lekin undan



keyingi o'sish davrida maza surg'ichlari miqdorining kamayishi evaziga sezgi chegaralarining kengayishi sodir bo'ladi.

Hid sezgirligining o'zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishidir. Bundan tashqari, hid bilish sezgirligi kamayishining sabablari havoning ifloslanishi, zaharli va ko'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatda A vitamini yetishmasligidir.

Keksayganda og'riq va teri-tuyush sezgirligi ham pasayadi. Tebranish sezgirligi ham yosh o'tgan sari yomonlashadi, orqa miyaning orqa qismlaridagi degenerativ o'zgarish ana shu holatni keltirib chiqaradi.

Keksayish davriga 61 (56)–74 yoshli erkak va ayollar kiradilar. Mazkur davrdagi kishilar xilma-xil xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa yosh davrlardagilardan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin: a) mutlaqo iste'foga chiqqan, ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar; b) nafaqaxo'r erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Mazkur his-tuyg'ulari yashash tarziga muvofiq namoyon bo'ladi. Mazkur his-tuyg'ular vujudga kelishi jihatdan ikki xildir:

1) barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z qadr-qimmatini saqlayotgan, nufuztalab erkak va ayollar;

2) kayfiyati barqaror, osoyishta xulq-atvorli, oila muhitining sardoriga aylangan, tabiat va jamiyat go'zalliklaridan bahramand bo'layotgan, ijtimoiy faoliyatdan qariyb uzoqlashgan, qarilik gashtini surayotgan kishilar. Ularning bir guruhi moddiy boylikni ma'naviyat bilan qo'shib olib borishga intilsalar, boshqalari to'plangan moddiy boylik bilan qanoat hosil qiluvchilar, qolgan umrini xotirjam, zahmat chekmay o'tkazishga ahd-u paymon qilgan erkak va ayollardan iboratdir. Mazkur yoshda yuzaga keladigan inqiroz ham mana shu ikkala omilning mahsuli hisoblanadi.



Keksayish davrida biologik organning zaiflashuvi psixik jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Ruhiiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtasidagi farqlar borgan sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bu farqlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tafakkur), axloqqacha (farosatlilik, hushyorlik, hozirjavoblik, topqirlik) va aql-zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, mahorat, ijodiy faoliyat, barqaror malaka) kabi ruhiy holatlarda o'z aksini topadi. Ayollarning zaifa deb nomlanishi ham bejiz emas. Chunki jismoniy zaiflikdan tashqari boshqa ruhiy kechinmalarda ham beqarorlik sezilib turadi (ko'z yoshi quvonchdan bo'lsa – irodaning zaifligini ko'rsatadi, g'am-g'ussa, o'kinish, tug'yon sababli bo'lsa, his-tuyg'uni boshqarish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi). Ayollarning tabiiy azobdan (tug'ish, bola tarbiyasi) tashqari xizmat, oila tashvishi, yumushi, mehr-muhabbatga otashligi, nozik qalbi tashqi qo'zg'atuvchilarga tez javob beruvchanligi jihatdan ertaroq qarishga olib keladi (asab sistemasining buzilishi, irodaviy zo'riqish, aqliy tanglik holatlari).

Psixologlar keksayish davridagi erkak va ayollarning ruhiy dunyosini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganlar. Amerikalik V.Shevchuk mazkur yoshdagi odamlarning ijtimoiy faoliyatda qatnashishi xususiyatini tekshirib, 65 yoshlilarning 24,1 foizi, 70 yoshlilarning 17,4 foizi, 75 yoshlarning 7,7 foizi ijtimoiy faoliyatdan voz kechganligini aniqlagan. Oliy maktab muallimlarining ilmiy mahsuldorligi dinamikasini tadqiq qilgan M.D.Aleksandrova matematika, fizika, biologiya, psixologiya va boshqa sohalarining vakillari o'rtasida keksayishning birinchi bosqichida (61–66 yoshlarda) biroz farq mavjud bo'lsa–da, uning ikkinchi bosqichida (67–72 yoshlarda) o'sha tafovut ham yo'qolib borishini ta'kidlaydi. L.I.Zaxarova esa keksayish davridagi erkak va ayollarning oliy nerv faoliyatini tekshirib, ularda ranglarni ko'rish maydonining chegarasi uchun quyidagilar muhim rol o'ynashini uqtiradi: 1) ko'rish yo'llari analizatori chekka qismlarining holati; 2) markaziy nerv sistemasining



umumiy faolligi; 3) insonning yoshi; 4) ko‘rish analizatorining faoliyat ko‘rsatish sharoiti; 5) insonning jinsi.

Amerikalik psixolog D.Veksler keksayishda aqlni o‘lchash uchun 1939-yilda maxsus test ishlab chiqqan va “Katta kishilar aqlini o‘lchash va baholash” nomli kitobida test o‘tkazish usuliyatini batafsil bayon qilgan.

D.Veksler tavsiya qilgan formulaga binoan har qanday yoshdagi shaxsning aqliy kamolot darajasini mazkur yoshga munosib tarzda ishlab chiqsa bo‘ladi. Buning uchun muallif aql koeffitsiyenti atamasidan foydalanadi:

$$AK = \frac{AD}{KD} \cdot 100$$

D.Veksler shkalasi bo‘yicha AD – aqliy ko‘rsatkichini, KD (keksayish darajasi) esa shaxsning kalendar yoshini anglatib keladi.

“Veksler batareyasi” 11 ta subtestdan iborat bo‘lib, ulardan 7 tasi verbal (so‘zlardan tuzilgan), 4 tasi noverbal (alomatlardan iborat)dir. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng yuqori natijaga 15–25 yoshlilar, boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra 26–29 yoshlilar erishadilar: keyin 40–45 dan asta–sekin pasayish boshlanadi: 60–65 yoshlarda bu ko‘rsatkich yanada quyiga tushadi.

D.Veksler keskin o‘zgaruvchan va kam o‘zgaruvchan yosh davri funksiyalariga alohida e‘tibor beradi. Birinchisiga qisqa muddatli xotira, o‘xshashlik, simvollar, Koss kubchalari: ikkinchisiga – lug‘at boyligi, umumiy ma‘lumotlilik, rasm tuzish (tartibga keltirish ma‘nosida), tugallanmagan rasmlarni idrok qilish kiradi. Mazkur variatsiyalardan foydalanib, eksperimental psixologiyaga yangi ko‘rsatkich kiritishni taklif qiladi, u buni deterioratsiya koeffitsiyenti deb ataydi (deterioratsiya – yomonlashuv, buzilish, demakdir):

$$DK = \frac{BK1}{BK2} \cdot 100$$



BK1 – barqaror ko‘rsatkich, BK2 – beqaror ko‘rsatkichni bildiradi.

Yosh odamlarda mazkur koeffitsiyent 5 foizdan oshmaydi, keksalarda esa 20 foizga yaqinlashadi. Ko‘rinib turibdiki, yosh ulg‘ayishi bilan nomutanosiblik darajasi o‘sib boradi.

D.Veksler testi to‘g‘risida har xil tanqidiy mulohazalar mavjud bo‘lsa–da, lekin muallifning yoshlarga tatbiq qilgan testi ularning aqliy tayyorgarligi darajasini, o‘qishga uquvliligini bildirsa, keksalarda u hayotiy tajribalarga asoslangan donishmandlikni anglatadi, degan fikr to‘g‘ridir.

Keksalik davriga 75–90 yoshdagi erkak va ayollar (buva va buvilar) kiradi va bunday odamlarning boshqa yosh davrlardagi insonlardan keskin farqlanadigan xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Keksalarni jismoniy va aqliy faollikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko‘nikkan qariyalar guruhlariga ajratish mumkin. Ijtimoiy faollik faxriyalar jamoasida, kasbiy jamoalar faoliyatida qatnashishda o‘z ifodasini topadi.

Keksalik davrida foni dunyodan umidsizlik tuyg‘usi paydo bo‘ladi va bu hol faollikni, istiqbol rejalarini tuzishga intilishni susaytiradi. Lekin “O‘g‘limni uylantirsam, dunyodan armonim yo‘q” qabilidagi mulohazalar doimiy odatga aylanib qoladi. Keksalikning ikkinchi muhim xususiyati betoblikda vasiyat qilish, qarindosh–urug‘lardan rozi–rizolik so‘rashdir. Jismoniy harakat imkoniyatiga ega bo‘lgan qariyalar mehnat qilishga intiladilar, biroq uning mahsulidan ko‘ngillari sira to‘lmaydi. Ular tarixiy voqealarni tirik guvoh sifatida batafsil bayon qilib beradilar. Nutqdagi juz‘iy kamchiliklarni hisobga olmaganda (ayrim mantiqiy bog‘lanishdagi nuqson, talaffuzning buzilishi) keng ko‘lamdagi axborotlarni o‘zgalarga uzatish imkoniyatiga ega.

Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va xatti–harakatlarda keskin o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma’lumotlarni



qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigohini to'plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi... Irodaning kuchsizlanishi og'riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg'usini yemira boshlaydi. Natijada, tashqi ta'sirni qabul qilishda diqqatni saralash xususiyati o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sababli qari odam bola tabiatli arazchan, ko'ngli bo'sh, hissiyotga beriluvchan xarakterli bo'lib qoladi. Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda xayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko'pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o'rtasida ko'pgina sabablarga ko'ra nomutanosiblik tug'iladi, natijada, unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan obyektga to'play olmaslik oqibatida biron faoliyat turi ustida uzoq mashg'ul bo'la olmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto'g'ri idrok qilish, ya'ni illyuziyalar ko'proq o'rin egallaydi. Monokulyar va binokulyar ko'rishda xilma-xillik yuzaga keladi. Xarakter xislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchsizlik hislari yetakchi rol o'ynay boshlaydi.

Psixologlardan I.Baylash va D.Zabeklar keksalarda xotira, idrok, mantiqiy tafakkur, eruditsiya, nutq sur'ati kabilarni tadqiq qilib, ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishni (xotira – 0,20, idrok – 0,28, mantiqiy tafakkur – 0,37, eruditsiya – 0,33, nutq tezligi – 0,40 ligini) aniqlaganlar. Amerikalik psixologlar Frennd va Zabeklar keksalik davrida tafakkurning tanqidiyligini o'rganishda deduksiya va sillogizmlardan foydalanib, keksalikda tafakkurning obyekti torayishi va keskin rad qilish kuchayishini aniqlaganlar. D.Bromley qariyalarda ijodiy tafakkurning pasayishi, o'ta qiyinchilik bilan yangi sharoitga moslashuvini va dogmatizmga asoslanishini topgan.

B.A.Grekov so'z assotsiatsiyasi metodi asosida keksalarda xotira jarayonining xususiyatini tekshirgan. Uning ma'lumotlarini quyidagicha ifodalash mumkin:



- 1) 70–80 yoshlardagi keksalikda xotira (ayniqsa, mexanik esda olib qolish) zaiflashadi;
- 2) 70–80 yoshlarda mantiqiy–ma’noli xotirada miqdorning ahamiyati saqlanadi;
- 3) obrazli xotira zaiflashadi;
- 4) 70–80 yoshlarda xotiraning barqarorlik negizida ma’noning ichki aloqasi yotadi;
- 5) uzoq muddatli xotira kuchsizlanadi;
- 6) 90 yoshda nutqning ichki bog‘lanishi buziladi;
- 7) xotiraning obrazli, hissiy turlari nutqning tuzilishiga bo‘ysunmay qoladi.

Psixologiyada qariyalarda aqliy faollikni o‘rganishda korreksion sinov va Krepilin sinovidan foydalaniladi. Kamolotning umumiy modeli U. Shayening uch omilli variantlari yordamida yaratiladi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida keksalikni uchta tomondan: yosh davrlar psixologiyasi, psixogerontologiya va tibbiyot psixologiyasi yo‘nalishlarida o‘rganish zarur ma’lumotlar to‘plash imkoniyatini bermoqda.

Sog‘lom qariyalarda donishmandlik umrning oxirgi nafasiga qadar saqlanishi tajribalarda qayd qilindi. Psixopatologik holatlar barcha qariyalar uchun majburiy bosqich emasligi ham tasdiqlangan.

Keksalik davrida, umuman, ayollar bilan erkaklar o‘rtasidagi donishmandlikda farq mavjud bo‘lsa ham, lekin qariyalar orasidagi donishmandlik, donolik xislatlari har ikkala jinsga xosdir. Shuning uchun ikkala jins o‘rtasida biologik qarishda tafovut mavjud bo‘lsa-da, lekin ruhiy jihatdan zaiflashuv jarayonida o‘zaro yaqinlik hukm suradi.

Psixogerontologiyada yuksak ijodiy faoliyatning o‘ziga xos ko‘rinishlarini tadqiq qilish rassomlar, yozuvchilar va bastakorlarning ijodini, huquqshunoslarning qobiliyati va mahoratini hisobchilarning kasbiy malakalarini o‘rganish yo‘nalishlarida amalga oshirilgan.



G.Leman o‘z tadqiqotlarida turli sohalaridagi mutaxassislar faoliyatini tahlil qilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini atroflicha ifodalagan. Masalan, fransuz rassomi Klod Mone 50 yoshdan 86 yoshigacha ijodiy quvvatini sira bo‘shashtirmay, sermahsul mehnat qilgan. Uning ijodida hech qanday tushkunlik ro‘y bermagan. Ijodiy mahsuldorlik evolsiyasi Titsian, L.Kronax, O.Tian, Mikelanujelez kabi o‘nlab ijodkorlarga xosdir.

G.Leman o‘z tadqiqotlarida ijodiy faollikning o‘ziga xos ko‘rinishlarini yozuvchi misolida o‘rgangan. Muallif hind yozuvchisi R.Tagorning ijodiyotini tahlil qilib, uning ijod cho‘qqisi 69 yoshda bo‘lganini aniqlagan (yozuvchilar ijodiyot cho‘qqisi 34 yoshda, 43 yoshda ham uchraydi). Uning izlanishlarida R.Tagorning 25 yoshida yozgan “Kelin” she‘ri bilan 78 yoshda yozgan “Sarob” asari o‘rtasidagi o‘xshashlik va ustunlik chuqur ifodalangan.

G.Leman bastakor I.S.Bax (1685–1750) ijodiyotini tekshirib, uning durdona asarlari keksalikda yaratilganini aniqlagan. G.Leman o‘z tajribalarida huquqshunoslik, hisobchilik kasblaridagi shaxslarni o‘rganib, ular ijodiyotining muhim jihatlarini ochib bergan.

A.R.Luriya xotiraning o‘ziga xos xususiyatini jurnalist misolida o‘rganib, keksa kishilar psixikasi bo‘yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar to‘plagan.

Keksalik yoshidagi chol va kampirlarda o‘z shaxsiyatiga yangicha munosabatlar paydo bo‘ladi. Ko‘pincha ular o‘zlarini kamroq bezovta qilishga, jismoniy kuch-quvvatni ayashga, ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga odatlanadilar, organizmlarining toliqishiga yo‘l qo‘ymaydilar, iloji boricha nutq faoliyatiga kamroq murojaat qiladilar, ortiqcha axborotlarni qabul qilmaydilar. Shuning uchun keksayganda “jon shirin bo‘lib qoladi”, deyiladi.

Keksalikda er-xotin o‘rtasidagi munosabat yanada mustahkamlanadi, yangi shakl va yangi sifat kasb etadi. Muloqot chog‘ida ular barcha taassurotlar, ma’lumotlar, kechinmalar, his-



tuyg‘ular yuzasidan fikr almashadilar. Bir-birlarini qo‘msash, hamdardlik kabi yuksak tuyg‘ular totuvlikni yanada mustahkamlaydi.

Keksalik davrining yana bir xususiyati boshqa kishilarga, begonalarga ham xayrixohlik bildirishdir. Ana shu yuksak insonparvarlik hissi tufayli ular yer yuzidagi jamiki inson zotiga yaxshilik tilaydilar. Bu so‘nggi yuksak tuyg‘u baynalmilalchilikning tabiiy ko‘rinishidir. Qariyalardagi rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylik singari tuyg‘ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagi odamlar tuyg‘usiga aslo o‘xshamaydi. Shuning uchun “qari bilganni – pari bilmas”, – degan naql bor.

Nazorat savollari:

1. *Gerontopsixologiya nimani o‘rganadi?*
2. *Keksalik haqida qanday nazariyalarni bilasiz?*
3. *Keksalik davrida shaxsiy inqiroz nimalarda namoyon bo‘ladi?*
4. *Keksalik davrida yetakchi faoliyat.*
5. *Keksalikning qanday tiplarini bilasiz?*
6. *Keksalik davrida bilish jarayonlaridagi o‘zgarishlar.*



15-MAVZU: JAHON ILM-FANIDA PSIXOGERONTOLOGIYA MASALALARI

Reja:

1. *Yirik jahon psixologlari.*
2. *Psixogerontologiya fanining asoschilari.*
3. *S.Pako va uning izdoshlari.*

Yirik jahon psixologlari S.Pako, G.Offre, L.Bine, U.Maynot, E.Medavir, A.Komfort, I.V.Davidovskiy, B.G.Ananov, N.V.Nagorniy, Y.D.Aleksandrova va boshqalar uzoq umr ko‘rish sirlarini ekologik omillar orqali tushuntirishga harakat qiladilar. Aksariyat olimlarning fikricha, ekologik omillar insonning yashash sharoitiga, kamol topishiga, bevosita yoki bilvosita ta‘sir qiladigan omillardir. Insonning ijtimoiy muhiti sharoitlari ichiga kasb mehnati, turmush tarzi, madaniyati va ma‘naviyati kabilar kiradi.

Jahon fani to‘plagan ma‘lumotlarga ko‘ra, ochiq havoda ortiqcha zo‘riqishsiz jismoniy mehnat bilan shug‘ullangan odamlarda harakatning tezligi, qad-qomatning tikligi, ma‘naviy tetiklik, ruhiy faollik uzoqroq saqlanadi. Mana shu holat jismoniy tarbiya bilan doimiy shug‘ullanuvchi kishilarda ham bo‘ladi.

“Umrni uzaytirish muammolari” nomli (1952) kitobda dog‘istonliklarda uzoq umr ko‘rishning asosiy sabablari quyidagilar ekani ta‘kidlagan:

1) Mamlakatning tog‘li qismidagi iqlim sharoiti va jo‘g‘rofiy omillar;



2) sutkasiga 3–4 marta iste'mol qilinadigan go'shtli, o'simlik moyli va sutli oziq-ovqatlar, chekishning, ichish va ortiqcha jinsiy aloqaning ta'qiqlangani;

3) avloddan–avlodga asrlar davomida o'tib kelayotgan madaniy an'analar, o'ziga xos turmush tarzi va uning xususiyatlari;

4) gigiyenaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilinishi va butun umr bo'yi jismoniy mehnat bilan shug'ullanish;

5) bir maromda ham passiv, ham aktiv hordiq chiqarish;

6) aholi turmush darajasining moddiy–maishiy jihatdan yaxshilanishi va hokazolar.

S.Pako va uning izdoshlari ta'kidlaganidek, keksayish jarayonida ayrim psixofiziologik va psixologik jarayonlarning barqarorlashuvi inson umrining uzayishiga, unda ijodiy faollik uzluksiz davom etishiga yordam beradi, aqliy mehnat bilan doimo shug'ullanuvchi keksa odamlarda mantiqiy xotira saqlanadi. Shu bilan birga iqtidorli va aqlni peshlash mashqlari bilan shug'ullangan kishilarda ham intellektning yuksak darajasi saqlanib, boshqa bilish funksiyalarining faoliyati bir tekis harakatni vujudga keltiradi.

Uzoq umr ko'rishning, umr uzayishining muhim omillaridan yana bittasi kasb-korlik faoliyatiga bog'liq psixik holatning barqarorlashuvidir. Ana shu holatga insonning ko'rish idrokida fazoni farqlash (fazoviy tasavvur) qobiliyati kiradi. Fransuz gerontologi va oftalmologi G.Offre "Gerontologiya asoslari" (1960) kitobidan joy olgan "Ko'zning keksalarga xos o'zgarishi" asarida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar keltiradi. Uning fikricha, keksalikda presbioniya (grekcha, qarilikda ko'rishning zaiflashuvi) hodisasi ro'y berib, yaqinni ko'rish yomonlashadi. G.Offrening fikricha, 10 yoshdan ko'rish akkomodatsiyasining kuchi pasayishi, agarda 10 yoshda akkomodatsiya kuchi 16 dioptriyaga (grekcha optik o'lchov) teng bo'lsa, 40–45 yoshda – 4, keyinchalik esa 1 dioptriyaga tushib ketishi mumkin. 50–60 yoshlarda akkomodatsiya o'zining eng quyi darajasiga tushadi, biroq shundan keyingi yosh davrlarda



barqarorlashib boradi. Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlariga qaraganda, akkomodatsiyaning kuchi shunchalik kamayib boradiki, yaqinni faqat ko'zoynak bilan ko'riladigan bo'ladi.

Ba'zi manbalarda mayda narsalar bilan shug'ullanmaydigan, ko'zi uzoqni ko'rishga o'rgangan odamda akkomodatsiya yuksak darajada saqlanishi, ko'z xiralashuvi juda sekin, goho butunlay ro'y bermasligi mumkin.

M.Ya.Lojechnikova va L.N.Kuleshovaning aniqlashicha, haydovchilar, temiryo'lichilar, ovchilarning ko'rish sezgirligi yoshligida 1 yoki 1,5 birlikka teng bo'lsa, uzoq yillardan keyin ham o'zgarishsizligi mumkin.

I.V.Davidovskiy va B.G.Ananevlar ta'kidlaganidek, qarish va uzoq umr ko'rish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Binobarin, umrni uzaytirishning juda ko'p omillari bor. Yuqorida uzoq umr ko'rishning ekologik omillari ifodalandi, lekin uning psixologik, ijtimoiy–psixologik omillari, manbalari va mexanizmlari ham mavjuddir. Umuman aytganda, insonning umrini uzaytirish uchun shaxslararo yaxshi munosabat, shirin muomala, samimiy muloqot, oilaviy totuvlik, asab sistemasini asrash, barqaror his–tuyg'u, hamdardlik, psixik faollik, irodaviy tetiklik bo'lishi zarur.

Nazorat savollari:

1. *Gerontopsixologiya nimani o'rganadi?*
2. *Keksalik haqida qanday nazariyalarni bilasiz?*
3. *Keksalik davrida shaxsiy inqiroz nimalarda namoyon bo'ladi?*
4. *Keksalik davridagi yetakchi faoliyat.*
5. *Keksalikning qanday tiplarini bilasiz?*
6. *Keksalik davrida bilish jarayonlaridagi o'zgarishlar.*



GLOSSARIY

Adaptatsiya (lot. adaptaro – moslashmoq) sezgi a’zolari (analizatorlar) ning ta’sirot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o’zgarishi adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchlita’sirdan kuchsiz ta’sirga o’tganda sezgirlik asta–sekin ortib boradi, ta’sir kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. Adaptatsiya qonuniyati, organik sezgilardan boshqa, barcha sezgilar sohasiga xosdir. U fiziologik, ijtimoiy – psixologik va kasbiy moslashishga bo‘linadi.

Anesteziya (yunon anaesthesia–sezgisizlik, sezmaslik) – nerv tizimining kasallanishi oqibatida sezgirlikning yo‘qolishi.

Asteniya (yunon. asthenea–holsizlik) kuchli toliqish, sezgirlikning susayishi, kayfiyatning beqarorligi, uyquning buzilishi bilan ifodalanuvchi ruhan sustlik, ojizlik holati. Unga uzoq muddat spirtli ichimlik ichish natijasida hosil bo‘ladigan ruhiy sustlik misol bo‘ladi.

Attraksiya – (fran.attraktion – qiziqmoq, intilmoq) – kishini boshqa kishi tomonidan qanday qabul qilinishini belgilovchi tushuncha, ya’ni bir kishini ko‘rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

Audometr – (lot.audire–eshitmoq, yunon. metrio–o‘lchayman) eshitish sezgisining kuchini aniqlaydigan asbob.

Agglyutinatsiya (lot.agglutinare – yopishtirmoq) bir necha narsalarning ayrim har xil qismlarini olib birlashtirilib, yangi narsa va hodisalarning obrazlariga yaratilgan iborat xayol faoliyati. Mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir–biriga “yopishtirib” qo‘shish asosida yuzaga keladi. Mas. suv parisi obrazi.



Antipatiya (yunon. antipotheia–ko‘ngilsizlik, xushlamaslik, yoqirtmaslik) –biror narsaga yoki kimsaga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabatdan kelibchiqadigan va uni ifodalaydigan yoqimsiz hissiyot.

Apatiya– charchash, og‘ir his–tuyg‘u yoki kasallik oqibatida qiziqishning so‘nishi, atrofdagilarga nisbatan befarq bo‘lish, ma‘yuslik kabi ruhiy holatlar.

Affekt– (lot. affektus–ruhiy hayajon, ehtiros)–kuchli, tez va jo‘shqin kechuvchi, nisbatan qisqa muddatli, his–hayajonli, ifodaviy nazoratyo‘qotilgan ruhiy holat.

Afaziya – (yunon. yuk. phasia–nutq)– eshitish a‘zolarining sog‘lom bo‘lganiholda nutq faoliyatining buzilishi. Bosh miya katta yarim sharlaripo‘stlog‘ining shikastlanishi natijasida paydo bo‘ladi.

Bevosita esga tushirish – narsa va hodisalar, fikrlar, harakatlarni idrok qilgandan keyinroq, oradan vaqt o‘tkazmay, esga tushirishdan iborat xotira prsessi.

Gallyutsinatsiya – (lot.hallucinatio–alahash, bosinqirash)–sezgi aldanishiyo‘q narsani bor deb idrok etish. Odatda muayyan tashqi ta’sirlarsiz vujudga keladi. Asosan ko‘rish, eshitish gallyutsinatsiyalari mavjud. U psixik kasallarda uchraydi. Real voqelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta’sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliyravishda paydo bo‘lishi.

Deduksiya – (lot.deductio–keltirib chiqarmoq) bilish jarayonida umumiy hukmlardan xususiy hukmlarga o‘tish orqali mantiqiy xulosa chiqaruvchi tafakkur turi.

Diqqat – individning hissiy, aqliy va harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo‘naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligi. Diqqat ongning bir nuqtaga to‘planib, muayyanbir obyektga faol qaratilishidir. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatlar mavjud.

Diqqatning barqarorligi – diqqatni uzoq vaqt bir obyektga muttasil, kuchliqarata olishdan iborat ijobiy xususiyati.



Diqqatning ko‘lami – bir vaqtning o‘zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning to‘planganligi – diqqatning muayyan obyektlar doirasida tez hamda kuchli to‘plana olishdan iborat xususiyati.

Diqqatning taqsimlanishi – bir paytning o‘zida diqqatning bir necha obyektlarga yoki faoliyatga qarata olish imkoniyati.

Diqqatning ko‘chuvchanligi – faoliyat protsessida diqqatning ongli ravishda bir obyektidan ikkinchi obyektga ko‘chirilishi.

Ixtiyoriy diqqat – ongimizning obyektga ixtiyorsiz ravishda yo‘naltirilsa– da, uning ustida ma’lum vaqt barqaror holda, to‘planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi.

Ixtiyorsiz diqqat – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan obyektga yo‘naltirilishi va unda to‘planishidan iborat diqqat turi.

Parishonxotirlik – kishining maqsadga qaratilgan, yo‘naltirilgan faoliyatining funksional yoki organik buzilishi, diqqatni ma’lum obyektga qarata olmaslik.

Zavqlanish – biror–bir mufaqqiyatli ijodiy ishni ko‘rish, eshitish, yoki sezishorqali paydo bo‘ladigan ruhiy holat.

Instinkt (lot.instinctus–ichki mayl, intilish) – organizmning tashqi yoki ichkita’sirotlar natijasida paydo bo‘ladigan murakkab tug‘ma harakatlari majmui, murakkab shartsiz refleks (ovqatlanish, himoyalanih, jinsiy instinkt va b.) Odamda instinkt uning ongi bilan boshqariladi.

Idrok – sezgi a’zolariga to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta’sir etuvchi narsa va hodisalarning kishi ongida yaxlit holda psixik aks ettirishdan iborat psixik jarayon.

Idrok aniqligi – idrok obrazlarini idrok qilinayotgan narsalarga qanchalik muvofiq kelish darajasi.

Idrokning konstantligi – (lot.constantis–o‘zgarmas, doimiy) – idrokqilinayotgan narsalarning o‘lchami, shakli va rangi ungacha



bo‘lgan masofani o‘zgartirganda ham nisbatan turg‘unlik holatining o‘zgarishligi.

Idrokliklik–idrokning to‘liqligi, aniqligi va tezligi kabi ijobiy xususiyatlardan tashkil topgan aql sifati, zehn tezligi.

Idrok tezligi– idrok qilinayotgan narsaning sezgi a‘zolariga ta‘sir qila boshlagan paytdan , to bu narsaning obrazini anglab olgunimizgacha o‘tgan vaqt.

Ilyuziya (lot.illusio–aldash)– borliqning, voqelikning noto‘g‘ri idrok etilishi, idrokning chalg‘ishi. Sezgi a‘zolari takomillashmaganligi natijasidagi qo‘rquv.

Induksiya–(lot. industio– keltirib chiqarish) juz‘iy yoki yakka hollarda umumiyga, ayrim faktlardan umumlashmalarga qarab boradigan induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur formasi.

Iste‘dod– shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo‘ladigan tug‘malayoqatlari yoki boshqacha aytganda shaxsning tabiiy va muayyan ijtimoiy muhit ta‘sirida erishgan noyob xislatlari . Biror sohada yuksak darajadagi qobiliyat.

Iste‘dodli bolalar—o‘zini umumiy yoki maxsus iste‘dodini namoyon qilgan bolalar. Iste‘dodli bolaning aqliy rivojlanishini tashxis qilinib aniqlanadi.

Ixtiyoriy esda olib qolish–maxsus mnemik harakatlar, ya‘ni asosiy maqsadesda olib qolishdan iborat bo‘lgan harakatlar mahsuli.

Ixtiyorsiz xotira– biror narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo‘lmagan holda esda olib qolish va qayta esga tushirish

Iroda – kishining o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishi uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga qaratilgan faoliyati va xulq –atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘zini –o‘zi boshqarishidir.



Istak– intilishning maqsadi aniq bo‘lmagan holat. Bu maqsadga erishuvning yo‘li va vositalarini to‘la anglab yetmaslikdan iborat irodaviy holat.

Ishonchlilik–obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni fikran to‘g‘ri, shak–shubhasiz aks ettirishdan iborat mantiqiy kategoriya.

Ishontirish–shaxsga muayyan ta’sir o‘tkazish; buning natijasida kishi irodasi va ongidan qat’iy nazar, unda muayyan holat, hissiyot, munosabat vujudga keltiriladi.

Individuallik–muayyan shaxsning boshqa shaxslardan ajratib turuvchi, shaxsning o‘ziga xos xislatlari.

Kayfiyat–inson his–tuyg‘usining yaxlit shakli, kechinmalarining umumiy holati. Kayfiyat doirasi har xil; u insonning umumiy kechinmalaridan to zerikish, qo‘rquv, xafalik yoki quvnoqlik, umid va qiziqish kabilargacha bo‘lgan barcha shakllarni o‘z ichiga oladi.

Kinestezik sezgi – (yunon.kineo–harakatga keltirmoq)–proprioretseptorlar qo‘zg‘alishi natijasida o‘z tana a’zolari harakati va holatini sezish.

Ko‘ruv sezgisi – ko‘ruv analizatori bevosita ta’sir etib turgan ranglar va yorug‘likni aks ettirishdan iborat sezgi turi.

Kuzatish– shaxsni qiziqtirgan narsalar va tevarak atrofidagi hodisalarni bilish uchun maqsadli va rejali tarzda idrok etish .

Kuzatish metodi–faoliyat mahsulini tahlil etish, erkin tavsifnomalarni umumlashtirish usuli.

Layokat – individning ma’lum faoliyatning bajarishga undovchi saylanmayo‘nalganligi. Nerv tizimining ba’zi irsiy determinlashgan anatom–fiziologik xususiyati.

Longityud tadqiqot– (ing.longitude–uzoq muddat) insonning yosh va individual o‘zgarishlar ko‘lamini o‘rganish maqsadida yashash davri fazalari o‘zgarimas bo‘lgan guruhni uzoq va uzluksiz tekshirish usuli.

Lyusher testi– ruhiy holatni aniqlovchi rangli test.



Metod (yunon.methodos–tadqiqot,tekshirish)–bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.

Mexanik xotira – (yunon.mechane–qurol,mashina)– muayyan material ma’nosini, mazmunini, ichki mohiyatini, ichki mantiqiy bog‘lanishlariga tushunmagan holda takrorlashga asoslangan xotira turi.

Mehnatsevarlik – insonning mehnat faoliyati jarayoniga ijobiy shaxsiy munosabatidan iborat bo‘lgan xarakter xususiyati.

Melanxoliya (yunon.melas–qora, chole–o‘t,safro)–temperament turlaridanpsixik faollikning sust, tez ta’sirlanuvchilik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta’sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Meloxolik– Gippokrat ta’limotiga ko‘ra, temperamentning bir turi. Yuksak darajadagi ta’sirchanlik va hissiyotning zohiran nisbatan sust ifodalanganligi.

Orzu– shaxsning o‘zi uchun yoqimli bo‘lgan istiqbol obrazlarini ongida yaratishdan iborat xayol turi.

Oltinchi sezgi– odamdagi asosiy besh sezgidan tashqari har xil holatlarda namoyon bo‘ladigan sezgi.

Obrazli xotira –tasavvur, tabiat va hayot manzaralarini, shuningdek, tovush,hid, ta’mlarni esda olib qolishdan iborat bo‘lgan xotira.

Operativ xotira (lot.operatio–harakat)– xotira turi. Kishi tomonidanbevosita amalga oshirilayotgan zaruriy xatti–harakatlar, shulgargaxizmat qiluvchi mnemik jarayonlar.

Proprioretseptiv sezgilar (lot.proprius–xususiy, maxsus, recipere–qabul qilmoq) tana turli qismlari, holatlari va ularning harakatlari haqida darak beruvchi sezgilar.

Proyektiv metod (lot.progektus–oldinga tashlangan, yunon. methodos–tadqiqot)–shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mas. tajriba vaziyatlarida tasvirlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.



Psixodiagnostika (yunon. diagnostikos–bilishga qodir)–shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va ularni o‘lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli

Psixologik test–qisqa muddatli, yozma savolli topshiriq bo‘lib u orqali kishilar qobiliyati, ko‘nikma, bilim va malakalari, kasbga layoqati va shu kabilar aniqlanadi.

Psixologiya metodlari – psixik hodisalar va ularning qonuniyatlarini o‘rganadi. Mas. Kuzatish, tajriba, lab–ya tajriba, tabiiy kuzatuv, o‘z– o‘zini kuzatish, biografiya.

Psixologik tadqiqot usuli – u 4 bosqichga bo‘linadi. 1. Tayyorgarlik bosqichi 2. Tajriba–sinov bosqichi 3. Tadqiqotga ishlov berish 4. Olingan natijalarni izohlash bosqichi.

Psixologik metodikalar–jamoa yoki alohida kishini psixologik o‘rganish maqsadida tuzilgan savollar to‘plami.

Psixologik tahlil – inson psixik faoliyatining psixologik shart–sharoitlari va tarkibini ochib berishdan iborat ilmiy–tekshirish metodlaridan biri.

Psixik jarayonlar –bu faoliyatning hozir ta’sir etadigan (sezgi, idrok) yokiqachonlardir yuz bergan qo‘zg‘atuvchiga javob tariqasida ro‘y beradigan shu ta’sirni umumlashtiradigan, ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur xayol) oldindan ko‘ra bilishga yordam beradigan, bir xil ta’sirotlar natijasida faoliyat (his –tuyg‘u) ni kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib yoki sekinlashtiradigan, odamlar xulq–atvoridagi tafovutlarni aniqlaydigan boshqaruvchilaridir.

Psixik reaksiya– tashqi yoki ichki ta’sirotga javob sifatida paydo bo‘ladiganhar qanday psixik jarayon.

Psixologik test– psixologik standart mashqlar. Bu mashqlarning bajarish natijalariga ko‘ra tekshirilayotgan kishining psixofiziologik va shaxsiyxususiyatlari, shuningdek bilim, malaka va ko‘nikmalari to‘g‘risida xulosa chiqariladi.



Rang sezish– ko‘zning idrok qilinayotgan narsa va hodisalarning rangini ajrata olish qobiliyati.

Refleks (lot.reflexus–aks etish)– organizmning retseptorlar qo‘zg‘alishiga javob reaksiyasi. Vujudga kelgan qo‘zg‘alish markaziy nerv sistemasiga uzatilgach, u ham qo‘zg‘alish bilan javob qaytaradi. Qo‘zg‘alish efferent nervlar orqali turli a‘zolariga uzatiladi.

Refleksiya (in‘ioks, tajalliy) (lot.reflexus–aks ettirish) – subyektning u bilanmuloqotga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetishi.

Retseptor (lot.recipere–qabul qilmoq) –tashqaridan yoki organizm ichki muhitidan taassurotni qabul qilib va uni nerv impulslariga aylantirib, markaziy nerv sistemasiga o‘tkazib beradigan sezuvchi nerv tolalari uchlari yoki maxsus hujayralar (ko‘z to‘r pardasi, ichki quloq va b.)

Raddiya–tafakkurning turli operatsiyalari hamda formalaridan foydalanganholda biror fikrning yolg‘on ekanligini isbotlashdan iborat bo‘lgan mantiqiy operatsiya.

Subyekt – (lot.subgestum–odam, kishi)– obyektiv dunyoni biluvchi, unio‘zining ehtiyoj va qiziqishlariga moslab o‘zgartiradigan ongli mavjudot.

Sotsializatsiya (lot.societas–jamiyat)– o‘zaro munosabatlar tizimi bilan psixologik qovushuvchanlikning aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

Sotsiometriya usuli – o‘zaro munosabatlari va psixologik moslashuvini aniqlash, guruh, jamoani shaxslararo munosabatlarini psixologik tekshirish va tahlil qilish usuli. (A.Moreno).

Statistik metod – (lot. status–holat, yunon.methodos–tadqiqot,)– o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

Suhbat– psixologiyaning og‘zaki muloqot qilish yo‘li bilan to‘g‘ridan–to‘g‘ri yoki bevosita ma‘lumot olish jarayonidir. S.



yordamida shaxsning qiziqishlarini, dunyoqarashini, e'tiqodini, nutqiy xususiyatlarini va boshqa sifatlarini o'rganilishi mumkin.

Sezgilar – obyektiv reallik xossalarining in'ikosi, ana shu xossalarning sezgiorganlariga ta'siri va bosh miya nerv mexanizmlarini qo'zg'atishi natijasida vujudga keladi. Sezgi – dunyoning bilishning boshlang'ich nuqtasi. Sezgi turlari har xil: tuyish, eshitish, silkinish, hid bilish va b. Sezgining sifat xususiyatlari uning modalligi deyiladi.

Sezgi a'zolari – sezuvchi nerv hujayralari va qo'shimcha tuzilmalardan tuzilgan ko'rish, eshitish, gravitatsiya, hid bilish, ta'm bilish a'zolari.

Sezgi chegarasi– minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar– bilinmas ta'sirini sezishning quyi chegarasi, eng yuqori kuchi ta'sirni sezishi (maksimal) yuqori chegarasi deyiladi.

Senzitivlik – (lot.sensus–hissiyot)–sezgilarning turli xil ta'sirotlarnisbatan kuchli va tez qo'zg'alishi

Senzitiv yosh davrlari–bunda ma'lum yosh davri xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi hisoblanadi.

Sensibilizatsiya – (lot.sensibilis–sezuvchan, ta'sirchan)–ichki omillar qo'zg'atgich ta'sirida nerv analizatorlari sezgirligining oshishi.

Sentimentalizm – (fr.sentimentalisme–sezuvchanlik)–sensor sezgirlikdan farq qiluvchi haddan tashqari emotsional sezgirlik, narsa va hodisalarga' ta emotsional munosabatda bo'lishi.

Sensor sezgilar – (lot.sensus–sezgi, his) –sezgi a'zolariga tegishli bo'lgan sezgilar.

Sensor buzilish – sezgi a'zolari faoliyatining buzilishi.

Sensorika – sezgi va idrokning birgalikda umumlashtiruvchi tushuncha.

Stress (ing.stress–zo'riqish) – to'satdan va kuchli taassurot natijasida hosil bo'ladigan ruhiy zo'riqish holati.

Sangvinik – (yunon.sanguis–qon) ruhan kuchli, faol, harakatchan, tez va yorqin qiyofali, hissiyoti o'zgaruvchan, nutqi tez, ba'zan



e'tiborsiz va shoshiluvchan bo'lgan temperament turi. S. inson dilkash va mehribon bo'ladi.

Sangvinik temperament – (lot. sanguis–qon, temperamentum–qismlarning zaruriy nisbati)–shaxsning tez, kuchli lekin beqaror emotsional qo'zg'aluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

Temperament (mijoz) – (lot. temperamentum–qorishma, aralashma)– individning psixik faoliyati (sur'ati, ritmi, psixik jarayon va holatlar jadalligi)dagi dinamik xususiyatlar jihatidan uning tavsifi. Asosiy komponentlari individning umumiy harakatchanligi, motorikasi (harakatlar ko'rinishi) va emotsionalligi.

Taktil sezgilar–teri sezgilarining biror narsaning badanga tekkanini, bosilganini, tebranishini aks ettirishdan iborat turi.

Ta'm–sezgi turi.(shirin, achchiq, chuchuk, tuzli). Analizatorlar til o'zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po'stloq qismidagi T. markazidir.

Tabiiy eksperiment (lot. experimenum–sinov, tajriba)– o'yin, mehnat va o'quv faoliyatini tekshiriluvchiga sezdirmasdan psixologik o'rganish usuli.

Tahlil–tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'lib o'rganiladi

Test (ing. test–tekshirmoq)– psixologik standart sinov. Bu sinov natijalariga ko'ra sinalayotgan shaxsning to'liq yoki ayrim psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, bilim, malaka, ko'nikmalari to'g'risida xulosa chiqariladi.

Tasavvur– oldin shakllangan manzaralar asosida tuzilgan obrazlarning psixik akslanish shakli. Tasavvur faqat insonga xos. T. sezgi va idrok bilan uzviy bog'liq, lekin, ulardan farq qilib, ancha umumlashgan xarakterga egadir.

Talant–(yunon. talanton–qimmatbaho, qimmat narsa) qobiliyatlar, ayniqsa maxsus qobiliyatlar rivojlanishining yuqori darajasi. Talantli



kishi ishga ijodiy yondashadi. Muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijobiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat, t. li kishilar, odatda, yuksak ijodiy, keng mazmunli, tanqidiy va mahsuldor aql egalari bo'ladilar.

Tafakkur–inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsalarni ongli ravishda aks etish mumkin. Fikr yuritish, o'ylash, jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayon. Shuningdek, uning tahlili va sintezida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosidahissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Intuitiv, ko'rgazmali–obrazli, amaliy, so'zli– mantiqiy, ijodiy, nazariy tafakkur turlari mavjud.

Tafakkur– inson aqliy faoliyatining yuksak bosqichi. Sezgi, idrok, va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar T. daongli ravishda aks etadi.

Tush (odam uxlaganida)–bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'ladigan xayolning ixtiyorsiz faoliyati, ong bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqa ma'lum darajada uziladi.

Unutish–oldin xotirada bo'lganni qayta tiklanmaslik, ya'ni esga qoldirgan narsa va hodisalarning zarur paytda aytib bera olmaslik jarayoni.

Fenomenal xotira–idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanishimunosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esgatushirishdan iborat nodir xotira qobiliyati.

Fazoni idrok qilish– voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o'rnini, shaklini, miqdorini uch o'lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlik) bevosita aks ettirish.

Flegmatik (yunon. flegma – balg'am, shilimshiq modda)–yuragi keng, barqaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-



tuyg‘ularga, xatti–harakatlari va nutqi bir xil maromda bo‘lgan, ruhiy holati tashqitomonda ifoda etiluvchi temperament turi.

Flegmatik temperament– sekin, kuchsiz, va beqaror emotsional qo‘zg‘aluvchanlik bilan xarakterlanadigan xususiyat.

Xotira–o‘tmish tajribalarini esga tushirish qobiliyati, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlab ong va xatti –harakatlar sohasiga ko‘p martalab joriy eta olishdan iborat nerv tizimining xususiyatlaridan biri. U esda qolish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlariga ajratiladi. U ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira, bevosita va bivosita xotira, qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralarga ajratiladi. X. ning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig‘ida muvaqqat nerv bog‘lanishlarining hosil bo‘lishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvidir.

Xarakter(yunon.charakter–nishon, xislat belgi)–kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. Odamning xatti–harakatlari va atrof– muhitga munosabatida namoyon bo‘ladigan shaxsiy psixik xususiyatlari yig‘indisi. Xarakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar xarakter xislatlari deyiladi.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. karakter–xususiyat, nishon, belgi, akcentus–urg‘u)– xarakterning alohida xususiyatlariga ortiqcha urg‘u berilishi.

Xarakterning ma’naviy sifatlari – odamoshavandalik, samimiylik, rostgo‘ylik, gumanizm, mehribonlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, o‘z qadr qimmatini bilishlik kabilardan iboratdir.

Xarakter xislatlari – ijtimoiy muhit ta’sirida tarkib topgan, shaxsning xatti– harakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlari yig‘indisi.

Xolerik (yunon.chole–safro, sariq o‘t) – temperament turi, u hissiyotning jo‘shqinligini, kayfiyatning birdaniga tez o‘zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.



Xudbinlik– kishining faqat o‘z manfaatini ko‘zlovchi salbiy xarakter xislati, boshqalar manfaati bilan hisoblashmaslik.

Xayol– mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixikaks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol vatasavvur xayol turlariga ajraladi.

Xayolparast (yunon.phantasia–tasavvur, xayol)– kishining voqea, dalillarini asta–sekin buzib, ularni o‘z xohishiga qarab fikri –xayoliga moslab tasvirlab berishi.

Eksperiment metodi – yangi psixologik bilimga ega bo‘lish uchun obyektiv tarzda ilmiy bilishning asosiy vositasi. U laboratoriya va tabiiy E. metodlarga bo‘linadi.

Empirik metod (yunon.emperia–tajriba, methodos–tadqiqot) tekshiriluvchi haqidagi ma‘lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

Eksteroretseptiv sezgilar – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi, tana sirtida joylashgan retseptorlar, sezgilar. Mas: ko‘rish, eshitish, hid va ta‘m bilishdan iborattashqi sezgilar.

Esga olib qolish– yangi qabul qilingan ma‘lumotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bog‘langan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

Esga tushirish – o‘tmishda idrok qilinganlarni (narsa, his–tuyg‘u, fikr, ish, xatti–harakat) ongimizda qayta tiklashdir. Xotira jarayonlaridan biri.

Eshitish xotirasi– tovush qo‘zg‘ovchilarini sezish, idrok qilish natijasida hosil bo‘lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

Emotsiya (lot.emovere– uyg‘otish, to‘lqinlashtirish) – his tuyg‘u, kechinma, hayajon (g‘azab, qo‘rquv, quvonch). Odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo‘zg‘ovchilar ta‘siriga javob reaksiyasi.



Emotsionallik – kishining his–tuyg‘u va emotsiya dinamikasi, mazmunini xarakterlovchi sifatleri.

Eshitish sezgisi – tovush tebranishlarini eshitish a‘zolari yordamida sezish turi. Eshituv analizatorlariga bevosita ta‘sir etayotgan shovqinli hamdamusiqali tovush to‘lqinlarining alohida belgi va sifatlarini aksettirishdan iborat sezgi turi.

Egoizm (lot.ego–men) – xudbinlik bo‘lib, shaxsning o‘z qiziqishlari vaehtiyojlarini boshqa shaxs bilan qiziqmay, uning ehtiyoj va qiziqishlaridan ustun qo‘yish.

Qobiliyatlar – u yoki bu unumli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma vamalakalarini egallay olishni ta‘minlaydigan shaxsning individual –psixologik xususiyatlari.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adler A. Praktika i teoriya individualnoy psixologii. – M.: 1995.
2. Alperovich V. Sotsialnaya gerontologiya. Rostov N/D, Feniks, 1997. – 576 s.
3. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – M.: Aspekt-Press, 2003.
4. Gaziyeu E.G. Psixologiya visshey shkoli. Tashkent, Universitet, 2006. – 132 s.
5. Gaziyeu E.G. Samoupravleniye uchebnoy deyatelnostyu obuchayushixsya. Tashkent, Universitet, 2008. – 132 s.
6. Djakupov S.M. Psixologicheskaya struktura protsessa obucheniya. Almati, 2004. – 312 s.
7. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.:1999.
8. Kondrateva S.V. Pedagogicheskaya i vozrastnaya psixologiya. – Grodno, 1996.
9. Maslou A. Motivatsiya i lichnost. SPb, 1999.
10. Petrovskiy V.A. Lichnost v psixologii. Rostov N/D, 1996. – 512 s.
11. Rean A.A., Kolominskiy Ya.L. Sotsialnaya pedagogicheskaya psixologiya. SPb, 1999.
12. Rean A.A. Psixologiya lichnosti. – M.: AST; SPb.: Praym-Yevroznak, 2007.
13. Rogov Y.I. Emotsii i volya. – M.: Vlados, 2001.
14. Rudenskiy Y.V. Sotsialnaya psixologiya. – Moskva – Novosibirsk, 1998. – 224 s.



15. Ribalko Y.V. Vozrastnaya i differensialnaya psixologiya. – L.: 1990.
16. Slobodchikov V.I., Isayev Y.I. Psixologiya cheloveka. – M.: 1995.
17. Stolyarenko L.D., Samigin S.I. Sotsialnaya psixologiya. Rostov N/D, 2009. – 251 s.
18. Feldshteyn D.I. Psixologiya stanovleniya lichnosti. – M., 1994.
19. Xoll K., Lindsey G. Teorii lichnosti. – M., 1999.
20. Xel L., Zigler. Teorii lichnosti. SPb, 1997.
21. Erikson E. Identichnost: yunost i krizis. – M.: 1996.
22. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994. – 224 b.
23. G‘oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1997. – 80 b.
24. G‘oziyev E. Faoliyat va xulq–atvor motivatsiyasi. Toshkent, Universitet, 2003. – 124 b.
25. G‘oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2006. – 164 b.
26. G‘oziyev E. Psixologiya tarixi sahifalari. Toshkent, “Fan”, 2006. – 74 b.
27. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010. – 544 b.

Internet saytlari

28. www.tdpu.uz
29. www.psixologiya.uz
30. www.pedagog.uz
31. www.Ziyonet.uz
32. www.edu.uz
33. www.psychology.uz



MUNDARIJA

Kirish.....	3
<i>1-mavzu: Yosh davrlar psixologiyasi fanining vazifalari va ahamiyati.....</i>	<i>5</i>
<i>2-mavzu: Yosh psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari.</i>	<i>13</i>
<i>3-mavzu: Yosh psixologiyasining rivojlanish bosqichlari.</i>	<i>36</i>
<i>4-mavzu: Yosh davrlarni tabaqalash va yosh inqirozlari.</i>	<i>58</i>
<i>5-mavzu: Chaqaloqlik davri psixologiyasi.....</i>	<i>77</i>
<i>6-mavzu: Go‘daklik davri psixologiyasi.....</i>	<i>91</i>
<i>7-mavzu: Ilk bolalik davri psixologiyasi.....</i>	<i>108</i>
<i>8-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi</i>	<i>120</i>
<i>9-mavzu: Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi</i>	<i>147</i>
<i>10-mavzu: O‘smirlik davri psixologiyasi.....</i>	<i>193</i>
<i>11-mavzu: O‘spirinlik davri psixologiyasi (15-16 yoshdan 20 yoshgacha)</i>	<i>238</i>
<i>12-mavzu: Yoshlik davri psixologiyasi</i>	<i>288</i>
<i>13-mavzu: Yetuklik davri psixologiyasi.....</i>	<i>297</i>
<i>14-mavzu: Psixogerontologiya – keksalik psixologiyasi.....</i>	<i>301</i>
<i>15-mavzu: Jahon ilm-fanida psixogerontologiya masalalari</i>	<i>315</i>
Glossariy	318
Foydalanilgan adabiyotlar.....	332

M.F.Dadaxodjayeva, K. Murotmusayev, F.Abdullayeva

YOSH PSIXOLOGIYASI

DARSLIK

“Pages print” nashriyoti
Toshkent – 2024

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **O‘. Namozova**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



Nashriyot ro'yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.
Bosishga ruxsat etildi: 15.05.2024.
“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 11,1.
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Chimboy ko‘chasi, 8-uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko‘chasi, 8-uy.